ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026 / № 3.1–3

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 20.06.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Y o'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 20.06.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998990 377 77 23, +99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (. PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 20.06.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

LUTFULLAYEVA DURDONA
Lisoniy assotsiatsiyalarda milliy tafakkurning voqelanishi
(Vatan assotsiativ maydoni misolida) 7

MIRZAYEV IBODULLA
Xomskiyning “Til va ong” asari, generativ tilshunoslik konsepsiyasi
va professor Baxtiyor Mengliyevning tarjimonlik mahorati....10

ҚУРОНОВ ДИЛМУРОД
Бадиий диалог таржимасида коммуникатив вазиятни тўғри англаш зарурати
(Чўлпоннинг «Кеча ва кундуз» романининг янги русча нашри мисолида) 16

ЧЎТМАТОВ ЖЎРАБЕК ОМОНОВИЧ
«Ҳикмат» сўзининг араб лексикографик манбалари асосидаги лексик-семантик таҳлили.... 19

ЧОРИЕВ ТАВАККАЛ РАВШАНОВИЧ
Абдураҳмон Жомий ва Алишер Навоий идиостилида
«Саг//ит» концептининг лингвопоэтик хусусиятлари....25

UMURQULOV ZAFAR BEKPO‘LATOVICH
Alisher Navoiy ijodida so‘z qadri va nutq odobi talqini....34

UBAYDULLAYEV ALISHER ABDUSALOMOVICH
Ogahiy tarjimasidagi asarlar leksikasining tarixiy-etimologik tahlili
(“Axloqu-l-Muhsiniyn” asari misolida) 37

IBRAGIMOV SHEXROZBEK TO‘LQINJON O‘G‘LI
Tashbih va epitetlarning pragmatik talqini: tarjimada ekspressivlik va
stilistik ekvivalentlik....41

IBRAGIMOV JASURBEK TULKINJON O‘G‘LI
Jangovorlik, jasorat va jismoniy kuchga oid epitetlar
(“Beowulf” ingliz eposi misolida)....47

NAZAROVA ZIYODA KATTAYEVNA
Frazeologizmlarning yondosh birliklar bilan o‘zaro aloqasi 51

QOBILOV MIRZIYO ESHNOZAR O‘G‘LI
O‘z qatlamga oid antroponimlar tasnifi 55

ISRAILOVA SAODAT TURAPOVNA
Rang komponentli birliklarning mental birliklarda aksi....58

RO‘ZIMATOVA DILNOZA
Rasmiy munosabatlarda murojaat birliklarining shaxs ijtimoiy maqomining ifodalanishi....62

XUSANOVA NAFISA ZOKIRJON QIZI
Ertak janrida dialogning strukturaviy va funksional poetikasi
(Ingliz va o‘zbek xalq ertaklari misolida)....65

XABIBULLAYEVA FAZILAT XABIBULLO QIZI
“Boburnoma”dagi saroy-ma’muriy xizmat unvonlarining inglizcha tarjimalarda berilishi 69

MUSTAFAYEV ELYOR ODIL UGLI
Theoretical foundations for the classification of phraseological units in english 73

МУНДАРИЖА

TURSUNOVA DILSHODA XOLDIN QIZI
“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da qurol-aslaha nomi bilan bog‘liq folklorizmlar 77

YAVKOCHEVA FERUZA HUSAN QIZI
Types of english speech-language pathology dictionaries according to semantic relations 81

SHUKUROV RAHMATILLO MIRZATILLAYEVICH
Farg‘ona viloyati tarixiy oykonim, gidronim va oronimlarining leksik-semantik tasnifi hamda sotsiolingvistik tahlili 86

XALIQULOVA MUSHARRAF EGAMNAZAR QIZI
Maqol lingvistik, kognitiv va madaniy fenomen sifatida 90

O‘RAZOV ALISHER DONIYOROVICH
O‘zbek tilida substantiv leksemalar semantik shajarasining ifodalanishida pragmatik omillar 93

DJURAYEVA MAXBUBA USMANOVNA
Emotsiya, konsept va emotsional konsept tushunchalarining lingvistik talqini 96

ADABIYOTSHUNOSLIK

ABDULLAEV RAMAZON
Муиззий ва Ҳофиз шеъриятида адабий таъсир ва ижодий ворислик. 99

ARSLONOV ABDIMUROD KAROMATOVICH
“Qisasi Rabg‘uziy” asari poetikasi va badiiy-estetik xususiyatlari xususida.....104

АЛИМАРДОН ҲАЙИТОВ
Али Қушчининг ўғли ҳам олим бўлган.....108

DR. DONIYOR K. KELDIYOROV
Wounded memory and hybrid identity in Khaled Hosseini’s the kite runner.....112

IBRAGIMOV JAVOHIR TO‘LQINJON O‘G‘LI
Harold Lambning “Tamerlane: the earth shaker” romanida amir temur xarakterining badiiy ifodasi 116

RAXIMOVA UMIDA SOLIYEVNA
Ona obrazining ramziy va mifopoetik talqini: inglizzabon va o‘zbek adabiyoti misolida 121

MNAJATDINOVA MAKARYA
Hozirgi qoraqalpoq xotin-qizlar lirikasida psixologik metamorfoza 126

JIENBAEV MUSA AZATBAEVICH
XX-XXI asr lirikasida Odissey obrazining transformatsiyasi.....130

RADJABOVA MUXTASAR DAVRANBEKOVNA
Arab tilida talabalarning yozuv malakasini rivojlantirishda o‘yin texnologiyalarining tatbiqi.....134

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 9
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

LISONIY ASSOTSIATSIYALARDA MILLIY TAFAKKURNING VOQELANISHI
(VATAN ASSOTSIATIV MAYDONI MISOLIDA)

Lutfullayeva Durdona,
filologiya fanlari doktori, professor

Dunyo tilshunosligida o'tgan asrning so'nggi choragidan boshlab til birliklarining assotsiativlik xususiyatini ochib berishga, tildagi assotsiatsiyalarning inson bilimlari, tasavvurlari, shaxsiga xos belgilar (kasbi, jinsi, yoshi, ijtimoiy mavqeyi, jamiyatda bajaradigan rollari, dini, dunyoqarashi, ruhiyati kabilar) bilan bog'liq holda hosil bo'lishi, buning sabablari va qonuniyatlarini tadqiq etishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunga kelib ushbu yo'nalishda, ayniqsa, assotsiativ leksikologiya, grammatika[1], assotsiativ lug'atshunoslik[2] keng rivojlandi.

Ma'lumki, lisoniy assotsiatsiyalar kishilarning tashqi olam haqidagi bilim va tasavvurlarini tilda aks ettiruvchi birliklardir. Shu jihatdan ularning tadqiqi insonning voqelikni qanday idrok etishi, u haqidagi bilim va tasavvurlarini aniqlashga, shu bilan birga, assotsiatsiyalarning tilda voqelanishi qonuniyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Til birliklarining assotsiativ aloqaga kirishuvida inson omili muhim rol o'ynaydi. Insonda narsa-predmetlar, voqea-hodisalarga nisbatan hosil bo'ladigan assotsiatsiyalarga ularning millati, yoshi, jinsi, ijtimoiy mavqeyi, kasbi, dunyoqarashi, qiziqishlari, ruhiyati, madaniyati kabilar bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, tashqi olamning har bir inson tomonidan turlicha idrok etilishi, til bilimi, leksik zaxirasi, tasavvurlarining kengligi kabilar ham unda hosil bo'ladigan assotsiatsiyalar xarakterini belgilashi mumkin. Kishilarda yuzaga keladigan bunday assotsiatsiyalar nafaqat turli til egalarida, balki bir millat vakillarida ham bir-biridan farq qiladi. Ushbu holat lisoniy assotsiatsiyalarni etnik omillar bilan bog'liq holda ham tadqiq etish lozimligini ko'rsatadi.

So'nggi yillarda dunyo tilshunosligida tildagi assotsiatsiyalarning leksik-semantik, struktur, derivatsion, uslubiy belgilari qatorida etnomadaniy, sotsiolingvistik, genderologik xususiyatlarini o'rganishga qiziqish tobora ortib bormoqda. Xususan, o'zbek tilshunosligida tildagi leksik birliklarning assotsiativ bog'lanishi, ularni hosil qiluvchi omillar, assotsiatsiyalarning lisoniy xususiyatlari, badiiy matnni hosil qilishdagi o'rni kabi masalalar bo'yicha muayyan

[1] Kent G.H., Rosanoff A.J. A Study of Association in Insanity // American Journal of Insanity. – 1910. – V. 67. – № 1-2. – P. 317-390; Deese J. The structure of associations in language and thought. – Baltimore, MD: Johns Hopkins Press. 1965. – 216 p.; Nielsen M.L. The word association test in the methodology of thesaures construction. In proceeding of the 8th ASIS SIG/CR Classification Research Workshop. Washington, DC: American Society for Information Science, 1997. – P. 43-58; Louise F.Spiteri. Word association testing and thesaurus construction: Defining inter-term relationships. School of Library and Information Studies, Dalhousie University Halifax, Nova Scotia. CAIS/ACSI. 2002. – P. 24-33; Gerganov E., Kyuchukov H. Word associations in Romani: some prototypes in cross-cultural perspectives // Psychology of Language and Communication 2005. Vol. 9. –№2. – P. 53-58. Караулов Ю.Н. Ассоциативная грамматика русского языка. Изд.2. – М., URSS. 2010. – 328 с. ; Горошко Е.И. К истории метода свободных ассоциаций // www.textology.ru.

[2] Postman L., Keppel G. (eds.). Norms of Word Association. – New York and London: Academic Press, 1970. – 943 p.; Kiss G.R., Armstrong C., Milroy R. The Associative Thesaurus of English. Edinburgh: Univ. of Edinb., MRC Speech and Communication Unit, 1972. – 1539 p.; Титова Л.Н. Киргизско-русский ассоциативный словарь. – Фрунзе: Мектеп, 1975; Български норми на словесни ассоциации (Под общата ред. Е.Герганова). – София: Наука и изкуство, 1984. – 272 с.; Цітова А.І. Асацыятыўны слоўнік беларускай мовы. – Мінск, 1981; Русский ассоциативный словарь / Сост. Ю.Н.Караулов, Ю.А.Сорокин, Е.Ф.Тарасов, Н.В.Уфимцева, Г.А.Черкасова. Т. 1–2. – М., 1994-1998. URL: http:// www.tesaurus.ru/dict/ dict.php; Ульянов Ю.Е. Латышско-русский ассоциативный словарь. – Рига: Зинантне, 1988. – 187 с; Бутенко Н.П. Словник асощативних норм украшською мови. – Льв1в: Вища школа, 1989. – 326 с.; Дмитрюк Н.В. Казахско-русский ассоциативный словарь // РАН. Ин-т языкознания, ун-т "Мирас". – Шымкент; – М., 1998. – 245 с.; Sanchez Puig M., Karaulov Y., Cherkasova G. Normas asociativas del espanol y del ruso. Moscu – Madrid, 2000. – 496 p.; Славянский ассоциативный словарь: русский, белорусский, болгарский, украинский / Н.В.Уфимцева, Г.А. Черкасова, Ю.Н. Караулов, Е.Ф. Тарасов. – М., 2004. – 792 с.; Черкасова Г.А. Русский сопоставительный ассоциативный словарь. – М.: ИЯз РАН, 2008; Дебренн М., Романенко А.А. Французский ассоциативный словарь: В2 т. / Новосиб. гос. ун-т. Новосибирск, 2010. URL:http:// dic-taverf.nsu.ru/dict.4 va boshqalar.

tadqiqot ishlari olib borildi[1]. Ammo lisoniy assotsiatsiyalarning til egalarining mentaliteti, milliy tafakkur tarzi, milliy-madaniy qarashlari, ruhiyati, kasb-kori, jinsi, ijtimoiy maqomi kabi belgilari bilan bog‘liq holda yuzaga chiqadigan xususiyatlarini ochib berish dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Ushbu maqolada o‘zbek talaba yoshlarining *vatan* turtki so‘ziga bergan assotsiativ javob reaksiyalari asosida ayni shu masala yoritildi.

Tanlangan mavzu mohiyatini ochib berish maqsadida 18-27 yoshdagi filologiya yo‘nalishida tahsil olayotgan Qo‘qon davlat universiteti talabalari (jami 100ta) assotsiativ tajribaga jalb etildi. Assotsiativ tajribada sinaluvchilar *vatan* turtki so‘ziga nisbatan o‘zlarida hosil bo‘lgan birinchi assotsiativ javob reaksiyasini so‘rovnomaga qayd etishlari so‘raldi.

Tajriba natijalari asosida talaba yoshlarda *vatan* turtki so‘ziga nisbatan hosil bo‘lgan assotsiativ maydon quyidagicha shakllantirildi:

VATAN: tug‘ilgan joy (31), O‘zbekiston (9), erkinlik (9), kindik qoning to‘kilgan joy (9), ona yurt (7), oila (5), yashayotgan joy (4), ona (3), tuproq (3), yurt (2), ona tuproq (2), xonadon (2), sajdagoh (1), muhabbat (1), mehr (1), harbiy (1), mahalla (1), ona makon (1), maskan (1), xalq (1), quvonch (1), tinch (1), mehr to`la zamin (1), musaffo osmon (1), uyim va oilam (1), qishloq (1).

(**jami javob reaksiyalari** 100 ta; **turli javob reaksiyalari** 26 ta; **yakka javob reaksiyalari** 14 ta; **javob berilmagan holat** - 0)

Ko‘rinadiki, talaba yoshlarda *vatan* turtki so‘ziga nisbatan turli mazmundagi javob reaksiyalari yuzaga kelgan: javob reaksiyalari tarkibida turli assotsiatsiyalar soni 26 ta, bu holat o‘zbek tilida *vatan* turtki so‘zi bilan rang-barang birliklar assotsiativ aloqaga kirisha olishini ko‘rsatdi.

Vatan turtki so‘ziga berilgan javob reaksiyalarining har xilligiga sinaluvchilarning o‘z vatani bilan bog‘liq bilimlari, vatani haqidagi tasavvurlari, vataniga bo‘lgan turlicha yondashuvlari, milliy-madaniy qarashlaridagi har xillik kabilar ta’sir ko‘rsatgan bo‘lishi mukin.

Assotsiativ maydondagi yakka xarakterdagi javob reaksiyalari o‘zbek talaba yoshlarining vatan haqidagi shaxsiy tasavvurlarini aks ettiradi. Takrorlangan jamoaviy xarakterdagi javob reaksiyalari esa ayrim sinaluvchilarning vatanga oid tasavvurlari o‘xshashligi, umumiyligini ko‘rsatadi.

Qayd etilgan assotsiativ maydonda talaba yoshlarining *vatan* tushunchasini qanday idrok etishlari, vatanni qanday tasavvur qilishlari, o‘z vatani haqidagi bilimlari, unga bo‘lgan munosabati kabilar voqelangan. Assotsiativ maydondan o‘rin olgan javob reaksiyalarining semantik tahlili yoshlarning vatanni qanday idrok etishlari, unga bo‘lgan munosabatini anglashga yordam beradi. Shunga ko‘ra assotsiativ maydondan o‘rin olgan javob reaksiyalarining semantik tasnifini amalga oshiramiz. Sinaluvchilar tomonidan berilgan javob reaksiyalarini semantik jihatdan quyidagicha tasniflash mumkin:

1. **Makon ma’nosini ifodalovchi javob reaksiyalari**: *tug‘ilgan joy (31), O‘zbekiston (9), kindik qoning to‘kilgan joy (9), ona yurt (7), yashayotgan joy (4), tuproq (3), yurt (2), ona tuproq (2), xonadon (2), mahalla (1), ona makon (1), maskan (1), mehr to‘la zamin (1), musaffo osmon (1), uyim va oilam (1), qishloq (1).*

2. **Baho munosabatini ifodalovchi javob reaksiyalari**: *ona yurt (7), ona (3), ona tuproq (2), sajdagoh (1), muhabbat (1), mehr (1), ona makon (1), quvonch (1), tinch (1), mehr to‘la zamin, (1), musaffo osmon (1).*

3. **Siyosiy va harbiy tushunchalarni anglatuvchi javob reaksiyalari**: *erkinlik (9), harbiy (1).*

4. **Ijtimoiy va oilaviy munosabatlarni anglatuvchi javob reaksiyalari**: *oila (5), uyim va oilam (1).*

Bu o‘rinda eslatib o‘tamiz, assotsiativ maydondagi ayrim javob reaksiyalari bir necha mavzuviy guruhdan o‘rin oldi. Masalan, *ona yurt (7), ona tuproq (2), ona makon (1), mehr to‘la zamin (1), musaffo osmon (1)* javob reaksiyalari makon anglatish bilan birga, sinaluvchilarning vatanga bo‘lgan baho munosabatini ham aks ettiradi. Shu jihatdan ular mavzuviy guruhlarda takrorlanishi mumkin.

Keltirilgan mavzuviy guruhlarning assotsiativ maydondagi ulushi quyidagicha: makon ma’nosini ifodalovchi javob reaksiyalari 76 ta, baho munosabatini ifodalovchi javob reaksiyalari 19 ta, siyosiy va harbiy tushunchalarni anglatuvchi javob reaksiyalari 10 ta, ijtimoiy va oilaviy munosabatlarni anglatuvchi javob reaksiyalarining soni 6 ta.

Ushbu statistik ma’lumotlarni diagrammada quyidagicha aks ettirish mumkin:

Statistik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek yoshlari *vatan* deganda, avvalo, o‘z tug‘ilgan joyini, kindik qoni to‘kilgan, yashayotgan yurti O‘zbekistonni ko‘z oldiga keltirishadi. Bu javob reaksiyalari o‘zbek madaniyatida inson tug‘ilib o‘sgan, kindik qoni to‘kil-

[1] Лутфуллаева Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент: Meriyus, 2017. – 140 б.; Хошимова Н.А. Ўзбек тилида ассоциатив муносабатлар: Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) … дисс. автореф. – Фарғона, 2018. – 49 б.; Таджибаев Б. Ўзбек тили миллий-маданий бирликларининг ассоциатив тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – 55 б.; Ортиқова Ҳ. Бадиий матннинг ассоциатив тадқиқи (Э.Воҳидов ва А.Орипов шеърлари мисолида): Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2022. –136 б.; Rahmonov H. Omon Matjon she’riy matnlarining assotsiativ strukturasi: Filol. fan. bo‘yicha fals. dokt. (PhD) ... diss. avtoref. – Qo‘qon, 2023. –57 b.

gan, u yashayotgan yurt ulug‘lanishi, yurt egalari milliy o‘zligini bevosita vatani, tug‘ilib o‘sgan joyi bilan bog‘lashini ko‘rsatadi. Javob reaksiyalari o‘zbek yoshlari tug‘ilib o‘sgan, yashayotgan yurti orqali o‘zlarini shu yurt farzandi, millat vakili sifatida idrok etishlarini anglatadi.

Vatan turtki so‘ziga nisbatan hosil bo‘lgan *xonadon (2), mahalla (1), uyim va oilam* javob reaksiyalari umumiy makon tarkibidan o‘rin olgan “kichik makon”larni anglatadi. Ushbu javob reaksiyalari o‘zbek madaniyatida *vatan* tushunchasining jamoaviy (*mahalla),* oilaviy (*xonadon, uyim va oilam)* darajalarda tavsiflanishi mumkinligini ko‘rsatadi.

O‘zbek jamiyatida mahalla “ma’lum bir hududni o‘z ichiga olgan va aholisi bir jamoaga birlashgan, o‘zini-o‘zi boshqarishga asoslangan ijtimoiy-hududiy bo‘lagi”[1] hisoblanadi. Mahallaning yurtning kichik bo‘lagi ekanligi haqidagi qarashlar, o‘zbek jamiyatida mahallaning yurt kishilari – oilalar, qo‘ni-qo‘shnilar jamoasiga asoslanishi bitta sinaluvchida *mahalla* assotsiatsiyasini yuzaga keltirgan deb hisoblash mumkin. Mahallaning vatan sifatida tasavvur qilinishi vatanga milliy yondashuvdan darak beradi.

Xonadon oilaviy munosabatdagi kishilar jamoasi bo‘lib, o‘zbeklar tomonidan vatanni tashkil qiluvchi kichik jamoa sifatida idrok etiladi. O‘zbek yoshlarining vatanini xonadon, uy, oila bilan bog‘lashi o‘z uyi va oilasi, xonadonini hayotidagi eng muhim “makon” sifatida idrok etishini anglatadi. Shuningdek, o‘zbek jamiyatida shakllangan vatanning oila, xonadondan boshlanishi haqidagi qadimiy qarashlar ham *vatan* turtki so‘ziga nisbatan *xonadon, uyim va oilam* assotsiatsiyalarini hosil qilgan bo‘lishi mumkin.

Vatan turtki so‘ziga berilgan *ona yurt (7), ona tuproq (2), sajdagoh (1), ona makon (1), mehr to‘la zamin, (1), musaffo osmon (1)* javob reaksiyalari makon tushunchasi bilan birga, unga bo‘lgan hissiy munosabatni ham aks ettiradi. Bu javob reaksiyalarida yoshlarning o‘z vataniga bergan ijobiy bahosi yorqin aks etgan.

Ijobiy munosabat *muhabbat (1), mehr (1), quvonch (1)* javob reaksiyalarida ham namoyon bo‘lgan. Bu javob reaksiyalari sinaluvchilarning vatanga bo‘lgan mehr-muhabbati, quvonchi, faxrlanish tuyg‘ularini aks ettirgan. Qator javob reaksiyalarida vatanning onaga tenglashtirilishi o‘zbek jamiyatida vatan ona kabi ulug‘lanishi (*ona, ona yurt, ona tuproq, ona makon*), uning ona kabi mehr-muruvvatli ekanligi, muqaddasligi e’tirof etilishini ko‘rsatadi. Bu javob reaksiyalarini vatanga berilgan yuksak baho sifatida qabul qilish mumkin. Vatanni onaga tenglashtirish milliy-madaniy yondashuvni ham aks ettiradi. Demak, *vatan* so‘zi har bir til jamiyatida milliy-madaniy semaga ega bo‘ladi.

Sajdagoh (1) javob reaksiyasi “Allohga sajda qilinadigan makon, ibodat joyi” ma’nosiga ega. Ushbu javob reaksiyasi faqat 1ta sinaluvchida hosil bo‘lgan bo‘lsa-da, chuqur ramziy ma’noga ega. Sajdagohni vatan bilan bog‘lash uning muqaddas joy eganligi haqidagi qarashlar bilan bog‘liq. *Sajdagoh* javob reaksiyasi vatanni diniy ramziy obraz sifatida ham idrok etilishini ko‘rsatadi. Ushbu javob reaksiyasi sinaluvchining vatanga bo‘lgan munosabatida din muhim o‘rin tutishini anglatadi. O‘zbek jamiyatida “*Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir*” hikmatli so‘zi ham mavjud. Ushbu aforizm vatanga bo‘lgan hurmat-ehtirom ifodasi bo‘lib, yurtga bo‘lgan ijobiy bahoni ko‘rsatadi.

Vatanga bo‘lgan ijobiy baho individual xarakterdagi *mehr to‘la zamin (1), musaffo osmon (1), tinch (1)* javob reaksiyalarida ham kuzatiladi. *Mehr to‘la zamin* javob reaksiyasi vatanni mehr-muhabbat ramzi sifatida idrok etilishini anglatadi. Ushbu javob reaksiyasini vatanga berilgan hissiy baho sifatida talqin qilish mumkin. *Musaffo osmon, tinch* javob reaksiyalarini esa tinch, osuda vatan tavsifi sifatida baholash mumkin. Bu javob reaksiyalari yurtning xafsiz makon ekanligiga ishorq qiladi, vatanni tinchlik, osoyishtalik ramzi sifatida tavsiflaydi.

Tahlillardan anglashiladiki, o‘zbek yoshlari vatanini bevosita tug‘ilib o‘sgan yurti O‘zbekistonda ko‘rishadi, o‘z vatanini oilasi, xonadoni, mahallasi kabi “kichik vatan”lardan iborat yaxlit makon sifatida idrok etishadi. Ularning javob reaksiyalarida vatanni e’zozlash, ona kabi ulug‘lash, sajdagoh sifatida tavsiflash, uning tinchligi, musaffo osmonidan quvonish, faxrlanish hislari namoyon bo‘ladi.

Yuqori chastotali javob reaksiyalari asosida o‘zbek yoshlari tasavvuridagi vatanning quyidagi assotsiativ lisoniy portretini hosil qilish mumkin:

Vatan – bu tug‘ilgan joy, erkin O‘zbekiston, kindik qoning to‘kilgan joy, ona yurt, oila, yashayotgan joy, onadek muqaddas, tuproq, yurt, ona tuproq, xonadon.

Rezyume. Mazkur maqolada o‘zbek talaba yoshlarining *vatan* turtki so‘ziga bergan assotsiativ javob reaksiyalari tahlil qilinib, ularda milliy ong va tafakkurning voqelanishi yoritilgan. Tajriba natijalari asosida yoshlar vatanni, avvalo, tug‘ilgan joy, erkin O‘zbekiston, kindik qoni to‘kilgan joy sifatida idrok etishlari asoslangan. Shuningdek, oila, xonadon, mahalla kabilarni ham umumiy makon tarkibida tasavvur qilishlari ochib berilgan. Maqola yakunida yuqori chastotali javob reaksiyalari asosida o‘zbek yoshlari tasavvuridagi vatanning assotsiativ lisoniy portreti yaratilgan.

[1] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли, 2-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б.572.

Resume. This article analyzes the associative response reactions given by Uzbek students to the stimulus word “homeland,” revealing the manifestation of national consciousness and thinking within them. Based on the results of the experiment, it is substantiated that young people primarily perceive the homeland as their birthplace, free Uzbekistan, and the place where their umbilical cord blood was shed. It is also revealed that they envision family, household, and neighborhood (mahalla) as part of a shared spatial concept. At the conclusion of the article, based on the high-frequency response reactions, an associative linguistic portrait of the homeland as conceived by Uzbek youth is constructed.

Резюме. В данной статье анализируются ассоциативные реакции узбекской студенческой молодёжи на слово-стимул “родина”, раскрывающие проявление национального сознания и мышления. На основе результатов эксперимента обосновано, что молодые люди воспринимают родину прежде всего как место рождения, свободный Узбекистан, место, где пролилась пуповинная кровь. Также выявлено, что семья, дом, махалля воспринимаются ими как часть единого пространственного понятия. В заключение статьи на основе высокочастотных реакций-ответов создан ассоциативный лингвистический портрет родины в представлении узбекской молодёжи.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2026; 9
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

XOMSKIYNING “TIL VA ONG” ASARI, GENERATIV TILSHUNOSLIK KONSEPSIYASI VA PROFESSOR BAXTIYOR MENGLIYEVNING TARJIMONLIK MAHORATI

Mirzayev Ibodulla,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori

Til va ong munosabati insoniyat tafakkuri tarixidagi eng murakkab va uzoq davom etayotgan muammolardan biridir. Tilni faqat kishilar o‘rtasidagi axborot almashinuvi vositasi sifatida tushunish uning inson mavjudligidagi haqiqiy ko‘lamini to‘liq ochib bera olmaydi. Til insonning borliqni idrok etishi, tajribani kategoriyalarga ajratishi, fikrni shakllantirishi, xotirada saqlashi va uni boshqa insonlarga yetkazishi bilan chambarchas bog‘liq. Shu sababli tilning mohiyatini o‘rganish muayyan ma’noda inson ongining qanday ishlashini o‘rganish demakdir.

XX asrning birinchi yarmida Amerika tilshunosligida deskriptivizm va psixologiyada bixeviorizmning kuchli ta’siri kuzatildi. Bunday yondashuvlarda ilmiy tadqiqotning asosiy obyekti kuzatilishi mumkin bo‘lgan nutqiy xatti-harakat, uning tashqi shakli va muayyan sharoitda yuzaga keladigan reaksiyalar edi. Biroq insonning ilgari hech qachon eshitmagan, mutlaqo yangi gaplarni yaratishi va tushunishi kabi hodisalar tilni faqat kuzatiladigan verbal xulq-atvor doirasida izohlashning yetarli emasligini ko‘rsatdi. Ana shu ilmiy vaziyatda Noam Xomskiy tilshunoslikning e’tiborini tashqi nutqiy mahsulotdan insonning ichki lisoniy bilimiga, ya’ni tilni yaratish va tushunish imkonini beruvchi mental tizimga burdi. Shu ma’noda Xomskiy lingvistikani faqat mavjud lisoniy birliklarni tavsiflovchi fan emas, balki insonning lisoniy qobiliyati tabiatini tushuntirishga intiluvchi nazariy fan sifatida qayta talqin qildi.

Xomskiyning Language and Mind (“Til va ong”) asari ana shu burilishning muhim nazariy hujjatlaridan biridir. Asarning dastlabki uch bobi 1967-yil yanvarida Kaliforniya universitetining Berkeley kampusida o‘qilgan Bekman ma’ruzalari asosida shakllangan va 1968-yilda alohida kitob sifatida nashr etilgan. 1972-yilgi kengaytirilgan nashrda til, falsafa

va psixologiya munosabatlariga bag‘ishlangan yana uch bob qo‘shilgan. Shu jihatdan “Til va ong”ni faqat bir nazariyaning izohi sifatida emas, balki tilshunoslikning inson tafakkuri, psixologiyasi va biologik tabiatini o‘rganish bilan tutashgan yangi bosqichining manifesti sifatida baholash mumkin.

Noam Xomskiyning ilmiy faoliyati XX asr tilshunosligi tarixidagi eng muhim nazariy burilishlardan biri bilan bog‘liq. U Pensilvaniya universitetida Zellig Harris an’anasi bilan tanishgan bo‘lsa-da, keyinchalik strukturaviy-deskriptiv yondashuvning tilning ijodiy va mental tabiatini tushuntirishdagi imkoniyatlari cheklangan, degan xulosaga keldi. 1950-yillarning o‘rtalaridan Massachusets texnologiya institutida faoliyat yuritishi uning ilmiy qarashlarining shakllanishida muhim bosqich bo‘ldi. 1957-yilda nashr etilgan Syntactic Structures (“Sintaktik strukturalar”) asari generativ tilshunoslikning dastlabki konseptual asoslarini shakllantirdi. Xomskiy ushbu asarda grammatika insonning cheklangan vositalar yordamida cheksiz miqdordagi grammatik jihatdan to‘g‘ri ifodalarni hosil qilish imkoniyatini tushuntira oladigan formal tizim bo‘lishi kerakligini ko‘rsatdi. Bu yerda “generativ” tushunchasini oddiygina “gaplarni hosil qilish” ma’nosida tushunish yetarli emas. Generativ grammatika uchun asosiy masala – til sohibining ongida mavjud bo‘lgan qoidalar tizimi qanday qilib cheksiz miqdordagi lisoniy ifodalarni yaratish va anglash imkonini berishini tushuntirishdir. Demak, Xomskiy nazariyasining markazida “til nima?” degan savol bilan bir qatorda “inson qanday qilib tilni biladi?” va “bu bilim qanday qilib mumkin?” degan savollar ham turadi. Xomskiyning ilmiy merosi bir xil va o‘zgarmas nazariya emas. Uning qarashlari bir necha bosqichda qayta ishlab chiqilgan. Shu sababli uning dastlabki asarlaridagi termin va tushunchalarni keyingi nazariyalar bilan aynanlashtirish ilmiy jihatdan to‘g‘ri bo‘lmaydi.

1. “Syntactic Structures” – generativ yondashuvning boshlanishi

1957-yilda nashr etilgan Syntactic Structures generativ grammatikaning dastlabki shaklini ifodalaydi. Unda sintaktik tizim formal qoidalar orqali tasvirlanadi va grammatikani faqat mavjud gaplar majmui emas, balki yangi gaplarni yaratishga qodir tizim sifatida qarash taklif etiladi.

Bu yondashuvning yangiligi shundaki, tilshunoslikning obyekti faqat nutqda qayd etilgan birliklar emas, balki til sohibining mazkur birliklarni yaratish va anglash imkonini beruvchi ichki bilimidir.

2. “Aspects of the Theory of Syntax” – standart nazariy model

1965-yilda nashr etilgan Aspects of the Theory of Syntax asarida Xomskiy generativ grammatikani yanada tizimli shaklga keltirdi. Aynan shu bosqichda “kompetensiya” va “performans” farqlanishi muhim nazariy vositaga aylandi. Lisoniy kompetensiya – til sohibining til tizimi haqidagi ichki bilimini, lisoniy ijro yoki performans esa ana shu bilimning real nutqiy faoliyatda namoyon bo‘lishini anglatadi. Mazkur farqlash tilshunoslik uchun juda muhim metodologik natija berdi: real nutqdagi xatolar, ikkilanishlar, xotira cheklovlari yoki psixologik omillarni til tizimining o‘ziga xos xususiyatlari bilan bir narsa deb hisoblash shart emas.

3. “Cartesian Linguistics” – generativizmning falsafiy ildizlari

1966-yilda nashr etilgan Cartesian Linguistics asarida Xomskiy zamonaviy generativ yondashuvning falsafiy ildizlarini Dekart, ratsionalizm va Port-Royal grammatikasi an’analari bilan bog‘laydi. Bu asarda inson tilining ijodiyligi alohida ahamiyat kasb etadi. Inson mavjud vaziyatga mexanik javob qaytaruvchi mavjudot emas; u cheksiz miqdordagi yangi fikr va ifodalarni yaratishga qodir. Shuning uchun tilni oddiy stimul–reaksiya modeli orqali to‘liq tushuntirish mumkin emas.

4. “Rules and Representations” – mental reprezentatsiyaga burilish

1980-yillardagi ishlarda Xomskiy tilni inson ongidagi mental reprezentatsiyalar va qoidalar tizimi sifatida yanada chuqurroq ko‘rib chiqadi. Bu bosqichda tilshunoslikning psixologiya, kognitiv fan va biologiya bilan aloqasi kuchayadi. Shunday qilib, Xomskiy ilmiy merosining umumiy evolyutsiyasini quyidagicha tasavvur qilish mumkin:

formal grammatika → transformatsion-generativ grammatika → mental reprezentatsiya → biologik asoslangan til qobiliyati → biolingvistik yondashuv.

Language and Mind asarining ahamiyati uning hajmidan ancha katta. Birinchi nashr atigi 88 betdan iborat bo‘lsa-da, unda tilshunoslikning inson ongini o‘rganishga qo‘shishi mumkin bo‘lgan hissasi haqidagi fundamental masalalar qo‘yilgan. Asarning dastlabki uch qismi “o‘tmish”, “bugun” va “kelajak” istiqbollari asosida qurilgan. Xomskiy tilshunoslik tarixidagi ratsionalistik an’analarni qayta ko‘rib chiqib, zamonaviy formal tilshunoslik bilan inson tafakkurini o‘rganish o‘rtasida nazariy ko‘prik yaratishga intiladi.

1. O‘tmish: ratsionalistik an’ana

Xomskiy tilshunoslik tarixini faqat XIX-XX asr strukturaviy maktablaridan boshlamaydi. U Dekart, Port-Royal grammatikasi va Vilgelm fon Humboldt singari mutafakkirlarning qarashlariga murojaat qiladi. Bu an’ananing Xomskiy uchun eng muhim jihati – tilning ijodiy tabiati. Inson tayyor gaplar omboridan foydalanmaydi. U mavjud qoidalar asosida ilgari eshitmagan yangi ifodalarni ham yaratadi. Shu nuqtada Xomskiy tilning mexanik takrorlash emas, balki ijodiy faoliyat ekanini ta’kidlaydi.

2. Bugun: tilshunoslikning ongni o‘rganishdagi hissasi

Asarning markaziy g‘oyalaridan biri shundan iboratki, tilni o‘rganish insonning bilim hosil qilish va uni strukturalash mexanizmlarini tushunishga yordam beradi.

Bu yerda til tashqi ijtimoiy hodisa sifatida emas, insonning ichki bilim tizimi sifatida ham qaraladi. Keyinchalik ushbu yo‘nalish Xomskiyning “I-language” – ichki til tushunchasiga olib keladi.

3. Kelajak: tilshunoslik va biologik fanlar integratsiyasi

Xomskiyning kelajak haqidagi tasavvurida tilshunoslik psixologiya, falsafa va biologiya bilan tobora yaqinlashadi. Keyingi biolingvistik yondashuv aynan shu ilmiy yo‘nalishning davomidir. Cambridge University Press nashr ma’lumotlarida ham Language and Mindning keyingi nashri Xomskiyning tilni genetik jihatdan ta’minlangan biologik tizim sifatida o‘rganishga yo‘naltirilgan yondashuvini qayta ko‘rib chiqishi qayd etiladi. Xomskiy nazariyasining eng ko‘p muhokama qilingan tushunchalaridan biri – Universal grammatika (UG)dir. Ushbu konsepsiyaning asosiy savoli quyidagicha: bola juda cheklangan, ba’zan grammatik jihatdan to‘liq bo‘lmagan yoki xatoli nutqiy ma’lumot asosida qanday qilib murakkab til tizimini egallaydi?

Xomskiy bu muammoni til o‘zlashtirishning biologik va ichki shartlari mavjudligi bilan bog‘laydi. Bu yerda LAD – Language Acquisition Device, ya’ni “tilni o‘zlashtirish moslamasi” terminiga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish lozim. Uni inson miyasida anatomik jihatdan alohida joylashgan tayyor “qurilma” sifatida tushunish Xomskiy nazariyasini haddan tashqari soddalashtiradi. LAD, avvalo, tilni o‘zlashtirishning tug‘ma biologik imkoniyatlarini ifodalovchi dastlabki nazariy model sifatida qaralishi kerak. Xuddi shuningdek, Universal grammatika ham barcha tillarning yuzaki grammatikasi bir xil degani emas. Aksincha, masala inson tilining mumkin bo‘lgan grammatik tizimlarini chegaralovchi umumiy prinsiplar haqida boradi. Xomskiy nazariyasining ilmiy ta’siri juda katta bo‘lsa-da, XXI asr tilshunosligida uning barcha dastlabki taxminlari o‘zgarishsiz qabul qilinmaydi.

Kognitiv va foydalanishga asoslangan yondashuvlar tilning shakllanishida umumiy kognitiv mexanizmlar, ijtimoiy o‘zaro ta’sir, analogiya, xotira, statistic o‘rganish va kommunikativ ehtiyojlarning rolini kuchliroq ta’kidlaydi. Shu sababli zamonaviy ilmiy vaziyatni “Xomskiy nazariyasi to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri” degan ikki qutbli mezon bilan baholash yetarli emas. Muhim masala – uning qaysi g‘oyalari bugungi kunda o‘z kuchini saqlab qolayotgani, qaysilari qayta talqin qilinayotgani va qaysilari boshqa nazariyalar tomonidan rad etilayotganini aniqlashdir. Ayniqsa, “LAD”, “Universal grammatika” va “alohida lisoniy modul” tushunchalarining keyingi rivoji dastlabki generativ modeldan ancha murakkab nazariy shaklga kelgan.

Demak, Xomskiyni faqat 1950-1960-yillardagi generativ grammatika bilan chegaralab qo‘yish ham, uning keyingi biolingvistik qarashlarini dastlabki model bilan aynanlashtirish ham ilmiy jihatdan biryoqlama yondashuv bo‘ladi. Xomskiy va bixeviorist psixolog B. F. Skinner o‘rtasidagi munozara XX asr tilshunosligi va psixologiyasi tarixidagi eng mashhur nazariy to‘qnashuvlardan biridir. Skinnerning Verbal Behavior asari 1957-yilda nashr etilgan. Xomskiy unga 1959-yilda Language jurnalida 26-58-betlarda e’lon qilingan mashhur tanqidiy sharhini bag‘ishladi. Xomskiyning e’tirozi shundan iborat ediki, inson tilidagi murakkablikni stimul, javob va mustahkamlash kabi bixevioristik kategoriyalar bilan to‘liq tushuntirish mumkin emas. Uning fikricha, inson:

– ilgari eshitmagan gaplarini tuza oladi;

– grammatik jihatdan mumkin bo‘lgan va mumkin bo‘lmagan shakllarni farqlay oladi;

– cheklangan lisoniy vositalar yordamida cheksiz miqdordagi ifodalarni hosil qiladi;

– gapning faqat tashqi shaklini emas, uning abstrakt strukturasini ham anglaydi.

Shu bilan birga, zamonaviy tarixiy baholashda Xomskiy-Skinner munozarasini kognitiv inqilobning yagona sababi sifatida ko‘rsatish ham to‘g‘ri emas. Keyingi tadqiqotlarda Xomskiyning 1959-yilgi sharhi juda ta’sirchan intellektual hodisa bo‘lgani tan olingan, biroq kognitiv fanlarning shakllanishi bir nechta ilmiy oqimlarning o‘zaro ta’siri natijasi bo‘lganligi ham qayd etiladi. Demak, Xomskiyning tarixiy xizmatini Skinnerni “mag‘lub etgani” bilan emas, tilni insonning ichki bilim tizimi sifatida o‘rganish masalasini markazga olib chiqqani bilan izohlash ilmiyroqdir. Xomskiyning “Til va ong” asarini o‘zbek tiliga tarjima qilish oddiy tarjimonlik vazifasi emas. Bunday matn tarjimon oldiga ikki xil talabni qo‘yadi: birinchidan, original muallifning nazariy mazmunini buzmaslik; ikkinchidan, mazkur nazariy mazmunni o‘zbek ilmiy tilining tabiiy imkoniyatlari orqali ifodalash.

Shu nuqtayi nazardan professor Baxtiyor Mengliyevning tarjimonlik faoliyatini faqat badiiy yoki lingvistik tarjima mezonlari bilan emas, ilmiy tarjima va terminologik transfer mezonlari asosida baholash lozim. Ilmiy tarjimada so‘zning lug‘aviy ekvivalenti doimo yetarli bo‘lmaydi. Chunki termin muayyan ilmiy konsepsiyaning bir qismi hisoblanadi. Termin tarjima qilinganda uning faqat shakli emas, balki butun nazariy yuklamasi ham boshqa tilga ko‘chadi. Shu sababli Xomskiy matnini o‘zbekchalashtirishda quyidagi uch bosqichli jarayon muhim:

inglizcha termin → o‘zbekcha terminologik ekviv-

alent → konseptual izoh.

Masalan:

– generative grammar – generativ (hosil qiluvchi) grammatika;

– linguistic competence – lisoniy kompetensiya;

– performance – lisoniy ijro / nutqiy faoliyat;

– deep structure – chuqur struktura / chuqur tuzilish;

– surface structure – yuzaki struktura / yuzaki tuzilish;

– universal grammar – Universal grammatika;

– language acquisition – tilni o‘zlashtirish.

Bunday terminlarda bitta muhim prinsip ko‘zga tashlanadi: terminologik aniqlik va o‘zbek tilining tabiiyligi o‘rtasidagi muvozanat. Tarjimon uchun asosiy muammo shundaki, xorijiy terminni haddan tashqari kalkalash matnni sun’iylashtirishi, uni haddan tashqari erkin izohlash esa original nazariy tushunchaning aniqligini susaytirishi mumkin. Shu jihatdan professor B. Mengliyev tarjimasini terminologik muvozanat izlash tajribasi sifatida o‘rganish alohida ilmiy ahamiyatga ega.

Xomskiy matnining yana bir murakkab jihati uning sintaktik tuzilishidir. Ingliz ilmiy nasrida uzun aniqlovchi konstruksiyalar, otlashgan birliklar, passiv shakllar, abstrakt ot birikmalari va mantiqiy bog‘langan ko‘p komponentli gaplar keng qo‘llanadi. Ularni o‘zbek tiliga mexanik ravishda ko‘chirish natijasida matn grammatik jihatdan to‘g‘ri bo‘lsa ham, o‘qilishi qiyin va sun’iy bo‘lib qolishi mumkin. Shuning uchun ilmiy tarjimon quyidagi transformatsiyalardan foydalanishga majbur bo‘ladi:

1. sintaktik bo‘laklarni qayta tartiblash;

2. murakkab gapni o‘zbek tilining tabiiy sintaktik modeliga moslashtirish;

3. inglizcha otlashgan konstruksiyalarni fe’lli yoki predikativ shaklga

aylantirish;

4. mantiqiy bog‘lanishlarni o‘zbek tilidagi izchil vositalar orqali ifodalash;

5. terminologik aniqlikni saqlagan holda stilistik ravonlikka erishish.

Shu ma’noda yaxshi ilmiy tarjima originalning grammatik shaklini ko‘chirish emas, uning ilmiy mantiqini boshqa tilning grammatik tizimida qayta yaratishdir. Professor B. Mengliyevning tarjimonlik mahoratini tahlil qilishda kamida beshta mezonni ajratish mumkin.

1. Konseptual ekvivalentlik

Tarjima qilingan termin original terminning faqat lug‘aviy ma’nosini emas, ilmiy konsepsiyasini ham saqlashi kerak.

2. Terminologik izchillik

Bir termin asarning turli joylarida turlicha tarjima qilinsa, nazariy tizim buziladi. Shuning uchun generativ tilshunoslik terminlari yagona terminologik tizim sifatida ishlatilishi zarur.

3. Sintaktik tabiiylik

Originalning mantiqiy murakkabligi o‘zbek tiliga ko‘chirilganda grammatik sun’iylikka aylanmasligi kerak.

4. Semantik zichlikni saqlash

Xomskiy matnlarida bitta jumla ko‘pincha bir necha nazariy munosabatni o‘zida jamlaydi. Tarjimon bunday jumlalarni haddan tashqari soddalashtirib yuborsa, ilmiy mazmunning bir qismi yo‘qoladi.

5. Milliy ilmiy tilni rivojlantirish

Eng yuqori darajadagi ilmiy tarjima faqat original asarni o‘zbekchalashtirib qo‘ymaydi. U o‘zbek ilmiy tilining yangi tushunchalarni ifodalash imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Shu nuqtayi nazardan Xomskiy tarjimasi o‘zbek tilining zamonaviy lingvistik terminologiyasini boyituvchi muhim manbalardan biri sifatida qaralishi mumkin. Xomskiy asarini o‘zbekchaga tarjima qilishning ahamiyati faqat bitta kitobning o‘zbek kitobxoniga yetib borishi bilan chegaralanmaydi. Bu jarayon uch xil ilmiy darajada ahamiyatlidir.

Birinchi daraja – nazariy

O‘zbek tilshunosligi generativ grammatika, mentalizm, kompetensiya, Universal grammatika va biolingvistika kabi konsepsiyalarni ona tilida muhokama qilish imkoniga ega bo‘ladi.

Ikkinchi daraja – terminologik

O‘zbek ilmiy tilida ilgari keng muomalada bo‘lmagan terminlar tizimlashtiriladi, ularning tarjima va izohlash modellari shakllanadi.

Uchinchi daraja – metodologik

Tarjima jarayoni o‘zbek tilining abstrakt ilmiy tafakkurni ifodalash

imkoniyatlarini amalda sinovdan o‘tkazadi. Shuning uchun ilmiy tarjimani “ikkinchi darajali faoliyat” deb qarash noto‘g‘ri. Aksincha, jahon ilmiy merosining ona tiliga tarjima qilinishi milliy ilmiy tafakkurning rivojlanish mexanizmlaridan biridir. Xomskiy merosiga munosabatda ikki ekstremal yondashuvdan qochish lozim.

Birinchisi – uni mutlaq haqiqat sifatida qabul qilish.

Ikkinchisi – keyingi nazariyalar paydo bo‘lgani uchun generativ tilshunoslikni

butunlay eskirgan paradigma deb hisoblash.

Ilmiy nuqtayi nazardan to‘g‘ri yo‘l – dialogik yondashuvdir. Generativ tilshunoslik inson tilining strukturaviy, formal va mental tomonlarini tushuntirishga ulkan hissa qo‘shdi. Kognitiv, konstruktiv, funksional, usage-based va neyrolingvistik yondashuvlar esa tilning foydalanish, tajriba, ijtimoiy o‘zaro ta’sir va neyron jarayonlar bilan bog‘liq jihatlarini yanada chuqurlashtirdi. Shuning uchun bugungi tilshunos-

lik oldida “Xomskiy yoki uning muxoliflari” degan savoldan ko‘ra, “turli nazariyalar tilning turli tomonlarini qanday tushuntiradi?” degan savol muhimroqdir.

Xomskiyning “Til va ong” asari o‘zbek kitobxoni uchun tarjima qilingach, yana bir muhim ilmiy ehtiyoj paydo bo‘ladi: asarni sharhlaydigan, uning nazariy qatlamlarini tushuntiradigan alohida tadqiqot yaratish. Chunki Xomskiy matnini izohsiz o‘qish hatto professional tilshunos uchun ham oson emas. Unda lingvistik terminlar bilan bir qatorda falsafa, psixologiya, ratsionalizm, mantiq va biologik til qobiliyatiga oid tushunchalar o‘zaro bog‘langan. Biroq bunday izohlarni asarning o‘z sahifalariga haddan tashqari ko‘p joylashtirish ham matnning yaxlitligini buzishi mumkin. Shu sababli professor Baxtiyor Mengliyev tomonidan alohida “N. Xomskiy tilshunosligi: Til va ong asariga ilmiy sharh” mazmunidagi monografik tadqiqot yaratilishi ilmiy jihatdan juda samarali bo‘lar edi. Bunday asar quyidagi qismlardan tashkil topishi mumkin:

1. Xomskiy va XX asr tilshunosligidagi nazariy burilish;
2. Generativ grammatikaning shakllanish tarixi;
3. Xomskiyning falsafiy manbalari;
4. “Til va ong” asarining konseptual tuzilishi;
5. Universal grammatika;
6. Tilni o‘zlashtirish muammosi;
7. Kompetensiya va performans;
8. Chuqur va yuzaki struktura;
9. Xomskiy va Skinner bahsi;
10. Generativizmning zamonaviy tanqidi;
11. Xomskiy terminlarining o‘zbekcha ekvivalentlari;
12. “Til va ong” tarjimasining tarjimashunoslik tahlili;
13. Xomskiy va zamonaviy o‘zbek tilshunosligi;
14. Generativ va kognitiv paradigmalarning qiyosiy istiqbollari.

Bunday sharh-kitob tarjimaning oddiy “izohli ilovasi” emas, balki Xomskiy

g‘oyalarini o‘zbek ilmiy tafakkuriga integratsiya qiluvchi mustaqil ilmiy asar bo‘lishi kerak.

Noam Xomskiyning Language and Mind (“Til va ong”) asari XX asr tilshunosligida til, tafakkur va insonning biologik-kognitiv imkoniyatlari o‘rtasidagi munosabatni yangi nazariy darajaga olib chiqqan muhim tadqiqotlardan biridir. Uning dastlabki uch bobi 1967-yil Berkeley ma’ruzalari asosida shakllangan va 1968-yilda nashr etilgan. Keyingi nashrlarda asarning konseptual doirasi kengayib, til, falsafa, psixologiya va biolingvistika masalalari yanada chuqurlashtirilgan. Xomskiyning asosiy ilmiy xizmati tilshunoslikning diqqat markazini tashqi nutqiy mahsulotdan insonning ichki lisoniy bilimiga burishi bilan belgilanadi. Generativ grammatika shu tariqa tilni mavjud gaplarning oddiy yig‘indisi emas, balki yangi ifodalarni yaratish va anglash imkonini beruvchi murakkab qoidaviy tizim sifatida talqin qildi.

Xomskiyning Universal grammatika, tilni o‘zlashtirish, kompetensiya, performans, chuqur va yuzaki struktura kabi tushunchalari keyingi o‘n yilliklarda turlicha qayta ko‘rib chiqilgan bo‘lsa-da, ularning tilshunoslik tarixidagi metodologik ahamiyati saqlanib qolmoqda. Kognitiv, funksional, usage-based va neyrolingvistik tadqiqotlar generativizmning ayrim fundamental farazlarini tanqid qilishi mumkin, biroq bu holat Xomskiy paradigmasining tarixiy va nazariy ta’sirini inkor etmaydi. Xomskiyning Skinnerga bergan 1959-yilgi tanqidi ham aynan shu ilmiy burilishning ramziy hodisalaridan biriga aylandi. Biroq uni “kognitiv inqilobning yagona sababi” deb baholashdan ko‘ra, XX asr o‘rtalarida shakllangan kengroq ilmiy paradigmatik o‘zgarishlarning muhim tarkibiy qismi sifatida talqin qilish maqsadga muvofiqdir.

Professor Baxtiyor Mengliyevning “Til va ong”ni o‘zbek tiliga tarjima qilishi esa boshqa bir muhim masalani – jahon lingvistik tafakkurini o‘zbek ilmiy tiliga olib kirish masalasini kun tartibiga qo‘yadi. Bunday tarjimaning qiymati faqat mazmunni bir tildan ikkinchi tilga o‘tkazish bilan belgilanmaydi. Uning haqiqiy ilmiy ahamiyati murakkab nazariy tushunchalarni o‘zbek tilining semantik, sintaktik va terminologik imkoniyatlari asosida qayta yaratishda namoyon bo‘ladi. Shu ma’noda ilmiy tarjimon ikki olam o‘rtasida vositachi bo‘ladi: bir tomonda – original ilmiy konsepsiya, ikkinchi tomonda – milliy ilmiy tafakkur va uning tili. Tarjimonning mahorati ana shu ikki qutb o‘rtasidagi muvozanatni saqlash bilan belgilanadi. Shuning uchun “Til va ong” tarjimasini alohida tarjimashunoslik tadqiqoti uchun material sifatida o‘rganish, undagi terminlarning o‘zbekcha ekvivalentlarini tizimlashtirish, sintaktik transformatsiyalarni aniqlash va original bilan tarjima o‘rtasidagi konseptual muvofiqlikni tahlil qilish dolzarb ilmiy vazifadir. Eng muhimi, Xomskiy asarining o‘zbekchaga tarjima qilinishi generativ tilshunoslikni o‘zbek tilshunosligiga shunchaki “olib kirish” emas, balki o‘zbek ilmiy tilining jahon lingvistik tafakkurini ifodalash imkoniyatlarini sinashdir. Shu sababli professor Baxtiyor Mengliyev tomonidan “Til va ong” asariga bag‘ishlangan alohida monografik sharh-tadqiqot yaratilishi nihoyatda maqsadga muvofiqdir. Bunday tadqiqot Xomskiy nazariyasini o‘zbek filologiga oddiy tarjima orqali emas, balki tizimli, tanqidiy va metodologik talqin orqali taqdim etgan bo‘lar edi. Natijada “Xomskiy → Til va ong → o‘zbekcha tarjima → ilmiy sharh → milliy lingvistik tadqiqot” zanjiri yuzaga keladi. Aynan mana shu zanjir jahon lingvistik merosini o‘zbek ilmiy makoniga mexanik tarzda ko‘chirish emas, balki uni milliy ilmiy tafakkur bilan faol dialogga kiritish imkonini beradi.

Rezyume. Mazkur maqolada amerikalik tilshunos Noam Xomskiyning “Til va ong” (Language and Mind) asari, uning generativ tilshunoslik konsepsiyasidagi o‘rni hamda mazkur asarning o‘zbek tiliga tarjima qilinishining ilmiy-madaniy ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda Xomskiyning tilni inson ongining faoliyati, biologik va kognitiv imkoniyatlari bilan bog‘liq murakkab tizim sifatida talqin qilishi, generativ grammatikaning shakllanish bosqichlari, lisoniy kompetensiya, Universal grammatika, tilni o‘zlashtirish muammosi va tilning ijodiy tabiati haqidagi qarashlari yoritiladi. Shuningdek, Xomskiyning bixevioristik paradigma bilan munozarasi, xususan, B. F. Skinnerning “Verbal Behavior” asariga bag‘ishlangan 1959-yilgi tanqidiy maqolasining kognitiv fanlar tarixidagi o‘rni baholanadi. Maqolaning alohida qismi professor Baxtiyor Mengliyevning Xomskiy asarini o‘zbek tiliga tarjima qilish mahoratiga bag‘ishlanib, unda terminologik ekvivalentlik, semantik aniqlik, sintaktik transformatsiya, ilmiy uslub va milliy ilmiy til imkoniyatlaridan foydalanish masalalari ko‘rib chiqiladi. Maqolada Xomskiy nazariyasini bugungi tilshunoslik nuqtayi nazaridan mutlaq va o‘zgarmas ta’limot sifatida emas, balki zamonaviy kognitiv, konstruktiv va biolingvistik tadqiqotlar bilan munozarada rivojlangan ilmiy paradigma sifatida baholash taklif etiladi.

Resume. This article analyzes the work “Language and Mind” by the American linguist Noam Chomsky, its place in the concept of generative linguistics, and the scholarly and cultural significance of its translation into Uzbek. The study examines Chomsky’s view of language as a complex system associated with human mental activity and biological and cognitive capacities, as well as the stages in the development of generative grammar, linguistic competence, Universal Grammar, language acquisition, and the creative nature of language. It also evaluates Chomsky’s debate with the behaviorist paradigm, particularly his 1959 critical review of B. F. Skinner’s “Verbal Behavior” and its role in the history of the cognitive sciences. A separate part of the article focuses on Professor Bakhtiyor Mengliyev’s translation of Chomsky’s work into Uzbek, addressing terminological equivalence, semantic precision, syntactic transformation, academic style, and the use of the resources of the national scholarly language. The article proposes viewing Chomsky’s theory not as an absolute and unchanging doctrine, but as a scientific paradigm that has developed through dialogue with contemporary cognitive, constructivist, and biolinguistic research.

Резюме. В статье анализируется труд американского лингвиста Ноама Хомского “Язык и мышление” (Language and Mind), его место в концепции генеративной лингвистики, а также научно-культурное значение перевода данного произведения на узбекский язык. В исследовании рассматриваются взгляды Хомского на язык как сложную систему, связанную с деятельностью человеческого сознания, его биологическими и когнитивными возможностями, этапы формирования генеративной грамматики, понятия языковой компетенции, универсальной грамматики, проблемы усвоения языка и творческой природы языка. Также оценивается дискуссия Хомского с бихевиористской парадигмой, в частности его критическая статья 1959 года, посвящённая книге Б. Ф. Скиннера “Verbal Behavior”, и её значение в истории когнитивных наук. Особая часть статьи посвящена переводческому мастерству профессора Бахтияра Менглиева при переводе труда Хомского на узбекский язык; рассматриваются вопросы терминологической эквивалентности, семантической точности, синтаксической трансформации, научного стиля и использования возможностей национального научного языка. Предлагается оценивать теорию Хомского не как абсолютное и неизменное учение, а как научную парадигму, развивавшуюся в диалоге с современными когнитивными, конструктивистскими и биолингвистическими исследованиями.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 9
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

БАДИИЙ ДИАЛОГ ТАРЖИМАСИДА КОММУНИКАТИВ ВАЗИЯТНИ ТЎҒРИ АНГЛАШ ЗАРУРАТИ

(Чўлпоннинг «Кеча ва кундуз» романининг янги русча нашри мисолида)

Қуронов Дилмурод,
филология фанлари доктори, профессор

Бадиий насрда диалог шунчаки қаҳрамонларнинг ўзаро ахборот алмашинуви эмас. У персонажнинг ижтимоий мақоми, руҳий ҳолати, дунёқараши ва энг муҳими, миллий турмуш тарзини намоён этувчи мураккаб полифункционал воситадир. Таржима назариясида "коммуникатив вазият" тушунчаси марказий ўринлардан бирини эгаллайди. Коммуникатив вазият мулоқот иштирокчилари кимлиги, уларнинг ўзаро ижтимоий ва психологик мақоми, мулоқот кечаётган нутқий муҳит (**контекст**), қаҳрамонларнинг асл нияти (**интенцияси**) ҳамда сўз ортида ётган тагмаъно (подтекст)ни *қамраб олади.* Агар таржимон мулоқотнинг коммуникатив вазиятини тўғри баҳолай олмаса, жумлаларни луғавий-механик тарзда ўгириш йўлидан борса, бадиий матннинг эстетик қуввати йўқолибгина қолмай, персонажлар характери карикатурага, роман сюжети эса мантиқсизликка юз тутади.

Абдулҳамид Сулаймон ўғли Чўлпоннинг "Кеча ва кундуз" романи яқинда Ризо Аҳмад таржимасида рус тилида чоп этилди ("Китоб сайёраси", 2026 йил). Афсуски, ушбу нашрдаги қатор муҳим диалоглар коммуникатив вазият, давр этнографияси ва қаҳрамонлар руҳияти тўлиқ англанмагани оқибатида жиддий таҳрифларга учраган.

Масалан, сўзловчининг мулоқотдаги асл коммуникатив мақсади (интенцияси)ни ҳис қилмаслик ва жумлаларни семантик жиҳатдан кўр-кўрона калкалаштириш таржимада қандай ҳалокатли оқибатларга олиб келишини Акбарали мингбоши ва унинг гумаштаси Мирёқуб ўртасидаги суҳбатда яққол кўриш мумкин. Аслиятдаги машҳур саҳнани эслайлик:

– Мен тўй қилмоқчиман...
– Сен? Кимга?
– Сизга!
– А, бенамоз-е! Менга?
– Ҳа, сизга.

Ўзбек миллий мулоқот маданиятида "Сизга тўй қилмоқчиман" ибораси **бенефактив** (яъни шахснинг ўзи ҳаракат субъекти эмас, балки ҳаракат унинг манфаати учун бажарилишини билдирувчи) маънога эга бўлиб, "Сизни уйлантирмоқчиман, сизнинг фойдангизга тўй қилиб бермоқчиман" деган мазмунни англатади. Мингбоши ҳам, Мирёқуб ҳам эркак киши, жамият эса анъанавий мусулмон муҳити. Бироқ русча таржимада (81-бет) ушбу саҳна шундай берилган:

– Я хочу жениться...
– Ты? На ком?
– На вас!
– О, безбожник! На мне?!
– Да, на вас.

Рус тили грамматикаси ва прагматикасида "жениться на ком-то" конструкцияси фақат бир маънони – айнан ўша шахс билан никоҳ қуришни англатади. Натижада, Мирёқуб Мингбошига турмуш қуришни таклиф қилаётгандек, Мингбоши эса эркак кишидан бундай таклифни табиий қабул қилиб, ҳайратланаётгандек таассурот уйғонган. Таржимон "тўй қилмоқ" феълини семантик жиҳатдан "жениться" сўзи билан механик равишда алмаштириб, мулоқот иштирокчилари кимлиги ва вазият мантиғини бутунлай четда қолдирган. Бу ерда коммуникатив вазиятни сақлаш учун: "– Я хочу вас женить!" ёки "– Я хочу устроить вам свадьбу!" шакли танланиши шарт эди. Биттагина прагматик хато ўзбек мумтоз асарининг бош қаҳрамонлари муносабатини бесоқолбозлик мантиғига тушириб қўйган.

Шунингдек, бадиий диалогда коммуникатив вазиятни тўғри англаш фақат грамматик мутаносиблик билан эмас, балки асар тасвирлаётган даврнинг тарихий-этнографик контексти ва анахронизм хавфини чуқур ҳис этиш билан ҳам чамбарчас боғлиқдир. Мингбоши ичкарига кириб, катта хотинидан меҳмонлар ҳақида сўрар экан, орага мана бу реплика киради: "– Ашуллачиси борми, йўқми? – деб сўради. – Бор, – деди Хади-

чахон”. Таржимада эса бу савол: “– Есть ли у них певица или нет?” (84-бет) тарзида ўгирилган.

Хўш, XX аср бошидаги Туркистон турмушида “ашуллачи” ким бўлган? Биринчидан, ўша давр анъанавий муҳитида қиз-жувонлар орасида “касбий ашулачи аёл” (певица) деган ижтимоий мақом бўлган эмас. Ёпиқ давраларда куйлаб, рақс тушадиган камсонли аёллар эса жамият томонидан салбий бўёқ билан “сатанг”лар деб аталган ва уларга очиқдан-очиқ шубҳа ва нафрат билан қаралган. Иккинчидан, романдаги Зеби – мутаассиб Раззоқ сўфининг уйда сақланган, ҳатто овозини “номаҳрам” эшитиши ҳаром саналган муслима қизидир. У фақат дугоналари даврасида, ҳавасга, кўнгил дардларини ёзиш учун куйлаган, холос. Мингбошининг хотинига: “Ашуллачиси борми, йўқми?” дейиши – “Мирёқуб мақтаётган, меҳмонлар орасидаги ўша чиройли куйлайдиган қиз ҳам борми?” деган табиий сўровдир.

Рус тилидаги “певица” сўзи эса замонавий саҳна хонандасини англатиб, роман даврига нисбатан анахронизм (тарихий хатолик) яратади. Қолаверса, русийзабон китобхон онгида Зебини ўз оёғи билан бойнинг уйига хизматга (чиқиш қилишга) келган яллачи ёки “сатанг” сифатида қабул қилиш хавфини туғдиради. Натижада, Чўлпон маҳорат билан тасвирлаган Зебининг беғуборлиги, муҳит фожиаси ва соддалиги биргина “певица” сўзи остида кўмилиб кетган. Бу ўринда контекстга мос равишда: “– А та, что поёт, среди них?” ёки “– А поёт ли кто из них?” тарзидаги ифода коммуникатив вазиятни сақлаб қолган бўлар эди.

Бундан ташқари, коммуникатив вазиятнинг яна бир ажралмас бўғини – мулоқот кечаётган давр хронотопи, воқеалар вақтини тўғри идрок этишдир. Бу омил эътибордан четда қолганда, диалогларда ғализ сунъийлик ва мантиқсизлик келиб чиқади. Чўлпон Мингбошининг ҳовлига кириб келиш вақтини жуда аниқ белгилайди: қоронғи тушган, муаззин намозшомга азон айтмоқда. Демак, воқеалар оқшом ва тун маҳали кечмоқда.

Аммо таржимоннинг вақт белгиларини ҳис қилмаслиги қаҳрамонлар нутқини чалкаштириб юборган. Аввало, меҳмонхонада Мирёқубнинг ухлаб ётганини эшитиб мингбоши: “– Ноинсофнинг кеч кирганда ухлашини қаранг!” дейди. Халқ урфи ва диний одатда кун ботаётганда (“завол вақти”) ухлаш танбаллик, ғафлат босиш саналиб, қораланади. Таржимон эса “кирганда” сўзини нотўғри тушуниб: “– Смотри-ка... мы поздно вернулись, а он уже спит!” (77-бет) деб таржима қилган. Бу билан мингбоши шом пайти ухлагани эмас, гўёки гумаштаси уни кутиб олмаганидан хафа бўлгандек таассурот уйғотиб, миллий этнографик детални йўққа чиқарган. Бунинг устига, ичкарига кирган Акбарали билан унинг катта хотини Хадичахон ўртасидаги диалог рус тилида шундай кечади (83–84-бетлар):

“– Что у тебя на обед? Поторопись! Проголодался я!

– Гости уже у нас, поэтому обед сегодня будет позже...”.

Вақт хуфтонга қараб кетган паллада буларнинг “обед” (тушлик овқат)ни кутиши – тилни билган ҳар қандай китобхонни ҳайрон қолдиради. Рус тилида кечки таом фақат “ужин” дейилиши элементар қоида бўлса-да, аслиятдаги “Овқатинг нима бўлди?” сўроғининг “Что у тебя на обед?”га ўзгариши, “овқат” сўзининг кўр-кўрона “обед” деб ўгирилгани коммуникатив хронотоп мутлақо ҳисобга олинмагани оқибатидир.

Ниҳоят, бадиий диалог таржимасининг энг юксак ва масъулиятли поғонаси – персонажлар руҳиятидаги психологик субтекст (подтекст) ва саҳнадаги (яъни бунда диалогнинг тасаввуримизда саҳнадагидек жонланиши назарда тутилади) драматик иронияни англаш масаласидир. Айнан мана шу нуқтада Чўлпоннинг сўз санъаткори сифатидаги бетакрор маҳорати намоён бўлади. Мингбоши ва катта хотини Хадичахон ўртасидаги қисқа, аммо ниҳоятда зич суҳбат бир неча қаватли яширин мақсадлар тўқнашуви устига қурилган. Мингбоши ёш қизга кўнгли кетиб “харидор” бўлаётганидан, ҳар қанча фосиқ бўлмасин, ҳижолатдан буткул фориғ эмас, айниқса, “кўз очиб кўрганим” дегани Хадичахон қаршисида ички бир ҳижолатлик туймоқда. Хадичахон эса эрининг кўнглидаги шайтоний ўйни аллақачон билиб турибди. Қолаверса, Хадичахон ва унинг шериги Пошшахон ҳовлидаги кундоши – эркатой Султонхоннинг танобини тортиб қўйиш учун эрини айнан шу қизга уйлантириш режасини пишитиб қўйганлар. Бу ерда фожиавий парадокс юз бермоқда: мингбоши ўз айбини яширишга уринади, аммо хотини билан мақсадлари аслида бир эканини хаёлига ҳам келтирмайди!

Чўлпон бу мураккаб психологик ҳолатни диалогда юксак санъаткорона маҳорат билан тасвирлайди:

– Меҳмонлар шу ерда?! Қачон келишди?

– Намозшомга яқин.

– Яхши, яхши.

Бир оздан сўнг яна такрор қилди:

– Яхши... Яхши...

Сўнгра бирдан:

– Ашуллачиси борми, йўқми? – деб сўради.

– Бор, – деди Хадичахон.

– Ашулла қилганда мени чақиртир! Дурустми? – шу сўзни айтгач, хотинининг жавоб беришини кутмасданоқ бурилиб ташқарига томон юрди.

Қаҳрамоннинг тўрт марта “яхши” дейиши ва орадаги сукут – унинг ҳижолатдан бироз довдираши, ички ҳаяжони ва кутмаганида келган омадидан карахтлиги натижасидир. Шу ҳолдан чиқибоқ бирдан жаҳл билан, кескин қилиб: “Ашуллачиси борми, йўқми?!” деб сўраши – ўз ҳижолатини қўполлик ва буйруқ ниқоби билан ёпишга уринишдир (психологик ҳимоя механизми). У ўй-хаёлини эгаллаган нафсни сездириб қўймаслик учун сохта ҳукмдорлик қиёфасини киймоқда. Хадичахон эса буни тушуниб-билиб тургани учун ҳам совуққонлик билан тузоқни очади: “Бор”. Мингбоши эса хотинининг кўзига бошқа қараб туролмай, шармандa бўлишдан қўрқиб, жавобни ҳам кутмай шарт ортига бурилиб кетади.

Афсуски, таржимада бу буюк ички драматургия мутлақо бой берилган:

– Гости здесь? Когда они пришли?

– Ближе к намозшом – вечерней молитве.

– Хорошо, хорошо.

Через некоторое время он повторил:

– Хорошо. Хорошо...

Затем вдруг спросил:

– Есть ли у них певица или нет?

– Есть, – сказала Хадичахон.

– Когда она будет петь, позови меня! Ладно?.

Русча матндаги “Есть ли у них певица или нет?” ва “Ладно?” репликалари шу қадар жўн, расмий ва ҳиссиётсиз чиққанки, у Акбаралининг ички эҳтироси ва ҳижолатидан кўра мудирнинг ходимидан маълумотнома сўраётган совуқ ҳолатга кўпроқ хос. Чўлпон насрининг юраги бўлган психологик субтекст ва драматик ирония бутунлай қуриб, ёғочдек қотиб қолган.

Кўринадики, бадиий диалогни таржима қилиш – алоҳида олинган репликаларни луғат орқали тиклаш дегани эмас. Мулоқот жараёнини бадиий аниқлик билан қайта яратиш таржимондан персонажларнинг прагматик мақоми ва интенциясини англашни, давр хронотопи ва этнографиясини ҳис этишни ҳамда муаллиф сўзлар ортига яширган психологик субтекстни теран илғашни талаб қилади. Чўлпоннинг “Кеча ва кундуз” романи диалогларидаги бундай қўпол бузилишлар таржимада коммуникатив вазиятни ҳис қилмаслик қандай оғир бадиий талафотларга олиб келишини яққол кўрсатувчи сабоқдир.

Резюме. Мақолада бадиий диалог таржимасида коммуникатив вазият, қаҳрамонларнинг прагматик интенцияси (нияти) ҳамда тарихий-этнографик контекстни тўғри англаш ва қайта яратиш муаммоси тадқиқ этилади. Чўлпоннинг “Кеча ва кундуз” романининг яқинда чоп этилган русча таржимаси (2026 й.) мисолида семантик калькалар, давр хронотопининг чалкашиши ҳамда психологик подтекстнинг бой берилиши атрофлича таҳлил қилинади. Мулоқотнинг коммуникатив контекстини ҳисобга олмаслик персонажлар характерининг бузилишига, бадиий мантиқсизликларга ва мумтоз асар концепциясининг таҳрифига олиб келиши илмий асосланган.

Resume. This article examines the challenges of accurately rendering the communicative situation, the pragmatic intentions of characters, and the historical-ethnographical context in the translation of literary dialogue. Based on the recent Russian translation of Abdulhamid Cho’lpon’s masterpiece “Night and Day” (2026), the study analyzes semantic calques, distortions of the temporal chronotope, and the loss of psychological subtext. The author demonstrates that disregarding the communicative context and dramatic irony leads to the distortion of character imagery and undermines the aesthetic integrity of this classic of Uzbek literature.

Резюме. В статье рассматривается проблема передачи коммуникативной ситуации, прагматической интенции персонажей и историко-этнографического контекста при переводе художественного диалога. На материале нового русскоязычного перевода классического романа Чулпана «Ночь и день» (2026 г.) детально анализируются семантические кальки, искажения временного хронотопа и утрата психологического подтекста. Автор доказывает, что игнорирование коммуникативного контекста ведет к разрушению индивидуальных образов героев, возникновению смыслового абсурда и искажению художественной концепции выдающегося произведения узбекской литературы.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 9
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

«ҲИКМАТ» СЎЗИНИНГ АРАБ ЛЕКСИКОГРАФИК МАНБАЛАРИ АСОСИДАГИ ЛЕКСИК-СЕМАНТИК ТАҲЛИЛИ

Чўтматов Жўрабек Омонович,
Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси
Сурхондарё ҳудудий бўлими катта илмий ходими,
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори

Тушунча ва ғоялар тарихида марказий ўринлардан бирида турувчи «ҳикмат» тушунчасининг мукаммал ва ҳақиқий мазмун-моҳиятини англаш, энг аввало, унинг лексикографик илдизлари ва луғавий маъно қатламларини аниқлаштиришни талаб этади. Чунки айнан луғат тушунчанинг таяниш лозим бўлган дастлабки асосини тақдим этади ва ҳаракат майдонини белгилаб беради.

Таъкидлаш лозимки, Ҳаким Термизий ҳар бир нарсанинг асосини англашда ёки билиш назариясида (эпистемология) луғат илми алоҳида ўрин тутишини таъкидлайди. Зеро, исмлар – ашёларнинг моҳиятига далолат қилади. Термизийга кўра, Парвардигор ибодатининг аввали илмдир. Агар билсанг, танийсан. Танисанг, ибодат қиласан. Илмларнинг бари эса ҳарфларда (яъни улар орқали намоён бўлади). Илм – маънолар аломати. Маъноларда эса изҳор қилиш мақсад қилинган ашёларнинг ўзи – моҳияти бор. Илм ўзидаги нур (илм нури) билан нутқ ва ёзув орқали ўша махфий- яширин маъноларга далолат қилади[1].

Бу жиҳатдан луғавий маънолар ўзи далолат қилаётган нарсаларнинг моҳияти ва ғоявий томонларини ҳам қамраб олади. Бошқача айтганда, унинг ҳикматига ҳам далолат қилади.

Албатта, илмга айланиш айнан сўз ва луғат орқали кечиши маълум ва машҳур ҳолатдир. Термизий «илм»нинг «исм»да, унинг эса ҳарфларда эканини айтади. Одам алайҳиссалом ҳижо ҳарфлари билан ҳамма нарсани бир-биридан фарқлаган. Аллоҳ исмларни Одам алайҳиссаломга ўргатган («Ва У Одамга исмларнинг барчасини ўргатди» (Бақара, 31). Зеро, исмлар – борлиқнинг ишоратларидир. Унинг илк ўргатган исми эса Ўз исми бўлган Аллоҳдир. Бошқа ҳамма исмлар бу асл исмга таянади[2]. Ана ўша исмлари ўргатилган «барча нарса» илмдир. «Барча нарса» жумласида 'тарқоқлик' эмас, 'жамлаш' ва 'боғлаш' маъноси ғолиб. Аслида мана шу боғланиш ва жамланиш «илм»дир. «Барча нарса»ни боғловчи ва жамловчи жиҳат эса «ҳикмат»дир. Термизий таъбири билан айтганда эса, «Ҳар бир илмнинг ҳикмати бор»[3].

Мана шу – Термизийнинг «илм» борасидаги асл ёндашуви. «Исм» – «илм»нинг асоси эканлиги маълум. Бу дунёда «исм»сиз нарса йўқ. Масалан, кимёда янги модда кашф этилса, унга ном(исм) берилади. Акс ҳолда у «илм» шаклига кирмайди. Ўрганиш жараёни ҳам ана шу «исм»ларга таянади ва «номлаш» билан давом этади ва шу билан тугайди. Шу маънода бу ўриндаги «илм» барча соҳаларни қамраб олади. Шу тарзда Термизий каби шахслардаги «илм» талқинига кенгроқ қараш лозим. Бу ўринда дастлаб ўргатилган «исм»нинг Аллоҳ бўлгани эса илмнинг манбаи, хулосаси, асл мақсади олийлиги, масъулияти улуғлиги, яъни 'илоҳиётга боғланиши' маъносидадир.

Шунинг учун "ҳикмат" масаласи муҳокама қилинар экан, араб тилидаги ушбу сўзнинг луғавий маъноси муҳим аҳамиятга эга. Масала шундаки, унга нега айнан шу ном берилган ёки танланган? Бошқа ном ишлатилмаган? Демак, "ҳикмат"нинг ҳикматини англаш учун ҳам унинг луғавий маънолари дастлабки муҳим асос бўлиб хизмат қиладики, бусиз ҳикматни англаш ва у ҳақидаги билимни намойиш қилишнинг ўзи имконсиз бўлиб қолади. Қуйида араб тилидаги ушбу сўзнинг араб тили мўътабар луғат манбаларида қилинган таҳлили билан танишилса, ҳикматнинг нафақат сермазмун сўз, балки бутун бошли тизим эканлиги ой-

[1] Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Али ибн Ҳасан ибн Бишр ибн Ҳорун Ҳаким Термизий. ал-Масоил ал-макнуна. – Қоҳира: Дор ат-турос ал-арабий, 1400/1980. – Б. 124.

[2] Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Али ибн Ҳасан ибн Бишр ибн Ҳорун Ҳаким Термизий. Илм ал-авлиё. – Қоҳира: Мактаба ал-ҳуррия, 1403/1983. – Б. 228-229.

[3] Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Али ибн Ҳасан ибн Бишр ибн Ҳорун Ҳаким Термизий. ал-Амсол минал-Китаби вас-Сунна. – Қоҳира: Дор ан-наҳза, 1395/1975. – Б. 87.

динлашади. Натижалар ва тасаввуримизга кўра эса, унинг маънолар оламидаги англами “ҳақиқат” сўзи каби жуда кенг бўлиб, қамров жиҳатдан нодир сўзлардандир.

1. Ҳукм. Барча манбалар қайд этишича, «ҳикмат» сўзининг луғатдаги маъноси «ҳукм»дан олинган. Айни вақтда «ҳукм» «ҳикмат»ни тушунишдаги асосий ўзакдир. «Ҳукм» «ҳикмат»нинг олий даражадаги самараси сифатида намоён бўлади. Луғат олимларига кўра, Ҳакам, Ҳакийм ва Ҳоким Аллоҳнинг сифатлари бўлиб, маъно жиҳатдан бир-бирига яқиндир. Ёки Ҳакам ва Ҳакийм Аллоҳнинг исмларидан бўлиб, у Ҳоким маъносидадир, бу эса Қозий (ҳукм қилувчи) демак. Ҳакимлик – энг афзал нарсаларнинг энг афзал илмлар билан бўлган маърифати, ҳикмат эса дақиқ сир-синоатларни яхши ўзлаштириб, уни юксак маҳорат (итқон) билан эгаллаш дея таърифланиши ҳам унинг самараси ва ўзаги ҳукм эканини кўрсатади. Зеро, ҳикмат айнан олганда маълум бир ҳол ва ҳайъатни ифодалайди, шу билан бирга ушбу ҳайъат ҳукмга яроқлиликка далолат қилади. Зеро, қодир ва қодийр, олим ва алийм сўзлари бир маънони ифодалагани каби ҳоким ва ҳакийм ҳам бир маънодадир. Аллоҳ ашёларга ҳукм қилиб, уларни мустаҳкамлаб, маромига етказади (يُحكم الأشياءَ ويُتقنها).

Қуръонинг «ҳаким»лик билан сифатланиши ҳам уни кишининг фойда ёки зарарига ҳукм қилиши – ҳоким бўлиши туфайлидир. Ёки бу Қуръон унда ихтилоф ва изтироб бўлмаган муҳкам сифатига эгалигига ишора. Ибн Аббос розияллоҳу анҳумодан ривоят қилинишича, у зот Қуръоннинг муҳкамини Пайғамбар алайҳиссалом даврида, ўн икки ёшлигида ўқиган. Бу ўриндаги «муҳкам» «мufассал» ҳам дейилиб, Қуръоннинг мансух оятлар учрамайдиган қисми учун номдир. Ёки уларда муташобеҳ бўлмай, ўзининг баёни ўзи билан маҳкам бўлиб, тушуниш учун ўзидан бошқа нарсага эҳтиёж йўқ. Шунинг учун бу қисм «муҳкам» ва «муфассал» дейилади.

Убай ибн Каъб розияллоҳу анҳудан ривоят қилинган ҳадисда:

إنّ مِنَ الشِّعْرِ حِكمَةً

«Албатта, шеърдан ҳикматлиси бор» (Инна минаш-шеъри ҳикматан) дейилса, Ибн Аббос ва Бурайда Асламий розияллоҳу анҳум ривоятларида:

إنّ مِنَ الشعرِ حُكْماً

«Албатта, шеърдан ҳукм бўлгани бор» (Инна минаш-шеъри ҳукман) дейилади[1].

Луғат олимларига кўра, бу ўриндаги ҳукм ва ҳикмат жаҳолат ва бефаҳмликдан ман қилиб, улардан қайтарадиган фойдали каломдир. Ёки бу одамлар ундан фойда оладиган ваъз ва мисоллардир. Луғат олимлари:

الصَّمْتُ حُكْمٌ وقليلٌ فاعِلُهُ

«Сукут ҳукмдир, аммо уни қилувчи оздир»[2],

الخِلافةُ في قُرَيش والحُكْمُ في الأنصار

«Халифалик Қурайшда, ҳукм эса ансорларда»[3].

ривоятларини ҳам «ҳикмат» ва «ҳукм» маънодошлигига далил қилишган.

2. Қазо. Бу сўз маъноси ҳукм қилиш ва ишни битиришдир. Бу ўриндаги ҳукм умумий маънода бировга лозим бўлса-бўлмаса, бир ишнинг шундай ёки ундай эмаслиги тўғрисида ҳукм чиқаришдир. Айримлар эса бу адолат билан ҳукм қилишга қўлланилишини айтишади. Саҳиҳ ҳадисда мақтовли сифатлардан бири шундай қайд қилинади:

وَرَجُلٌ آتَاهُ اللَّهُ الحِكْمَةَ فَهُوَ يَقْضِي بِهَا...

“Аллоҳ бир кишига ҳикмат бериб, у ўша билан ҳукм (қазо) қилса...”.

Жоҳилият шоири Набиға (ваф. қ.ҳ. 18/604) дейди:

واحْكُمْ كحكْمِ فَتَاةِ الحَيِّ إذ نَظَرَتْ
إلى حَمَامٍ سِراعٍ وارد الثَّمَدِ

Маҳалла қизининг ҳукмидек ҳукм қилки,
қачонки у
Назар солди сувга келган шошқин кабутарларга.

Байтнинг маъноси шуки, маҳалла қизидек ҳаким бўл, яъни агар сўзласанг, бу аёл тўғри топгандек тўғри топки, у агар кабутарларга қараса, уларнинг адади борасида хато қилмайди. Демак, бу ўринда ҳар қандай вазиятда ва нозик дамларда ҳукм қилиш малакаси юқорилигига ишора қилинмоқда.

3. Ҳаким бўлмоқ. «Ҳакума» (حَكُمَ) феъли ‘ҳаким

[1] Абу Довуд Сулаймон ибн Ашъас ибн Исҳоқ ибн Башир Сижистоний Аздий. Сунан Абу Довуд. VII. – Байрут: Дор ар-рисола ал-оламийя, 2009. 5010-5012-рақамлар

[2] Абулфазл Жалолиддин Абдураҳмон ибн Абу Бакр Суютий. Жамъ ал-жавомиъ ал-маъруф би-жамиъ ал-кабир. XXIV. – Азҳар: Дор ас-саъода лит-тибаъа, 2005. 11236 ва 11238-рақамлар.

[3] Суютий. Жамъ ал-жавомеъ. 10716-рақам.

бўлмоқ’ни билдиради. Буни жоҳилият вақтида узоқ яшаган шоир Нимр ибн Тавлабнинг (ваф. 14/635) қуйидаги шеъри таъкидлайди:

وأَبْغِض بَغِيضَكَ بُغْضاً رُوَيْداً
إذا أنتَ حاوَلْتَ أن تَحْكُما

Ғазабинг ила секинроқ ғазаб қилгинки,
Агарки сен ҳаким бўлишга чоғланган эрсанг.

Бу ўриндаги «таҳкума» сўзи «ҳаким бўлмоқ» маъносида экани айтилган.

4. Фиқҳ. Келтирилган «Халифалик Қурайшда, ҳукм эса ансорларда» ривояти ҳукм ва ҳикматнинг фиқҳ маъносига ҳам далолат қилади, чунки ансорлардан Муъоз ибн Жабал, Убай ибн Каъб, Зайд ибн Собит ва бошқа фақиҳ саҳобалар етишиб чиққан.

Ҳаким Термизийга кўра, Аллоҳнинг сифат ва тадбирларини фиқҳ-ла – чуқур англаб етиш натижасида киши Аллоҳга боғланган ва уни таниган олим бўлади (ал-олим биллаҳ). Демак, унинг наздида, чуқур англаш натижасида киши ҳикматга етади ва қалби билан Аллоҳга боғланиб, ҳаким бўлади[1].

5. Ман қилиш. Арабларда «ҳакамту» (ҳукм қилдим) ва «аҳкамту» (маҳкамладим) (حَكَمْتُ وأَحْكَمْتُ) деса, ‘ман қилдим’ ва ‘қайтардим’ деган маънони ҳам билдиради. Шунинг учун «ҳоким» (حَاكِم) шу ном билан аталадики, у золимни зулмидан ман қилади. Луғат олими Асмаъийга (122-216/740-828) кўра, «ҳукумат»нинг (حُكُومَة) ҳам асли шу бўлиб, у кишини зулмдан қайтармоқдир. Эгарнинг «ҳакама»си (حَكَمَة) ҳам шундан бўлиб, темир сувлиқ шу ном билан аталади ва у жонивор тумшуғининг икки чети ва бурнидан ўраб-тутиб, уни тезлаб кетиш ва жаҳолатли ўзбошимчаликларидан сақлаб, минувчи эгасига хилоф қилишдан қайтаргани учун ҳам шундай дейилган.

Арабларнинг жоҳилият давридаги шоири Лабид ўз шеърида қиличга нисбатан «аҳкама» сўзини ишлатганида унинг қайтаришини (رد) ёки қўриқлашини (إحراز) назарда тутган. Агар бирон нарсага нисбатан «ҳакама» ёки «аҳкама» феъли ишлатилса, унинг фасоддан ман қилинишини билдиради (حَكَمَ الشيء وأَحْكَمَهُ). Шеърда: «Эсипастларингизни иҳком қилингиз» (أَحْكِمُوا سُفَهَائكم) дейилади, яъни уларни қайтариб, ман қилиб, уларга кифоя қилингиз. Иброҳим Нахаъий дейди: «Етимни ўз болангни таҳким қилганингдек таҳким қил» (حَكِّم اليَتِيْمَ كما تُحَكِّمُ وَلَدَكَ), яъни уни ўз болангни асраганингдек фасоддан асраб, ислоҳ эт. Шунинг учун «таҳким» (تَحْكِيْمُ) ва «иҳком» (إحْكَام)нинг бирон нарсадан ман қилиш маъноси ҳам бор. Нахаъийнинг сўзи ‘ҳукм қилиш’ маъносида бўлиши ҳам мумкин, унда бу сўз маъноси ‘адолат билан ҳукм қилиш’ ва бу билан фасоддан ман этишдир. Агар «ҳакама» (حَكَمَ) ва «аҳкама» (أَحْكَمَ) сўзлари «дан» (عن) қўшимчаси билан келса, бирон нарса ва ишдан қайтишни ҳам билдиради.

Шу тарзда «ҳакам» (حَكَمُ) сўзи «ҳоким» (حاكم)ни, «ҳакама» (حَكَمَةُ) эса «қозилар» (قضاة)ни ҳам билдиради. Ёши улуғ кишига эса «ҳакам» дейилади.

6. Муҳакка(и)м – ўзига ҳукм эта олиш, ўзини бошқара олиш, ҳукмга лойиқ бўлиш (مُحَكَّم). Луғат олимлари қуйидаги ривоятни келтиришади:

إن الجنة للمُحَكّمين

«Албатта, жаннат муҳакка(и)млар учундир».

Ушбу ривоят ҳадис манбаларида учрамайди, балки луғат олимлари асарларида санадсиз тарзда ҳадис сифатида келтирилади.

Бу сўз «муҳаккам» ёки «муҳакким» тарзида ўқилиши мумкин. Агар биринчиси бўлса, душман қўлига тушганда куфр, ширк ёки ўлимни танлашга тўғри келганда ўлимни танлаган киши, иккинчиси бўлса, нафсига инсоф қилган кишидир. Бу Қуръондаги Ухдуд аҳли қиссасида келган бўлиб, улар куфр ва қатл танловида қатлни танлашган.

Каъбул Аҳбордан қилинган ривоятда айтилишича, жаннатда бир уй борки, унга пайғамбар, ё сиддиқ, ё шаҳид ёки нафсига муҳакким киши киради.

Ана шу «муҳаккам» сўзи ҳикмат нисбат бериладиган мужарраб шайх – тажрибали қари кишига ҳам айтилади. Агар «мужарраб» бўлса, уни ҳодисалар тажрибадан ўтказгани, «мужарриб» бўлса, у кўп нарсаларни тажриба қилгани англашилади ва иккиси бир маънони билдириши мумкин.

«Муҳакким» «муҳаддис» – ‘сўзловчи’ маъносида ҳам келган. Тарафа ибн Абднинг (тахм. ҳ. қ. 60-86/538-564) шеърида шундай келади:

لَيْتَ المحَكِّمَ والمَوْعُوظَ صَوْتُكُما
تَحْتَ التُّرابِ إذا مَا الباطِلُ انْكَشَفا

Муҳакким (сўзловчи) ва ваъз қилинувчи, кошки иккингизнинг овозингиз
Тупроқ остидан келса, қачонки ботил юзага чиқиб, очилганда.

[1] Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Али ибн Ҳасан ибн Бишр ибн Ҳорун Ҳаким Термизий. Таҳсилу назоирил-Қуръон. – Қоҳира: Матбаъа ас-саъода, 1389/1969. – Б. 108.

Бу луғавий маъно ҳикмат ўзини бошқара олишнинг юксак даражасини ҳам намойиш этишини ифодалайди.

7. Адл-адолат. Ҳикмат – адолатдир. Ҳаким киши – одил киши. Қазода адолат – ҳукм сўзининг маъносига ишора қилади.

8. Маромига етказиш (итқон). Иҳком (إحْكَام) – ‘итқон’ (إتْقَان) маъносида ҳам бўлиб, ҳаким – ишларни яхшилаб, маромига етказиб (итқон ила) бажарувчидир. Агар: «Киши ҳакам бўлди» (حَكَمَ الرجلُ يَحْكُمُ حُكْمًا) дейилса, унинг ўзига мансуб маънода лозим бўлган ниҳоий – сўнг даражадаги мадҳга етишганини билдиради. Жоҳилият араб шоири Мирқош (ал-Акбар, ваф. ҳ. қ. 75/550) дейди:

يأْتِي الشَّبابُ الأَقْوَرينَ ولا

تَغْبِطْ أَخاك أن يُقالَ حَكَمْ

Икки барваста йигит келурки, сен
Биродарингга унинг ҳакамлик билан
сифатлангани учун ҳасад қилма.

9. Ишончлилик, мустаҳкамлик (وثَاق). Қачонки киши дини ва дунёсида унга зарар берадиган нарсалардан четланса: «Киши мустаҳкам бўлди» (اسْتَحْكَمَ الرَّجُل) дейилади. Бу нарса ёки ишга қўлланганда ҳам ишончлилик, маҳкамликни (وِثاق) билдиради.

10. Ҳилм. Ҳикмат ‘ҳилм’ маъносида ҳам келади, бу эса нафс ва табиатни ғазаб ҳаяжонидан забт ила тутиб туришдир. Ушбу маънода у адолатга яқин.

11. Илм. Луғат олимларига кўра, ҳикмат – илм ҳамдир. Масалан, Забидийга (ваф. 1205/1791) кўра, у нарсаларнинг уларнинг моҳиятига далолат қиладиган ҳақиқатини билиш ва шунинг тақозосига кўра амал қилишдир. Забидийга кўра, у шунинг учун илмий (назарий) ва амалийга бўлинади. У ақлий ва илмий қувват ҳайъати бўлиб, ўша илоҳий ҳикматдир. Яна унга кўра, Луқмонга берилган ҳикмат ҳам (Луқмон, 12) шариат аҳкомларига мувофиқ бўлган ақлий ҳужжатлардир. Яна дейиладики, ҳикмат – илм ва амал билан ҳақни топиш (исоба). Аллоҳдан бўлган ҳикмат барча нарсани энг мустаҳкам тарзда ижод қилиш, инсондан бўлгани эса уларни англаб, яхши ишлар қилишдир.

Жавҳарий (ваф. 393/1003) дейдики, ҳукм – илмдан бўлган ҳикматдир. Ҳаким – олимдир. Роғибга кўра, ҳукм маъно жиҳатдан умумийроқ. Ҳар бир ҳикмат ҳукмдир, лекин акси эмас. Бу «илм» ‘фиқҳ’ маъносига ҳам боғлиқ, юқорида ҳукмнинг ансорлар орасида эканлигига доир ривоят келтирилди ва бунга улардан чиққан фақиҳ саҳобалар далолат қилиши айтилди.

Умуман, илм ва ҳикматнинг ўзаро мутаносиблик масаласи алоҳида тадқиқот мавзусидир. Юқорида бунга қисман тўхтаб ўтилди. Бу ўринга муносиб бўлган қисқа тарзда баён қиладиган бўлсак, Ҳаким Термизийга кўра, ҳикмат – илмнинг ботинидир[1]. Яъни мағзи, моҳиятидир. Илм ҳикмат орқали илм даражасига эришади. Буни энг оддий мисол орқали келтирсак, жумладан, бирдан ўнгача санаш илм бўлса, уни кетма-кет тартибда (1,2,3...) санаш ҳикматдир.

12. Олийлик, қадр-қиммат, мартаба. «Ҳакама» (حَكَمَة) сўзи ҳайвонни жаҳолатдан ман қилувчи тизгинига, масалан отнинг сувлиғига ишлатилгани каби инсонга нисбатан ҳам ишлатилади ва юзининг олд қисми, ияк, жағ, тумшуқни билдиради[2]. Агар: «Аллоҳ кишининг ҳакамасини кўтарди» дейилса, унинг боши ва шаънини кўтаргани тушунилади. Умар розияллоҳу анҳудан қилинган ривоятда келишича, «Агар банда тавозе қилса, Аллоҳ унинг ҳакамасини кўтаради», яъни қадри ва мартабасини. «Унинг бизнинг наздимизда ҳакамаси бор» дейилса, ‘қадр’ тушунилади ва «фалончи олий ҳакамали» ҳам дейилади. «Ҳакама» инсон юзининг пастки қисми ҳам дейилади, худди ҳайвонлар юзининг пастки қисми билан бўлганидек. Уни тепа санаш эса иззатлиликдан киноя, чунки бошини хам қилиб юриш хорликка оид сифат. Санади яхши ҳадисда дейилади:

مَا مِنْ آدَمِيٍّ إِلَّا فِي رَأْسِهِ حَكَمَةٌ بِيَدِ مَلَكٍ ، فَإِذَا تَوَاضَعَ قِيلَ لِلْمَلَكِ ارْفَعْ حَكَمَتَهُ ، وَإِذَا تَكَبَّرَ قِيلَ لِلْمَلَكِ ضَعْ حَكَمَتَهُ

«Одам болаларидан бўлган ҳар бир кишининг бошида фариштанинг қўлида бўлган ҳакама бор. Агар у тавозе қилса, фариштага: «Унинг ҳакамасини кўтар» дейилади. Агар такаббурлик қилса: «Унинг ҳакамасини пастлат» дейилади»[3].

Маълум бўладики, бу ўринда маълум бир моддий аъзо орқали маънавий жиҳат ифода этилмоқда. Ҳайвонни тийиб турувчи мослама ва инсон юзининг бир қисми жаҳолатдан ман этиш

[1] Ҳаким Термизий. Таҳсилу назоирил-Қуръон. – Б. 107.

[2] ал-Қомус. Арабча-ўзбекча қомусий луғат. Неъматуллоҳ Иброҳимов, Абдулҳаким Орипов, Акмалжон Икромжонов, Абдулҳамид Зайриев. IV. – Тошкент: Ғофур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. I/654.

[3] Абулқосим Сулаймон ибн Аҳмад ибн Айюб Табароний. ал-Мўъжам ал-кабир. XX. – Мўсул: Мактаба ал-улум вал-ҳикам, 1983. 12939-рақам. Суютий. Жамъ ал-жавомеъ. 19210, 19435-рақамлар.

ва иззатни юксалтириш маъноларига олиб чиқилган. Бунда асл маъно қайси? Бизнингча, моддий маънолар маънавийсидан олинган, аксинча эмас, чунки бу ўриндаги ўзак ҳукм ва ҳикматдан экан, аслият ушбу маънога кўра бўлишини хулоса қилиш мумкин.

Манбаларда «жоҳилият вақтидаги араб ҳакимлари» (حُكّامُ العَرَبِ فِي الْجَاهِلِيَّةِ) жумласи учрайди ва уларга мисол сифатида Аксам ибн Сайфий (ваф. 9/630), Ҳожиб ибн Зурора, Робийъа ибн Мухошин, Замра ибн Замра, Ақроъ ибн Ҳобис (булар бани Тамимдан), Абдулмутталиб, Абу Толиб ва бошқа қабилаларнинг бир қатор ҳуккомлари тилга олинади. Аёл ҳакимлар (ҳакимат, ҳакима) ҳам бўлиб, Суҳр бинти Луқмон, Ҳинд бинти Қусс, Жумъа бинти Ҳобис ва Амр ибн Зарийбнинг қизи буларга мисолдир.

Умуман, хулоса қилиш мумкинки, арабларда ҳукм, иҳком, таҳким, ҳакам, ҳакама, ҳоким, муҳаккам-муҳакким, муҳкам ва бошқа шу каби сўзлар киши учун олий даражаларни ифодаловчи сифат бўлиб келган. Эътиборга олиш лозимки, ислом-дан олдин «ҳикмат» сўзи бевосита ишлатилган ўринлар ҳам учрайди. Арабларнинг жоҳилият давридаги шоири Аъший (ваф. 7/629) ҳам ўзининг муҳкама қасидасини «ҳакима (=ҳаким, ҳикматли) деб атайди:

وغَريبَةٍ تأْتي الملوكَ حَكِيمَةٍ
قد قُلْتُها ليُقالَ من ذا قالَها؟

Подшоҳларга нодир бир ҳикмат (ҳакима)ни келтирасан,
«Буни ким айтди» дейилиши учунки, уни мен сўйлаганман.

Жоҳилият даври шоири Заббон ибн Сайёр (ваф. ҳ. қ. 10/613) ва Нобиға (Зиёд) ғазотга чиқиш учун йўлга чиқишганда Нобиға кийимига қўнган бир чигирткадан шумланиб, ортига қайтади. Саломат ва ўлжа билан қайтган Заббон эса Набиға атаб ушбу байтларни айтади:

تخبّر طيرَهُ فيها زيادٌ ... لتُخبره وما فيها خَبيرُ

أقامَ كأنَّ لُقمانَ بنَ عادٍ ... أشارَ له بحكمته مشيرُ

Зиёд (Набиға) ўз шумланиши хабарини чигирткадан олишга уринди
Ваҳолангки, унинг ўзи бир бехабар
Чиқмасдан қолди (ғазотга) худдики унга
Луқмон ибн Од ўз йўл кўрсатувчи ҳикмати билан йўл кўрсатгандек[1].

Бу икки шеърда ҳикмат ақллар учун озиқ ва янгилик бўлган нодир бир маъно ва инсоннинг амалий фаолиятини тартибга солиб, унга йўл кўрсатувчи, киши эса унга бўйсунувчи ҳақиқат сифатида тақдим этилган. Ҳикматнинг бу каби олий мақсадларда ишлатилиши эса ушбу сўзнинг маънолари четдан ўзлашган тушунчалар эканлигини рад этади. Аммо яна бир ҳақиқатни унутмаслик керакки, Қуръон ва Сунна ушбу сўзнинг маъноларини мисли кўрилмаган юксакликка кўтарди.

“Ҳикмат” сўзи ўзаги билан боғлиқ исмлар ҳам араблар орасида кенг тарқалганига диққат қаратиш лозим. Йигирматача саҳоба Ҳакам исми билан, ўнтача саҳоба Ҳакийм исми билан номланган, йигирмата Ҳакам номли муҳаддис ҳам маълум, шунингдек, Ҳукайм, Ҳукайма (аёл), Ҳакмон, Ҳакмун исмлари ҳам учрайди[2].

Ғарб олимлари Жозеф Горовиц, Артур Жефри ва Франц Роузенталларга кўра, «ҳикмат» араб тилида кўпроқ ҳуқуқий ва маъмурий-бошқарувни ифодаловчи тушунча (ҳукм) сифатида мавжуд эди. Бошқа семит тилларида эса у аллақачон ‘донишмандлик’ маъносини олиб бўлганди. Шу тарзда, уларнинг фикрига кўра, арабча «ҳикмат» ва «ҳаким» ўзининг ‘донишмандлик’ маъноси юзасидан қадимги дин ва маданиятларнинг ташқи таъсирлари натижасини намоён этади[3]. Аммо бунга қўшилиб бўлмайди, аслида араб тарихида «ҳикамийя, ҳикам» каби кичик адабий жанрлар бўлгани, Луқмон ибн Од каби шахсларнинг ҳикматли гаплари исломдан олдин ҳам тарқалгани бу тушунча ‘донишмандлик’ маъносида ҳам ишлатилганини кўрсатади ва бунинг далиллари юқорида ўтди[4].

Бизнингча, Қуръон ва Сунна араб тилига янги ҳаёт бахш этгани маълум. Масалан, «имон»,

[1] Абу Усмон Амр ибн Баҳр ибн Маҳбуб Киноний Лайсий Жоҳиз. ал-Ҳайавон. VII.– Байрут: Дор ал-кутуб ал-илмийя, 2003. III/213.

[2] Абулқосим Маҳмуд ибн Умар ибн Аҳмад Замахшарий Хоразмий Жоруллоҳ Замахшарий. ал-Фоиқ фий ғариб ал-ҳадис вал-асар. IV. – Байрут: Дор ал-маърифа, 1971. I/302-303; Шу муаллиф. Асос ал-балоға. II. – Байрут: Дор ал-кутуб ал-илмийя, 1998. I/206-207; Абулфазл Жамолиддин Муҳаммад ибн Мукрим ибн Манзур Ифриқий Мисрий. Лисон ал-араб. XV. – Байрут: Дору содир, 1993. XII/140-145; Муҳаммад Муртазо Ҳусайний Забидий. Тож ал-арус мин жаваҳир ал-қомус. XL. – Қувайт: Матбаъату ҳукуматил Қувайт, 1965-2001. XXX/510-525; Tan Bilal. Kur’an’da Hikmet Kavramı. – Istanbul: Pınar Yayınları, 1997. – Б. 15-22; 16. Yaman Hikmat. The Concept of Hikmah in Early Islamic Thought: Thesis (PhD). – Massachusetts: Harvard University Cambridge, 2008. – Б. 23-42.

[3] Роузенталь Франц. Торжество знаний. Концепция знания в средневековом исламе. Пер. с англ. С. А. Хомутова. – Москва: Наука, 1978. – Б. 52-56.

[4] Yaman H. The Concept of Hikmah in Early Islamic Thought. – Б. 3-23.

«ислом», «ихлос», «дин» ва шу каби кўплаб тушунчаларга илгари уларда бўлмаган катта маънолар юкланди. Ҳикмат ҳам Қуръон ва Сунна орқали ўзининг мутлақ янги босқичига кўтарилди ва исломдан олдинги «ҳикмат» тушунчасининг миқёсларидан кўплаб маротабага кенгайди. Зеро, энди ҳикмат саҳиҳ илм билан қувватланган, мақсадлари аниқланган, ҳаракат йўналиши белгиланган кенг миқёсдаги тушунчага айланган эди.

Тадқиқотчи Айюб Палмер мана шу омилга тўхталган ҳолда, илгариги ҳикмат тушунчаси инсоннинг тасаввурига ёки илҳомигагина боғлиқ нарса бўлгани, илм билан алоқаси заиф бўлгани ёки бўлмаганини, аммо ислом ҳикмати замирида саҳиҳ илм ва мақсад борлигини, қадимги ва ислом ҳикмати орасидаги фарқ мана шунда кўринишини айтади.

Шу маънода ҳикматнинг Қуръон ва Суннада ишлатилиши ҳам унинг асл исломий тушунча эканлигини яққол намоён этса, бу икки манба унга юклаган улкан маънолар унинг янги жиҳатларини очиб бергани маълум бўлади. Бу икки манбада келган мисоллар ҳамда уларнинг тафсир ва шарҳлари, шунингдек, илк ислом олимларининг улардан келиб чиқиб айтган сўзлари бу фикрни қўллаб-қувватлайди ҳамда буларнинг бари унинг истилоҳий маънолар оламини ғоятда кенгайтиради, аммо булар энди кейинги изланиш ва мақолаларимиз мавзусидир.

Хулоса қилиш мумкинки, ҳикмат сўзи кўплаб маъноларга асос бўлган ҳолда у ҳақда янада кенгроқ тадқиқотлар ўтказиш лозим бўлади. Юқорида ҳикматнинг маънолар оламидаги қамрови бошқа кўплаб сўзлардан ҳам кенгроқ эканглиги баён қилинди. Хусусан, Қуръон ва Сунна Қуръоннинг ўзида “ҳикмат” деб аталиши ва келажакда қадимги даврдан бошлаб, унинг дин ва маданиятларда тутган ўрни, жумладан, фалсафа билан алоқаси, Қуръон ва Суннадаги маънолари ҳамда ислом олимлари томонидан нафақат луғавий жиҳатдан, балки истилоҳий жиҳатдан ишлатилиши ва таърифланишини ўрганиб чиқиш ҳикматнинг ўрнини янада кенгроқ очиб беришда муҳим аҳамиятга эга. Буларнинг натижасида биз маълум бир чегаралар билан чегараланган ҳикматни эмас, балки кенг миқёсдаги исломий ҳикматни ва унинг миқёсини англаб етишимиз мумкин бўлади...

Шунингдек, ҳикматнинг бугунги илм-фан, диний-маънавий ҳаётдаги ўрнини аниқлаш ҳам долзарб аҳамиятга эга. Унинг давримиздаги, илмий ва амалий йўналишлардаги аҳволи, ҳаётимиздаги ўрни қай даражада? Аммо яна бир қизиқ жиҳат шундан иборатки, ҳикмат қанчалик тадқиқ этилмасин, жуда кенг қамрови туфайли аслида унинг тадқиқи охирига етиб бўлмайди ҳам... Чунки Қуръони Каримда илм берилган кишиларга даражалар берилиши хабар берилгани ҳолда, ҳикмат берилган кишига кўп яхшилик берилиши ҳақида оят келган ҳамда бу яхшилик ва кўп ифодасининг туб мазмуни, таъбир жойиз бўлса, ҳикмату фалсафаси нима? Шуларни ҳисобга олганда, ҳикматни жуда кўп томонлама ўрганиладиган ва теран тадқиқ этиладиган доимий объект сифатида баҳолаш лозим.

Резюме. Илм ва ҳикмат муносабати, исм ва маъно боғлами, Ҳаким Термизий қарашлари, ҳакимлик асослари, ҳикматнинг луғавий маънолари, шеъриятда ҳикмат, ҳадислардан мисоллар, тилшунослик англами, манбашунослик таҳлили.

Resume. Relationship between knowledge and wisdom, connection between name and meaning, views of Hakim al-Tirmidhi, facets of a wiseman’s personality, lexical meanings of “hikmah”, hikmah in poetry, examples from hadiths, linguistic interpretation, source-critical analysis.

Резюме. Соотношение знания и мудрости, взаимосвязь имени и значения, воззрения Хакима ат-Тирмизи, грани личности хакима, лексические значения понятия «хикма», понятие «хикма» в поэзии, примеры из хадисов, лингвистическое понимание, источниковедческий анализ.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 9
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

АБДУРАҲМОН ЖОМИЙ ВА АЛИШЕР НАВОИЙ ИДИОСТИЛИДА «САГ//ИТ» КОНЦЕПТИНИНГ ЛИНГВОПОЭТИК ХУСУСИЯТЛАРИ

Чориев Таваккал Равшанович,
Бухоро давлат университети
ўзбек тили ва адабиёти кафедраси профессори,
филология фанлари номзоди

«Саг//ит» концепти Абдураҳмони Жомий ва Алишер Навоий шеъриятида мумтоз форс-тожик ва туркий адабиётнинг серқатлам, полифункционал ҳамда когнитив жиҳатдан мураккаб концептларидан бири ҳисобланади. Унинг семантик тузилишида денотатив ва мажозий, ижтимоий ва ахлоқий, ҳиссий-баҳоловчи, шунингдек, тасаввуфий-ирфоний қатламлар ўзаро узвий уйғунлашади. Ҳар икки шоирнинг бадиий матнларида «саг//ит» лексемаси фақат ҳайвон номини англатувчи номинатив бирлик сифатидагина эмас, балки садоқат, бандалик, камтарлик, фақр, фано, фидокорлик ва маъшуқ даргоҳига яқинлашиш истагининг рамзи сифатида ҳам намоён бўлади. Айни пайтда, контекстга боғлиқ ҳолда, мазкур лексема нафс, бегонасираш, тубанлик, рақобат, бевафолик ва маҳрумлик каби салбий маъновий оттенкаларни ҳам ифодалаши мумкин.

Шу нуқтаи назардан, Жомий ва Навоий идиостилида «саг//ит» концепти ирфоний дунёқарашнинг ўзига хос микромодели сифатида шаклланади. У орқали тасаввуф тафаккурига хос бўлган бир қатор бинар ва қадриятли муносабатлар – «ошиқ – маъшуқ», «банда – Худо», «мурид – муршид», «ўзлик – бегонасираш», «вафо – жафо», «кибр – камтарлик», «вужуд – фано» каби концептуал оппозициялар бадиий ва концептуал шаклда ифодаланади. Шу боис мазкур концептнинг кўпмаънолилиги, юқори даражадаги маъно яратиш имконияти, ахлоқий, маънавий ва маданий қадриятларни қамраб олиши уни қиёсий, лингвопоэтик, когнитив ва лингвомаданий нуқтаи назардан махсус тадқиқ этиш заруратини юзага келтиради.

Денотатив сатҳда «саг//ит» лексемаси муайян ҳайвон номини англатади. Бироқ бадиий матнда унинг маъновий доираси луғавий маъно чегарасидан ташқарига чиқиб, метафорик, рамзий, ирфоний, аксиологик, ҳиссий-экспрессив, интертекстуал ҳамда концептуал маъноларнинг мураккаб мажмуини шакллантиради. Мазкур маъновий кенгайиш, аввало, тасаввуфий рамзшунослик ва мумтоз адабиётда қарор топган барқарор поэтик анъаналар негизида амалга ошади.

Абдураҳмон Жомий ва Алишер Навоий идиостилида «саг//ит» концепти кўпинча маънавий камолот, муҳаббатда мутлақ садоқат, нафсдан воз кечиш, фано ва маҳбубга чексиз ихлос ғоялари билан боғланади. Бундай ҳолатда «саг//ит» ташқи жиҳатдан паст мақомни, бироқ маънавий нуқтаи назардан юксак мавқени ифодаловчи ошиқ ёки соликнинг рамзи сифатида талқин этилади. Субъект ўз ихтиёри билан мансаб, кибр ва худбинликдан воз кечиб, камтарликни маъшуқ ва ҳақиқатга етишишнинг муҳим шарти сифатида қабул қилади.

Когнитив нуқтаи назардан қараганда, Жомий ва Навоий асарларида «саг//ит» концепти ҳайвонга хос хусусиятларни инсоннинг маънавий-ахлоқий ҳолатига кўчириш модели асосида шаклланади. «Саг//ит»га хос садоқат, эргашиш, қўриқлаш ва қарамлик каби хусусиятлар мажозий сатҳда ошиқлик, ирфоний муносабатлар ҳамда ижтимоий алоқаларга кўчирилиб, янги маъновий қатламларни вужудга келтиради. Шу тариқа, «саг//ит» образи моддий воқелик сатҳидан маънавий ва ирфоний сатҳга кўтарилиб, ошиқнинг маъшуққа, соликнинг эса муршид ёки Худога бўлган муносабатини ифодаловчи концептуал воситага айланади.

Бундан ташқари, концептнинг аксиологик қатлами ҳам алоҳида аҳамият касб этади. Айрим контекстларда «саг//ит» нафс, ахлоқий тубанлик, бегонасираш, маҳрумлик ва маънавий мақомдан узоқлашишнинг рамзи сифатида намоён бўлиши мумкин. Демак, мазкур концептнинг маъновий йўналиши бир қутбли эмас: лексеманинг матндаги мавқеи ва унинг асосида турган қадриятлар тизимига қараб, у ижобий ёки салбий маъно касб этиши мумкин. Айнан шу икки қутблилик хусусияти Жомий ва Навоий шеъриятида «саг//ит» кон-

цептининг полифункционал хусусиятга эга бўлишини таъминловчи асосий омиллардан биридир.

Абдураҳмони Жомий ва Алишер Навоий ижодида «саг//ит» концепти фақат луғавий бирлик ёки поэтик образ эмас, балки маънавий тажриба, ахлоқий қадриятлар, тасаввуфий рамзлар ва мумтоз адабиётнинг поэтик анъаналари ўзаро уйғунлашган мураккаб когнитив-маданий бирликдир. Мазкур концептнинг қиёсий таҳлили Жомий ва Навоийнинг ирфоний дунёқарашидаги умумий ва фарқли жиҳатларни, ҳайвоний образларни концептуаллаштириш механизмларини ҳамда ҳар икки шоир идиостилига хос хусусиятларни аниқлаш имконини беради.

Ушбу жиҳатдан, «саг//ит» когнитив-дискурсив концепт сифатида ҳар икки шоирнинг поэтик тизимида инсон ва маъшуқ, банда ва Худо, шунингдек, нафс ва маънавий камолот ўртасидаги муносабатларни концептуаллаштиришнинг муҳим воситаларидан бири ҳисобланади. Унинг серқатламлиги ва юқори даражадаги рамз яратиш имконияти «саг//ит» лексемасининг шеърий матнда бир вақтнинг ўзида номинатив, метафорик, рамзий, аксиологик ва ирфоний вазифаларни бажаришига имкон беради. Хусусан ушбу шеърий матнларда:

1. «Саг» – мутлақ садоқат концепти. Жомий ва Навоий поэтикасида «саг» энг аввало мутлақ вафодорлик, садоқат ва беғараз муҳаббатнинг универсал рамзи сифатида талқин қилинади. Реал ҳаётда инсонга энг содиқ жонивор сифатида қабул қилинган саг бадиий тафаккурда ошиқнинг ўзини англаш моделига айланади. Ошиқнинг ўзини «саги кўйи ёр», «сагони дар» деб аташи унинг маҳбуб олдидаги мутлақ таслимияти ва садоқатини англатади. Хусусан, ушбу шеърий матнларда:

*Марон аз кўйи худ ҳамчун **саги бегона** Ҷомиро,*
*Ки дорад ошноии қадимӣ бо **саги кўят**[1].*

****

***Саг** вафодору ҷафоҷӯ ба ҷаҳон **сагманишон**,*
*Ман **саги он касам**, эй дил, ки вафое дорад[2].*

Бу мисолларда «саг» лексемаси денотатив маънодан бутунлай узоқлашиб, садоқат концептининг вербал репрезентанти сифатида намоён бўлади. Когнитив нуқтаи назардан «саг → вафодорлик» концептуал метафораси шаклланади.

2. «Саг» – фано ва камтарлик рамзи. Тасаввуфий дунёқарашда комил ошиқ ўз «мен»идан кечиб, маҳбубнинг ҳатто сагидан ҳам паст мақомни орзу қилади. Шу сабабли «саг» образи нафсни енгиш, тавозе, фано ва руҳий покланиш ғоялари билан чамбарчас боғланади.

*Ҷомӣ, эй, буди худ бигузар дар сафи **сагон-ш,***
Хилват дар анҷуман, сафар андар Ватан беҳ аст[3].

****

Эй хоки сари кӯи ту гаштан ҳаваси мо,
*Бар пои **сагат** бӯса задан мултамаси мо[4].*

Бу ерда «саг» инсоннинг ижтимоий мақомини эмас, балки унинг руҳий такомили ва фано мақомини ифодаловчи ирфоний концепт вазифасини бажаради. Когнитив моделда «пастлик → юксак маънавият» муносабати вужудга келади.

3. «Саг» – маҳбуб даргоҳининг муқаддаслиги белгиси. Жомий ва Навоий шеъриятида «саги кўй», «сагони дар», «сагони ёр» каби бирикмалар маҳбуб яшайдиган маконнинг муқаддаслигини белгилайди. Бу ерда сагнинг ўзи марказий образ эмас, балки муқаддас маконнинг семиотик белгиси ҳисобланади.

*Дар тавфи дарат шабҳо дунболи **сагат** гардам,*
*З-он гуна, ки гардад **саг** дунболи худовандон[5].*

****

Дар он кӯ, Фониё, гӯй гадоям,
*Зи хайли он **сагони кӯ** ки дидат[6].*

Бу мисолларда «кўй → маънавий марказ», «саг → муқаддас маконнинг қўриқчиси» когнитив модели юзага келади.

4. «Саг» концептининг аксиологик хусусиятлари. Оддий тилда «саг» кўпинча салбий баҳоловчи лексема ҳисобланади. Аммо Жомий ва Навоий идиостилида мазкур концептнинг аксиологик қиймати тубдан ўзгаради. Натижада қийматлар тизимида аксиологик инверсия содир бўлади: саглик – шараф; саг бўлиш – саодат; сагнинг изидан юриш – камолот; сагнинг оёғини

[1] Абдураҳмони Ҷомӣ. Хотимат-ул-ҳаёт // Осор дар ҳашт ҷилд. – Ҷ. 7. – Душанбе: Адиб, 1989. – С.68.
[2] Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами: йигирма томлик. Ўн саккизинчи том. Девони Фоний. – Тошкент: Фан, 2002. – Б. 352.
[3] Абдураҳмони Ҷомӣ. Хотимат-ул-ҳаёт // Осор дар ҳашт ҷилд. – Ҷ. 7. – Душанбе: Адиб, 1989. – С.78.
[4] Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами: йигирма томлик. Ўн саккизинчи том. Девони Фоний. – Тошкент: Фан, 2002. – Б. 7.
[5] Абдураҳмони Ҷомӣ. Хотимат-ул-ҳаёт // Осор дар ҳашт ҷилд. – Ҷ. 7. – Душанбе: Адиб, 1989. – С.265
[6] Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами: йигирма томлик. Ўн саккизинчи том. Девони Фоний. – Тошкент: Фан, 2002. – Б.170.

ўпиш – муҳаббатнинг энг юксак даражаси; сагони дар сафида бўлиш – маънавий мукаммаллик. Бу ҳолат тасаввуфий поэтикада қадриятларнинг қайта баҳоланиши натижасида юзага келган концептуал инверсия намунасидир.

5. Концептнинг эмоционал-экспрессив вазифаси. «Саг» концепти ошиқнинг ички кечинмалари, фидойилиги, изтироби ва муҳаббат кучини эстетик жиҳатдан кучайтиришга хизмат қилади.

Гар оҷизам ба дасти рақиби ту дур нест,
Шери фалак ***сагони дарат****ро бувад забун*[1].

****

Ояд ***чу сагаш*** *аз дили садпора ба тӯъма,*
Садпора диҳам, ӯ талабад пораи дигар [2].

Бу байтларда гипербола, истиора, муқобала ва эмоционал интенсификация воситасида ошиқнинг руҳий ҳолати юқори даражада экспрессивлаштирилган. Демак, «саг» концепти нафақат семантик, балки эмоционал-дискурсив маркер вазифасини ҳам бажаради.

6. Интертекстуал хусусият. «Саги кўйи ёр» образи форс-тожик тасаввуфий адабиётида шаклланган барқарор поэтик анъана бўлиб, унинг илдизлари Саноий, Аттор, Румий, Саъдий ва Ҳофиз ижодига бориб тақалади. Жомий ва Навоий мазкур анъанавий рамзни механик такрорламай, балки ўз индивидуал поэтик дунёқараши асосида қайта концептуаллаштирадилар. Жомийда мазкур концепт асосан ирфоний-фалсафий мазмунни мужассамлаштирса, Навоийда у лирик-психологик кечинмалар, эмоционал таъсирчанлик ва драматик экспрессия билан бойийди. Шунинг учун бир хил поэтик рамз икки муаллиф идиостилида турлича когнитив моделлар орқали намоён бўлади.

7. Концептнинг лингвопоэтик майдони. Жомий ва Навоий шеъриятида «саг/ит» концепти кўп сатҳли лингвопоэтик майдонни шакллантиради. Ушбу майдон қуйидаги ўзаро боғлиқ семантик-рамзий компонентларни қамраб олади:

Концептуал ядро	Лингвопоэтик маъно
Садоқат	вафо, ихлос, беғараз муҳаббат
Фано	камтарлик, нафсдан кечиш, тавозе
Қурбонлик	жонфидолик, ўзликни маҳбубга бағишлаш
Даргоҳ	муқаддаслик, руҳий марказ, висол макони
Ошиқ	банда, хизматкор, муҳиб
Ирфон	маънавий покланиш, комиллик, руҳий юксалиш
Аксиология	салбий денотатнинг ижобий қадриятга айланиши
Эмоционаллик	муҳаббат, изтироб, ҳижрон, шавқ
Интертекст	тасаввуфий поэтик анъана ва унинг индивидуал қайта талқини

Юқорида баён қилинган назарий мулоҳазаларни аниқ шеърий далиллар билан асослаш мақсадида Абдураҳмон Жомий ва Алишер Навоий ижодидан танланган байтлар асосида «саг» концептининг лингвопоэтик хусусиятлари таҳлил қилинади. Бундай ёндашув концептнинг бадиий матндаги семантик трансформацияси, когнитив моделлари, рамзий табиати ва идиостил яратишдаги ўрнини чуқурроқ англаш имконини беради.

1. **Жомий ижодида «саг» концептининг лингвопоэтик хусусиятлари.**

Чун нашавам ба давлати бандагии ту муфтхар,

Ман, ки ба ***мансаби сагӣ*** *бар дари ту муболҳия* [3].

Мазкур байтда **«мансаби сагӣ»** бирикмаси концептуал метафора асосида шаклланган бўлиб, тасаввуфий поэтикадаги қадриятлар тизимининг ўзига хос когнитив моделини ифодалайди. Бу ерда «саг» лексемаси денотатив маъносини йўқотиб, Ҳақ даргоҳининг содиқ хизматкори, мурид ва фидойи ошиқ маъноларини англатувчи рамзий бирликка айланган. «Мансаб» ва «сагӣ» лексемаларининг бириктирилиши ташқи жиҳатдан семантик зиддиятни юзага келтирса-да, тасаввуфий дискурсда у аксиологик инверсия ҳосил қилади. Яъни оддий дунёқарашда паст баҳоланувчи «са-

[1] Абдураҳмони Ҷомӣ. Хотимат-ул-ҳаёт // Осор дар ҳашт ҷилд. – Ҷ. 7. – Душанбе: Адиб, 1989. – С.258

[2] Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами: йигирма томлик. Ўн тўққизинчи том. Девони Фоний (давоми). – Тошкент: Фан, 2002. – Б.28.

[3] Абдураҳмони Ҷомӣ. Хотимат-ул-ҳаёт // Осор дар ҳашт ҷилд. – Ҷ. 7. – Душанбе: Адиб, 1989. – С.254.

глик» ирфоний тафаккурда энг юксак маънавий мартабага айланади. Когнитив нуқтаи назардан мазкур байтда «хизмат – шараф», «саг – содиқ банда» концептуал моделлари фаоллашган.

Ҳамин баски аз худ гирифта канор,
Миёни ***сагони дарат*** *ҷо кунам [1].*

Байтдаги «сагони дарат» бирикмаси ирфоний символ сифатида қўлланиб, маҳбуб даргоҳидаги содиқ ошиқлар ва муридлар жамоасини англатади. «Аз худ гирифта канор» ифодаси эса тасаввуфнинг марказий тушунчаларидан бири бўлган фано концептини актуаллаштиради. Бу ерда лирик қаҳрамоннинг ўзлигидан кечиши унинг маънавий юксалишининг шарти сифатида талқин қилинган. Демак, «саг» концепти мазкур контекстда камтарлик, убудият ва руҳий покланишнинг когнитив маркери вазифасини бажаради.

Гар оҷизам ба дасти рақиби ту дур нест,
Шери фалак ***сагони даратро*** *бувад забун[2].*

Байтда Жомий «шер» ва «саг» образларини қарама-қарши қўйиш орқали кучли антитеза ва семантик парадокс ҳосил қилади. Анъанавий поэтик тафаккурда шер қудрат ва салтанат рамзи саналса, мазкур контекстда ҳатто «шери фалак» ҳам «сагони даргоҳ» олдида ожиз қилиб тасвирланади. Бу эса тасаввуфдаги руҳий қудратнинг жисмоний қудратдан устунлиги ғоясини эстетик жиҳатдан ифода этади. Шу тариқа «саг» концепти маънавий қудратнинг рамзига айланади.

Дар тавфи дарат шабҳо дунболи ***сагат гардам,***
З-он гуна, ки гардад саг дунболи худовандон[3].

Байтда тамсилий ўхшатиш (аналогик моделлаштириш) устувор лингвопоэтик восита ҳисобланади. Сагнинг ўз эгасига чексиз вафодорлиги умуминсоний когнитив тажриба сифатида олиниб, ошиқнинг маҳбубга бўлган мутлақ садоқати билан қиёсланади. Бу ерда «саг → вафодорлик» концептуал метафораси янада фаоллашиб, садоқат ва ихлос концептларининг вербал репрезентациясини таъминлайди.

Марон аз кӯи худ ҳамчун ***саги бегона*** *Ҷомиро,*
Ки дорад ошноии қадимӣ бо ***саги кӯят[4]****.*

Мазкур байтда «саги бегона» ва «саги кӯят» бирикмалари ўртасида контекстуал антонимия юзага келган. Биринчи бирикма маҳбуб даргоҳидан маҳрумлик, руҳий ёлғизлик ва қабул қилинмаганликни англатса, иккинчиси маҳбубга яқинлик, маънавий мақбуллик ва висол имкониятини ифода этади. Натижада бир хил лексема турли контекстларда қарама-қарши аксиологик қиймат касб этади. Бу ҳолат контекстуал полисемия ва коннотатив семантиканинг динамик хусусиятини яққол намоён қилади.

Ҷомӣ, эй, буди худ бигузар дар ***сафи сагон-ш****,*
Хилват дар анҷуман, сафар андар Ватан беҳ аст[5].

Байтдаги «сафи сагон» бирикмаси Ҳақ даргоҳига сидқидилдан хизмат қилувчи тасаввуф аҳлининг рамзий номланишидир. Шоир ўзлигидан воз кечиб, камтарлик, убудият ва маънавий покланиш йўлини танлашга чорлайди. Шу боис мазкур контекстда «саг» концепти фано, тавозе, убудият ва руҳий комиллик каби ирфоний тушунчаларни бирлаштирувчи концептуал марказ вазифасини бажаради.

2. **Навоий ижодида, хусусан «Девони Фоний»да «саг» концептининг лингвопоэтик хусусиятлари.**

Алишер Навоийнинг «Девони Фоний» асарида «саг» лексемаси энг сермаъно, концептуал ва лингвопоэтик юкламага эга бўлган бирликлардан бири ҳисобланади. Бу лексема ғазалларда оддий ҳайвон номи сифатида эмас, балки тасаввуфий рамз, концептуал метафора, ирфоний образ, эмоционал-экспрессив восита, аксиологик белги ва интертекстуал код сифатида қўлланади. Шу боис Навоий идиостилида «саг» концепти садоқат, фано, тавозе, муҳаббат, қурбонлик ва маънавий комиллик каби асосий ирфоний тушунчаларни вербаллаштирувчи муҳим когнитив доменга айланади.

Саг вафодору ҷафоҷӯ *ба ҷаҳон* ***сагманишон****,*
Ман ***саги он касам****, эй дил, ки вафое дорад[6].*

Мазкур байтда «саг» лексемаси икки хил семантик сатҳда воқеланган. Биринчи мисрада у денотатив маънода қўлланиб, вафодор ҳайвонни англатади. Иккинчи мисрада эса метафоралашиш жараёни натижасида садоқатли ошиқ, ихлосли банда ва фидойи хизматкор маъноларини ифодалайди. Шу билан бирга, «вафодор» ва «жафоҷӯ» компонентларининг ўзаро қарама-қарши қўйилиши тасаввуфий муҳаббатнинг диалектик табиатини очиб беради: ҳақиқий муҳаббат фақат вафо эмас, балки маҳбуб томонидан етказилган

[1] Ўша жойда. – С.254.
[2] Ўша жойда. – С.258.
[3] Ўша жойда. – С.265.
[4] Ўша жойда. – С.68.
[5] Ўша жойда. – С.78.
[6] Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами: йигирма томлик. Ўн саккизинчи том. Девони Фоний. – Тошкент: Фан, 2002. – Б.352.

жафони ҳам муҳаббат билан қабул қилишни тақозо этади. Когнитив нуқтаи назардан бу ерда «саг → садоқат» концептуал метафораси шаклланган.

Саги ӯ *хуни дили ман хӯраду ман ғами ӯ,*
З-ин ки раиҷу аламолуда, ғизое дорад[1].

Байтдаги «саги ӯ» реал ҳайвон эмас, балки маҳбуб даргоҳининг рамзий тимсолидир. «Хуни дил» бирикмаси ишқий азоб ва руҳий қурбонликнинг концептуал метафораси сифатида намоён бўлади. Ошиқ маҳбубнинг ҳатто сагига ҳам ўз қалбини фидо қилишга тайёрлигини билдиради. Натижада «саг» концепти мутлақ ихлос, қурбонлик ва фано ғояларини актуаллаштирувчи ирфоний символга айланади.

Эй хоки сари кӯи ту ғаштан ҳаваси мо,
*Бар **пои сагат** бӯса задан мултамаси мо*[2].

Мазкур байтда «пои саг» бирикмаси тасаввуфий поэтикадаги энг муҳим рамзлардан бири ҳисобланади. Ошиқ маҳбубнинг ҳатто саги оёғини ўпишни ҳам юксак бахт ва саодат деб билади. Бу ерда қийматлар инверсияси (аксиологик инверсия) кузатилади: оддий ҳаётда паст баҳоланувчи образ ирфоний дунёқарашда энг юксак маънавий қадриятга айланади. Когнитив жиҳатдан мазкур байт «пастлик → маънавий юксаклик» модели асосида қурилган.

Замон-замон фиканам хешро ба кӯяш, лек
***Сагон** бурун фиканандам кашон-кашон ҳар шаб*[3].

Бу ерда «сагон» маҳбуб кўйининг посбонлари сифатида тасвирланган. Уларнинг ошиқни кўйдан ҳайдаши висол йўлидаги маънавий синовлар, нафс билан кураш ва руҳий имтиҳонларнинг рамзий ифодасидир. Шу тариқа «саг» концепти муҳофаза, синов ва маънавий саралаш каби ирфоний маъноларни ҳам ўз ичига олади.

Маст дар кӯяш фитодам карда тарки хонумон,
*Дар миёни роҳ **хоби саг** зи бекошонагист*[4].

Байтдаги «хоби саг» фразеологик бирикмаси бошпанасизлик, дарбадарлик ва дунёвий манфаатлардан воз кечиш ҳолатини англатади. Навоий ушбу халқона ифодага янги бадиий мазмун юклаб, уни ошиқнинг ишқ йўлида мутлақ фано мақомига етиши билан боғлайди. Бу ҳолат муаллифнинг фразеологик бирликларни индивидуал поэтик қайта концептуаллаштириш маҳоратини кўрсатади.

Маҷрӯҳ сару поям, гирди сари кӯят бин,
*Ин як зи **саги кӯят**, онаст зи дарбонат*[5].

Байтда «саги кӯй» маҳбуб даргоҳининг содиқ хизматкорлари рамзи сифатида намоён бўлади. Ошиқ улардан жароҳат олишни ҳам шараф деб ҳисоблайди. Бу ерда «саг» концепти ихлос, қурбонлик, руҳий садоқат ва убудият маъноларини бирлаштирувчи концептуал марказ вазифасини бажаради.

Дӯш гуфтаст зи бас наъраву ошӯбам ёр:
*«Ҳаст ӯ, варна **алолои сагон** ин ҳама нест»*[6].

Байтда «алолои сагон» метонимик образ вазифасини бажаради. Сагларнинг ҳуриши лирик қаҳрамоннинг борлигини билвосита билдирувчи белги сифатида хизмат қилади. Натижада воқелик тўғридан-тўғри эмас, балки рамзий ишора орқали ифода этилиб, матннинг семантик чуқурлиги ортади.

Дар он кӯ, Фониё, гӯй гадоям,
*Зи хайли он **сагони кӯ** ки дидат.*[7]

Байтдаги «сагони кӯ» бирикмаси камситиш эмас, балки маҳбуб кўйига мансубликнинг энг олий даражасини англатади. Ошиқ ҳатто маҳбуб саглари сафида бўлишни ҳам ўзининг энг юксак бахти деб билади. Бу ерда гипербола, тасаввуфий рамзлаштириш ва аксиологик инверсия бир вақтнинг ўзида намоён бўлган.

Қалби рӯйандуди ман харҷи сагони ёр шуд,
Ваҳ, чӣ созад ин дам, ин зори дил аз каф дода харҷ[8].

Байтда «сагони ёр» маҳбуб муҳитининг рамзий белгиси бўлиб, ошиқ ўз қалбини ҳатто улар учун ҳам қурбон қилишга тайёрлигини ифодалайди. Шу тариқа қурбонлик, фидойилик ва ихлос концептлари бадиий маънонинг асосий марказига айланади.

Ояд чу сагаш аз дили садпора ба тӯъма,
Садпора диҳам, ӯ талабад пораи дигар[9].
****

Кафи пои сагаш бӯсиданам бин,
Туро ҳам гар диҳад даст, инчунин бӯс[10].

Мазкур байтларда муболаға ва гиперболи-

[1] Ўша жойда. – Б.352.
[2] Ўша жойда. – Б.7.
[3] Ўша жойда. – Б.88.
[4] Ўша жойда. – Б.111.
[5] Ўша жойда. – Б.117.
[6] Ўша жойда. – Б.148.
[7] Ўша жойда. – Б.170..
[8] Ўша жойда. – Б.209.
9 Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами: йигирма томлик. Ўн тўққизинчи том. Девони Фоний (давоми). – Тошкент: Фан, 2002. – Б.28.
[10] Ўша жойда. – Б.48.

зация юқори даражада намоён бўлган. Ошиқ маҳбубнинг ҳатто саги учун ҳам ўз жони ва қалбини аямайди. Бу орқали ишқий фидойилик, мутлақ садоқат ва фано мақоми эстетик жиҳатдан кучайтирилади. Когнитив жиҳатдан «жон – қурбонлик совғаси» концептуал модели фаоллашади.

На ба дарё расад забони саге,
Нанишонад ба суфра сагмагасе[1].

Байтда «саг» лексемаси мақолсимон ҳикмат таркибида қўлланиб, ахлоқий-фалсафий мазмунни ифода этади. Лексема ўзининг денотатив маъносига яқин бўлса-да, умумлаштирувчи панд-насиҳат вазифасини бажаради. Бу ҳолат Навоийнинг халқ мақоллари ва ҳикматли ифодаларни поэтик дискурсга моҳирона интеграция қилиш маҳоратини кўрсатади.

3. **Алишер Навоий ғазалиётида «ит//саг» концептининг лингвопоэтик хусусиятлари**

Лингвомаданий нуқтаи назардан **«ит//саг»** лексемаси XV аср форс-тожик ва туркий мумтоз шеъриятининг умумий концептуал белгиларидан бири ҳисобланади. Бу образ исломий-тасаввуфий дунёқарашда шаклланган маданий код сифатида Жомий, Навоий ва уларнинг адабий муҳитидаги бошқа шоирлар ижодида учрайди. Бироқ Навоий идиостилида мазкур лексема оддий анъанавий рамз доирасидан чиқиб, ошиқ–маҳбуб муносабатлари, **фано–бақо**, **камтарлик–комиллик**, **садоқат–қурбонлик** каби когнитив оппозицияларни бирлаштирувчи марказий лингвопоэтик концептга айланади. Шу жиҳатдан «ит» концепти Навоийнинг индивидуал поэтик тафаккурини намоён этувчи энг муҳим идиостил белгиларидан бири сифатида баҳоланади.

1. Ит – ошиқнинг мутлақ камтарлиги ва фано мақомининг рамзи.

Итларинг *махсусу маҳзундур Навоий, кошки*
Кирса бу маҳрум ҳам ул зумрайи маҳрам аро[2].

Байтда «итларинг» лексемаси реал ҳайвонни эмас, балки маҳбуб даргоҳига энг яқин бўлган мавжудотларнинг рамзий образини англатади. Ошиқ учун улар сафига кириш энг олий бахт ҳисобланади. Бу ерда ит → садоқат, итлар сафи → маънавий қурбат, маҳрам → илоҳий яқинлик концептлари ўзаро боғланган. Лингвопоэтик жиҳатдан мазкур образ инсоннинг ўз «мен»идан кечиши ва фано мақомига етишишини ифодалайди.

2. Ит – маҳбубга мутлақ садоқатнинг идеал тимсоли.

Гар кўнгул оҳу кўзунг оллида лойиқ бўлмаса,
Итларингга *бўлсун, эй шўхи ситамгорим, фидо*[3].

Байтда ошиқ ҳатто маҳбуб учун эмас, балки унинг итлари учун ҳам қурбон бўлишга тайёрлигини билдиради. Бу гиперболик ифода муҳаббатнинг энг юқори даражасини кўрсатади. Ит маҳбубга мансублиги сабабли муқаддас маъно касб этади ва садоқатнинг идеал рамзига айланади.

3. Ит – ошиқнинг руҳий ҳолатини ифодаловчи концептуал метафора.

Бир эясиз ***ит*** *бўлуб эрди Навоий ёрсиз,*
Бўлмасун, ё рабки, ҳаргиз банда султондин жудо[4].

Бу ерда «эясиз ит» образи концептуал метафора вазифасини бажаради. Ошиқнинг ёрсизлиги эгасиз итнинг ҳимоясизлиги билан қиёсланади. Шоир ташқи ижтимоий ҳолатни эмас, балки маънавий саргардонлик, ички бўшлиқ ва руҳий ёлғизликни тасвирлайди.

4. Ит – илоҳий раҳмат ва маънавий шараф рамзи.

Итинг *ҳисобиға кирган ҳисоб вақтида,*
Агарчи журми эрур беҳисоб, эмас маҳсуб [5].

Байтда «ит» концепти янги семантик қирра касб этади. Агар инсон маҳбубнинг ити сифатида қабул қилинса, унинг гуноҳлари ҳисобга олинмайди. Шу тариқа ит образи илоҳий раҳмат, маънавий мақбуллик ва кечирилиш концептларини ифода этувчи ирфоний рамзга айланади.

5. Ит – шарафли меҳмон ва хизмат қилиш объекти.

Ити *меҳмонлиғ учун эмди қадам қўйса бўлурким,*
Кўнгул ўт қилди муҳайёву бағир туъма мураттаб[6].

Бу байтда гипербола энг юқори нуқтага чиқади. Ошиқ ўз кўнглини ўчоқ, бағрини эса таом қилиб, маҳбубнинг итини кутишга тайёрлигини билдиради. Бу ерда ит шарафли меҳмон мақомига кўтарилиб, ошиқнинг мутлақ хизмат ва қурбонликка тайёрлигини ифодалайди.

6. Ит – Мажнун архетипи билан боғланган интертекстуал образ.

---

[1] Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами: йигирма томлик. Йигирманчи том. Девони Фоний. Қасидалар. Муфрадот. Иловалар. – Тошкент: Фан, 2003. – Б.23.

[2] Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами: йигирма томлик. Учинчи том. Хазойин ул-маоний. Ғаройиб ус-сиғар. – Тошкент: Фан, 1988. – Б. 23.

[3] Ўша жойда. – Б.39.

[4] Ўша жойда. – Б.44.

[5] Ўша жойда. – Б.45.

[6] Ўша жойда. – Б.48.

Сўрса Мажнун ишқ даштида мени, айт, эй рафиқ

*Ким, қуюндек **итти** бу водийда саргардон бўлуб[1].*

Байтда «ит» концепти Мажнун, саҳро ва ишқ дашти билан боғланган интертекстуал маъно майдонини ҳосил қилади. Навоий классик ишқий анъанани давом эттириб, ошиқни саҳрода сарсон кезган ит образи орқали тасвирлайди. Бу образ фақат қиёс эмас, балки мумтоз адабиётда шаклланган архетипик моделнинг қайта талқинидир.

7. Ит – нафс ва беқарор кўнгилнинг рамзи.

*Кўнгулки **итти** қилиб тийра хонумонимни,*

Қовай агар яна келса, юзини қора қилиб[2].

Байтда «ит» концептининг салбий қутби намоён бўлади. Шоир кўнгилни итга қиёслаб, уни назоратсиз нафс, беқарор эҳтирос ва инсонни маънавий таназзулга олиб борувчи ички куч сифатида тасвирлайди. Шу жиҳатдан мазкур образ тасаввуфдаги нафсни жиловлаш ғояси билан узвий боғланади.

8. Ит – шаҳидлик ва қурбонлик тимсоли.

*Не ғамим **ит кеби** ўлмакдин, агар элтур эса*

Бўйнума ип солибон кўйига ул моҳ чекиб[3]

Ошиқ учун маҳбуб кўйида ит каби жон бериш фожиа эмас, балки энг юксак саодатдир. Бу ерда фано, таслимият, шаҳидлик ва қурбонлик концептлари бир бутун маъно тизимига бирлашади.

9. Ит – маънавий юксалиш ва қадриятлар инверсиясининг белгиси.

*Шери гардун ул кишига бўйни боғлиғ бўлғай **ит,***

Ким эшигинг итларин топқай ўзига ақрабо[4].

Байтда кучли антитеза – шер ва ит образлари қарама-қарши қўйилган. Навоий тасаввуфга хос қадриятлар инверсиясини амалга ошириб, маҳбуб эшигидаги итни осмон шеридан ҳам улуғ мақомга кўтаради. Бу ерда ташқи қудрат эмас, балки маънавий яқинлик ҳақиқий қадрият сифатида талқин қилинади.

10. Ит – маҳбуб қаҳрини қабул қилиш ва муҳаббат синовининг рамзи.

*Есун **итинг** жигаримни узуб-узуб, негаким*

Кесиб-кесиб қошиға ташламоғлиқ эрмас адаб[5].

Байтда ит азоб етказувчи образ эмас, балки маҳбуб иродасининг ижрочиси сифатида гавдаланади. Ошиқ бу азобни муҳаббатнинг энг олий синови ва руҳий камолот шарти сифатида қабул қилади. Лингвопоэтик жиҳатдан гипербола, драматик метафора ва қурбонлик символикаси бир поэтик тизимда уйғунлашган.

Қиёсий-лингвопоэтик таҳлил натижалари шуни кўрсатадики, Жомий ва Навоий идиостилида «саг//ит» концепти оддий зооним эмас, балки кўп қатламли концептуал тузилмага эга бўлган ядровий лингвопоэтик концепт ҳисобланади. Унинг маъноси денотатив сатҳ билан чекланмай, коннотатив, рамзий, ирфоний, когнитив ва лингвомаданий қатламларни ҳам қамраб олади. Шу жиҳатдан мазкур концепт ҳар икки шоирнинг бадиий тафаккури, индивидуал идиостили ва тасаввуфий эстетикасини шакллантирувчи муҳим концептуал домен сифатида намоён бўлади.

Когнитив нуқтаи назардан «саг//ит» концепти инсоннинг маънавий тажрибасини ҳайвон образи орқали концептуаллаштиришга асосланган. Бу ерда реал ҳайвон образи инсоннинг руҳий ҳолати, ахлоқий фазилатлари ва ирфоний камолотини англатувчи когнитив моделга айланади. Натижада «ит» лексемаси садоқат, фано, тавозе, қурбонлик, ихлос, маҳбубга хизмат, ўзликдан кечиш ва илоҳий висолга интилиш каби концептуал белгиларни бирлаштирувчи марказий репрезентант вазифасини бажаради. Демак, мазкур концепт ҳар икки адибнинг поэтик оламида «инсон – хизматкор», «ошиқ – содиқ банда» ва «ишқ – маънавий камолот йўли» каби когнитив моделларни шакллантиради.

Лингвомаданий нуқтаи назардан эса «саг//ит» концепти Шарқ тасаввуфий маданиятида шаклланган қадриятлар тизимини акс эттиради. Кундалик тилда салбий баҳога эга бўлган «ит» образи тасаввуфий поэтикада семантик трансформацияга учраб, ижобий аксиологик мазмун касб этади. Шу тариқа мазкур концепт вафодорлик, камтарлик, муридлик, маънавий покланиш ва комил инсон ғояларини ифодаловчи маданий кодга айланади. Бу ҳолат Шарқ мумтоз адабиётида тил, маданият ва диний-фалсафий тафаккурнинг ўзаро узвий боғлиқлигини яққол намоён этади.

Лингвопоэтик жиҳатдан «саг//ит» концепти турли бадиий воситалар – истиора, рамз, ташбеҳ, талмеҳ, тазод ва ирфоний аллюзиялар орқали семантик жиҳатдан бойитилиб, матнда кўп қатламли маъно майдонини ҳосил қилади. Шу боис бир лексема контекстга қараб бир вақтнинг ўзида денотатив, рамзий, ирфоний ва эмоционал

[1] Ўша жойда. – Б.56.

[2] Ўша жойда. – Б.59.

[3] Ўша жойда. – Б.58.

[4] Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами: йигирма томлик. Тўртинчи том. Хазойин ул-маоний. Наводир уш-шабоб – Тошкент: Фан, 1989. – Б.8.

[5] Ўша жойда. – Б.30.

маъноларни фаоллаштириб, шеърнинг эстетик таъсирчанлигини кучайтиради. Бу эса мазкур концептнинг юқори даражадаги лингвопоэтик потенциалга эга эканлигини тасдиқлайди.

Қиёсий таҳлил Жомий ва Навоий идиостили ўртасидаги умумийлик ва фарқларни ҳам аниқлаш имконини берди. Жомий поэтикасида «саг» концепти асосан ирфоний-фалсафий мазмун, муридлик ахлоқи ва тасаввуфий тавозе билан боғланса, Навоий идиостилида ушбу концепт кучли эмоционал-психологик ва драматик мазмун касб этади. Навоий «ит» образи орқали ошиқнинг ички изтироблари, фидойилиги, қурбонликка тайёрлиги ва ишқнинг руҳий драматизмини янада таъсирчан ифодалайди. Шу билан у анъанавий тасаввуфий рамзни индивидуал бадиий тафаккур асосида қайта концептуаллаштиради.

Тадқиқот натижалари шуни кўрсатадики, «саг//ит» концепти ҳар икки шоирнинг концептосферасида периферик эмас, балки ядровий ўринни эгаллайди. У «ишқ», «маҳбуб», «дил», «жон», «фано», «вафо», «даргоҳ», «йўл» каби етакчи концептлар билан узвий концептуал тармоқ ҳосил қилиб, уларнинг семантик ўзаро таъсирини таъминлайди. Бу ҳолат Жомий ва Навоий поэтик оламида концептларнинг алоҳида эмас, балки ягона когнитив-эстетик тизим сифатида фаолият кўрсатишини кўрсатади.

«Саг//ит» концепти Жомий ва Навоий идиостилида нафақат тасаввуфий-ирфоний анъананинг давомийлигини, балки ҳар икки адибнинг индивидуал бадиий тафаккурини, концептуал дунё манзарасини ва сўз санъатидаги юксак маҳоратини ёрқин акс эттирувчи универсал лингвопоэтик феномен сифатида намоён бўлади. Мазкур концептнинг когнитив, лингвомаданий ва лингвопоэтик хусусиятларини комплекс таҳлил қилиш Шарқ мумтоз шеъриятида концептуал поэтика, идиостил ва бадиий тафаккур муносабатларини янада чуқурроқ англашга хизмат қилади ҳамда Жомий ва Навоий ижодидаги форс-тожикча муштарак лексик бирликларнинг концептуал табиатини очиб беришда муҳим назарий ва амалий аҳамият касб этади.

Навоий идиостилида «ит» («саг») концепти кўп қатламли концептуал тизимни ташкил этади. У бир вақтнинг ўзида садоқат, камтарлик, фано, маънавий қурбат, қурбонлик, илоҳий раҳмат, нафс, руҳий саргардонлик ва ирфоний камолот каби концептларни бирлаштирувчи марказий поэтик рамз вазифасини бажаради. Когнитив лингвистика нуқтаи назаридан мазкур концепт «ошиқ – ит», «маҳбуб – соҳиб», «даргоҳ – маънавий макон» каби концептуал метафоралар асосида шаклланган бўлиб, лингвомаданий жиҳатдан Шарқ тасаввуфий анъанасидаги хизмат, таслимият ва илоҳий муҳаббат ғояларини вербаллаштиради. Шу боис Навоий поэтикасида «ит» лексемаси денотатив маъносидан чиқиб, шоирнинг индивидуал бадиий тафаккурини намоён этувчи универсал лингвопоэтик ва ирфоний концепт даражасига кўтарилган.

Резюме. Мазкур мақолада Абдураҳмон Жомий ва Алишер Навоий идиостилида «саг//ит» концептининг лингвопоэтик хусусиятлари қиёсий-типологик нуқтаи назардан тадқиқ этилади. «Саг» ва «ит» лексемаларининг шоирлар ижодидаги денотатив ҳамда коннотатив маънолари, семантик қатламлари, образли-метафорик қўлланиши ва бадиий-эстетик вазифалари таҳлил қилинади. Тадқиқотда мазкур концептнинг мумтоз форс-тожик ва туркий адабиётдаги анъанавий маъно-мазмун доираси, шунингдек, Жомий ва Навоийнинг индивидуал-бадиий тафаккуридаги ўзига хос талқинлари очиб берилади. «Саг//ит» образи бир томондан садоқат, вафодорлик, фидойилик, камтарлик ва хизмат рамзи сифатида намоён бўлса, иккинчи томондан тасаввуфий-ирфоний контекстда нафс, руҳий покланиш, муршидга ёки маъшуққа мутлақ садоқат каби концептуал маъноларни ифодалайди. Жомий ва Навоий поэтик матнларида мазкур лексеманинг қўлланиш частотаси, контекстуал маънолари, эпитет, ташбеҳ, истиора ва рамзий образ яратишдаги иштироки қиёсланади. Таҳлил натижалари «саг//ит» концептининг ҳар икки шоир идиостилида кўпқатламли, полифункционал ва лингвомаданий жиҳатдан аҳамиятли поэтик концепт эканини кўрсатади.

Resume. This article examines the linguopoetic features of the “sag//it” concept in the idiostyles of Abdurrahman Jami and Alisher Navoi from a comparative and typological perspective. The study analyzes the denotative and connotative meanings of the lexemes “sag” and “it”, their semantic layers, figurative and metaphorical uses, and their artistic and aesthetic functions in the poets’ works. Particular attention is paid to the traditional semantic and cultural meanings of this concept in classical Persian-Tajik and Turkic literature, as well as to its individual interpretation within the poetic worldviews of Jami and Navoi. The image of the “sag//it” functions, on the one hand, as a symbol of loyalty, devotion, self-sacrifice, humility, and service; on the other hand, within the Sufi and ‘irfani context, it acquires conceptual meanings associated with submission, spiritual purification, overcoming the nafs, and absolute devotion to a spiritual guide or beloved.

The comparative analysis reveals the specific ways in which the lexeme functions within the poetic systems of the two authors, particularly in the formation of epithets, similes, metaphors, and symbolic images. The findings demonstrate that the “sag//it” concept in the idiostyles of Jami and Navoi represents a multilayered, multifunctional, and linguoculturally significant poetic concept through which the poets express ethical, aesthetic, Sufi, and philosophical ideas.

Резюме. В статье в сравнительно-типологическом аспекте исследуются лингвопоэтические особенности концепта «саг//ит» в идиостилях Абдурахмана Джами и Алишера Навои. Анализируются денотативные и коннотативные значения лексем «саг» и «ит», их семантические уровни, образно-метафорическое употребление и художественно-эстетические функции в поэтических текстах. Особое внимание уделяется традиционному смысловому содержанию данного концепта в классической персидско-таджикской и тюркской литературе, а также его индивидуально-авторской интерпретации в художественном мышлении Джами и Навои. Образ «саг//ит» выступает, с одной стороны, как символ преданности, верности, самоотверженности, смирения и служения, а с другой – в суфийско-ирфаническом контексте приобретает значения, связанные с покорностью, очищением души, преодолением нафса и абсолютной преданностью духовному наставнику или возлюбленному. Сопоставительный анализ позволяет выявить особенности функционирования данной лексемы в поэтической системе двух авторов, её участие в формировании эпитетов, сравнений, метафорических конструкций и символических образов. Результаты исследования показывают, что концепт «саг//ит» в идиостилях Джами и Навои является многослойным, полифункциональным и лингвокультурно значимым поэтическим концептом, посредством которого раскрываются этические, эстетические и суфийско-философские представления поэтов.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 9
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ALISHER NAVOIY IJODIDA SO‘Z QADRI VA NUTQ ODOBI TALQINI

Umurqulov Zafar Bekpo‘latovich,
Termiz davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari doktori

Alisher Navoiy o‘zbek tili tarixida so‘z san'atining buyuk namoyandasi bo‘lish bilan birga, tilning ijtimoiy, ma'naviy va axloqiy imkoniyatlarini teran anglagan mutafakkirdir. Uning asarlarida til faqat fikr almashish quroli emas, balki insonning ma'naviy qiyofasini namoyon qiluvchi, kishilarni bir-biriga yaqinlashtiradigan yoki aksincha, ular o‘rtasida nizo tug‘dirishi mumkin bo‘lgan kuch sifatida talqin etiladi. Shu bois Navoiy so‘zning ma'nosi, rostligi, qisqaligi, o‘rinliligi, ta'sirchanligi va axloqiy oqibatiga doir ko‘plab hikmatlarni meros qoldirgan.

Bugungi nutq madaniyati nazariyasida ham nutqning to‘g‘riligi, aniqligi, mantiqiyligi, jo‘yaliligi, ifodaliligi va etik me'yorlarga muvofiqligi asosiy mezonlar sifatida qaraladi[1]. Navoiyning besh asr muqaddam aytgan fikrlari ushbu zamonaviy talablar bilan ko‘p jihatdan uyg‘un. Ayniqsa, tilga mas'uliyat bilan munosabatda bo‘lish, ortiqcha so‘zdan qochish, suhbatdosh qalbini asrash, rost so‘zlash va tinglashni bilish haqidagi qarashlar hozirgi muloqot madaniyati uchun ham muhimdir.

Navoiy talqinida til insonning boshqa mavjudotlardan ajratib turadigan eng muhim ma'naviy boyliklardan biridir. U so‘zni insonga berilgan oddiy fiziologik qobiliyat sifatida emas, tafakkur va ma'naviyatni tashqi olamga olib chiqadigan vosita sifatida baholaydi.

So‘zdirki, nishon berur o‘likka jondin,
So‘zdirki, berur jong‘a xabar jonondin.
Insonni so‘z ayladi judo hayvondin,
Bilkim, guhari sharifroq yo‘q andin.

Ushbu ruboiyda so‘z "guhari sharif" – eng qimmatli gavhar darajasiga ko‘tariladi. Insonni hayvondan ajratib turuvchi belgi sifatida so‘zga urg‘u berilishi Navoiyning nutqni aql va ma'naviyat bilan uzviy bog‘liq holda tushunganini ko‘rsatadi. Bu yerda insonning ustunligi shunchaki gapira olishda emas, balki ma'no yaratish, fikrni tartibga solish va uni boshqa odamga yetkaza bilish qobiliyatida namoyon bo‘ladi.

"Hayrat ul-abror"da ham so‘z qalbdagi ma'noning gavhari sifatida tasvirlanadi. Shoir "ko‘ngil durji" va "og‘iz huqqasi" obrazlari orqali ma'noning qalbda tug‘ilib, til va so‘z vositasida ifodalanishini badiiylashtiradi:

Barcha ko‘ngil durji aro javhar ul,
Barcha og‘iz huqqasida gavhar ul.
Gar xud erur xanjari po‘lad til,
Suftidag‘i injulari so‘zni bil.

Tilning "po‘lat xanjar"ga qiyoslanishi ham bejiz emas. Xanjar qanday kuchli va o‘tkir vosita bo‘lsa, til ham inson taqdiri va munosabatlariga kuchli ta'sir ko‘rsatadi. So‘z esa ana shu vositaning "injusi"dir. Demak, Navoiy so‘zning qiymati bilan birga uning xavfini ham ko‘radi. Tildan ezgu maqsadda foydalanilsa, u ma'naviy yaqinlikka xizmat qiladi, nazoratsiz ishlatilsa, ko‘ngilni yaralaydi.

Navoiyning nutq odobiga oid qarashlarida shirinso‘zlik, muloyimlik va xushmuomalalik alohida o‘rin tutadi. *"Til shirin va yoqimli bo‘lsa yaxshi; til bilan dil bir bo‘lsa yana yaxshi"* degan hikmatning mazmunida nutqning ikki sharti belgilanadi: tashqi muloyimlik va ichki samimiylik. Faqat xushmuomala so‘zlash kifoya emas, so‘z bilan qalbdagi niyat bir-biriga mos bo‘lishi kerak.

Navoiy nazdida til yomonligi insondagi eng katta kulfat. Yomon tillilik natijasida boshqalarga ozor yetadi, o‘rni bilan bunday odat so‘zlovchi boshiga ham yomon kunlarni soladi. Bu holat shior *"Tili yomon odam xalq ko‘nglini jarohatlaydi, o‘z boshiga ham ofat yetkazadi"* hikmatida butun mohiyati bilan aks ettirib bergan. Odamning hayvondan imtiyozi tili orqali ekanligini ko‘rsatar ekan, shoir muloyim so‘z vahshiylarni ulfatga aylantirishini uqtiradi va achchiq tillilikka shirinsuxanlikka qarama-qarshi qo‘yadi.

Navoiy yomon so‘zlarni nodonlik alomati hisoblaydi. Bo‘lar bo‘lmas so‘z (fikr)larni aytuvchilar, baqirib-chaqirib gapiruvchilarni shoir nodonlar deb biladi va ularni insoniylik doirasidan chiqib ketganligiga ishora qiladi. *Ko‘p bemaza so‘zlaydigan ezma*

[1] Қўнғуров Р., Бегматов Э., Тожиев Ё. Нутқ маданияти ва услубият асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – Б. 32-44.; Маҳмудов Н. Ўқитувчи нутқи маданияти. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – Б. 42-176.

– kechalari tong otguncha huradigan itga o‘xshaydi. Nodonning vahshiylarcha baqirig‘i – eshakning bemahal hangramog‘i, Og‘ziga kelganni demoq – nodonning ishi va oldiga kelganni yemoq – hayvonning ishi.

Shoir so‘zda har qanday yaxshilikning imkoni borligini ta’kidlar ekan, xushsuxan, shirin so‘z bo‘lishni targ‘ib qiladi. Tili shirin insonni oqil deb biladi, til bilan dilni bir bo‘lishini, bu a’zolar insondagi eng yaxshi a’zolar ekanligini uqtiradi. *Shirin so‘z sof ko‘ngillar uchun asal kabi totlidir. Xushsuxan odam yumshoqlik bilan do‘stona so‘z aytadi; ko‘ngilga tushushi mumkin bo‘lgan yuz ham – uning so‘zi bilan daf bo‘ladi. So‘zda har qanday yaxshilikning imkoni bor...*

Xushmuomala, shirin so‘z bo‘lishni shoir insonning yaxshi fazilati deb biladi, chunki shunday xulq orqali dushman do‘stga aylanishi, aksincha yomon-so‘zlilik bilan kishilar ko‘ngliga ozor berishini quyidagcha ta’riflaydi:

Har kimki chuchuk so‘z elga izhor aylar,
Har neki ag‘yor durur yor aylar,
So‘z qatig‘i el ko‘ngliga ozor aylar,
Yumshog‘i ko‘nglillarni giriftor aylar.

Bunday qarash zamonaviy kommunikativ etikadagi suhbatdosh shaxsiga hurmat, muloyimlik va nutqiy vaziyatni hisobga olish tamoyillariga mos keladi. Navoiy uchun yaxshi so‘z – faqat chiroyli ibora emas; u insonlar o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlaydigan amaliy kuchdir. Shu jihatdan *“Oshning mazasi – tuz bilan, odam yaxshisi so‘z bilan”* hikmati insonning ijtimoiy qiyofasi uning so‘zida ko‘rinishini ifodalaydi.

Shoir odob-axloq nuqtai nazaridan chin va yolg‘on so‘zga baho berar ekan, yolg‘onchilikni qattiq qoralaydi, yolg‘onchilik bir kun boshga balo keltirishini ulug‘ alloma ochiq-oydin izohlab beradi. *Har kimniki so‘zi – yolg‘on, yolg‘onligi bilingach, uyatga qolg‘on. So‘zning bir-biridan farqi ko‘pdir, ammo yolg‘ondan yomonroq turi yo‘qdir.*

Shoir inson so‘zini go‘zal bo‘lishini targ‘ib qiladi. Buning uchun so‘zda go‘zallik ziynatlari bo‘lishi talab qilinadi. Agar ana shu ziynatlar so‘zda to‘la-to‘kis bo‘lmasa, birgina ziynat, ya’ni chinligi unga yetarli bo‘lishini bayon etadi. *Agar so‘z go‘zallik ziynati bilan bezalmagan bo‘lsa – unga chinlik bezagi yetarlidir. Yolg‘onchining gapi qanchalik chiroyli bo‘lsa, shunchalar qabihdir.*

Navoiy chin so‘zlaydiganlarni oqil kishi deb biladi. Oqilning ish yolg‘on so‘zlamaslik, lekin kishilarga ozor yetkazuvchi, chin so‘zni aytgandan ko‘ra aytmagan ma’qul deb hisoblaydi. *Oqil kishi chindan boshqani demas, ammo barcha chin so‘zni aytish oqil ishi emas.*

Shoir bu o‘rinda tildan har xil yomon niyatlarda foydalanuvchilarni nazarda tutadi. Chunki so‘z deb ba’zi narsalarni aytish ham joiz emas.

Mutafakkirning *“Tiling bilan dilingni bir tut, tili va dili bir kishining aytgan so‘zi but”* degan hikmati nutqning axloqiy haqqoniyligini yanada chuqurlashtiradi. Insonning og‘zaki bayoni qalbidagi niyatga zid bo‘lmasligi kerak. Til va dil birligi samimiylik, vijdoniylik va ishonchning mezonidir.

Navoiy uchun yaxshi nutqning yana bir muhim belgisi – ixchamlik. Ortiqcha so‘z fikrni kuchaytirmaydi, aksincha, uning ta’sirini susaytirishi mumkin. *“Bir deganni ikki demak xush emas. So‘z chu takror topdi, dilkash emas”* bayti “Sab’ai sayyor”da muayyan badiiy-kompozitsion vaziyatda aytilgan bo‘lsa-da, u umumiy nutq qoidasi darajasiga ko‘tarilgan. Takrorning o‘rinsizligi va fikrni muxtasar berish zarurati bu hikmatning asosiy mazmunidir.

“So‘zi hisobsiz – o‘zi hisobsiz. So‘zida parishonlik – o‘zida pushaymonlik” degan hikmatlarda ham nutq bilan tafakkur o‘rtasidagi bog‘liqlik ko‘rinadi. Demak, nutqdagi mantiqiylik inson tafakkurining tartibliligi bilan bog‘liq. So‘zni to‘g‘ri so‘zlash – fikrni to‘g‘ri tashkil qilishning tashqi ifodasidir.

Navoiy so‘z me’yorini foyda va maqsad bilan ham bog‘laydi: *“Befoyda so‘zni ko‘p aytma, foydali so‘zni ko‘p eshiturdan qaytma”*. Bu yerda gapirish va tinglashning nisbati aniq belgilanadi. Inson og‘zidan chiqqan so‘zni me’yorlashi, ammo foydali fikrni qabul qilishga ochiq bo‘lishi lozim. Nutq madaniyati shunday qilib faqat gapirish mahorati emas, axborotni saralab tinglash madaniyatini ham qamrab oladi.

Navoiy nutq odobida sukutni faol axloqiy pozitsiya sifatida ko‘radi. Sukut – gapira olmaslik emas, balki qachon gapirish, qachon to‘xtash kerakligini anglashdir. *“Aytar so‘zni ayt, aytmas so‘zdan qayt”* hikmatida bu qoida juda ixcham ifodalangan. Mazmunli nutqning mezoni so‘z soni emas, uning o‘rinliligi va foydasidir.

Navoiy tilni tiyishni lozim bo‘lgan holatlarda so‘zlab, qolgan hollarda sukutda bo‘lishni, tinglashni odob-ahloqning belgisi ekanligini ta’kidlaydi, tilni tiymoq boshga tushadigan kulfatlardan o‘zni asrash ekanligiga ishora qiladi.

Kamtar odamlar ko‘p gapirishdan qochadilar, ular ko‘p eshitmoqni istaydilar va yoqtiradilar. Eshitmoq kishini boyitadi; ko‘p gapirmoq – sayozlatadi. Ko‘p gapirgan – ko‘p yangilishadi. “So‘zga erk bergan odam – beandisha va pastkash”ligini uqtirar ekan, shoir ezma, vaysaqi kishilarni qoralaydi. So‘zni o‘z o‘rnida, kerak bo‘lgan o‘rinda aytilishini, aytish kerak bo‘lmagan joyda sukut qilishini quyidagicha izohlaydi. *Tan kasalligining asosi – ko‘p yemakdir, qalb kasalining sababi ko‘p demakdir.*

“Hayrat ul-abror”dagi *“Garchi yetib jomi hidoyat manga, so‘zda sukut o‘ldi bag‘oyat manga”* bayti ham Navoiyning sukutga munosabatini ko‘rsatadi. Bu su-

kut ma'nosiz jimlik emas, ma'no oldidagi mas'uliyatdir. Kishi so'zning qadrini anglagan sari uni har vaziyatda sarflayvermasligi kerak. Shu ma'noda tinglash ham axloqiy faoliyat sifatida namoyon bo'ladi.

Zamonaviy muloqot muhitida, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar va tezkor axborot almashinuvi sharoitida Navoiyning mazkur tamoyili yanada muhim. Inson aytish imkoniyati bor har bir fikrni ommaga aytishi shart emas. Manba va faktni tekshirish, suhbatdoshning sha'nini hisobga olish, hayajonli paytda javobni kechiktirish va befoyda bahsdan tiyilish – Navoiy ta'kidlagan "tilga ixtiyor"ning zamonaviy ko'rinishlaridir.

Navoiy poetikasida so'z jon bag'ishlovchi va ayni vaqtda ruhni halok etishi mumkin bo'lgan qudrat sifatida tasvirlanadi. "Hayrat ul-abror"dagi *"So'zdin o'lukning tanida ruhi pok, ruh dog'i tan aro so'zdin halok"* misralari so'zning ikki tomonlama ta'sirini ifodalaydi. Bu yerda badiiy mubolag'a orqali so'zning inson ruhiyatiga ta'siri kuchaytirib ko'rsatiladi. Daldali so'z umidsiz kishini ruhlantirishi, haqorat yoki tuhmat esa uni chuqur iztirobga solishi mumkin.

Shoir so'zning qimmatini faqat axloqiy emas, estetik mezon bilan ham baholaydi. "Hayrat ul-abror"-da ma'no gavharini topa oladigan kishi "so'z bahrida g'avvos" deb ta'riflanadi:

Ul kishi so'z bahrida g'avvos erur,Kim guhari ma'no anga xos erur.

G'avvos obrazi ma'noni yuzaki emas, chuqur izlashni anglatadi. Navoiy nazarida so'zning haqiqiy qiymati uning bezagida emas, ma'no gavharidadir. Shuning uchun ham u qisqalikni, takrordan qochishni, rostlikni va o'rinlilikni bir-biriga bog'liq nutqiy mezon sifatida ko'radi. Mazmunsiz fikr tashqi jilodan nariga o'tmaydi, chuqur ma'no esa oddiy ifodada ham inson qalbiga yetib boradi.

Navoiyning til va so'z haqidagi fikrlari adabiy-estetik meros bo'lish bilan cheklanmaydi. Ularda zamonaviy nutq madaniyati uchun muhim bo'lgan qator amaliy me'yorlar tizimi mavjud. Birinchidan, so'zlovchi aytgan gapining ijtimoiy va ruhiy oqibati uchun mas'ul. Ikkinchidan, fikr qisqa, mantiqiy va o'rinli ifodalanishi lozim. Uchinchidan, tinglash, sukut va o'zini tiya bilish ham nutq madaniyatining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Bu tamoyillar pedagogik muloqot, ilmiy bahs, ommaviy nutq, oilaviy munosabat va raqamli kommunikatsiyaning barchasiga tatbiq etilishi mumkin. Masalan, o'qituvchi uchun *"so'z qatig'i el ko'ngliga ozor aylar"* degan fikr talabaga munosabatda hurmat va muloyimlikni anglatadi, ilmiy muloqotda *"chin so'z – mo'tabar, yaxshi so'z – muxtasar"* fikrning dalillangan va aniq bo'lishini talab qiladi, ijtimoiy tarmoqlarda esa *"aytar so'zni ayt, aytmas so'zdan qayt"* axborotni tarqatishdan oldin mas'uliyat bilan o'ylashga undaydi.

Shu jihatdan Navoiy merosida nutq madaniyati axloq, tafakkur va estetikaning birligi sifatida ko'rinadi. U yaxshi nutqni faqat til qoidalariga muvofiq tuzilgan gap deb emas, balki insoniylikka xizmat qiladigan so'z deb tushunadi. Nutqning to'g'riligi uning grammatik tuzilishi bilan, go'zalligi badiiy vositalar bilan, qadri esa rostligi va foydasi bilan belgilanadi. Bu kompleks yondashuv Navoiy qarashlarining zamonaviy nutqshunoslik va kommunikatsiya madaniyati uchun qimmatini oshiradi.

Xullas, o'zbek adabiy tilining asoschisi, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy so'z va til belgisi insonning ziynati ekanligini, so'z ta'rifi, nutq odobi masalalarida bayon etganki, so'z va til haqidagi bu fikrlar bugungi kunda ham insonni barkamol inson sifatida tarbiyalash uchun muhim manba bo'lib kelmoqda.

Rezyume. Maqolada mutafakkir so'zning inson qalbi va ijtimoiy munosabatlarga ta'siri, shirinso'zlik, rostgo'ylik, qisqalik, mantiqiylik, tinglash madaniyati, sukut va tilni tiyish kabi nutqiy-axloqiy tamoyillar yoritilgan. Navoiy hikmatlarining zamonaviy nutq madaniyati bilan mushtarak jihatlari ochib berilgan va ularning ma'naviy-tarbiyaviy ahamiyati asoslangan.

Resume. The article examines the thinker's views on the influence of words on the human inner world and social relations, with particular attention to such ethical and communicative principles as courteous and pleasant speech, truthfulness, conciseness, logical coherence, the culture of listening, silence, and verbal restraint. The common features of Alisher Navoi's wisdom and contemporary principles of speech culture are identified, and their spiritual, moral, and educational significance is substantiated.

Резюме. В статье освещаются взгляды мыслителя на влияние слова на внутренний мир человека и общественные отношения, а также рассматриваются такие речевые и нравственные принципы, как доброжелательность и учтивость речи, правдивость, лаконичность, логичность, культура слушания, молчание и сдержанность в речи. Раскрываются общие черты между мудрыми изречениями Алишера Навои и современными нормами речевой культуры, обосновывается их духовно-нравственное и воспитательное значение.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 9
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

OGAHIY TARJIMASIDAGI ASARLAR LEKSIKASINING TARIXIY-ETIMOLOGIK TAHLILI ("Axloqu-l-Muhsiniyn" asari misolida)

Ubaydullayev Alisher Abdusalomovich,
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

XIX asr o'zbek adabiy tili va tarjimashunosligi tarixida Xorazm adabiy muhiti, xususan, Muhammad Rizo Ogahiy ijodi alohida o'rin tutadi. Uning tarjimalari o'zbek tilining boy leksik-semantik imkoniyatlarini namoyish etish bilan birga, davr tilining lisoniy manzarasini belgilashda ham muhim manba bo'lib xizmat qiladi[1]. Husayn Voiz Koshifiyning "Axloqu-l-Muhsiniyn" asari tarjimasi Ogahiyning lisoniy mahoratini, uning so'z tanlash va matnni milliy zaminga moslashtirish borasidagi o'ziga xos uslubini ko'rsatuvchi yorqin misoldir.

Ogahiy tomonidan 1858-yilda fors tilidan muvaffaqiyatli tarjima qilingan Husayn Voiz Koshifiyning (1440–1505) "Axloqu-l-Muhsiniyn" ("Muhsinning g'ayrati va chiroyli axloqi") asari XV asr Xirot adabiy va tasavvufiy muhitining eng yuksak mahsuli bo'lib, asrlar davomida Movarounnahr va Xuroson madrasalarida axloq-odob fanidan bosh darslik vazifasini o'tab kelgan. Mazkur asarning Ogahiy tomonidan amalga oshirilgan tarjimasi o'zbek adabiy tili leksikasining boy imkoniyatlarini namoyish etish bilan birga, poligenetik (ko'p qatlamli) lug'at tarkibining lisoniy muvozanati va o'zaro uyg'unligini o'rganishda birlamchi manba bo'lib xizmat qiladi.

Mumtoz tarjima asarlari leksikasini tarixiy-etimologik nuqtai nazardan o'rganish o'zbek tili tarixi va uning taraqqiyot qonuniyatlarini belgilashda dolzarb ahamiyat kasb etadi[2]. Ogahiy tarjimalarida qo'llangan so'zlar shaklan qadimiy xususiyatlarini saqlab qolgan holda, ma'no jihatidan davr talabiga mos ravishda yangicha mazmun kasb etgan. Asardagi har bir so'zning kelib chiqishi, uning asl va ko'chma ma'nolari, matndagi stilistik vazifalari atroflicha o'rganilishi maqsadga muvofiqdir. "Axloqu-l-Muhsiniyn" asari leksik tarkibini shakllanish manbalariga ko'ra bir necha genetik qatlamlarga ajratish mumkin. Bular asosan tub turkiy qatlam, arab tili o'zlashmalari, fors-tojik tili o'zlashmalari hamda gibrid birliklardan iborat.

1. Asl turkiy (o'zbekcha) qatlam. "Axloqu-l-Muhsiniyn" tarjimasida asosiy semantik yukni asl turkiy so'zlar tashkil etadi. Ogahiy fors tilidagi murakkab tushunchalarni xalqqa tushunarli tilda bayon etish uchun qadimiy turkiy ildizga ega so'zlarni tarjimada faol qo'llagan. Chunonchi, ijtimoiy hayot, tana a'zolari va tabiat hodisalarini ifodalashda ***el, yurt, urug', elat, bosh, ko'z, ko'ngil, o't, suv, yer, quyosh*** kabi so'zlardan o'rinli foydalangan. Ushbu so'zlarning aksariyati qadimgi turkiy yozma yodgorliklar tilida ham aynan shu yoki qisman farqli fonetik shakllarda uchraydi.

Turkiy so'zlarning asardagi strukturaviy-etimologik xususiyatlari ularning qadimgi turkiy til elementlarini saqlab qolganligida ko'rinadi. Masalan, asarda faol qo'llangan ***"aymoq"*** (qabila, urug') yoki ***"tegmoq"*** (yetishmoq) fe'llari o'zining boshlang'ich semantik doirasini kengaytirgan[3]. Ogahiy lisoniy tejamkorlik va badiiylikni ta'minlash maqsadida xalq tilidagi jonli iboralar va maqollarni tarjimaga singdirib yuborgan. Bu holat tarjimaning o'ziga xos milliy qiyofasini yaratishga va forsiy matndagi mazmun-mohiyatni turkiy xalqlar tafakkur tarziga to'liq moslashtirishga imkon bergan. Shuningdek, tub turkiy so'zlar matnda emotsional-ekspressiv bo'yoqdorlikni oshirish uchun ham xizmat qilgan. Ogahiy arabcha va forscha tushunchalarni o'zbek kitobxoniga sodda va ta'sirchan yetkazish uchun qadimiy turkiy ildizga ega leksikani mahorat bilan qo'llaydi. **ایل (El) va یورت (Yurt)** ***"Har podshohkim, el va yurt asramag'ida adolat shior etsa, ul elning baxtu saodati barqaror bo'lur". El*** – Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asarida ham *"qabila, xalq, davlat"* ma'nolarida kel-

[1] Қўнғуров Р., Тихонов А. Ўзбек тили этимологик луғатининг қисқача маълумотномаси. – Тошкент: Фан, 1977. – Б. 45.
[2] Содиқов Қ. Эски ўзбек ёзма тили. – Тошкент: Университет, 2012. – Б. 88.
[3] Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Toshkent: Университет, 2000. – Б. 95.

gan qadimiy turkiy so‘z. Ogahiy bu o‘rinda arabcha “raiyyat” (fuqarolar) tushunchasini milliy tafakkurga moslab ***el*** **va** ***yurt*** juft so‘zi orqali ifodalagan. Bu esa asarning xalqchilligini ta’minlagan.

كونگول (Ko‘ngil) ***“Inson ziynati kiyim va mollar bila emas, balki beg‘ubor ko‘ngil va to‘g‘ri so‘z bila hosil bo‘lur”.*** Qadimgi turkiy tildagi ***könül*** (yurak, ichki dunyo, his-tuyg‘u o‘rni) so‘zining XIX asr Xorazm shevasi fonetik qobig‘iga moslashgan shakli bo‘lib, Ogahiy matndagi forscha ***“dil”*** **yoki** ***“qalb”*** so‘zlari o‘rnida turkiy ***ko‘ngil*** ni qo‘llash orqali insonning ruhiy olamini tasvirlashda lisoniy soddalikka erishgan.

تايماق (Taymoq / Toymoq) ***“G‘azab vaqtida kishi iymon yo‘lidin tayg‘usi durur, magar ulki sabr etgali qodirdur”.*** Qadimgi turkiy ***tay-*** (sirpanmoq, adashmoq) fe’li asosida hosil bo‘lgan. Bu yerda Ogahiy tarjimasida ko‘chma ma’noda – axloqiy to‘g‘ri yo‘ldan chalg‘ish, adashish ma’nosida qo‘llab, so‘zning semantik doirasini kengaytirgan.

لب تشنه لاريغه (Labtashnalarig‘a) بآديا (Bodiya) va ***“...Муҳаммад Мустафо соллаллоҳу алайҳи васалламки, исён бодиясининг лабташналариға раҳмат зилолидурлар...”*** [1] Ushbu parchada Ogahiy o‘ta go‘zal grammatik muvozanat hosil qilgan. Arabcha **“bodiya”** (sahro, cho‘l) so‘zi va forscha-turkiy aralash **“labtashna”** (labi chanqagan) so‘zlari o‘zbek tilining **“-larig‘a”** (jo‘nalish kelishigi va ko‘plik) affikslari orqali yaxlit falsafiy metaforaga aylantirgan. ***Labtashna*** so‘zi etimologik jihatdan forscha ***lab*** va turkiy yodgorliklar tilida ***suvsamaq*** tushunchasi bilan bog‘liq bo‘lgan, keyinchalik forsiy o‘zak bilan sintezlashgan ***tashna*** so‘zlaridan iborat. Ogahiy bu o‘rinda shunchaki cho‘lda chanqagan insonni emas, balki ***“gunoh botqog‘ida ma’naviy chanqoqlikni his qilayotgan ummat”*** obrazini yaratish uchun ushbu so‘zni tub turkiy grammatik qoliplarga bo‘ysundiradi. Bu esa XIX asr adabiy tilida o‘zlashma o‘zaklarning turkiy affiksatsiya hisobiga to‘liq o‘zbekchalashganini ko‘rsatadi.

توفراغی (Tufrog‘i) va (Yiqitilg‘anlarg‘a) ***“...баҳти баландлигини давлати улуғлиғини шукри ва мазаллат туфроғи узра йиқилганларга раҳм қилмоқ бўлур...”.*** **“Tufroq”** – qadimgi turkiy bitiktoshlarda ***topraq / tofraq*** shaklida kelgan, Mahmud Koshg‘ariy lug‘atida Yer moddasining eng mayda zarrasi sifatida izohlangan tub turkiy leksemadir. **“Yiqilmoq”** fe’li ham qadimgi turkiy ***yıq-*** (buzmoq, ag‘darmoq) o‘zagidan kelib chiqqan sof turkiy birlikdir. Ogahiy arabcha mavhum **“mazallat”** (xorlik, xor-zorlik) tushunchasini ko‘z oldiga keltirish uchun uni tub turkiy ***tufroq*** va ***yiqilganlar*** so‘zlari bilan bog‘laydi. Natijada ***“xorlik tuprog‘iga ag‘darilgan chorasiz insonlar”*** lisoniy manzarasi yuzaga keladi. Bu esa Ogahiyning Koshifiy uslubidagi arabcha og‘ir tushunchalarni tub turkiy tasviriy vositalar orqali silliqlashtirish va xalqqa tushunarli qilish mahoratini isbotlaydi.

2. Arab tili o‘zlashmalari va ularning tematik guruhlari. “Axloqu-l-Muhsiniyn” falsafiy-axloqiy va didaktik asar bo‘lganligi sababli undagi arabiy leksika salmoqli o‘rinni egallaydi. Arabcha so‘zlar asosan diniy, huquqiy, ma‘muriy va axloqiy tushunchalarni ifodalashga xizmat qilgan[2]. Ogahiy matndagi ***adolat, insof, shafqat, marhamat, zulm, xiyonat, sabr, qanoat, shijoat*** kabi arabcha istilohlarni aynan qoldirish bilan birga, ularning mazmunini turkiy izohlar orqali ochib bergan. Etimologik tahlillar ko‘rsatadiki, ushbu arabcha so‘zlar o‘zbek tilining klassik davriga kelib to‘liq faol qatlamga aylangan va grammatik jihatdan o‘zbek tili qonuniyatlariga bo‘ysundirilgan.

شجاعت (Shijoat) ***“Shijoat ul emas turkim, kishi urush maydonida botirlik ko‘rguzgay, balki haqiqiy shijoat nafs g‘alabasini qaytarmoqdur”.*** Arabcha ***šuğā‘at*** (qo‘rqmaslik, botirlik) so‘zidan olingan. Ogahiy ushbu so‘zning etimologik o‘zagi harbiy tushunchaga bog‘liq bo‘lsa-da, uni ma’naviy-axloqiy planga ko‘chiradi. Ya’ni, jismoniy kuchni emas, balki nafsni jilovlashni – “haqiqiy shijoat” deb baholaydi va so‘zga falsafiy ma’no yuklaydi.

قناعت (Qanoat) ***“Har kimga qanoat xazinasi nasib bo‘lsa, ul dunyo g‘amidin ozod va podshohlardin behojat bo‘lur”.*** Arabcha ***qanā‘at*** (boriga rozi bo‘lish, ochko‘zlik qilmaslik) so‘zidir. Ogahiy mazkur leksemani turkiy matnda ***xazina*** so‘zi bilan biriktirib, ***“qanoat xazinasi”*** metaforasini yaratadi. Natijada mavhum axloqiy tushuncha etimologik jihatdan moddiy boylik tushunchasi (xazina) bilan sintezlanib, tasviriylik kuchaytirganligini kuzatish mumkin.

عفو (Afv) va عقوبت (Uquba) ***“Афвни маъноси қудрати етган ҳолда гуноҳкорга уқубат қилмоқни тарк айламак бўлур”***. Har ikki leksema ham klassik arab tiliga mansub islomiy-huquqiy terminlardir. **“Afv”** – arabchada “o‘chirish, izsiz yo‘q qilish” birlamchi etimologik ma’nosiga ega bo‘lib, keyinchalik huquqiy sferada “gunohni kechirish” ma’nosini olgan. **Uqubat”** – arabcha ***‘aqaba*** (ortidan kelish, oqibat) o‘zagidan yasalgan bo‘lib, qilingan jinoyatning ortidan keladigan qonuniy jazo ma’nosini anglatadi. Ogahiy XIX asr o‘zbek ommaviy kitobxoni uchun ushbu ikki murakkab arabcha terminni yonma-yon qo‘llaydi, biroq ularning mazmunini muvozanatlash uchun sof turkiy **“tark aylamak”**

[1] Husayn Voiz Koshifiy. Axloqu-l-muhsiniyn (Ogahiy tarjimasi). / Nashrga tayyorlovchilar: M.Safarboyev, S.Rahimov, A.O‘rozboyev – Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2019. – 208 b.

[2] Бегматов Э. Ўзбек тили лексикаси муаммолари. – Тошкент. – Б. 210.

(fe'llashgan gibrid birikma) hamda **"qudrati yetgan holda"** kabi turkiy sintaktik qurilmalarni kiritadi. Bu esa asarning nafaqat badiiy, balki o'sha davr uchun ijtimoiy-huquqiy lug'at vazifasini ham o'taganini etimologik jihatdan isbotlaydi.

بصيرة (Basirat) va عظيم (Azim) ***"...ул шариф нур бирла басират кўзи ёрур ва бу азиз сир бирла сифат хўблугини танимоқ муяссар бўлур..."***. **" Basirat"** – arabcha ***baṣara*** (ko'rdi) fe'lidan yasalgan oliy tasavvufiy tushuncha bo'lib, oddiy jismoniy ko'rishni emas, balki *"qalb ko'zi bilan haqiqatni anglash"*ni bildiradi. Ogahiy matnda ***basirat*** so'zidan keyin tub turkiy **"ko'zi"** leksemasini qo'llaydi. Pleonazm (ortiqchalik) bo'lib ko'ringan ushbu uslubiy usul aslida xalq tilida mavhum tushunchani aniqlashtirish uchun xizmat qilgan. Qalb ko'zi tushunchasi turkiy ***ko'z*** o'zagi bilan mustahkamlanib, mumtoz o'zbek nasrining semantik maydonini kengaytirgan.

Shuningdek, tarjima matndagi ***"tavakkul", "ixlos", "riyo", "munofiq"*** kabi tasavvufiy va diniy o'zakka ega bo'lgan terminlar Ogahiy tomonidan yuksak ijtimoiy-axloqiy mazmun bilan boyitilgan. Tarjimon arabcha so'zlarni shunchaki qo'llash bilan cheklanmay, ularning o'zbek tilidagi sinonimik qatorlarini ham hosil qilgan. Bu esa asar kitobxonining diniy va ma'naviy dunyoqarashini kengaytiradi. Shu tariqa, arabcha so'zlar kontekstual ma'no qirralari kasb etib, mumtoz o'zbek nasri leksikasining ajralmas qismiga aylanganligi aniq dalillar orqali ko'rsatiladi. Arabiy lug'at elementlari matnning kompozitsion mukammalligini ham ta'minlaganligini ko'rish mumkin.

3. Fors-tojik tili o'zlashmalari. Asarning asl nusxasi fors tilida bo'lganligi sababli, Ogahiy tarjimasida forsiy qatlam alohida uslubiy ahamiyatga ega. Tarjimon badiiy ifodalilikni ta'minlash, Koshifiy nasrining ohangdorligi va ritmini saqlash maqsadida ***dil, jon, do'st, dushman, xursand, g'amgin, barqaror, benihoya*** kabi so'zlarni saqlab qolgan[1]. Shuningdek, forscha izofaviy birikmalar va murakkab so'zlar o'zbekcha ko'makchilar va egalik qo'shimchalari orqali gap bo'laklariga biriktirilgan. Bu esa tarjimaning sintaktik qurilishini va leksik muvozanatini sezilarli darajada boyitgan. Forscha so'zlar asarda Ohangdorlik va poetik til jozibasini shakllantirish uchun xizmat qiladi.

بنيهايه (Benihoya) ***"Yaratganning maxluqotlariga ko'rsatgan marhamati benihoyadur va inson oning shukrini ado etmoqqa ojizdur".*** Forscha inkor old qo'shimchasi ***be-*** va arabcha ***nihoyat*** (chek, chegara) so'zlarining birikuvidan hosil bo'lgan gibrid-forsiy leksema bo'lib, Ogahiy bu so'zni ***"cheksiz", "poyonsiz"*** ma'nolarida qo'llab, xudoning marhamati va saxovatining buyukligini mubolag'ali tarzda ifodalash uchun tanlagan.

سپاه (Sipoh) ***"Zolim podshohning sipohi elga sitam qilsa, ul davlatning poydevori tezda vayron bo'lg'usidir".*** Qadimgi eroniy (pahlaviy) tillariga borib taqaluvchi, o'rta asrlar turkiy yozma yodgorliklariga ham faol o'zlashgan ***sipāh*** (harbiy qo'shin, askarlar) so'zidir. Ogahiy bu so'z orqali davlat ma'muriyati va harbiylar tizimini ifodalagan, unga qarama-qarshi o'laroq turkiy ***el*** so'zini ham qo'llab, hokimiyat va xalq ziddiyatini tasvirlagan.

Forscha o'zlashmalarning etimologik ildizlari ko'pincha qadimgi eroniy tillarga borib taqaladi. Ogahiy o'z asarlarida *"sipoh"* (harbiy, qo'shin), *"padshoh"* kabi ma'muriy va ijtimoiy leksikani faol ishlatgan. Bu so'zlar asarning syujet chiziqlarida hukmdorlar va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarni tasvirlashda ham yetakchi o'rin tutadi.

همنشين (Hamnishin) va بدكردار (Badkirdorlar) ***"Яхши хўйин бузғусидур ҳар киши, Бўлса бадкирдорларға ҳамнишин."*** Bu misolda ikki muhim forsiy o'zlashma tahlilga tortiladi: **"Badkirdor"**– forscha ***bad*** (yomon) old qo'shimchasi va ***kardār*** (qilmish, xulq, amal) o'zaklarining birikmasidir. **"Hamnishin"** – forscha muvofiqlik va birgalik old qo'shimchasi ***ham-*** hamda ***nešastan*** (o'tirmoq) fe'lining hozirgi zamon asosi ***nešīn*** (o'tiruvchi) birlashuvidan hosil bo'lgan. Ogahiy Koshifiyning ushbu forsiy baytini o'zbekcha she'riy vaznga solayotganda, ularni o'zbek tilining **"-ning"**, **"-ni"**, **"-ga, -g'a, -qa, -ka"** kelishiklari tizimiga uzviy singdiradi. Natijada ushbu so'zlar XIX asr Xorazm adabiy muhitida begona element o'laroq emas, balki jonli shevaga ham singib ketgan faol leksika sifatida lisoniy moslashtirilganini ko'rsatadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, forscha so'zlar Ogahiy tarjimasida shunchaki nusxa ko'chirish emas, balki turkiy lisoniy madaniyat bilan uzviy bog'langan o'ziga xos hodisa o'laroq namoyon bo'ladi[2].

دانشمند (Donishmand) va سۆزلاماكدين (So'zlamakdin) ***"...Сўзламакдин сурфа қил, қилсанг агар... Сақлағил сўзники, дурур яхши ганж."***. **"So'zlamakdin"** – o'ta qiziqarli gibrid morfologik strukturadir. O'zagi qadimgi turkiy ***söz*** ismidan yasalgan ***sözle*** fe'lidir. Unga forscha uslubiy ta'sir ostida mumtoz o'zbek tilida faol bo'lgan ***-mak*** harakat nomi va turkiy ***-din*** chiqish kelishigi qo'shilgan. Ogahiy ushbu sof turkiy harakat nomini forscha **"ganj"** (xazina) leksemasi bilan qiyoslaydi. Ya'ni, ***"so'zni vaqtida gapirish va ortiqchasini yashirish – xazinani***

[1] Абдуғафуров А. Огаҳий ижодиётининг баъзи лисоний хусусиятлари. – Т.: Фан, 1981. – Б. 67.
[2] Исмоилов И. Огаҳий таржимонлик маҳорати. – Тошкент: Ёзувчи, 1999. – Б. 142.

saqlash kabidir” degan tasavvufiy didaktik formula yuzaga keladi. Bu usul turkiy va forsiy tafakkurning lisoniy darajadagi eng mukammal moslashtirilishidir.

كش **كين (Kengash)*“Салтанат ишларининг ҳеч бириға алардин изнсиз тадбир ва кенгаш тиламайин шуруъ қилмаслик керак.”* “Kengash”** – etimologik ildizlari qadimgi turkiy ***keŋeš*** (maslahatlashish, o‘ylash) so‘ziga borib taqaladigan, Oltoy tillari oilasiga xos bo‘lgan sof turkiy atamadir. Ogahiy arabcha ***tadbir*** va arabcha ***iznsiz*** so‘zlari yoniga aynan turkiy ***kengash*** so‘zini qo‘yadi. Bu bilan u davlat boshqaruvi apparatining eng asosiy tushunchasini ifodalashda arab sivilizatsiyasi terminlaridan ko‘ra turkiy boshqaruv mentaliteti terminiga ustunlik beradi. Buni Ogahiyning milliy terminologiyani saqlab qolish va rivojlantirishga qaratilgan til sofligini saqlovchi mahorati sifatida baholash lozim.

Muhammad Rizo Ogahiy tomonidan tarjima qilingan “Axloqu-l-Muhsiniyn” asari leksikasining tarixiy-etimologik tahlili quyidagi umumiy xulosalarni chiqarishga imkon beradi: Asar leksikasi asosan to‘rtta genetik qatlamdan (turkiy, arabiy, forsiy va gibrid) iborat bo‘lib, unda tub turkiy so‘zlar poydevor vazifasini o‘tagan; Arab va fors tillaridan o‘zlashgan so‘zlar asarning didaktik va falsafiy mazmunini to‘liq ochib berish uchun semantik evolyutsiyaga uchragan va o‘zbek tiliga moslashtirilgan; Ogahiy o‘zbek tilining sinonimik imkoniyatlaridan va Xorazm shevasi elementlaridan unumli foydalanib, tarjima san‘atining yuksak namunasini yaratgan.

Rezyume. Ushbu maqolada XIX asr Xorazm tarjima maktabining yirik namoyandasi Muhammad Rizo Ogahiy tomonidan o‘zbek tiliga o‘girilgan Husayn Voiz Koshifiyning “Axloqu-l-Muhsiniyn” asari leksik qatlamlari tarixiy-etimologik jihatdan tahlil qilingan. Tarjimada qo‘llangan turkiy, arabiy va forsiy qatlamlarning semantik-funksional xususiyatlari aniqlangan.

Resume. This article presents a historical-etymological analysis of the lexical layers in the Uzbek translation of Husayn Vaiz Kashifi’s work “Akhlaq-i Muhsini” (“The Ethics of Beneficence”), executed by Muhammad Riza Agahi, a prominent representative of the 19th-century Khwarazm translation school. The study identifies and explores the semantic and functional characteristics of the native Turkic, Arabic, and Persian lexical layers utilized in the translation process.

Резюме. В данной статье представлен историко-этимологический анализ лексических пластов узбекского перевода произведения Хусейна Ваиза Кашифи «Ахлак-и Мухсини» («Нравы благодетельных»), выполненного Мухаммадом Риза Агахи, выдающимся представителем Хорезмской школы перевода XIX века. В исследовании выявлены и изучены семантико-функциональные особенности исконно тюркского, арабского и персидского лексических пластов, использованных в процессе перевода.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 9
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

TASHBIH VA EPITETLARNING PRAGMATIK TALQINI: TARJIMADA EKSPRESSIVLIK VA STILISTIK EKVIVALENTLIK

Ibragimov Shexrozbek To'lqinjon o'g'li,
Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Badiiy san'atlar ichida tashbih va epitetning alohida ahamiyatga ega. Ikki san'atni avvalo ta'rifi haqida to'xtalish o'rinli. Keyin ularni "Bobur-Yo'lbars" romani asliyatida aniqlangan jumlalar bilan o'zbekcha tarjimadagi ifodasini pragmatik funksiyasini tahlil qilamiz.

Tashbih sharq mumtoz poetikasida ma'naviy san'atlar sirasiga kiritilgan. Ataulloh Husayniy, Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy, To'raqul Zehniy, Yoqubjon Is'hoqov, To'xtamurod Boboyev kabi olimlarning ishlarida tashbih, uning ta'rifi va turlariga oid ma'lumotlar batafsil berilgan. "Badoyi-us sanoyi"da bu san'at haqida quyidagicha ta'rif berilgan: "tashbih vasfta bir nimani bir nimaga o'xshatmoqtin iboratdur"[1]. Y.Is'hoqovda "tashbih ma'naviy san'atlarning ichida eng faollaridan biri bo'lib, uning mohiyati so'zlarda ifodalangan ikki yoki undan ortiq narsa, hodisa yoki xususiyatni ular o'rtasida mavjud bo'lgan biror o'xshashlik, umumiylik nuqtai nazaridan qiyoslashdan iboratdir"[2] deya ta'rif berilgan. Boshqalar tomonidan berilgan ta'riflarda ham shunday mushtaraklik mavjud.

Yuqoridagi ta'riflarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, tashbih xuddi "istiora" (metafora)dek anglashiladi, ammo ular o'rtasida keskin tafavvutlar mavjud. Metaforada o'xshatish vositasi bo'lmaydi, yoki ba'zi qismlar yashirin bo'ladi. Tashbihning metaforadan farqi "adoti tashbih" (o'xshatish vositasi)ning mavjudligi bilan farqlanadi. Shuning uchun, tashbihga nazariy jihatdan tahlil qilgan olimlar uning qismlari haqida albatta to'xtalib o'tganlar. T.Boboyev tashbihning to'rtta qismini shunday bergan:

1) mushabbih (o'xshatilgan narsa)
2) mushabbixunbih (o'xshayotgan narsa)
3) odati tashbih (o'xshatish vositalari) (Y.Is'hoqov va Ataulloh Husayniyda "adoti tashbih"deya berilgan)
4) vajhi tashbih (o'xshatish sababi)[3]

Bu yerda o'xshatish vositasiga alohida to'xtalish zarur, chunki adabiyotda tashbih o'xshatishni yaratuvchi qo'shimcha va so'zlar vositasida aniqlanadi. T.Boboyevga ko'ra: o'xshatish vositasini ifodalab keluvchi qo'shimchalarni "-dek, -simon, -day, -ona, -noma, -omuz, -na" so'zlarni "kabi, o'xshab, singari, yanglig', xuddi, go'yo, bamisoli, mislsiz, tus, andoqki, chu, sifat, nusxa, rang, tahlit"[4] deya keltiradi. Alisher Navoiy "Xamsa"ning birinchi dostoni "Hayratul-abror" debochasida quyidagicha bayt uchraydi.

Garchi ko'ngil kulbasidek muxtasar,
Ikki jahon anda bo'lib jilvagar.[5]

Mazmuni:
Garchi ko'ngil kulbadek tor va ixcham bo'lsa ham,
Unda ikkala dunyo jilvalanib turadi. (Sh.I.)

Shoir inson ko'nglining ulug'ligi haqida falsafiy fikr bildiradi. Ko'ngil tashqi jihatdan tor, kulbaday oddiy ko'rinsa ham, **unda butun mavjudot, butun koinot – ikki dunyo mujassam. Ushbu baytda tasbihning to'rta qismi aniq berilgan. Mushabbih – "ko'ngil",** mushabbixunbih – "kulba", adoti tashbih – "-dek" va vajhi tashbih – "muxtasar" sifatida tahlil qilinadi. Shu tahlilni jadval ko'rinishida berish baytda berilgan tashbihni yaqqol namoyon qiladi.

[1] Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойиъу-с-санойи (аруз вазни ва бадиий воситалар ҳақида). Форсчадан Алибек Рустамов таржимаси - Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1981. – Б. 212.
[2] Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: O'zbekiston. 2014. - Б. 230.
[3] Бобоев Т., Бобоева З. Бадиий санъатлар. – Тошкент. 2001. – Б. 43.
[4] Бобоев Т., Бобоева З. Бадиий санъатлар. – Тошкент. 2001. – Б. 43.
[5] Навоий А. Ҳайратул-аброр (Таҳрир ҳайъати: А.Қаюмов ва бошқалар., Сўзбоши муаллифи А.Ҳаитматов; Масъул маҳаррир.: В.Раҳмонов). – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. – Б. 10.

2.5-jadval

G‘azaldagi tashbihning to‘rt tarkibiy qismining ifodasi

Tashbih qismi	Arabcha nomi	Baytdagi ifodasi	Izohi
O‘xshatilgan narsa	Mushabbih	ko‘ngil	Shoirning asosiy ma’naviy obrazi
O‘xshayotgan narsa	Mushabbixunbih	Kulba	Kamtar, tor, ammo samimiy joy
O‘xshatish vositasi	adoti tashbih	“-dek”	Grammatik o‘xshatish vositasi
O‘xshatish sababi	vajhi tashbih	torlik, muxtasarlik	Ko‘ngil va kulbaning umumiy jihati

Inson ko‘ngli, shoir tomonidan kulbaga o‘xshatiladi. Nima uchun ko‘ngil kulbaga qiyoslanadi? Buning sababi, ko‘ngil tashqi jihatdan tor, ammo ma’naviy jihatdan keng, chuqur va ilohiy nurga to‘la joy. Kulba ham bejiz berilmagan. Muallif kulba orqali, inson ko‘nglini soddaligiga, tashqi kamtarligiga urg‘u berishni istagan. Qolaversa, tashqi ko‘rinish jihatdan ko‘ngil va kulbada muxtasarlik, soddalik, kichiklik mavjud bo’ladi.

Alisher Navoiy lirikasida inson ko‘ngli, uning ilohiy mohiyati va ma’naviy qudrati doimiy markaziy mavzulardan biridir. Yuqoridagi baytda ham shoirning ana shu falsafiy dunyoqarashini mujassam ifoda etadi. Ushbu baytni **pragmatik tahlil** qilish orqali undagi **so‘zlovchi maqsadi, yashirin ma’nolar** hamda **o‘quvchiga ko‘rsatilgan ta’sir** aniqlanadi. Baytda so‘zlovchining maqsadi jihatdan shoir bu o‘xshatish orqali insonni ruhiy kamtarlikka, lekin ichki boylikni anglashga da’vat etadi. Baytning pragmatik vazifasi – o‘quvchini ma’naviy tafakkurga undash va ko‘ngilning yuksak qadrini anglatishdir. Insonning haqiqiy ulug‘ligi tashqi ko‘rinishda emas, balki qalbining tozaligi va ruhining kengligidadir degan yashirin ma’no baytga yuklatilgan. Bu baytni o‘qigan kitobxon o‘zining ichki olamiga murojaat etadi, o‘z “ko‘ngil kulbasi”ni poklash zarurati haqidagi ruhiy ehtiyoj paydo bo‘ladi.

Tashbih san’atning bir necha turlari mavjud. A.Husayniy 7 ta, Ahmad Taroziyda 7 ta, T.Zehniyda 10 ta, Y.Is’hoqov 9 ta, T.Boboyev 9 ta turlari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Bular haqida batafsil fikrlar va misollarning tahlilini yuqoridagi nazariyotchi olimlar tomonidan bitilgan adabiyotlarda takror berilganligi uchun biz ularga batafsil to‘xtalmoqchi emasmiz.

H.Lambning “Bobur-Yo‘lbars” romanida tashbih vositasida ifodalangan juda ko‘p jumlalar mavjud. Ulardan ayrimlarni tanlab olib o‘zbekcha tarjimada pragmatik ma’no ifodalangan yoki ifodalanmaganligi xususida to‘xtalsak.

H.Lamb: *Now, in the boy’s eyes they became hostile ground, with barbaric hordes beyond, like a dark cloud on the horizon of the steppes. (H.L. 1961; 22)*

So‘zma-so‘z tarjimasi: *Endi bolaning ko‘z o‘nggida ular cho‘lning ufqidagi qora bulutdek vaxshiy qaroqchilar zaminiga aylangan edi.* (Sh.I.)

Asliyatda berilgan jumlada tashbihni quyidagicha tarkibiy qismlarga ajaratiladi: **mushabbih – “barbaric hordes”,** mushabbixunbih – “a *cloud on the horizon of the steppes*”, adoti tashbih – “like” va vajhi tashbih – “dark”. Jumlada vaxshiy qaroqchilar qora bulutlarga o‘xshatiladi. Buning sabablari:

1) ularni ikkisi ham uzoqdan ko‘rinishi;
2) ular vahima uyg‘otadi;
3) inson uchun xavfni bildiradi. (Sh.I.)

Mana sabablar muallif tomonidan ifodalangan pragmatik mazmun uchun xizmat qilgani aniq. Ya’ni kitobxon ushbu jumlani o‘qiganda, Bobur mirzoga nisbatan qo‘rquv, achinishni his qilishi va urush, dushmanlik va bolalik o‘rtasidagi keskin sezishi aniq.

G‘.Sotimov: Hozir endi go‘dak shahzodaning nazarida bu yerlar cho‘lning ufqidagi qora bulutdek, vaxshiy qaroqchilar yurtidek ko‘rinar edi. *(G‘.S. 2015; 20)*

Muallifning maqsadi – bolalik nigohining o‘zgarishini, ichki qo‘rquvni berish – tarjimada ham mavjud. Asliyatda “hostile”, “barbaric”, “dark cloud” so‘zlari **tahdid, qo‘rquv, xavf** tuyg‘usini beradi. Tarjimada “vahshiy qaroqchilar yurtidek”, “qora bulutdek” – bu ham **xavfli, qo‘rqinchli** semantik maydonga tegishli bo’ladi. Hissiy emotsionallik biroz konkretlashgan. Ya’ni, asliyatdagi “barbaric hordes” tarjimada “vahshiy qaroqchilar” deya berilgan (“barbaric” – etnik yoki tarixiy dushman, “qaroqchilar” esa jinoyatchi sifatida tasavvur qilinadi). Qolaversa, “ba’zan neytral yoki emotsional pragmatik ma’no ifodolovchi so‘zlar qahramon harakterini yorqinroq ifodalash maqsadida makrokontekstdean kelib chiqib salbiy emotsional so‘zlar bilan almashtirish mumkin”[1]. Balki, shuning uchun “barbaric hordes” so‘z birikmasi tarjimda salbiy bo‘yoqdorlik qisman kuchaygan holda berilgandir. Romanning yana bir jumlasida Bobur mirzo tilanchiga qiyoslanadi.

[1] Раҳимов Ғ. Таржима назарияси ва амалиёти: дарслик-мажмуа – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2016. – Б. 76.

H.Lamb: *By that he meant, if a prince did not have protection, he would perish like any roadside beggar. (H.L. 1961; 27)*

So‘zma-so‘z tarjimasi: *Bu bilan u shahzoda himoyasi bo‘lmasa, u har qanday yo‘l chetidagi tilanchi kabi halok bo‘lishini nazarda tutgan.* (Sh.I.)

Jumlaning mazmun markazi himoyasiz shahzoda, oddiy tilanchi sifatida berilishi ma’nosida mujassam bo‘lgan. Muallif bu fikrni xabar shaklida bergan bo‘lsa-da, jumlada ogohlantirish va kinoya ham mavjud. Ya’ni, “shahzoda ham himoyasiz qolsa, oddiy gado kabi halok bo‘ladi” – bu hokimiyatning **insoniy zaifligini** eslatadi. Umuman olganda, jumlada himoya hayotiy zarurat sifatida talqin qilingan.

G‘.Sotimov: *Bu bilan u, agar shahzodaning ishonchli himoyasi bo‘lmasa, unda yo‘l chekkasida tilanchilik qilib o‘tirgan gado singari chorasiz holatga tushib qolishi mumkin, demoqchi bo‘lardi. (G‘.S. 2015; 25)*

Asliyatdagi “prince-beggar” tandemida ifodalangan falsafiy ogohlantirish va kinoya tarjimada “shahzoda – gado” so‘zlari bilan aniq ifodalangan. Ammo emotsional-pragmatik qatlam asliyatdagidan ko‘ra yumshoqroq ifodalangan. Muallif asliyatda “*perish like any roadside beggar”* so‘z birikmasi bilan achchiq, keskin va kinoyali ohangni ifodalaydi. Tarjimada berilgan “*chorasiz holatga tushib qolishi mumkin”* birikmasi esa, ehtimollik yoki achinish ohangi yumshoq berilgan. Asliyatdagi “roadside begger” so‘z birikmasini “*yo‘l chekkasida tilanchilik qilib o‘tirgan gado*” sifatida berilishi tasviriy kuchni oshirilishiga xizmat qilgan. Umuman olganda, tarjima asliyatdagi pragmatik maqsadni **to‘liq saqlagan**, ammo **madaniy va hissiy moslashtirilgan ekvivalent bilan** amalga oshirilgan.

G‘.Salomov tarjimonning bir necha xatolari sanab o‘tadi. Ulardan biri sifatida “tarjimada asl nusxada bo‘lmagan so‘zlarni qo‘shish va uni “to‘ldirish”, “mukammallashtirish”ga bo‘lgan intilish oqibatida kelib chiqadigan nuqsonlarni kiritgan”[1]. Yuqoridagi tarjimada ham mutarjim tomonidan asliyatdagi so‘zga o‘zgartirish kiritilgan. Bu o‘zgarish asliyatdagi “perish” (g‘oyib bo‘lmoq, yo‘q bo‘lmoq) so‘zini “chorasiz holatga tushushi mumkin” tarzida berilganligida.

Tashbih haqida juda ko‘p gapirish mumkin. Bu san’at vositasida ifodalangan jumlalar tarjimasida mutarjim semantik jihatdan muvaffaqiyatga erishgani aniq. Ammo, pragmatik tarjima haqida bu fikrlarni aytish mushkul. G‘.Sotimov asliyatdagi pragmatik mazmunni ayrim juz’iy o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish orqali tarjima qilgan. Ba’zan, jumlada anglashilgan pragmatik munosabat, ayniqsa tashbih bilan berilganlari, hissiy bo‘yoqdorlik kuchayishi yoki kamayishi, jumlaga qo‘shimcha ma’lumot kiritish kabi usullardan foydalangan holda amalga oshirilganligi tahlillar natijasida aniq bo‘ldi.

Epitet tasviriy vositalarning ichida eng ko‘p qo‘llaniladiganlaridan biri. A.Veselovskiy o‘zining “Poetika tarixi” nomi ostida nashr qilingan ishida “Epitet tarixidan” nomli alohida qism mavjud. Ushbu qismda olim epitetga shunday ta’rif beradi: “epitet – bu so‘zning bir tomonlama ta’rifi, u umumiy ot ma’nosini yangilaydi yoki kuchaytiradi, obyektning qandaydir harakterli, ajoyib sifatini ta’kidlaydi”[2]. Ingliz tili stilistikasi bo‘yicha yuqori darajda shug‘ullangan I.Galperinda A.Veselovskiyning ta’rifi to‘ldirilgan shaklda berilgan. Unga ko‘ra, “epitet - bu hissiy va mantiqiy ma’nolarning o‘zaro ta’siriga asoslangan stilistik usul bo‘lib, ob’ektni tavsiflash uchun ishlatiladigan va o‘quvchiga ko‘rsatib beradigan va ko‘pincha unga obyektning ba’zi xususiyatlarini yuklaydigan atributiv so‘z, ibora yoki hatto jumla bo‘lib, bu xususiyatlarni individual idrok etish va baholash maqsadida amalga oshiriladi”[3]. Demak, A.Veselovskiy va I.Galperinning fikriga ko‘ra, epitet ot so‘z turkumiga oid so‘zlarni sifat so‘z turkumidagi so‘zlar bilan birkuvidan hosil bo‘ladi va otning asl ma’nosiga qandaydir darajada qo‘shimcha ma’no kiritishga xizmat qiladi. Ingliz tili stilistikasida zalvorli ishlarni amalga oshirgan yana bir olim I.V.Arnolddir. U ham epitetga boshqa olimlarnikidek bir xil ma’noda ta’rif bergan. Ko‘ramizki, epitet haqida olimlarning fikrlarida mushtaraklik mavjud.

Epitet xususida qilinayotgan tadqiqotlarning ichida “epitet lug‘atlarini yaratilganligi alohida ahamiyatga ega. Xususan, A.Zeleneskiy o‘zining “Epitetlar: Abadiy rus yozuvlari”[4] nomi ostida 1913-yilda chop etilgan 214 sahifadan iborat epitetlar lug‘ati va K.Gorbachevich va E.Xablolar tomonidan 1979-yilda Leningradda chop etilgan 284 sahifalik “Rus adabiy tilining epitetlar lug‘ati”[5] shular jumlasidandir. Ushbu ikki lug‘atda ot so‘z turkumiga bog‘liq so‘zlar oldidan qanday sifatlarni kelishi orqali epitet hosil qilishi haqida batafsil ma’lumotlar keltirilgan.

Epitetning turlari haqidagi ma’lumotlar ham turlicha berilgan. A.Veselovskiyda ular asosan ikki – tavtologik va izohli epitetlar berilgan, Izohli epitetlarni

[1] Саломов Ғ. Тил ва таржима (Бадиий таржиманинг умумфилологик ва баъзи лингвистик масалалари). – Тошкент: Ўзбекистон фан нашриёти. 1966. – Б. 82.

[2] Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – Ленинград: Художественная литература, 1940. – С. 73.

[3] Galperin I.R. Stylistics. – Moscow: “Higher School”, 1977. – P. 157.

[4] Зеленецкий А.Л. Эпитеты; Литературной русской рѣчи. – Москва, 1913. – 214 с.

[5] Горбачевич К.С., Хабло Е.П. Словаръ эпитетов вусского литературного языка. – Ленинград: «Наука», 1979. – 284 с.

esa, yana ikki turga metaforaviy epitetlar va sinkretik epitetlar tarzida alohida guruhlarga bo‘lib chiqadi[1]. Zamonaviy ingliz tili stilistikasi rivojiga katta hissa qo‘shgan I.V.Arnold ham A.N.Veselovskiy ortidan borib, yuqoridagi turlarga ingliz manbalaridan misollarni olib tahlil qilgan[2]. I.R.Galperinda epitetlarning turlarga bo‘lish mukammal bajarilgan. Ularni quyidagicha jadvallashtirilgan.

2.6-jadval

Epitet (I.R.Galperin “Stylistics”)

Semantik (Semantic)		**Strukturaviy (Structural)**					
Bog‘langan epitet (Associated)	**Bog‘lanmagan epitet (Unassociated)**	**Kompozitsion struktura (Compositional)**				**Distributiv struktura (Distributive)**	
Masalan: *dark forest*	Masalan: *heart-burning smile*	**Sodda epitetlar**	**Qo‘shma so’zli epitetlar**	**So’z birikmali epitetlar**	**Gap bilan ifodalangan epitetlar**	**Tizimli epitetlar**	**O’zgargan epitetlar**
		Masalan: *sweet perfume*	Masalan: *true love*	Masalan: *cloud-shapen giant*	Masalan: *do-it-yourself attitude*	Masalan: *wonderful, cruel, enchanting fatal, great city*	Masalan: *sick chamber*

I.Galperin epitetlarni mukammal o‘rganib chiqqanligi ko‘rinib turibdi. G‘arb olimlarining badiiy san’atlarni turlarga bo‘lishda bir tomonlama yondoshmasligi I.Galperinning epitetlarni turlarga bo‘lsihdagi yondoshuvlari asosida yaqqol namoyon qilgan.

Epitet nazm va nasrda ishtiroki juda muhimki, kitobxon hissiyotiga ta’sir kiritishga, ma’lum darajada kuchaytirishga xizmat qiladi. Abdulla Oripovda shunday misralar uchraydi.

Qachondir Shimolning oppoq qoridan,
Seni yaratgandi zukko tabiat.
Ko‘zingga rang berdi osmon qa’ridan,
Shul sabab moviydir bu ko‘zlar behad.[3] *(Abdulla Oripov)*

Abdulla Oripov ranglarga ta’rif bergan misralarda uch joyda epitet san’atidan foydalangan. Ular: 1) oppoq qor; 2) zukko tabiat; 3) moviy ko‘zlar. Agar shoir ushbu birikmalar tarkibidagi sifatlarni tushurib qoldirsa tasvir va belgini hissiy ifodalamagan bo‘lardi. Qolversa, ifodalar juda sayoz berilardi. “Oppoq” sifati “qor” so‘zining tabiiy belgisini kuchaytirib, **poklik, soflik, go‘zallik** ma’nolarini yuklaydi. Tabiatga yuklangan “zukkolik” sifati epitet bilan birgalikda jonlantirish san’atini ham qo‘llagani ma’qul. Shoir bu birikma vositasida tabiatda nafaqat jon, balki zukkolik mavjudligiga urg‘u berishni istagan. “Ko‘zlar” so‘ziga rang (moviy) orqali estetik-belgili ma’no qo‘shilgan. Bir butunlikda **go‘zallik va sokinlik timsoli** sifatida berilgan. Har uchchala epitet I.R.Galperin tahlili bilan aytganda semantik nuqtai-nazardan “bog‘langan” strukturaviy tarafdan kompozitsion sodda epitetlar sirasiga kiradi.

“Bobur-Yo‘lbars” romanida ham yuqoridagi kabi epitetlar juda ko‘p o‘rinlarda qo‘llanilgan. Deyarli har

[1] Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – Ленинград: Художественная литература, 1940. – С. 73-93.
[2] Арнолд И.В. Стилистика. Современный английский язык. – Москва: «Наука», 2002. – С. 130-136.
[3] Орипов А. Танланган асарлар, (Шерлар ва достонлар). Иккинчи жилд. – Тошкент: Ғофур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001. – Б. 19.

bir jumlada epitetning ishtiroki mavjud.

Romanning birinchi qismida Bobur mirzoning tug‘ulish sahnasi tasvirlangan. Unda shunday jumla uchraydi:

H.Lamb: *From **the ends of the valley** the chieftains of tribes and lords of the towns who owed allegiance to Omar Shaikh, rode in to felicitate the father on **the auspicious birth**, and to stuff themselves with **good eating**. (H.L. 1961; 17)*

So‘zma-so‘z tarjimasi: *Vodiyning chekkalaridan Umarshayx mirzo egalik qiladigan shahar beklari va qabila sardorlari muvaffaqiyatli tug‘ulish bilan tabriklash hamda yaxshi ziyofatda qatnashi uchun yo‘lga otlangan edilar..* (Sh.I.)

Asliyatda uch o‘rinda epitetning ishtiroki mavjud. Ular “the ends of the valley”, “auspicious birth” va “good eating”. Birinchida berilgan “the ends of the valley” attributiv so‘z birikmasi hisoblanib, geografik makonni poetik tarzda ifodalagan. Voqea maydonning kengligini, tabiat fonini yaratgan. O‘quvchida epik, tarixiy sahna taassurotini uyg‘otadi. I.R.Galperinda bunday tuzulishdagi epitetlar “reversed” (o‘zgargan) tarzida berilgan. Ingliz tilida bunday epitetlar “of” predlogi orqali egalikni hosil qilgan birliklarda uchraydi[1]. Qolgan ikki epitet sifat+ot shaklida berilgan. “The auspicious birth” (“omadli tug‘ulish”) so‘z birikmasi hodisani ijobiy va quvonchli deya baholash uchun ishlatilgan. Bu birikma bilan ma’noviy jihatdan muqaddaslik va xursandchilik munosabati mavjud. O‘quvchida quvonch, ehtirom, bayramona kayfiyat hosil qiladi. “Good eating” so‘z birikmasi esa, ko‘p hollarda badavlat davralardagina uchraydigan to‘kin dasturxonga ishora qilmoqda. Muallif shu birikma bilan xiyol kinoyani ham kiritib o‘tgandek. Ya’ni, bazmga tashrif buyuruvchilarning tasviri ortidan bunday davralarda ko‘p hollarda isrofgarchilik va bazmga o‘chlik tabiati nazarda tutilgan.

G‘.Sotimov: ***Vodiyning chekka-chekkalaridan** Umarshayx mirzo qo‘l ostida xizmatda bo‘lgan beklar, amirlar, mulk egalari va turli qavmlar sardorlari podshohni **muborak sana** – shahzodaning tug‘ilishi bilan tabriklash va buning sharafiga beriladigan **to‘kin ziyofatda** ishtirok etish uchun poytaxt sari yo‘lga otlandilar. (G‘.S. 2015; 15)*

G‘.Sotimov tarjimda asliyatda aniqlangan epitetlarni quyidagicha tarjima qilgan:

1) “the ends of the valley” – “vodiyning chekka-chekkalaridan”;

2) “the auspicious birth” – “muborak sana – shahzodaning tugilishi”;

3) “good eating” – “to‘kin ziyofat”.

Asliyatdagi “the ends of the valley” epiteti tarjimada to‘liq ma’no bilan saqlangan. Ayniqsa, “chekka” so‘zini takror ishlatilishi kuchaytiruvchi vazifa bajarib, mutarjim bu bilan asliyadagi kenglik, geografik makonning kattaligini shu orqali bermoqchi bo‘lgan. Bu yondoshuv orqali tarjimada pragmatikani saqlashga erishgan. Asliyatdagi “auspicious” sifatining ijobiy-baholovchi ma’nosi o‘zbekcha tarjimada “muborak” so‘zi orqali to‘liq berilgan. “Birth” so‘zi esa, birmuncha mavhum “sana” so‘zi bilan berilgan. Tarjimonni “muborak sana –shahzoding tug‘ilishi” deya ifodalashi asliyatdagi ma’lumotlarga qo‘shimcha kiritish orqali tarjima qilganini ko‘rsatib bermoqda. Zero “the auspicious birth” so‘z birikmasini shunchaki “omadli tug‘ilish” deb so‘zma-so‘z tarjima qilishi kitobxon uchun pragmatik mazmunni yanada noaniq qilar edi. Buni mutarjiim sezgan va qo‘shimchalar kiritish orqali o‘quvchini bu mavhumlikdan qutqargan. Inglizcha ifodadagi kinoyaviy ohang tarjimada **rasmiy va neytral** tus olgan. “To‘kin ziyofat” - **badiiy, ammo ijobiy** ma’noda ishlatilgan. Natijada **pragmatika yo‘qolgan**, lekin **madaniy muvofiqlik** ta’minlangan.

H.Lamb: *An unwritten law, as well as the strict Islamic law of property, protected them. (H.L. 1961; 171)*

So‘zma-so‘z tarjimasi: *Islomning mulk huquqi bilan birgalikda yozilmagan qonunlar ularni himoya qilar edi. (Sh.I.)*

Jumlada ikki o‘rinda epitet mavjud. Ikkisi ham “law” so‘zi oldidan kelgan sifatdosh va sifat bilan berilgan. “Unwritten” va “strict Islamic” birikmalari “law” so‘zini ma’nosini yangilab kuchaytirib bergan. “Unwritten law” so‘z birikmasidagi pragmatik ekspressivlik o‘quvchiga jamiyatidagi qadimiy, ammo kuchli axloqiy normalar mavjudligini his qildiradi. Bu qonunlar yozilmagan bo‘lsa ham, amalda rasmiy qonun singari kuchli ta’sirga ega. “Strict Islamic law” epitetining pragmatik funksiyasi o‘quvchiga musulmon jamiyatida diniy qonunlarning kuchi va majburiyligini eslatishda ko‘rinadi.

Jumladagi epitetni kontekstual tahlilidan muallif islom jamiyatida mol-mulkni himoya qiluvchi ikki tizim – yozilmagan (umuman olganda og‘zaki) va shariat qonunlari mavjudligini anglashilgan. Ya’ni g‘arbga musulmon dunyosining rasmiy va norasmiy tartib tizimi borligi anglashilgan. Demak, yozuvchi epitet vositasida “qonun” tushunchasiga diniy, axloqiy qadriyatlar qatlamini tushuntirish uchun ishlatgan.

G‘.Sotimov: *Bu karvonlardagi mollar islomdagi mulk huquqi asosida himoyalanar va ko‘zlangan manzillariga eson-omon yetib olardilar. (G‘.S. 2015; 150)*

Mutarjim tarjimda madaniy moslashuvni tanlagan, lekin buning uchun asliyatdagi g‘arb muallifining kuzatuvchilik nigohi yo‘qolgan. Asliyatdagi “unwritten

[1] Galperin I.R. Stylistics. – Moscow: Higher School, 1977. p. 160.

law” va “strict Islamic law” epitetlari tushib qolgan. Bir tomondan, tarjimon romanni islom dunyosi kitobxoni uchun tarjima qilganini unutmaslik zarur. Shuning uchun “unwritten law”ni tushirib qoldirgan, chunki **islom jamiyatdagi o‘quvchiga** “yozilmagan qonun” tushunchasi begona emas va ortiqcha izoh talab qilmaydi. Bu **pragmatik moslashtirish (adaptatsiya)** usuli hisoblanadi. Natijada asliyatdagi epitetlarning ekspressivlik funksiyasi neytrellashgan va qisman pasaygan ham. Asliyatdagi himoya tushunchasining ikki manbasi “unwritten law” va “strict Islamic law” tarjimda bitta, qo‘shimchasiga soddalashgan (islomdagi mulk huquqi) tartibda berilgan.

Xulosa o‘rnida, muallif epitetlarda o‘zining badiiy-estetik maqsadini aniq yetkazib berish uchun foydalangan. G‘.Sotimov asliyatdagi epitetlarni semantik jihatdan saqlagan bo‘lsa-da, pragmatik tarafdan toraygan, neytralashgan va ba’zi o‘rinlarda madaniylashgan moshlashgan holda tarjima qilgan.

Rezyume. Badiiy tasvir vositalaridan tashbih va epitetning badiiy matndagi o‘rni, ularning semantik hamda pragmatik xususiyatlari, shuningdek, ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima jarayonida mazkur san’atlarning ifodalanish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqot materiali sifatida H. Lambning “Bobur-Yo‘lbars” romani va G‘. Sotimov tomonidan amalga oshirilgan o‘zbekcha tarjimasi tanlangan. Maqolada tashbih va epitetning nazariy asoslari sharq va g‘arb adabiyotshunosligi vakillarining qarashlari asosida yoritilgan hamda ularning tarkibiy qismlari, turlari va badiiy-estetik vazifalari tahlil qilingan.

Resume. This article examines the role of simile and epithet as artistic expressive devices in literary texts, their semantic and pragmatic features, as well as the ways in which these stylistic devices are rendered in the process of translating from English into Uzbek. The research is based on H. Lamb’s novel *Babur the Tiger* and its Uzbek translation by G‘. Sotimov. The article explores the theoretical foundations of simile and epithet through the perspectives of Eastern and Western literary scholars and analyzes their structural components, types, and literary-aesthetic functions.

Резюме. В статье исследуется роль **сравнения и эпитета** как средств художественной выразительности в художественном тексте, их семантические и прагматические особенности, а также вопросы передачи данных стилистических средств в процессе перевода с английского языка на узбекский. Материалом исследования послужил роман Х. Лэмба *«Бабур – Тигр»* и его узбекский перевод, выполненный Г. Сотимовым. В статье теоретические основы сравнения и эпитета рассматриваются на основе научных взглядов представителей восточного и западного литературоведения, а также анализируются их структурные компоненты, виды и художественно-эстетические функции.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 9
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

JANGOVORLIK, JASORAT VA JISMONIY KUCHGA OID EPITETLAR ("beowulf" ingliz eposi misolida)

Ibragimov Jasurbek Tulkinjon o'g'li,
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti dotsenti v.b.,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Xalq dostonlarida obrazlar tasvirini aniq, ifodali va o'quvchi uchun tushunarli qilib yetkazishda baxshilar o'z mahoratini yuqori darajada ishlatib epitetlarni qo'llashi eposlardagi qahramonlar tasviriga xalqona hayot baxsh etgan. Bu epitetlarning vazifasi turli xil bo'lib, ularning ichida qahramonlik dostonlarida obrazlarni jangovorlik qobilyati, jasorati va jismony kuchini ifodalashga xizmat qilgani eng sermahsulilaridan biri. Ingliz xalq eposi "Beowulf" dostonidan ham bunday epitetlarning soni anchagina salmoqli. Dostondagi epitetlar tahlil qilinganda, umumiy obrazlar tasviri uchun 983 o'rinda turli xil epitetlar qo'llangan[1]. Ana shu epitetlarning 169 tasi, ya'ni 16.2% jangovorlik, jasorat va jismoniy kuchga oid epitetlarni tashkil qiladi.

"Beowulf" dostonida xristianlik unsurlari haqida tadqiqot olib borgan F.A.Blakborn "dostonda epitetlarning ko'pchiligi lotincha birikmalarning ekvivalenti"[2] deya fikr bildiradi. Olim "Beowulf" dostonidagi xristian dini bilan bog'liq leksikani tahlilidan shu xulosaga kelganini hisobga olsak, bu fikr dostondagi barcha epitetga tegishli deb bo'lmaydi. Ayniqsa, dostondagi jangovorlik, jasorat va jismoniy kuchga bog'liq epitetlar haqida bunday fikrlarni yuritish mushkul.

Dostonda jangchining tanasi, qo'li, jasorati va jang maydonidagi xulqi ulug'lanadi. Epitetlarning asosiy o'zak qismi *ellen* (jasorat), *heard* (qattiq), *modig* (dovyurak), *rof* (shonli), *deor* (jasur), *mægen* (kuch), *guð/hild/heaðo* (jang) so'zlari vositasida berilgan.

"Beowulf" dostoni asliyatida:
Him þa ***ellenrof*** *andswarode,*
wlanc *Wedera* ***leod****, word æfter sprǣc,*
heard *under helme.*
So'zma-so'z tarjimasi:
Unga jasoratli [qahramon] javob berdi,
Vederlar (geatlar)ning mag'rur yo'lboshchisi so'z qotdi,
Dubulg'asi ostida matonatli [alp].

Bu parcha Beovulf va uning sherigi Daniya qiroli Hrotgar (Hrotgar) saroyiga yetib kelganda sodir bo'ladi. Saroy soqchisi va vaziri Vulfgar (Wulfgar) ularning kimligini va nima maqsadda kelganini so'ragandan so'ng, Beowulf unga o'zining kimligini va buyuk nals nasabini tanitishdan oldingi kirish qismidir. Epitetlar "*ellenrof", "wlanc"* va *"heard"* Xrotgar va Beovulf tasviri uchun ishlatilgan. O'zbek tiliga "*ellenrof"* so'zini "jasoratli, shijoatli"*, "wlanc"* "mag'rur" va *"heard"* "matonatli, sabotli" deya tarjima qilish mumkin. Barchasi qahramonlarning sifatlarini yaqqol tasvirlash uchun ishlatilgan. A.N.Veselovskiy "agar men qisqartirilgan nashrda epitet tarixini she'riy uslub ta'rixi desam, mubolog'a bo'lmaydi"[3] deganda haq gapni aytgan edi, chunki she'rni epitetsiz tasavvur qilish qiyin. Yuqoridagi misrada ham, Beovulf va Hrotgarni tasviri ularga alohida boshqalarga o'xshamangan jangovorlik va jasorat ma'nosini biriktirishga xizmat qilgan epitet ishlatilmasa, misralarning alliteratsion ohangi va jozibasi, bundan tashqari mazmuniy kuchu ham bunchalik bo'lmagan bo'lar edi. Shuning uchun boshqa bir epitetlar ustida yirik tadqiqot olib borgan A.Gornfeld "epitet adabiyot nazariyasidagi atama bo'lib, uning ifodaliligiga ta'sir qiluvchi so'z bilan belgilangan atama"[4] deya ta'rif beradi.

"Beowulf" dostoni asliyatida:
Swa fela fyrena ***feond mancynnes****,*
atol angengea*, oft gefremede,*
heardra hynða*.*
So'zma-so'z tarjimasi:
Shunday qilib, insoniyatning ashaddiy dushmani,
yolg'iz kezuvchi mudhish [dev], ko'p fitna-ofatlar,

[1] Bu raqamlar muallifning ilmiy statistik tahlili natijasida yuzaga kelgan bo'lib, bu yakuniy xulosa emas.
[2] Blackburn F.A. The Christian Coloring in the *Beowulf*. // *An Anthology of Beowulf Criticism*. – London: University of Notre Dame Press, 1980. – P. 1–22.
[3] Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – Ленинград: Художственная литература, 1940. – С. 73.
[4] Горнфельдъ А. Эпитетъ//Вапросы теороіи и психологіи творчества (Томъ I) – Харковъ, 1911. – С. 341.

shavkatsiz xo‘rliklar keltiradi.

Ushbu misralarda uchragan epitetlarga nazar soladigan bo‘lsak, barcha ta’rif yovuz maxluq Grendelga atalganini bilish qiyin emas. Dostonda Grendel insoniyatga dushman sifatida tasvirlanadi shuning uchun, unga berilgan ta’rifda *“feond mancynnes”* (insoniyat dushmani) epitetli birikmasini ishlatadi. Bundan tashqari “atol angengea” (yolg‘iz kezuvchi) epitetli birikmasi ham o‘quvchini yovuz qahramon haqidagi qarashlarini yaqqol tasvirlashga xizmat qilgan. Ushbu epitetlarga e’tibor berilsa, I.R.Galpernning “yozuvchi yoki so‘zlovchining muloqotida bo‘lgan hissiy munosabatni aks ettirishning kuchsizroq, ammo baribir kuchli vositasi”[1] degan fikrlar asosli. Demak, ingliz eposidagi Grendelga nisbatan qo‘llanilganini hisobga oladigan bo‘linsa, o‘quvchiga yovvoyi qahramonning jismoniy kuchini ifodali yetkazishga imkon bergan.

Birinchi misrada *“fēond mancynnes”* so‘z birikmasi qadimgi ingliz tilida ikki qatlamli: 1) qahramonlik ma’nosi “dushman”, 2) xristian dinidagi “iblis”. Bu epitet lotincha “*hostic publicus*”[2] (omma, umumxalq dushmani) modelida shakllangani aniq. Demak, Grendel uchun ishlatilgan ushbu epitet uning xristian dinidagi iblisga qayta ko’chiriladi. Bu fikr uchun J.R.R.Tolkinning “Beowulf: The Monsters and the Critics” ilmiy maqolasida ilgari surilgan Grendel obrazining ikki tabiatliligi haqida aniq dalil keltirilgan[3]. Bu epitetni turg‘un epitet deyish mumkin, chunki uni dostonning 1276-misrasida ham uchratamiz. Ushbu misrada ham, “xalq dushmani” ma’nosida keladi.

“*Atol angengea*” epitetli birikmasi ham dostonda ikki joyda keladi. Har ikkisida ham Grendelning tasviri uchun ishlatiladi. 165-misrada kelganda muallif nutqida, 449-misrada Beovulf nutqida uchraydi. Umuman olganda, yolg‘izlik anglo-sakson qahramonlik dunyoqarashida eng og‘ir la’nat. Shuning uchun, “*angengea*” Grendelni monstr sifatida emas, anti-ijtimoiy mavjudot (dev) sifatida belgilaydi.

“Heardra hynða” epitetli iborasidagi “*hynða*” jismoniy zarar emas, aksincha insonni qadr-qimmatini yerga urish, xo‘rlash va ijtimoiy maqomini pasaytirish deya qabul qilish mumkin. Dostonda Grendelning insonlarga hujumi qotillik, Hrotgar qo‘shiniga, sha’nga qarshi tajovuz sifatuda taqdim etiladi. Anglo-saksonlarda “*heardra”* sifati odatda, ijobiy qahramonlik tasvirini ifodalashga ishlatiladi. Bu so‘z bilan “*heard swyrd”*[4] (mustahkam qilich), “*heardhicgende”*[5] (jasur, qat’iyatli jangchi) tarzida ijobiy konnotatsiya uchun ishlatiladi. Biz ajratib olingan parchada bu sifat azob-uqubatni tasvirlash uchun ishlatiladi.

“Beowulf”da ayrim epitetlar dostondagi boshqa qahromonlarga nisbatan ham qo‘llangan. Ulardan bittasi “hildedēor” (jangda jasur) epitetidir.

“Beowulf” dostoni asliyatida:

Þæt wæs tacen sweotol,
syþðan ***hilded*****ē*****or*** *hond alegde,*
earm ond eaxle.

So‘zma-so‘z tarjimasi:

Bu yaqqol (ravshan) isbot bo‘ldi,
shiddatli va jasur [qahramon] panja,
yelkadan bilakkacha [yulib] qo‘ygach.

Misrada asosiy epitet “*hildedēor*” bo‘lib, uning tarkibida “*hilde*” “*jang*” va “*dēor*” “*jasur, dovyurak, shiddatli*” so‘zlarining o‘zaro birikuvidan hosil bo‘lgan. Botsvors-Tollerning eski ingliz tilining izohli lug‘atida ushbu so‘zni “hilde-deor” “stoat in war, brave”[6] tarzida beradi. Lug‘atda ushbu so‘zga berilgan misollarda bu epitet “Beowulf” dostonidagi qo‘llangan variantlardan parchalar olinadi. Bundan tashqari bu epitet boshqa ikkita “Andreas” va “Elena” dostonlarida uchrashi ham alohida keltiriladi. “Beowulf” dostonida ham ushbu epitet faqatgina bir qahramon Beovulf tasviriga ishlatilmaydi. 312-misrada qirg‘oq qorovuliga, 2107-misrada Hrotgerga, 3111-misrada Viglafga nisbatan qo‘llanadi. Demak, ushbu epitetni sinfiy deyishga asos bor.

Dostonning 825-836-misralarida Beovulfning ismi biror marta qayd etilmaydi. Uning o‘rniga uning sifatlari keltiriladi. Bulardan “*se þe ær feorran cōm*” (uzoqdan kelgan odam), “*snotor ond swȳðferhð*” (dosnihsmand va matonatli), “*Gēatmecga lēod*” (Git yigitlarining kishisi) va “*hildedēor*” (jangda jasur) so‘z va so‘z birikmalarini alohida keltirish mumkin.

“Beowulf”dagi ushbu epitet o‘zbek dostonchiligida ko‘p qo‘llaniladigan “botir, polvon, sherdek, arslon yurak” kabi so‘zlar bilan sinfiy jihatdan to‘liq mos keladi. Shuning uchun ham, V.M.Jirmunskiy va H.T.Zarifov bu hodisani formulaviy uslubning umumiy qonuniyati sifatida tavsiflagan[7]. Demak, anglo-sakson va o‘zbek xalq eposini qahramonlar tasvirida qo‘llangan epitetlar misolida bir metodologik qatorda ko‘rish mumkin.

“Beowulf” dostoni asliyatida:

[1] Galperin I.R. Stylistics. – Moscow: Higher School, 1977. – P. 157.
[2] https://www.econlib.org/enemy-of-the-people/
[3] Tolkien J.R.R Beowulf: The Monsters and the Critics. // *An Anthology of Beowulf Criticism*. – London: University of Notre Dame Press, 1980. – P. 51–103.
[4] Bosworth J., Toller T. N. An Anglo-Saxon Dictionary. Oxford: Clarendon Press, 1898. – P. 352.
[5] Bosworth J., Toller T. N. An Anglo-Saxon Dictionary. Oxford: Clarendon Press, 1898. – P. 351.
[6] https://bosworthtoller.com/19013
[7] Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. – Москва: ОГИЗ, 1947. – С. 247.

Gæþ eft, se þe mot,
*to medo **modig**, siþþan morgenleoht*
ofer ylda bearn oþres dogores,
sunne sweglwered suþan scineð. (603b-606)
So‘zma-so‘z tarjimasi:
[Grendel tahdidini yengib] kimki omon qolsa,
yana g‘urur ila majlis saroyiga, asal sharobi ichgani qadam bossin
toki odam bolalari uzra boshqa bir kunning tongi otib,
samoviy charog‘onlikka burangan quyosh janubdan nur sochar ekan!

Ushbu misralarda Unfers va Beovulf o‘rtasida so‘z jangining yakuni keltirilgan. Ushbu epitet kimning tasviri uchun ishlatilgani noaniq. Buni aynan shu misralardan bilib bo‘lmaydi. Epitet Unfers tilidan Beovulfga berilgan ta’rif. Unfers Beovulfni mag‘rur va dovyurak sifatlashi bilan atab uning jangdagi jangovorlik va jasoratini ulug‘lash uchun xizmat qilgan. Epitet “mōd” (ruh, kayfiyat, g‘urur) va “-ig” qo‘shimchasini qo‘shish orqali hosil bo‘lgan. “Mōdig” so‘zining ma’nosi “ruhi baland, dovyurak, mag‘rur”[1] degan ma’nolarda lug‘atlarda berilgan.

Quyidagi misralarda “cempa” (bahodir) va “freca” (jasur) epitetlarini dostonning turli qahramonlarining tasvirida uchratishimiz mumkin.

“Beowulf” dostoni asliyatida:
Hæfde ða forsiðod sunu Ecgþeowes,
*under gynne grund, **Geata cempa**,*
nemne him heaðobyrne helpe gefremede,
herenet hearde. (1550-1553a)
So‘zma-so‘z tarjimasi:
[O‘sha lahzada] Egteovning o‘g‘li, Geatlar pahlavoni,
Tubsiz ummon qarida halok bo‘lar edi mutlaqo,
Gar unga jangovar sovuti madadga kelmasa,
Po‘latdan to‘qilgan mustahkam zanjir-yubqa saqlab qolmasa.

“*Cempa*” epiteti Beovulfga oddiy jangchi obrazini emas, balki o‘z xalqining eng oliy jismoniy kuchga va harbiy mahoratga ega bo‘lgan vakili sifatida berilgan. Eski ingliz tilining izohli lug‘atida bu so‘zga “*a soldier, warrior, champion*”[2] ta’rifi keltirilgan. Demak, bu epitetni o‘zbek tilida “pahlavon, jangchi” so‘zlari bilan ifodalash mumkin.

“Beowulf” dostoni asliyatida:
*He gefeng þa fetelhilt, **freca Scyldinga***
hreoh ond heorogrim, hringmæl gebrægd
aldres orwena, yrringa | sloh,
þæt hire wið halse heard grapode,
banhringas bræc. (1563-1567a)
So‘zma-so‘z tarjimasi:
U kamarbandli dastani changalladi – Skildinglar jangchisi,
vahshiy va qilichday shafqatsiz, halqanaqsh [qilich]ni sug‘urdi,
hayotidan umidini uzib, g‘azab bilan urdi,
[qilich] uning bo‘yniga qattiq yopishdi,
suyak halqalarini sindirdi.

Ushbu misralar Beovulf va Grendel onasi o’rtasidagi jangning so’nggi qismlarida uchraydi. Aynan misrada Beovulf devni suv ostida ojiz qolganini ko‘rib, devlar yasagan qadimiy qilichni qo‘lga oladi va hal qiluvchi zarbani beradi. Ushbu misrada oltita o‘rinda epitetdan foydalanilgan bo‘lib, ularning 4 tasi qahramon tasviri va 2 tasi qurol orqali ularni bilvosita ifodalaydi.

1) *freca Scyldinga* (Skildinglar jangchisi)
2) *hreoh* (vaxshiy, shiddatli, dovulday)
3) *heorogrim* (qilichday shafqatsiz)
4) *aldres orwena* (Hayotdan umidini uzgan)
5) *yrringa* (g‘azab bilan)
6) *heard* (qattiqqo‘l)

Ushbu epitetlar bilan Beovulf qanchalik darajada jangovor va jasoratli ekanligi alohida ko‘rsatilgan. Birinchi epitet Beovulf obrazini “Geat” deb berilgan Skilding emas. Ammo ushbu misrada u “*freca Scyldinga”* (Skildinglar jangchisi) deb ataladi. Dostonda keyinroq Beovulfni “Higelaces ðegn” (Higelakning tanburchisi) (1574-misra) deya ataladi. Demak, epitet ikki tomonlama sodiqlikni ko‘rsatadi.

Ikkinchi *hreoh* (vaxshiy, shiddatli, dovulday) epiteti asosan kontekstda dengizdagi to‘lqinlarning shiddatiga nisbatan ishlatiladi, ammo ushbu misrada epitet ko‘chma ma’noda qahramon tasviri uchun qo‘llangan. Nima uchun dengiz to‘lqinlari uchun ishlatiladigan vaxshiylik, shiddatlilik Beovulfning tasviri uchun qo‘llangan. Bizningcha ushbu jang dengizda, ya’ni suv ostida bo‘layotgani anglatish uchun ishlatilgan bo‘lishi mumkin.

“Beowulf” dostonidagi eng mahsuldor epitet “*heorogrim”* (qilichday shafqatsiz) sifatidir. Ushbu epitet kompozitsion jihatdan murakkab epitet bo‘lib, *“heoru”* va *“grim”* so‘zlarining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan. Ushbu epitet misradagi boshqa so‘zlar bilan tahlil qilinganda *“h”* tovushi bilan yaratilgan alliteratsiyani hosil qilgan. Alliteratsiya qahramon epitetlari bilan qurol epitetini bir tovush vositasida biriktiradi. Misradagi boshqa epitetlar ham Beovulfni alohida sifatlarini tasvirlash uchun ishlatilgan.

Misrada Grendel onasining tasviri uchun umuman epitet ishlatilmaydi. Unga faqatgina olmosh va tana a’zolari bilan bog‘liq bo‘lgan so‘zlar qo‘llangan. Buning sababi jangda mag‘lublar o‘ziga xos epitetlar-

[1] https://bosworthtoller.com/23052
[2] https://bosworthtoller.com/search?q=cempa

dan mahrum qilinadi. Bu jangning qonuniyatlari biri.

Xulosa o‘rnida, “Beowulf” dostonida jangovorlik, jasorat va jismoniy kuch epitetlari uchta alohida semantik maydonga tegishli. Bunday ajralish tasodifiy emas. Albatta kuch tanada, jangovorlik jamiyatda va jasorat esa, ko‘ngilda hosil bo‘ladigan jarayon. Anglo-sakson eposida ham ana shu holat aynan o‘z akasini topgan.

Tuzulish jihatdan “Beowulf”dagi jangovorlik, jasorat va jismoniy kuchga oid epitetlarni beshta turga bo‘lish mumkin. Ular:

1) sodda *(heard, mōdiġ, hrēoh, wlanc, rōf, ānræd);*

2) murakkab *(hildedēor, heardhicgende, heorogrim, ellenrōf, heaþorōf, swīðferhþ, stīðmōd);*

3) ravish *(yrringa, ellenlīċe);*

4) qaratqichli *(mæġenes strenġest, aldres orwēna, mundgripe mæġenes);*

5) munosabat *(freca Scyldinga, mæġ Hiġelāces, Wedera lēod, wīġena weorðmynd)*;

Bu kabi xulosalar yuqorida dostondan olingan parchalar orqali atroflicha tahlil qilindi. “Beowulf” qahramonlik eposi hisoblangani uchun obrazlar tasviri uchun ishlatilgan epitetlarning xissasi qolgan tematik turlarga qaraganda salmog‘i ancha yuqori.

Rezyume. Ushbu maqolada anglo-sakson qahramonlik eposi “Beowulf” dostonida obrazlar tasvirini shakllantiruvchi epitetlar tizimi, xususan, jangovorlik, jasorat va jismoniy kuch semantikasiga oid sifatlashlar tadqiq etilib, doston matnida qahramonlar tasviri uchun qo’llangan 983 o’rindagi epitetdan 169 tasi (16,2%) aynan mazkur tematik guruhga mansubligi aniqlangan. Tadqiqot A.N.Veselovskiy, A.G.Gornfeld va I.R.Galperinning epitet nazariyasiga doir qarashlari hamda Bosworth–Toller lug’ati materiallariga tayangan holda amalga oshirilgan bo’lib, unda F.A.Blakbornning dostondagi epitetlarning aksariyati lotincha birikmalarning ekvivalenti ekanligi haqidagi xulosasi tanqidiy baholanadi va jangovorlik, jasorat hamda jismoniy kuchga oid sifatlashlar lotin tili an’anasining kalkasi emas, balki german qahramonlik dunyoqarashi zaminida shakllangan mustaqil leksik-poetik qatlam ekanligi dalillanadi.

Resume. The present article examines the system of epithets constitutive of character portrayal in the Anglo-Saxon heroic epic “*Beowulf*”, with particular attention to those qualifiers belonging to the semantics of martial prowess, valour and physical strength; of the 983 instances of epithet usage identified in the poem’s depiction of its characters, 169 units (16.2%) have been established as belonging precisely to this thematic group. The study is grounded in the theoretical treatment of the epithet developed by A.N.Veselovsky, A.G.Gornfeld and I.R.Galperin, as well as in the lexico-graphical evidence of the Bosworth–Toller “*Anglo-Saxon Dictionary*”, and it submits to critical assessment F.A.Blackburn’s conclusion that the majority of the poem’s epithets constitute equivalents of Latin collocations, demonstrating instead that the qualifiers denoting martial prowess, valour and physical strength represent not a calque upon the Christian-Latin tradition but an autonomous lexico-poetic stratum formed upon the ground of the Germanic heroic world-view.

Резюме. В настоящей статье исследуется система эпитетов, формирующих изображение образов в англосаксонском героическом эпосе “Беовульф”, в частности определения, принадлежащие семантике воинственности, доблести и физической силы; установлено, что из 983 случаев употребления эпитетов при описании персонажей поэмы 169 единиц (16,2 %) относятся именно к данной тематической группе. Исследование опирается на теоретические положения об эпитете, разработанные А.Н.Веселовским, А.Г.Горнфельдом и И.Р.Гальпериным, а также на лексикографические данные словаря Босворта–Толлера, и подвергает критической оценке вывод Ф.А.Блэкберна о том, что большинство эпитетов поэмы представляет собой эквиваленты латинских словосочетаний, доказывая, что определения со значением воинственности, доблести и физической силы являются не калькой христианско-латинской традиции, а самостоятельным лексико-поэтическим пластом, сложившимся на почве германского героического мировоззрения.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 9
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

FRAZEOLOGIZMLARNING YONDOSH BIRLIKLAR BILAN O'ZARO ALOQASI

Nazarova Ziyoda Kattayevna,
Termiz davlat universiteti katta o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Frazeologizmlar bugungi kungacha tilshunoslarning e'tiborida bo'lib, ularni o'rganishning keng va tor doiralari yuzasidan olib borilayotgan bahs-munozaralar hali ham yakunlanmagan. Idiomalar, iboralar, maqollar, matallar, evfemizmlar kabi leksik birliklarning xususiyatlarini o'zida mujassam etuvchi frazeologizmlar turli tillarda turlicha talqin etiladi.

Jahon tilshunosligida frazeologizm tushunchasini keng mazmunda tushunuvchi olimlar P.Smit, V.P.Jukov, V.N.Teliya, N.M.Shanskiy[1] barcha turdagi barqaror birikmalarni (tarkibi o'zgarmaydigan, tayyor holda ishlatiladigan va bir butun ma'noga ega**)** frazeologizmlarga kiritishgan.

Frazeologizmlar til birliklariga xos semantik, tuzilma va qo'llanish jihatlariga ega bo'lgan turg'un birikmalardir. Ular evfemizmlar, idiomalar, maqollar, matallar va shular kabi boshqa til birliklari bilan yaqin aloqada bo'ladi. Frazeologik birlik aynan semantik xususiyatiga ko'ra izohlanadi. "Tilshunoslikda turg'un so'z birikmalar, tarkibli atama va murakkab terminlar, parafrazalar frazeologik birlik maqomida talqin etilmoqda. Shuningdek, turg'un birikmalar komponentlari va frazeologik birliklar o'rtasida shakllanuvchi sintaktik munosabat masalasi ham nazardan chetda qolmoqda. Shu ma'noda, tarkibli atamalar, murakkab terminlar, parafrazalar, turg'un so'z birikmalari, iboralarning sintaktik derivatsiyasi (yasalishi) masalalarini tadqiq qilish nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi"[2]. Bu shuni anglatadiki, frazeologizmni faqat semantik jihatdan emas, balki strukturaviy va funksional xususiyatlari nuqtayi nazaridan ham talqin etish kerak.

N.Alefirenko "Hozirgi zamon tadqiqotchilarining aksariyati "paremiya" atamasi ostida xalq maqollari va matallarini tushunadi", – degan fikrni keltirar ekan, paremiya xalq maqollari bo'lib, ular ixcham shakli, ma'nosining takroriyligi va odatda o'git beruvchi mazmuni bilan ajralib turishini[3] ta'kidlaydi.

Paremiologiya (lotincha *parema* – barqaror, *logos* – ta'limot) – barqaror ifodalar va birikmalarni o'rganadigan tilshunoslik sohasi[4]. Paremiya (yunoncha *paroimia* – hikmatli so'z, zarbulmasal, hikoya, maqol) – ma'lum bir tilda avloddan avlodga og'zaki shaklda ko'chib yuruvchi, ixcham va sodda, qisqa va mazmundor, mantiqiy umumlashma sifatida shakllangan maqol, matal, aforizm, frazeologizm kabi hikmatli iboralar to'plamidir[5].

G'.Salomov "Tilning mo'jizasi undagi maqol, matal va idiomalardir"[6], – deb fikr beradi. Shu o'rinda Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedovlarning fiklariga qo'shilgan holda shuni ta'kidlash joiz, "Hikmatli so'zlar, maqollar biz uchun asrlarning sadosi, uzoq o'tmish bilan hamnafaslik hissini uyg'otuvchi mangu chaqiriq zamonlararo ko'prikdir"[7].

Tilshunoslar, jumladan, A.A.Potebnya, maqol, matal va kichik syujetli masallarni frazeologik birliklar sifatida baholagan, ularning ma'no o'zgarish bosqichlarini tahlil qilish zarurligini ta'kidlagan[8]. V.M.Mokiyenko esa

[1] Смит Л. Фразеология английского языка. – М.: – 1959. – С. 206; Жуков, В. П. Русская фразеология: учебное пособие. – Москва: Высш. шк., 2006 – С.408; Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты – Москва: Языки русской культуры, 1996. – С. 284; Шанский Н.М. Фразеология современного русского языка. – М.,1985. – С. 160

[2] Mamatov A. Frazeologik birliklar va turg'un birikmalar derivatsiyasi tadqiqi. Журнал иностранных языков и лингвистики. Том. 4(9). 2021. https://science.jdpu.uz/index.php/fll/article/view/

[3] Алефиренко Н.Ф. Фразеология и паремиология: Учебное пособие – М.: Флинта Наука, 2009. – С. 344

[4] Mahkamov N., Ermatov I. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati – Toshkent: Fan, 2013. – B. 84

[5] Бердиёров Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – В. 288.

[6] Саломов Ғ. Рус тилида ўзбекча мақол, матал ва идиомаларни таржима қилиш масаласига доир. – Тошкент, 1961. – В. 159

[7] Шомақсудов Ш. ва бошқалар. Ма'нолар махзани. Тошкент, "O'збекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2001. – Б. 448

[8] А. А. Потебня Из Лекций по теории словесности. Басня. Пословица. Поговорка. – Харьков, 1894. – С. 622

maqollarni frazeologiyaning manbalaridan biri deb hisoblaydi[1], V.P.Jukov paremiyalarni frazeologizmlardan sintaktik va intonatsion tugallanganligi bilan farqlanishini[2] ta'kidlaydi.

G.Salomov tilning asosiy "qaymog'i", uning o'ziga xos xususiyatlari va tabiati, hamda tilning kamolot darajasi va boshqa tillar qatorida tutgan o'rnini belgilovchi muhim omil – undagi maqol, matal, idioma va boshqa shu kabi ko'chma ma'noli birikmalardir"[3] deb ta'riflaydi. Keltirilgan fikrlardan ko'rinadiki, nutqiy jarayonni boyituvchi frazeologik birliklar, maqol, matal, evfemizm, idioma va boshqa lingvistik hodisalar til imkoniyatlarini kengligini ko'rsatadi.

"Tilda maqol ham, ibora ham, idiomatik so'zlar ham semantik jihatdan bitta umumiylik asosida birlashadi, u ham bo'lsa barchasining ma'nosi tarkibidagi birliklarning to'g'ri ma'nosidan kelib chiqmay, umumiy ko'chma ma'no ifodalashi, ya'ni idioma xarakteriga ega bo'lishidir. Shunday ekan, bu birliklarning barchasi bir o'rinda mukammal o'rganilishi uchun "frazeologiya" bo'limi "idiomatika" deb nomlanishi maqsadga muvofiqdir"[4]. "Maqol tugal fikr bildirishi, ibora bir so'zga teng tushuncha anglatishi, matal esa ergash gapli qo'shma gap tarkibidagi sodda gapdek "chala" fikr ifodalashi bilan o'zaro farqlanadi. Mazmuni obrazli va ko'chma xarakterda bo'lishi bilan o'xshash"[5]. Maqollar orqali xalqning tarixiy tajribasi, turmush tarzi, qadriyatlari va mentaliteti yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, ingliz maqollarida ko'pincha iqtisodiy fikrlash, ob-havo sharoitlari va kundalik hayot tajribasi asosiy mavzular sifatida uchraydi.

"Have a good head for business"[6] – biznesni yaxshi tushunadigan odam;

"Two heads are better than one"[7] – ikki bosh bittadan yaxshiroqdir.

O'zbek maqollarida esa asosan mehnat, halollik, sabr-toqat kabi ijtimoiy qadriyatlar va hayotiy tajriba ustuvor mavzular sifatida namoyon bo'ladi. Masalan:

"*Bosh boshlaydi, oyoq tashlaydi*" – bosh qayerga borsa, oyoq ham o'sha yerga boradi. Kishining yaxshi yo'lga yurishi ham, yomon yo'lga yurishi ham, avvalo, boshga, miyadagi o'ylovga bog'liq bo'ladi[8].

"Birovning qo'li bilan tikan yulish oson" – boshqalar yordamida qiyinchiliklarni yengil hal qilish; *"og'iz yesa ko'z uyalar"* – doimo ehtiyotkor va hushyor bo'lish zarurligi; *"tekin yegan ko'zga tikan"* – bemalol narsaga qattiq e'tibor berish kabi ifodalar xalq hayotining turli jihatlarini o'zida aks ettiradi[9]. Har ikkala ingliz va o'zbek tillarida keltirilgan misollarda somatik komponentli frazeologizmlarning yondosh birliklar (maqollar) bilan o'zaro aloqasi mavjud.

Maqol kabi nutqda evfemik birliklarning ham somatik komponentli frazeologizmlarda qo'llanilishi kuzatildi. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'atida keltirilgan, evfemizm (*yun. euphemismos<eu – yaxshi + phemi – gapiraman*) narsa-hodisaning ancha yumshoq shakldagi ifodasi; qo'pol, beadab so'z, ibora va tabu o'rnida qo'pol botmaydigan so'z (ibora)ni qo'llash hisoblanadi[10].

Evfemizmlar so'zni yumshatish, nozikroq shaklda ifodalash, tildagi o'zgarishlarning bir ko'rinishidir va ko'plab evfemizmlar ularning kontseptual tizimlarga singdirilishi orqali shakllanadi va biz ham evfemizmlar asosida yashaymiz**,** deb aytish mumkin[11].

Evfemizmlarning ijtimoiy va madaniy hayot bilan chambarchas bog'liqligi ularning doimiy ravishda rivojlanib borishini ta'minlaydi.

Masalan: *oyog'ini to'rtta qilmoq (uylantirmoq), og'ir oyoq (homilador), qo'li egri (o'g'ri), qulog'i og'ir (kar), ko'zdan nur ketmoq (qari), dunyodan ko'z yummoq (o'lmoq)*[12] kabi. Shuni aytish joizki, keltirilgan evfemizmlarga oid misollarda ham somatik komponentli frazeologizmlarning yondosh birliklar (evfemizmlar) bilan o'zaro aloqasi yaqqol namoyon bo'lgan.

---

[1] Мокиенко В. М. В глубь поговорки: Рассказы о происхождении крылатых слов и образных выражений. – СПб.: Авалон: Азбука-классика, 2005. – С. 256

[2] Жуков В. П. Русская фразеология. – М.: Высшая школа, 1986. – С. 256

[3] Саломов Ғ. Рус тилида ўзбекча мақол, матал ва идиомаларни таржима қилиш масаласига доир. – Тошкент, 1961. – Б. 159

[4] Жўраева Б. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари. – Тошкент: Академнашр, 2019. – Б.224

[5] Mengliyev B. Hozirgi o'zbek tili. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni nashriyoti, 2018. – B. 201

[6] https://yandex.ru/search/?text=Two+heads+are+better+than+one

[7] https://talimuchun.uz/maqollar/halollik-haqida-maqollar/

[8] Шомақсудов Ш, Шораҳмедов Ш Маънолар махзани. –Тошкент.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2001. – Б. 448

[9] Тўхтахўжаев Б. Ўзбек халқ мақолларининг бадиий хусусиятлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000. – Б. 89.

[10] Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати . – Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2002. – Б. 168.

[11] Chamizo, D. Some Theses on Euphemisms and Dysphemisms Scientific Proceedings of the University of Rzeszów. Philology Series. Studia Anglica Resoviensia, – 2005. – No. 3.

[12] Омонтурдиев А. Ж. Ўзбек тилининг қисқача эвфемик луғати. – Тошкент, 2005. – Б.104

A.Omonturdiyevning quyidagi fikri diqqatga sazovor “Bugungi tabu va evfemika tadqiqi shuni ko‘rsatadiki, kishilar o‘rtasidagi aloqa vositalari voqelikni bayon etish uni ifodalash usuli darajasiga ko‘ra bir-biri bilan uzviy bog‘langan uch qatlam: til (*xabar, aloqa*), nutq (*munosabat, muloqot*), supernutq (*evfemik, ekspressiv-emotsional muomala*)dan tashkil topadi”[1]. Biz bu fikrdan shuni angladikki, til – inson tafakkurining ifodasi, nutq – muloqot jarayoni, supernutq – bu lingvistik ifodaning yanada yuqori darajasi bo‘lib, evfemizmlar va ekspressiv-emotsional usullarning qo‘llanilishini o‘z ichiga oladi.

A.E.Mamatovning ta’rifiga ko‘ra, frazeologizmlar – nutqda tayyor holda qo‘llaniladigan, ko‘chma ma’noga ega, semantik jihatdan yaxlit va so‘zga muqobil turg‘un birikmalardir. Shu nuqtayi nazardan, frazeologizmlar va yondosh birliklar maqol, matal, evfemizm o‘rtasida ma’lum farqlar mavjud. Xususan, evfemizmlar noqulay yoki qo‘pol so‘zlarni yumshatish vazifasini bajarsa, frazeologizmlar ko‘pincha bunday evfemistik ma’no kasb etishi mumkin[2].

Olimlar frazeologizm, jumladan idiomalar lingvistik mohiyatini aniqlashda turli fikrlarni bildiradilar. Xususan, A.V.Kunin “Idiomatika – idiomalar yoki idiomatizmlarni, ya’ni leksik birliklarning to‘liq yoki qisman ma’no jihatidan o‘zgarib, ko‘chma ma’no kasb etgan turg‘un birikmalarini o‘z ichiga oladi. Bunda konnotativ jihat ya’ni ifodaviy-baholovchi, emotsional, obrazli va boshqa komponentlarning ulushi yuqori bo‘ladi. “*kick the bucket”* – o‘lmoq, jon bermoq; *“burn one’s fingers”* – aldanmoq kabi. Shu boisdan, idiomalarning semantik jihatini o‘rganish alohida ahamiyat kasb etadi”[3]. N.Mahkamov va I.Ermatovlarning ta’rifiga ko‘ra, “Idioma (yunoncha *idioma* – o‘ziga xos ifoda, ibora) bu shaklan mantiqqa to‘g‘ri kelmaydigan, ammo ma’lum til doirasida voqea yoki hodisani ifodalovchi barqaror iboradir. Idiomalar faqat shu tilda mavjud bo‘lgan leksik birliklar bo‘lib, ularni boshqa tilga so‘zma-so‘z tarjima qilish deyarli imkonsizdir”. Masalan, o‘zbek tilidagi *ammamning buzog‘i*, *gapning po‘st kallasi*, *yuragi shuv etib ketdi* kabi iboralar shunday idiomalardandir[4]. “Idioma, turg‘un strukturaga ega, uning semantik mazmuni ham yagona, turg‘un va qat’iydir”[5] . “Idioma – til birligiga teng bo‘lgan, leksik jihatdan “so‘z” ga muqobil turg‘un so‘zlar majmuasi bo‘lib, turg‘un strukturaga ega, semantik mazmuni yagona va qat’iy birlikdir. U boshqa til birliklaridan barqarorligi, turg‘unligi, yaxlitligi, obrazliligi, takroriyligi bilan farqlanadi”[6].

“Coollins Cobuild dictionary of idioms”, “Longman Dictionary of Contemporary English” lug‘atlarida idiomaning quyidagi ta’rifi keltiriladi: “An idiom is a special kind of phrase. It is a group of words which have a different meaning when used together from the one it would have *if* the meaning of *each* word were taken individuality[7], “Idiom is a group of words that has a special meaning that is different from the ordinary meaning of each separate word”[8] (“idioma tarkibidagi har bir alohida so‘zlarning odatiy ma’nosidan farqlanuvchi maxsus mazmunga ega bo‘lgan so‘zlar guruhi”).

O‘zbek tilining izohli lug‘atida “idioma (yun. idioma – o‘ziga xoslik, xususiyat) ma’nosi o‘z tarkibidagi so‘zlarning ma’nolariga bog‘liq bo‘lmagan, yaxlit holda bir ma’no beruvchi, ixcham ibora, frazeologizmlarning bir turi”[9] deb izohlanadi va *og‘zingga qarab gapir* kabi misol keltiriladi.

Tilshunos N.Amosova esa frazeologik birliklarni komponentlarining ko‘chma ma’nodaligiga qarab ikki guruhga ajratadi:

“Frazema – agar frazeologik birikmada faqat bir komponent ko‘chma ma’noga ega bo‘lsa; Idioma – agar barcha komponentlar ko‘chma ma’noda ishlatilgan bo‘lsa”[10],

Jahon tilshunosligida idiomalar borasida ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan va ko‘p sonli idiomalar lug‘atlari tuzilgan. Ayniqsa, ingliz va amerika tilshunoslari tomonidan samarali ishlar amalga oshirilgan. Ammo o‘zbek tilida frazeologizmlar idioma misolida kam tadqiq qilingan. Shunga qaramay, tilshunos olim Sh.Rahmatullayev frazeologik birliklarning asosiy ma’no turlarini farqlay turib, “Ma’nosi tarkibidagi lug‘aviy birliklarning asl

[1] Омонтурдиев А.Ж. Профессионал нутқ эвфемикаси (чорвадорлар нутқи мисолида): филол. фан. д-ри... дисс. – Тошкент, 2009. – 252 б.

[2] Маматов А.Ўзбек тили фразеологияси: ўқув қўлланма. – Тошкент: Наврўз, 2019. – Б.260

[3] Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка. – М.; Дубна: Высшая школа Феникс, 1996. – С. 200

[4] . Mahkamov N., Ermatov I. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2013. – B.105

[5] Гаманко Р.С. Структурно-семантические и функциональные свойства идиоматичных слов английского языка. Дисс. ... канд. филол. наук. – Самара, 2008. – 157 с.

[6] Рахимова Ш. П. Инглиз тили идиоматик ибораларини ўзбек тилига ўгиришнинг лисоний хусусиятлари: Автореф. дисс. ... филол. фан. фалс. докт. – Тошкент, 2019. – 48 б.

[7] Collins Cobuild Dictionary of Idioms / Ed. by Elizabeth Potter, Jenny Watson. – Great Britain: Harper Collins Publishers, 1997. – P.514

[8] Longman Dictionary of Contemporary English / Ed. by Della Summers. – 4th ed. – Harlow, Essex (UK) : Pearson Education, 2003. – P.1949

[9] ЎТИЛ. 1981 йил 2 жилдли , – Б. 174.

[10] Амосова Н. Н. Основы английской фразеологии. – Л.: Академия, 1963. – С.208

ma’nosiga bog‘liq bo‘lmagan, yaxlit holda bir ko‘chma ma’no beruvchi so‘z yoki so‘zlar bog‘lanmasi idiomalardir” deya xulosa beradi[1]. Ingliz tilshunosligida frazeologizmlar idioma tarkibida ham tadqiq etiladi, o’zbek tilshunosligida bugungi kungacha idiomalar borasida chuqur xulosaviy ishlar amalga oshirilmaganligining guvohi bo’lishimiz mumkin. Frazeologik birliklar va idiomalar borasidagi tadqiqotlarning xulosalaridan kelib chiqqan holda frazeologik birliklar va idiomalarni bir-biriga yaqin tushunchalar sifatida umumiy o‘rganish ma’qul. Bunga sabab idiomalar ham umumiy frazeologizmning bir turi hisoblanishidir.

Tadqiqot natijalari frazeologik birliklarning maqol, matal, idioma va evfemizm kabi yondosh birliklar bilan mazmuniy hamda funksional jihatdan uzviy aloqada ekanligini ko‘rsatdi. Ularni birlashtiruvchi asosiy xususiyatlar turg‘unlik, obrazlilik, ko‘chma ma’no va tayyor holda qo‘llanishdir. Biroq mazkur birliklar kommunikativ vazifasi, sintaktik tuzilishi va semantik xususiyatlariga ko‘ra farqlanadi.Umuman, frazeologik birliklar va ularning yondosh birliklarini kompleks o‘rganish ingliz va o‘zbek tillarining semantik, milliy-madaniy va obrazli xususiyatlarini aniqlash, shuningdek, qiyosiy frazeologiya, paremiologiya, lingvo-madaniyatshunoslik va tarjimashunoslikni rivojlantirish uchun muhimdir.

Rezyume. Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi somatik komponentli frazeologik birliklarning maqol, matal, idioma va evfemizmlar bilan semantik, strukturaviy va funksional aloqalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda somatizmlarning frazeologik ma’no shakllanishi va milliy-madaniy xususiyatlarni ifodalashdagi o‘rni yoritilgan. Natijalar frazeologizmlarni yondosh til birliklari bilan majmuaviy o‘rganish qiyosiy frazeologiya, paremiologiya va lingvo-madaniyatshunoslik sohalari uchun muhim nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Resume. This article analyzes the semantic, structural, and functional relations of somatic phraseological units with adjacent linguistic units such as proverbs, sayings, idioms, and euphemisms in English and Uzbek. It highlights the role of somatic components in shaping phraseological meaning and conveying national-cultural characteristics. The findings demonstrate that examining phraseological units in conjunction with related language units holds significant theoretical and practical value for comparative phraseology, paremiology, and linguoculturology.

Резюме. В статье анализируются семантические, структурные и функциональные взаимосвязи соматических фразеологических единиц с близкими языковыми единицами, такими как пословицы, поговорки, идиомы и эвфемизмы, в английском и узбекском языках. Особое внимание уделяется роли соматических компонентов в формировании фразеологического значения и репрезентации национально-культурной специфики. Результаты исследования показывают, что рассмотрение фразеологических единиц во взаимосвязи с соотносительными языковыми единицами имеет существенное теоретическое и практическое значение для сопоставительной фразеологии, паремиологии и лингвокультурологии.

[1] Раҳматуллаев Ш. Фразеологик бирликларнинг асосий маъно турлари. – Тошкент: Фан, 1955. – Б. 26.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 9
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O‘Z QATLAMGA OID ANTROPONIMLAR TASNIFI

Qobilov Mirziyo Eshnozar o‘g‘li,
Termiz davlat universiteti
o‘zbek tilshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Surxondaryo viloyati antroponimik tizimi O‘zbekiston janubidagi mintaqaning ko‘p qatlamli onomastik fondni tashkil etadi. Viloyat antroponimlari turli tarixiy davrlar va tillarning o‘zaro ta’siri natijasida shakllangan murakkab lingvistik tizim bo‘lib, bu tizim o‘zida ming yillik tarixiy davr davomida mintaqada yashagan turli etnoslar – baqtriyaliklar, so‘g‘diylar, toxarlar, turkiy qabilalar, arab-musulmon bosqinchilar, mo‘g‘ullar va boshqa xalqlarning lingvistik izlarini saqlaydi.

Geografik jihatdan Surxondaryo O‘rta Osiyo, Eron va Hindiston madaniyatlari kesishgan nuqtada joylashganligi sababli ushbu hudud antroponimik tizimi o‘ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Termiz shahrining qadimgi Buyuk Ipak yo‘lidagi strategik o‘rni, Baqtriya va Toxariston davlatlarining ma’lum vaqt doirasida asosiy shaharlaridan bo‘lganligi, keyinchalik islomiy madaniyat markazlaridan biriga aylanishi – bularning barchasi viloyat antroponimiyasida o‘z aksini topgan.

Funksional jihatdan Surxondaryo antroponimlari nafaqat identifikatsiya vazifasini bajaradi, balki ijtimoiy stratifikatsiya, etnik mansublik, diniy e’tiqod, oilaviy an’analar va madaniy qadriyatlarni ham ifodalaydi. Har bir antroponim o‘zida denotativ (to‘g‘ridan-to‘g‘ri nomlash), konnotativ (qo‘shimcha ma’no) va pragmatik (ijtimoiy-madaniy) ma’lumotlarni kodlaydi.

Diaxronik aspektda Surxondaryo antroponimik tizimi doimiy evolyutsiya holatida bo‘lib, har bir tarixiy davr o‘z izini qoldirgan: qadimgi substrat qatlam (miloddan avvalgi asrlar), eroniy-so‘g‘diy qatlam (milodiy I-VII asrlar), arab-islomiy qatlam (VIII-XII asrlar), turk-mo‘g‘ul qatlam (XIII-XV asrlar), amir va xonliklar davri (XVI-XIX asrlar), sovet davri (1920-1991) va mustaqillik davri (1991-yildan hozirgi kungacha), kabilar.

Sinxronik doirada esa bugungi kundagi Surxondaryo antroponimik tizimi polietnik va polilingval xarakterga ham ega hisoblanadi. Hozirda viloyat hududida 14 tuman va 8 ta shahar, 114 ta shaharcha, 865 ta qishloq aholi punktlari[1] mavjud bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos antroponimik xususiyatlar va madaniy kodlari bilan alohidalik kasb etadi. Masalan, *Boysun, Sherobod, Angor, Jarqo‘rg‘on, Qumqo‘rg‘on* tumanlarida qadimiy turkiy ismlar ko‘proq saqlangan bo‘lsa, *Sariosiyo* va unga yaqin tumanlarda arab – islomiy nomlar ta’siri kuchliroq seziladi.

Shu nuqtayi nazardan hududda antroponimlar bo‘yicha tadqiqot olib borganimizda obyekt sifatida variantlari bilan hisoblaganda 1100 dan ortiq ismdan 359 tasi sof o‘zbekcha, 741 tasi esa gibrid ismlar ekanligi aniqlandi. Jumladan, *O‘g‘iloy, O‘jarboy, Itboy, Momochuchuk, Jovun, Qulboy, Boyqul, Do‘ndi, Do‘ndiq, Cho‘tboy, Jonbars, Qipchoq, Qizlarbas, Qizlartamom, Qizlarto‘ra, Janglish, Oltiboy, Toshboy, Eshboy, Jo‘rabek, Ulbo‘sin, Bekkeldi, Dayovboy, Cho‘lliboy, Jo‘lli, Jovli (Javli), Bo‘ta, Turg‘un, Tog‘ay, Shunqor, Bo‘ri, Bo‘riqul, Shoyim, Lochin, Qilichbek, Qilichberdi, Berdi, Suluv, Dovulli, Dobil, Olmaxon, O‘roq, Tesha, Bolta, Eshbolta, Turdi, Ortiq, Bo‘ritosh, Temir, To‘ychi, Yo‘lchi, Qulboy, Qultosh, O‘roz, O‘rozqul, Yo‘ldosh, Qurdosh* va b.

Yuqoridagi izlanishlar qatorida 700 dan ortiq talabalar ortasida o‘tkazilgan eksperimentdan olingan natijaga ko‘ra o‘z va o‘zlashgan qatlamga oid ismlarning Surxon vohasida yashovchi qipchoqlar shevasiga xos fonetik variantlashuvi shakllantirildi, masalan, *Ifor – Jupar, Avaz – Ovaz, Normat – Narmat, Ibrohim – Ibrayim, Safar – Sopar, Xolmat – Xalmat, Eshnazar – Yeshnazar, Rahim – Rayim, Ilxom – Ilxam, Ergash – Irgash, Shokir – Shakir, Qahhor – Qahhar, Yorqin – Jorqin, Sardor – Sordor*.

Qipchoq shevasidagi antroponimik qisqartamalar: *Alisher – Alish, Sanobar – Sana, Mirkamol – Mirka, M harfi bilan boshlanuvchi ko‘plab ismlar – Misha, Momoxol – Momosh, Xurram – Xurri, Mirziyo – Mirza, Uljamol -Ulja, Asror – Assi, Xusniddin – Xussi, Muhammad – Muham yoki Mammadi, O‘tkir yoki O‘ktam – O‘ta, Sabina – Sabi, Sarvinoz – Sarvi, Murod – Mirat, Haydar – Hoydor, Yusuf – Usub, Anvar – Anka, Azamat – Azam, Akbar – Aki, Abdurahmon – O(A)piy, Iskandar – Iskan, Abdulaziz – Abu, Xurriyat – Xurri, Mamasharif – Mamash, Nurmuhammad - Nuri.*

[1] https://uz.wikipedia.org/wiki/Surxondaryo_viloyati

Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, Surxondaryo viloyatidagi antroponimik tizimning hududiy variativligi bevosita etnik guruhlarning geografik distributsiyasi bilan korrelyatsiyada[1] bo‘lib, har bir tumanning etnodemografik[2] tarkibi mahalliy antroponimik landshaftni determinatsiya[3] qiladi.

Lingvistik stratifikatsiya va etnik joylashuv o‘rtasidagi bog‘liqlik quyidagicha parametrlarda namoyon bo‘ladi deyishimiz mumkin:

– dominant etnos til antroponimik tizimda ustun pozitsiyani egallaydi;

– etnik guruhlarning kompakt yashash areallarida o‘ziga xos antroponimik modellar saqlanib qoladi, polietnik hududlarda esa antroponimik konvergensiya va gibridizatsiya jarayonlari kuzatiladi, masalan, o‘zbek etnosining an’anaviy yashash hududlarida turkiy antroponimik fond ustunlik qilsa, tojik aholisi zich joylashgan tumanlarda *(Sariosiyo, Uzun, Denov, Boysun)* eron-tojik antroponimik traditsiyasi barqaror saqlanib qolgan. Qarluq, qo‘ng‘irot kabi turkiy qabilalarning tarixiy yashash joylarida esa qabila etnonimlaridan yasalgan antroponimlar yuqori chastotaga ega. Bu fenomen etnolingvistik identifikatsiya nazariyasi doirasida antroponimlarning etnodifferensial funksiyasini tasdiqlaydi, ya’ni antroponimik tizim etnik o‘zlikni saqlash va ifodalash mexanizmi sifatida xizmat qiladi.

Bu borada tarixchi olimlar S. Tursunov hamda T. Pardayevlar quyidagicha fikr yuritishgan: o‘zbek urug‘larining vakillari bir vaqtning o‘zida Dashti qipchoqda ham, Movarounnahrda ham yashagan. Turkmo‘g‘ul qabilalari Oltoydan Uralgacha bo‘lgan beqiyos kengliklarni makon qilishgan. Shuning uchun ham ba’zi urug‘larni qadimgi yoki so‘nggi ko‘chmanchi urug‘larga kiritishda qiyinchilik tug‘ilishi tabiiy bir holdir. Ularni bir-biridan ajratishda shevalar (til lahjalari), antropologik tip (tashqi ko‘rinish), etnografik xususiyatlar, ya’ni moddiy va ma’naviy madaniyat qo‘l keladi. Surxon aholisining etnik tarkibi uchta yirik etnik guruhdan iborat. Ilmiy adabiyotlarda ularning turmush tarzi, urug‘chilik ko‘rinishlariga qarab quyidagi etnik guruhlarga bo‘linadi:

1. Urug‘– qabilalarga bo‘linmaydigan aholi, ya’ni «sart-chig‘atoylar», «xo‘jalar» va «qarshiliklar».

2. Qadimgi urug‘lar, ya’ni mo‘g‘ullar istilosiga qadar va mo‘g‘ullar bilan birga kelgan turk – mo‘g‘ul qabilalari, ya’ni yuqorida tilga olingan turklar.

3. Dashti qipchoqdan Shayboniyxon bilan kelgan so‘nggi ko‘chmanchi o‘zbek urug‘lari, ya’ni yuqorida aytib o‘tilgan «o‘zbeklar».[4]

Bu kabi tarixiy shakllanish jarayoni onomastik tizimning, xususan, antroponimlarning yuzaga kelishida o‘ziga xos o‘ringa egadir. Ya’ni turli xalq va millat vakillarining aralashuvi natijasida gibrid ismlarning shakllanishi kuzatila boshlandi. Gibrid ismlar – bu ikki yoki undan ortiq til/madaniyat elementlaridan tashkil topgan murakkab antroponimlardir. Surxondaryo kontekstida bu juda dolzarb mavzu, chunki mintaqa tarixan ko’p madaniyatlar chorrahasida joylashgan. Bu orqali o‘zbek ismlarining arab, fors-tojik, mo‘g‘ul va boshqa tillar komponentlari bilan qo‘shiluvi natijasida bir qancha yangi nomlar adaptatsiyasi vujudga kela boshladi. Bilamizki, o‘zbek adabiy tilining boyib borishida ichki manbaning o‘rni beqiyos, bunda shevadan so‘z olish yoki chetdan qabul qilinayotgan so‘zlarni tilimizga moslab, o‘zbekcha komponentlarni qo‘shish orqali ma’lum yangi birliklarning hosil qilinadi. O‘zbek antroponimlar tizimida turli til qatlamlari o‘zaro ta’sirlashuvi natijasida hosil bo‘lgan murakkab nomlar ancha keng tarqalgan. Bunday jarayon, odatda, antroponimik adaptatsiya sifatida tavsiflanadi, ya’ni mavjud til birliklari yoki boshqa madaniyatga oid nom komponentlari o‘zbekcha ismlar tizimiga moslashtiriladi. Natijada, turkiy, arab va fors-tojik unsurlarining o‘zaro qo‘shilishi asosida yangi antroponimlar yuzaga keladi.

Ushbu jarayonda kuzatiladigan asosiy kombinatsiyalar quyidagicha namoyon bo’ladi:

1. O‘zbek+arab komponentlari asosidagi ismlar. Bu tipdagi ismlar tarkibida turkiy (o‘zbekcha) ildiz va arabcha ildiz yoki shakl birlashadi. Masalan: *Qizlarsoat* – “qizlar” (o‘zbekcha) + “soat” (arabcha, vaqt o‘lchovi ma’nosida); *Oyroba* – “oy” (o‘zbekcha) + “roba” (arabcha kelib chiqishli qism); *Adashmurod* – “adash” (o‘zbekcha) + “murod” (arabcha, maqsad, niyat); *Momosulton* – “momo” (o‘zbekcha) + “sulton” (arabcha, hukmdor)

Aytish mumkinki, bu qatlam diniy-islomiy ta’sir davrida arab tilidan kirib kelgan so‘zlarning xalq tilida turkiy birliklar bilan uyg‘unlashuvi orqali shakllangan.

2. Arab+o‘zbek komponentlari asosidagi ismlar. Bu holda ismning boshlang‘ich qismi arabcha, keyingi qismi esa turkiy bo‘ladi. Masalan: *Olloberdi* (Allaberdi) – “Allo(h)” (arabcha) + “berdi” (turkiy,

[1] Izoh: Narsa va tushunchalar o‘rtasidagi munosabat, ularning o‘zaro muvofiqligi, bir-biriga bog‘liqlik tushunchasi.

[2] Izoh: Etno… (yunoncha – qabila, elat, xalq) – o’zlashma, qo’shma so‘zlarning birichi qismi, xalq va ularga oidlik ma’nolarini bildiradi (masalan, etnogenez, etnografiya). // Demografiya - [yun. demos – xalq + grapho – yozaman] Aholishunoslik; biror hudud, mamlakat, birdan ortiq mamlakatlar yoki dunyo aholisi o’zgarishlarini (soni, geografik taqsimlanishi, tarkibi, o’lish, tug’ilish jarayonlarini) o’rganuvchi fan tarmog’i.

[3] Izoh: Determinatsiya – (lotincha) aniqlamoq; chegaralamoq; qismlarga ajratmoq.

[4] Турсунов С, Пардаев Т ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи ва маданияти – Сурхондарё етнографияси. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти. – Тошкент. 2006. – Б. 30-31. Жами:276

berdi, ato etdi); *Nazirtosh* – “nazar” (arabcha, e’tibor, nigoh) + “tosh” (turkiy); *Boltaqurbon* – “bolta” (turkiy) + “qurbon” (arabcha, qurbonlik); Jo‘*lmuhammad* – “Jo‘l” (turkiy) + “Muhammad” (arabcha, Payg‘ambar ismi); *Omonturdi* – “omon” (arabcha, salomat) + “turdi” (turkiy). Bu qatlam, asosan, diniy-ma’rifiy muhitda, arab ismlarining turkiy qo‘shimcha yoki fe’l shakllari bilan moslashuvi orqali yuzaga kelgan.

3. O‘zbek+fors-tojik komponentlari asosidagi ismlar. Bu qatlamda turkiy ildizlar fors-tojikcha komponentlar bilan uyg‘unlashadi. Masalan: *Xonimgul* – “xonim” (o‘zbekcha, hurmat bildiruvchi) + “gul” (forscha); *Bekposhsha* – “bek” (o‘zbekcha) + “poshsha” (forscha, podshohning mahalliy shakli); Eldo‘*st* – “el” (o‘zbekcha) + “do‘st” (forscha); *Bo‘ritoji* – “bo‘ri” (o‘zbekcha) + “toji” (forscha, toj); O‘g‘*ilshod* – “o‘g‘il” (o‘zbekcha) + “shod” (forscha, quvonchli); *O‘rozgul* – “o‘roz” (o‘zbekcha) + “gul” (forscha); *Oyshahar* – “oy” (o‘zbekcha) + “shahar” (forscha); *Oybaland* – “oy” (o‘zbekcha) + “baland” (forscha). Bunday ismlar, odatda, estetik va ijtimoiy maqom ifodalovchi, go‘zallik, obro‘, farovonlik kabi ma’nolarni bildiradi.

4. Fors-tojik+o‘zbek komponentlari asosidagi ismlar. Bunda ismning boshlanish qismi fors-tojikcha, keyingi qismi esa turkiy bo‘ladi. Masalan: *Nortosh* – “nor” (forscha, nur, olov) + “tosh” (turkiy); *Nortoyloq* – “nor” (forscha) + “toyloq” (turkiy, yosh tuya); *Pardaoy* – “parda” (forscha) + “oy” (turkiy); *Gulboy* – “gul” (forscha) + “boy” (turkiy); *Bobobek* – “bobo” (forscha) + “bek” (turkiy); *Boboqul* – “bobo” (forscha) + “qul” (turkiy); *Norto‘ra* – “nor” (forscha) + “to‘ra” (turkiy, amirzoda). Bu qatlam fors-tojik madaniy va adabiy ta’sirining turkiy muhitga kirib kelishi natijasida shakllangan bo‘lib, odatda, ijtimoiy maqom, go‘zallik va ma’naviy fazilatlarni ifodalovchi ismlarni yaratishda ishlatilgan.

Yuqorida keltirib o‘tilgan gibrid ismlar turli tillar doirasida shakllanganligi ma’lum, bu borada olib borgan tadqiqotimiz davomida bu kabi aralash yoki boshqa til vositalaridan foydalangan holda ism qo‘yish taqiqlangan davlarni ham uchratdik. Bizning fikrimizcha, bu yerda ism orqali millatni tanish g‘oyasi ham bordek. Ya’ni Genrix ismi orqali nemis millatini, Maksim ismi orqali rus millatini taniganimizdek, bu jarayon ham qaysidir ma’noda ahamiyatlidir. Bu holat ba’zi davlatlarda qonun bilan mustahkamlab qo‘yilgan, masalan, Daniyada ota-ona farzandiga faqat qonunda nazarda tutilgan 7000 ta ismdan birini tanlab qo‘yishi mumkin hisoblangan, agarda ular boshqa ismni qo‘yishmoqchi bo‘lishsa, avval ushbu ism hukumat amaldorlari tomonidan ko‘rib chiqilgan va ular ma’qul deb topishsagina farzandiga qo‘ya olishgan, lekin ma’lum bo‘lishicha har yili bu kabi taqdim qilingan 1100 ismdan 15-20 % rad etilgan[1]. Islandiya qonunlariga ko‘ra esa har bitta qo‘yilayotgan ismda Islandiya alifbosidagi harflar bo‘lishi va tilga garammatik jihatdan mos kelishi nazarda tutilgan bo‘lib, agarda ota-ona farzandiga boshqa ism qo‘ymoqchi bo‘lsa davlat boj to‘lovini amalga oshirib, yuqori davlat vakolatli organlariga ariza bilan murojaat qilishgan. Shuning bilan birga rasman taqiqlangan nomlar ham bo‘lib, ular Germaniyada *Matti*, Yaponiyada *Akuma*, Islandiyada *Harriet*, *Duncan*, Yangi Zellandiyada *Stallion*, *Satan*, Norvegiyada *Gesher*, kabi nomlardir. Yuqoridagi davlatlarda agarda taqiqlangan ismlarni farzandiga qo‘yish holati kuzatilsa, ular qonuniy javobgarlikka tortilib, jarima to‘lashlari ham mumkindir. Bu kabi taqiq rasman bo‘lmasa-da, Islom dini vakillari orasida ham mavjud hisoblanadi. Unda *sanam* komponentli ismlarni qo‘yish taqiqlangan bo‘lib, sanam so‘zining bir ma’nosi *but, xoch* bo‘lganligi bunga sabab qilib ko‘rsatiladi. Shu bilan birgalikda, ushbu davlat qonunlarida ko‘zda tutilgan umumiy jihat ham mavjud bo‘lib, unda qo‘yiladigan ismlar gender jihatdan ayol va erkak jinsini aniq ajratib turishi zarur hisoblangan.

Xulosa qilib aytganda, Surxondaryo antroponimik tizimi turli davrlar, etnoslar va madaniyatlar kesishuvida shakllangan murakkab va ko‘p qatlamli lingvistik makondir. Hududda sof o‘zbekcha nomlardan ko‘ra turkiy, arab va fors-tojik unsurlarining o‘zaro moslashuvidan hosil bo‘lgan gibrid ismlar ustunlik qiladi. Vohadagi etnodemografik tarkib va qipchoq shevasi ismlarning hududiy tarqalishi hamda fonetik variantlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan. Shuningdek, ismlar nafaqat shaxsni identifikatsiya qiladi, balki milliy o‘zlik, diniy e’tiqod va ijtimoiy-madaniy kodlarni ham o‘zida namoyon etadi.

Rezyume. Surxondaryo antroponimik tizimi turli davrlar, etnoslar va madaniyatlar kesishuvida shakllangan murakkab va ko‘p qatlamli lingvistik makondir. Hududda sof o‘zbekcha nomlardan ko‘ra turkiy, arab va fors-tojik unsurlarining o‘zaro moslashuvidan hosil bo‘lgan gibrid ismlar ustunlik qiladi. Vohadagi etnodemografik tarkib va qipchoq shevasi ismlarning hududiy tarqalishi hamda fonetik variantlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan. Shuningdek, ismlar nafaqat shaxsni identifikatsiya qiladi, balki milliy o‘zlik, diniy e’tiqod va ijtimoiy-madaniy kodlarni ham o‘zida namoyon etadi.

1 https://www.mentalfloss.com/article/25034/8-countries-fascinating-baby-naming-laws

Resume. The anthroponymic system of Surkhandarya is a complex, multi-layered linguistic space formed at the intersection of various historical eras, ethnicities, and cultures. Hybrid names resulting from the adaptation of Turkic, Arabic, and Persian-Tajik elements prevail over purely Uzbek names in the region. The ethno-demographic composition and Kipchak dialect directly influence the geographical distribution and phonetic variation of these names. Furthermore, anthroponyms not only serve for personal identification but also reflect national identity, religious beliefs, and socio-cultural codes.

Резюме. Антропонимическая система Сурхандарьи представляет собой сложную многослойную лингвистическую среду, сформировавшуюся на стыке различных эпох, этносов и культур. В регионе гибридные имена, возникшие в результате адаптации тюркских, арабских и персидско-таджикских элементов, преобладают над собственно узбекскими именами. Этнодемографический состав и кипчакский диалект напрямую влияют на территориальное распространение и фонетическое варьирование имен. Кроме того, антропонимы не только служат для идентификации личности, но и отражают национальную идентичность, религиозные верования и социокультурные коды.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 9
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

RANG KOMPONENTLI BIRLIKLARNING MENTAL BIRLIKLARDA AKSI

Israilova Saodat Turapovna,
O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, ma'naviy boyligimizga bo'lgan e'tibor davlat miqyosiga ko'tarilmoqda. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ota-bobolarimizdan, ajdodlarimizdan qolgan ma'naviy boyliklarni, jumladan, musiqiy madaniyatni avaylab-asrash, tiklash borasida, qolaversa, zamon bilan hamohang qadam tashlash borasida talaygina ishlar qilindi. Bu borada o'tgan ajdodlarimiz bizlarga meros qilib qoldirib ketgan ulkan ma'naviy boyligimiz asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Har bir rang har bir millat madaniyatida o'ziga xos lingvokulturologik xususiyatga ega. Bu o'sha millatdagi aholining turmush tarzidan, madaniyatidan, jamiyatdagi ahvolidan kelib chiqib belgilanadi. Jumladan, yashil rang musulmon olamida o'ziga xos ramziy rangdir. Undan tashqari yangilanish, yosharish belgilarini ifodalaydi. Qizil rang esa tanimizda oqib turgan qonni bildirib, o'ziga tortuvchi, qiziqqonlikni, o'jarlikni ifodalaydi. Sariq rang ba'zan oltin ma'nosini ifodalasa, ba'zan kasallik ma'nosini bildiradi.

Ingliz tilida so'zlashuvchilar yashil deb atalishi mumkin bo'lgan ob'ektlar uchun "ko'k" so'zini ishlatmaydilar, ammo qozoq tilida bu usul mavjud. "Ko'k" rangning semantik maydoni ingliz tilidan farqli o'laroq yetarlicha keng. Ko'p hollarda bu rang oq va yashil narsalarni ko'rsatadi. Qozoqlar, odatda, oq otlarni at emas, ko'kat, qo'chqorni (ko'kteke), buqani (ko'kugez), bug'uni (ko'kbo'lan), itni (ko'ket), bo'rini (ko'kbo'ron) deyishadi.

O'zbek xalq marosimlari va udumlarida ko'k rangining ahamiyati katta. Surxondaryo hududidagi nikoh to'ylarida ko'k rangiga bo'lgan e'tiborni ko'rish

mumkin. Ma'lumotlarga ko'ra, kelin tushirgan qaynona "Kelin salom" da keliniga: "Sen yashaydigan o'tov – qora, osmon – ko'k, dala-dasht –yashil, qozon-o'chog'ing – qora, soching – qora, ular ichida alohida ko'zga tashlanib yurishing uchun qizil ko'ylak kiydirdim, iloyo, sen ko'k ko'ylak kiyma, qoraga botma, qizamiqqa chalinma, yuzing ko'ylagingdek qizil bo'lib yursin" deb niyat bildirar ekan. Bundan shuni anglashimiz mumkinki, ko'k leksemasining "osmon" ma'nosidagi shakldoshi va bir o'rinda "aza" ma'nosidagi konnotativ semasi yuzaga chiqqan.

Ranglar u yoki bu xalqning ijtimoiy-madaniy hayoti, urf-odati, marosimi, qadimiy qarashlari bilan chambarchas bog'liq. Xalqlarning mifologik va diniy qarashlari ham ranglarda turlicha aks etadi. Bundan tashqari xalqlarning ijtimoiy hayoti, geografik muhiti ham ranglarga nisbatan munosabatning xilma-xilligiga olib keladi. Jumladan, dunyoning qutbi to'rt xil rangda tasavvur qilingan: sharq – yashil, janub – qizil, shimol – qora, g'arb – oq rangda. Shu asosda mintaqalarning har birida yashovchilar uchun o'sha rang muqaddas sanalgan.

Ranglarning ramziy va lingvokulturologik xususiyatlari xalq og'zaki ijodining birgina maqollarida emas, balki xalq qo'shiqlarida hamda qo'shiq-o'yinlarida ham o'z aksini topgan. Masalan, "Oq terakmi, ko'k terak", o'yini, "Ko'pkari" sayillari shular jumlasidandir. O'yinlarning kattagina qismi o'tmishda yaratilgan bo'lib, ularning kelib chiqishiga qadimgi ajdodlarimizning animistik va totemistik, fetishistik, turli magik tasavvur-tushunchalari, e'tiqodiy qarashlari asos bo'lgan. Bu esa o'yinlarning yo nomidan, yo ular tarkibida uchraydigan ayrim motivlaridan sezilib turadi. Aytaylik, bolalar o'rtasida keng tarqalgan "Oq terakmi, ko'k terak" o'yini asosida ibtidoiy odamlarning oq va ko'k ranglar haqidagi mifologik qarashlari bilan bir qatorda, daraxtlar topinchiga daxldor totemistik tasavvur-tushunchalari yotadi.

"Ko'k bo'ri", ya'ni xalqimiz milliy o'yini sanalgan ko'pkarining kelib chiqishi ham shunga borib taqaladi. Ko'pkari o'yini Markaziy Osiyoda yashovchi dasht xalqlarining qadimdan shakllangan milliy o'yini hisoblanadi. Ko'pkari o'yini rus tilida "kozladranie" (uloq tortish), qozoqlarda "ko'kpari tortu", tojiklarda "bo'ztozi" yoki "bo'z kashi", o'zbeklarda "uloq" yoki "ko'pkari" deb ataladi. Ammo faqat oltoy va qirg'iz tilida ko'pkarining etimologik asosi hisoblangan eng qadimgi nomi – "kəkbəry" saqlanib qolgan.

Yuqorida ta'kidlanganidek, ko'pkari so'zi turli xalqlarda turlicha talaffuz qilinadi. Ammo "kök börÿ" etimologiyasi xususidagi fikrlarni tahlil qilish shuni anglatadiki, oltoylar ko'pkarini eng to'g'ri nomlashgan va "kök börÿ" tarzida talaffuz qilishgan. "Kok boru" o'zbek tiliga deyarli buzilmay, "ko'k bo'ri" tarzida tarjima qilinadi. Bundan ko'rinadiki, o'yin dastlab turkiy xalqlarning bo'ri totemiga e'tiqodi sifatida shakllangan[1].

Ko'k bo'ri kezgan sarhad itlarga talosh endi,
Ko'tarilgan bosh emas, birgina quyosh endi,
Uchqun sochgan ko'zlarning topingani yosh endi,
Turkiy elning shiddati so'nganga o'xshayotir.

Bizningcha, ko'pkari so'zining "ko'kbo'ri"ga bog'liqligi rang elementlariga ham bog'liq bo'lishi mumkin. Sababi yurtimizning ba'zi shevalarida bo'ri bo'zbo'ri shaklida ham talaffuz etiladi. Bo'z so'zi och kulrangga yaqin rangni ifodalaydi. Bilamizki, bo'rining rangi ham ko'k emas, asli shundaydir.

Xalqimizning motam marosimlarida ayollar ko'k, yashil, oq, ba'zan, qora matolardan tikilgan kiyimlar kiyib, o'z azadorliklarini bildiradi. Bunda aza kiyimlarining rangi orqali o'lim, motam, qayg'u-musibat yuz berganligi ifoda etiladi. Jumladan:

To'ychivoyning bog'ida
O'sma buralib qoldi.
Onasini so'rasang,
Ko'kka o'ralib qoldi[2]

"Ko'kka o'ralish", ya'ni ko'm-ko'k kiyish azadorlikni anglatadi. Azador ayollar o'ziga oro bermasdan yuradi. Shuning uchun qo'shiqda bog'dagi o'smaning o'z vaqtida olib ishlatilmaganligi sabab buralib qolganligi alohida ta'kidlanayotir. Suv va osmon marhumlar ruhi qo'nim topadigan manzillardan deb qaralishi tufayli ularning tusini belgilovchi ko'k rang motam marosimida azadorlik ramzini ifodalovchi ranglardan sanaladi".

Xususan, xalqimiz udumi bo'yicha motam marosimlarida marhum agar yosh bo'lsa, mayit solingan tobut ustiga qizil baxmaldan, o'rta yosh bo'lsa – ko'k yoki to'q yashil matodan, keksa bo'lsa – oq mato yopiladi. Bunda ko'k rang marhumning yoshlik, navqironlik holatlarini ifodalaydi.

Motam bilan bog'liq "aza kiyish" va "aza yechish"[3] kabi rasm-rusumlarda ranglarning ma'nosiga alohida e'tibor qilinadi. "Aza kiyish" rasmi kabi "aza yechish" rusumi ham maxsus tashkil qilinadi. Bu rasm-rusumlar, odatda, motamga aloqador "Qirq" va "Yil" marosimlari ichida bajariladi. "Aza yechish" da ayollar oq, ko'k, qora rangdagi liboslarini va ro'mollarini yechib tashlab, motam tutishni to'xtatganliklarini ma'lum qilishadi. Aza kiyimlari yechilgach, o'rniga xursandchilikni, tinchlik va xotirjamlikni ifodalovchi qizil yoki ochiqroq rangdagi liboslar kiyiladi.

[1] Bo'ronov A. Oltoylar. – Toshkent: Muharrir, 2017. – 132 b.

[2] Xalq qo'shiqlari/ O'zbek xalq ijodi. Ko'p tomlik. Nashrga tayyorlovchilar M.Alaviya va S.Ro'zimboev. –Toshkent: Adabiyot va san'at, 1983. – 40 b.

[3] Ro'zieva M. O'zbek xalq qo'shiqlarida rang simvolikasi: Filol.fan.nomz….diss. – Toshkent, 2017. – 23 b.

“Oq terakmi, ko‘k terak” o‘yin-qo‘shiq bo‘lib, uzoq zamonlardan beri bolalar repertuarida yashab kelmoqda. Bu o‘yin haqida o‘zbek bolalar folkloriga bag‘ishlangan deyarli har bir ishda u yoki bu darajada fikr bildirilib o‘tilgan. G‘.Jahongirov[1] esa o‘yinning tarixiy-genetik ildizlariga nazar solishga urinib, uning kelib chiqishiga qabilachilik davridagi jang ko‘rinishlari, uning qoidalari ta’sir ko‘rsatgan, degan mulohazani ilgari suradi.

Xorazm xalqi bolalari orasida hamon o‘ynalib kelinayotgan “Oq sholi, ko‘k sholi” o‘yini ham diqqatga sazovordir. Bu o‘yin, asosan, dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi aholi o‘rtasida shakllangan bo‘lib, unda sholining yaxshi yoki yomon hosil berganligiga ishora qiluvchi ma’noga urg‘u qilingan. Bunda “oq sholi” oppoq, bo‘liq, sifatli, yaxshi guruch donalarini anglatsa, “ko‘k sholi” birikmasi kasallangan, qoraygan, sifatsiz guruch donalariga yoki kurmakka nisbatan qo‘llangani seziladi. Bu ranglarda ham qadimgi insonlarning oq va ko‘k ranglar haqidagi mifologik tasavvurlari, binobarin, oq rangda – baxt, omad, yorug‘lik, yaxshilik; ko‘k rangda – o‘lim kabi ramziy ma’no tovlanishlari aks etgan.

Sh.Galiev[2] bu o‘yinning poetik ramziy tilini tahlil etar ekan, undagi “oq” va “ko‘k” ranglarini fasllarga ko‘ra tavsiflaydi. Tadqiqotchining fikricha, ko‘k – ko‘klam, butun olamning yam-yashil libosga burkanish davri, oq esa oppoq qor bilan o‘tadigan qishning poetik analogidir. Bizningcha, “oq” va “ko‘k” ranglari dastlabki mifologik tushunchalarni o‘zida saqlab qolgan. Ya’ni oppoq, sifatli sholini qish bo‘yi saqlash va uni ko‘klamga yetkazib qayta ekish, sifati pastroq sholini esa ko‘klamga yetkazmay, iste’mol qilib tugatish mazmuni o‘yin-qo‘shiqda yetakchilik qiladi. O‘yinda terak behudaga “oq” va “ko‘k” ranglari bilan keltirilmayapti. Bunda ibtidoiy insonlarning “oq” rangni – baxt, yaxshilik, sog‘liq-salomatlik, tinch hayot ramzida, “ko‘k” rangni – o‘lim, yomonlik ramzida tushunganliklariga oid tasavvurlari asos bo‘lganligi yana bir karra tasdiqlanadi.

Tarixdan ma’lumki, har bir xalqning millat sifatida shakllanishida asrlar davomida an’anaga aylanib borgan milliy qadriyatlari muhim sanaladi. Milliy qadriyatlar har bir xalqning boshqa xalqdan ajratib turadigan jihatlarini belgilab beradi. Ana shunday qadriyatlar zamirida milliy o‘zlikni anglashda muhim bo‘lgan ma’naviyat nurlari mujassam.

Xalq qo‘shiqlarida ham ranglarining o‘ziga xos ahamiyatini ko‘rish mumkin:

Ko‘k ulog‘im yo‘qotdim, ko‘rdingmi qiz?
Kecha yuvgan sochingni o‘rdingmi qiz?

Ushbu qo‘shiqda tilga olingan ko‘k uloqning yo‘qolish tasvirida qadim marosim izlari mavjud. Ko‘k rang yaxshilik, ezgulik, pok niyatlar ramzidir, lirik qahramonning ko‘k uloqni yo‘qotishi esa yor bilan uchrashuv niyati xavf ostida qolayotganidan darak beradi. Demak, lirik qahramon kechinmalariga qiyos sifatida kelayotgan bu holatlar zamirida ko‘hna xalqning ishonchlari bilan bog‘liq tasavvurlar turibdi.

Qoshi qora, yuzi oqning
Man yori bo‘lsam kerak.
Ko‘kkina kaptar bo‘lib,
Ko‘ksida jon bersam kerak.[3]

Tahlilga tortilayotgan bu to‘rtlik birinchi misrasidagi “qoshi qora”, “yuzi oq” istioraviy ifodasi ma’shuqa, “ko‘k kaptar” ramzi oshiq yigit timsolini o‘zida gavdalantirmoqda. Chunki qadimda insonlar joni uzilgan insonning ruhi og‘zidan qush, ko‘pincha, ko‘k kaptar yoki musicha ko‘rinishida uchib chiqib ketadi, degan diniy-mifologik qarashga ega bo‘lgan. Shuning uchun mazkur qo‘shiqda lirik qahramon yorga yetishish mashaqqatini jon bermoq holatiga mantiqan tenglashtirar ekan, o‘z holatini ko‘k kaptar timsolida ifodalashga urinadi.

Dunyoda hikmat durdonalarini yaratmagan, ularda o‘zining e’tiqodiy tasavvurlarini ifodalamagan va asrlar osha ko‘z qorachig‘iday asrab-avaylamagan birorta xalq yo‘q va bo‘lishi ham mumkin emas. Zero, mashhur ingliz olimi B.Teylor alohida ta’kidlaganidek, “Maqollar ibtidoiy madaniyatning yuqori bosqichlarida paydo bo‘lib, uzoq davrlar yashash xususiyatiga ega”.

Xulosa shuki, til har bir millatning ulkan boyligi, benazir qadriyati va bebaho mulki hisoblanadi. Har bir xalq va elat, o‘zi e’zozlaydigan tilga ega. Tilning ijodkori bo‘lgan xalq, elatning tarixi va madaniyati tilda aks etadi, til ijtimoiy taraqqiyotda ulug‘vor ahamiyat kasb etadi. Til – har bir millat o‘zligining ajralmas belgisidir.

Rezyume. Rang etnonimlari fazo va vaqt kabi boshqa toifalar qatorida etnik guruhning ma’lum bir lingvistik rasmiga ma’lum “rang” berishga va “ohang”ni o‘rnatishga qodir. Atrofdagi voqelikda sodir bo‘layotgan tartibsizlikda tartib yaratish o‘ziga xos va uning ranglar tufayli dunyo rangsiz emas, balki jilokor ko‘rinadi. Garchi “Rang madaniy darajadan va boshqa xususiyatlardan qat’i nazar, barcha xalqlar uchun umumiy hodisa” bo‘lsa-da, shunga qaramay, A.Vejbitskaya bu universal insoniy tushuncha emas, deb hisoblaydi. Barcha

[1] Jahongirov G‘. O‘zbek bolalar folklori. – Toshkent, 1975. – 110 b.
[2] Galiev Sh. O‘zbek bolalar o‘yin folklori. – Toshkent, 1998. – 480 b.
[3] Oq olma, qizil olma. O‘zbek xalq qo‘shiqlari/O‘zbek xalq ijodi. Ko‘p tomlik. To‘plovchi M.Alaviya. –Toshkent: Adabiyot va san’at, 1972. – 40 b.

madaniyatlarda odamlar uchun vizual idrok muhim ahamiyatga ega va ular ko‘rgan narsaning tavsifi muhim ahamiyatga ega, ammo ular vizual tajribasining tomonlaridan birining alohida belgisi sifatida maxsus “rang”ga ega bo‘lishlari shart emas. Barcha tillarda “ko‘rish» so‘zi bor, lekin “rang” uchun so‘z bo‘lishi shart emas.

Resume. Color ethnonyms are able to give a certain “color” and set a “tone” to a certain linguistic picture of an ethnic group, among other categories such as space and time. Creating order in the chaos of the surrounding reality is unique, and thanks to its colors, the world looks bright, not colorless. Although ”Color is a common phenomenon for all peoples, regardless of cultural level and other characteristics”, nevertheless, A. Vejbitskaya believes that it is not a universal human concept. Visual perception is important to people in all cultures, and the description of what they see is important, but they don’t necessarily have a specific ”color” as a specific marker of one aspect of their visual experience. All languages have a word for ”sight”, but not necessarily a word for ”color”.

Резюме. *Цветовые этнонимы способны придавать определенный «цвет» и задавать «тон» определенной языковой картине этноса, среди других категорий, таких как пространство и время. Создание порядка в хаосе окружающей действительности уникально, и благодаря его краскам мир выглядит ярким, а не бесцветным. Хотя «Цвет – явление общее для всех народов, независимо от культурного уровня и других характеристик», тем не менее, А. Вейбицкая считает, что это не общечеловеческое понятие. Зрительное восприятие важно для людей во всех культурах, и описание того, что они видят, важно, но они не обязательно имеют определенный «цвет» в качестве определенного маркера одного аспекта своего визуального опыта. Во всех языках есть слово «зрение», но не обязательно слово «цвет».*

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2026; 9
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

RASMIY MUNOSABATLARDA MUROJAAT BIRLIKLARINING SHAXS IJTIMOIY MAQOMINING IFODALANISHI

Ro‘zimatova Dilnoza,
O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi

Muloqot jarayonida murojaat muhim ahamiyatga ega. Murojaat shakllari so‘zlovchining muomala madaniyatini belgilab beruvchi muhim omillardan biri hisoblanib, u orqali so‘zlovchi tinglovchiga o‘z munosabatini ifoda etibgina qolmay, o‘zining qay darajada madaniyatli ekanligini va saviyasini ham ko‘rsatib beradi. Murojaat orqali tinglovchining qaysi ijtimoiy guruhga mansubligi, yashash joyi, yoshi, jinsi, kasbi va boshqa shu kabi ijtimoiy belgilari haqida ma’lumot olishimiz mumkin. Murojaatlar shaxs ijtimoiy maqomini ifodalashning to‘g‘ridan to‘g‘ri usuli hisoblanadi.

O‘zbek tilshunosligida murojaat birliklari dastlab B.O‘rinboyev tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, olimning “Hozirgi o‘zbek tilida vokativ kategoriya” monografiyasida chaqirish, undash, murojaat qilish ma’nosiga ega so‘zlar – vokativ kategoriya haqida fikr yuritiladi va vokativ forma gapda undalma hamda vokativ gap bo‘lib kelishi ta’kidlanadi, olim o‘zbek tilshunosligida birinchilardan bo‘lib, vokativ gaplar haqidagi qarashlarini bayon etadi, fikrlarini misollar bilan dalillaydi. Olimning fikricha, undalma va vokativ gap bir-biriga teng bo‘lmagan hodisalardir. Muallif vokativ gapni so‘z-gapning bir turi deb hisoblaydi va uni shunday farqlaydi: “Vokativ gaplar undash xarakteriga ega bo‘lib, o‘zida turli ma’no nozikliklarini tashuvchi so‘z-gaplardir. Bunday gaplarda bosh va asosiy bo‘lak nutq qaratilgan shaxs nomidan iborat. Agar bu nom alohida intonatsiya bilan talaffuz etilsa, uning markazida turgan shaxs haqida murakkab tasavvur tug‘iladi. U xil fikrlarda so‘zlovchi shaxsning istagi, xohishi, g‘azabi va boshqa shu kabi xususiyatlari o‘z ifodasini topadi”[1].

An’anaviy tilshunoslikda undalma sifatida belgilab kelinayotgan nutq hodisasiga keyingi paytda ijtimoiy ma’no yuklanib, unga murojaat shakli sifatida qaralmoqda[2]. Shu ma’noda tadqiqotchi Z.Akbarova o‘z tadqiqotida murojaatning ijtimoiy mohiyatini sotsiolingvistik planda o‘rganib chiqadi. Uni ifodalashning sotsiolingvistik va psixolingvistik omillarini, murojaat leksikonining turli belgilariga ko‘ra tasnifini keng yoritib beradi, ya’ni murojaatni keng planda verbal va noverbal usullar (imo-ishora, ranglar, turli fonatsion vositalar) bilan ifodalangan turlarini tadqiq qiladi[3].

Murojaat shakllari sotsiopragmatik jihatdan D.Pulatova tomonidan tadqiq etilgan bo‘lib, ushbu birliklarning yosh, jins, kasbiy jihatdan turlicha namoyon bo‘lishi hamda noverbal vositalar bilan ifodalanishi haqida fikrlar bildirilgan. Shuningdek, tadqiqotchi murojaatning deyktik vazifalari, murojaatda presuppozitsiyaning mavjudligi haqida ma’lumot berib o‘tgan[4].

Murojaatning sotsiolingvistik jihatdan tahlil qilishda so‘zlovchi va tinglovchining jamiyatdagi o‘rni, ularning doimiy ijtimoiy rollari (yosh, ijtimoiy maqom), yashash joyi, ularning simmetrik/asimmetrik rol munosabatlari, suhbatdoshlarning tanishlik darajasi, murojaatning rasmiy yoki norasmiy sharoiti, muloqotchilarning o‘zaro munosabatlari tabiati, ta’lim olganlik darajasi va kommunikantlarning nutq madaniyati asosiy mezon bo‘lib xizmat qiladi[5].

Bu omillarga quyidagilar kiradi: suhbatdoshlarning ijtimoiy mavqeyi, jinsi, yoshi, tanish yoki notanishligi, ma’lumoti, muloqot muhiti hamda so‘zlovchining nutq madaniyati[6].

Tinglovchiga ko‘pincha uning kasbi, lavozimi bilan murojaat qilish tilshunoslikda identifikativ nomi-

[1] Ўринбоев Б. Ҳозирги ўзбек тилида вокатив категория. – Тошкент: Фан, 1972. – Б.18.
[2] Акбарова З. Ўзбек тилида мурожаат шакллари ва унинг лисоний тадқиқи: Филол. фан. номз. … дисс. – Тошкент, 2007. – Б.76
[3] Акбарова З. Ўзбек тилида мурожаат шакллари ва унинг лисоний тадқиқи: Филол. фан. номз. … дисс. – Тошкент, 2007. – Б.135
[4] Шведова, Н. Ю. Распространение предложений включением обращения / Русская грамматика. – М.: Наука, 1980. – Т II. Синтаксис. – С.71.
[5] Айсакова Е.А. Социальная и социокультурная дифференциаци обращений в современном русском языке: Дисс. … канд. филол. наук. – М., 2008. – С.17.
[6] Айсакова Е.А. Социальная и социокультурная дифференциаци обращений в современном русском языке: Дисс. … канд. филол. наук. – М., 2008. – С.17.

natsiya deb ataladi[1]. Bunday holatni N.Y.Shvedova murojaatning asosiy vazifasi ekanligini, bu ko‘pincha so‘zlovchining subyektiv munosabati va ekspressiv baholashini ifodalash bilan uyg‘unlashib ketishini bayon etgan[2]. Bunday murojaat shakllari ilmiy uslubdan tashqari deyarli barcha uslublarda ishlatiladi.

– Bemoringiz juda tamagir chiqdi, ***professor****, – dedi Oshno kulib. – Tezroq ruxsat bermasangiz, yana bir balolarni talab qilib qolishi mumkin. Mayli, kasal odamga rad etish o‘zi qiyin. Siz biror haftadan keyin telefon qiling,* ***professor****, esga solishsin. Xo‘sh, yana qanday iltimoslar bor?*

Professor ziyrak edi, izzati bitganini sezdi. Nedir jo‘yali bir bahona topib, palatadan chiqdi. (M.M.Do‘st. “Lolazor”)

Yuqoridagi parchada keltirilgan murojaat shakli murojaat-indeks hisoblanib,[3] ushbu gapda murojaatning nominativ, ya’ni nomlash vazifasi amalga oshmoqda. Bu holatda murojaat orqali kishining jamiyatdagi maqomi ko‘rsatilgan, uning unvoni bilan atash orqali, so‘zlovchi garchi yuqori maqomda bo‘lsa ham, tinglovchini hurmat qilishini namoyon etmoqda.

Murojaat shakllarining qo‘llanilishi so‘zlovchi va tinglovchining ijtimoiy maqomlari teng bo‘lmagan holatlarda o‘zgarishi mumkin. Kommunikantlarning ijtimoiy maqomlari turli pog‘onalarda bo‘lgan muloqot jarayoni ko‘pincha rasmiy sharoitlarda yuz berib, shunga mos murojaat shakllaridan foydalanishni taqozo etadi. Bunda yuqori hamda quyi darajadagi tinlovchiga murojaat qilish bir-biridan farqlanadi. Sh.Usmanovaning fikricha, “Rasmiy murojaat shakllarida hurmat belgisi kuchli bo‘lib, shaxsning mavqeyi, mansabi, lavozimi, vazifasi, kasb-kori, unvoni va yoshiga ko‘ra quyidagicha darajalanish kuzatiladi: 1. Eng oliy darajadagi hurmat shakli. 2. Oliy darajadagi hurmat shakli. 3. Oddiy hurmat shakli. 4. Orttirilgan hurmat shakli[4].

Eng oliy darajadagi hurmat shakllari, asosan, hukumat rahbarlariga qilingan murojaat hisoblanadi. Ijtimoiy tuzum, siyosiy vaziyat o‘zgarishi bilan rasmiy munosabatlarda ham murojaat shakllarining o‘zgarishi kuzatiladi. Bunda, yuqorida ta’kidlanganidek, murojaat-indekslarning o‘zgarishi kuzatiladi. O‘zbek muloqotida hukumat rahbarlariga nisbatan turli davrlarda turlicha murojaat shakllari qo‘llanib kelingan. Bular orasida *oqsoqol*, lavozimidan oldin *o‘rtoq* so‘zining qo‘shib ishlatilishini, *ota*, keyingi yillarda esa *janob Prezident*, *hurmatli Prezidentimiz* singari shakllar qo‘llanilganini kuzatamiz.

Ayrim asarlardan davlat boshliqlariga nisbatan *ota* murojaatining qo‘llanilganligini ko‘rish mumkin. Bunday murojaat shakliga ko‘pincha xalq bilan uchrashuvlarda, rasmiy bo‘lmagan sharoitlarda duch kelish mumkin:

“Azizxon indamay boshini egadi. Past ovoz bilan dedi:

– Gunohimdan o‘ting. Bir qoshiq qonimdan o‘ting, ***ota****. O‘sha siz aytgan bola menman.*

Hozirgi kunda eng oliy darajadagi hurmat shakli sifatida “*prezident janobi oliylari*”, “*muhtaram prezident janobi oliylari*” singari murojaat birliklari rasmiy va publitsistik uslub matnlarida ko‘zga tashlanadi.

Oliy darajadagi murojaat shakllari yuqori mansab egalariga nisbatan qo‘llaniladi hamda ko‘pincha *hurmatli*, *muhtaram*, *janob*, *xonim* so‘zlari bilan birga keladi. Shuningdek, yuqori darajadagi rahbarlarga nisbatan *hurmatli vazir,* elchilarga nisbatan *elchi janoblari* kabi murojaatlar qo‘llanilishining guvohi bo‘lish mumkin.

Oddiy hurmat shakli eng keng tarqalgani bo‘lib, ko‘pincha hurmatli+kasb, unvon so‘zlari yordamida yasaladi. *Hurmatli rais*, *hurmatli sudya*, *hurmatli hakam* singari. Ushbu murojaatlar rasmiy jarayonlarda, turli yig‘in hamda majlislarida ishlatilgan.

Rasmiy munosabatlarda nutq vaziyatiga, tinglovchining ijtimoiy maqomi hamda ayni damda bajarayotgan roliga qarab murojaat shakllarining mosini qo‘llash kerak. Noto‘g‘ri murojaat shaklini qo‘llash noqulaylikni keltirib chiqaradi:

– ***Opajon****, bir marta kechiring!*

– Men sizga “opajon” emasman!

– O‘zingiz “uka” deyapsiz-ku, men nima deyin sizni? Otingizni bilmasam, familiyangizni bilmasam...

– Otimni bilishingiz shart emas. Men siz uchun – grajdan sudyaman. (E.A’zam. “Anoyining jaydari olmasi”)

Bunda “opajon” murojaat shakli rasmiy vaziyat uchun mos bo‘lmagani sababli ***“opajon”*** deb atalayotgan shaxsda e’tiroz uyg‘otgan.

So‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi ijtimoiy masofa va rasmiyatchilik darajasi ortib borsa, murojaatda qarindoshlik bildiruvchi so‘zlarning kelishi, erkalash bildiruvchi qo‘shimchalarning murojaat tarkibida kelish darajasi kamayib boradi va muloqotda rasmiylikka o‘tiladi. Bu ko‘proq maqomi yuqori bo‘lgan, ba’zan esa quyi maqomdagi insonning tashabbusi tufayli yuz beradi.

– Qo‘ying, ***Nazarboy****, – dedi Oshno uni ismi bilan*

[1] Ле В.Н.Виды характеризации адресата в формах русское обращение: Автореф дисс. ... канд. филол. наук. – Воронеж, 1989. – С.23.

[2] Ўринбоев Б. Ҳозирги ўзбек тилида вокатив категория. – Тошкент: Фан, 1972. – Б.18.

[3] Усманова Ш., Калонова Д. Ўзбек ва корейс тилларида расмий мурожаат шакллари // Лингвист (Илмий мақолалар тўплами), 2012. – № 2. – Б. 162.

[4] Ўринбоев Б. Ҳозирги ўзбек тилида вокатив категория. – Тошкент: Фан, 1972. – Б.18.

atab, – bolalikdan beri sinashta bo‘lsak... Biz yana kimgayam sig‘inamiz.

Yaxshiboyev Oshno rasmiyatni qo‘yib ismi bilan ataganiga ajablanmadi, atashi shart edi...

– Jonimdan bezor bo‘ldim, ***oqsoqol****, – dedi. – Bir xira pashsha hafta tutal tinchlik bermaydi.* (M.M. Do‘st. “Lolazor”)

Parchada dastlab yuqori maqomdagi shaxs quyi maqomdagi do‘stiga ismi bilan murojaat qiladi va rasmiy vaziyat bo‘lsa ham, yaqin insoni, bolalikdagi do‘sti ekanligini ushbu murojaat orqali ifodalamoqchi bo‘ladi. Lekin quyi maqomdagi do‘stining ayni paytdagi roliga mos xatti-harakat qilmayotganligi tufayli o‘z maqomini eslatish maqsadida suhbatdoshiga rasmiy murojaat qilishni ma’qul topadi.

Yuqoridagi parchada quyi maqom egasi o‘z do‘sti bo‘lgan yuqori martaba egasiga uning mavqeyini hurmat qilgan holda boshqalar qatori *“oqsoqol”* murojaat shaklini qo‘llagan. Lekin yuqori martabaga ega do‘sti esa suhbat jarayonida samimiylikni ta’minlash maqsadida unga ismi bilan murojaat qiladi. Lekin suhbat jarayonining o‘zgarishi yuqori maqomdagi shaxsning birdan rasmiyatchilikka o‘tishiga sabab bo‘lgan. Murojaat nominatsiyaning o‘zgarishi so‘zlovchining subyektiv munosabatining ham o‘zgarishiga olib kelgan.

Hamkasb murojaat shakli ijtimoiy maqomlari teng bo‘lgan inson tomonidan sherigiga nisbatan qo‘llanadi. O‘zbek tilida *ham-* qo‘shimchasi teng mavqedagi shaxs otlarini hosil qilishda ishtirok etadi.

Kelib-kelib xuddi shu odamning apellyatsiya komissiyasiga rais qilib tayinlanganini eshitganda Domlaning qattiq g‘ashi kelgan edi.

– Nima gunoh, qildik, ***hamkasaba****! – dedi u ichkari kirishi bilan yarim hazil-yarim piching qilib.*

– Bir abituriyentdan qaytadan imtihon olishga to‘g‘ri keladi. – Qilich Valiyev Sirojiddinga imo qildi. – Biletlar bormi? (O‘.Hoshimov. “Nur borki, soya bor”)

Keltirilgan matnda *hamkasaba* murojaati o‘zidan jamiyatdagi lavozimi yuqori, lekin yosh jihatdan kichik tinlovchiga nisbatan qo‘llanyapti. Rasmiy murojaat qilishga esa so‘zlovchidagi g‘urur yo‘l qo‘ymaydi, chunki tinglovchi bir paytlar uning qo‘l ostidagi oddiy xodim bo‘lgan. Murojaatda ta’na, kinoya, suhbatdoshini kamsitish alomatlari ko‘zga tashlanadi.

Ma’lum sohaning o‘ziga xos etiket qoidalari suhbatdoshlarning bir-biriga qilgan murojaatida, ayrim leksik birliklarda hamda faqat ushbu soha xodimlarida uchraydigan noverbal harakatda ham aks etgan. V.I.Karasik bu kabi murojaatlarni maxsus murojaatlar deb atagan[1]. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, murojaatlar yakka bir shaxsga yoki umumga nisbatan qo‘llanishiga ko‘ra ham farqlanadi. Turli yig‘inlar, majlislarda nutq *hurmatli do‘stlar*, *qadrli hamkasblar*, *muhtaram majlis qatnashchilari*, *hurmatli senat a’zolari* kabi ommaga qilingan murojaatlar bilan boshlanadi. Ommaga qilingan murojaatlarda har bir toifa vakillari alohida tilga olinishi mumkin, masalan, *hurmatli professorlar*, *talabalar*, *magistrlar*, *doktorantlar* singari. Suhbat jarayonida tinglovchining ijtimoiy maqomi va ayni damda bajarayotgan ijtimoiy roliga muvofiq murojaat shakllarini qo‘llash kerak. Murojaat qilish orqali suhbat boshlanadi, suhbatning qanday kechishi ko‘pincha unga bog‘liq bo‘lib qoladi.

Rezyume. Ushbu maqolada murojaat shakllarining shakllarining ijtimoiy maqom ifodalashi haqida so‘z boradi. O‘zbek tilida murojaat shakllarining so‘zlovchining muomala madaniyatini belgilab beruvchi muhim omillardan biri ekanligi, u orqali so‘zlovchi tinglovchiga o‘z munosabatini ifoda emasdan o‘zining qay darajada madaniyatli ekanligini va saviyasini ham ko‘rsatib beradi.

Rezyume. This article discusses how forms of address express social status. It is emphasized that in the Uzbek language, forms of address are a key factor in determining a speaker’s culture of communication. Through them, the speaker not only expresses their attitude toward the listener but also demonstrates their own level of cultural refinement and sophistication.

Резюме. В данной статье рассматривается выражение социального статуса через формы обращения. Формы обращения в узбекском языке являются одним из важных факторов, определяющих культуру общения: с их помощью говорящий не только выражает свое отношение к слушателю, но и демонстрирует степень своей культурности, а также свой общий уровень.

[1] Карасик В.И. Язык и социальный статус. – М.: Институт языкознания РАН, Волгоградский педагогический институт, 1991. – С. 196.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 9
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ERTAK JANRIDA DIALOGNING STRUKTURAVIY VA FUNKSIONAL POETIKASI

(INGLIZ VA O'ZBEK XALQ ERTAKLARI MISOLIDA)

Xusanova Nafisa Zokirjon qizi,
Namangan davlat texnika universiteti tayanch doktoranti

Ertakni o'qib chiqqan kitobxon, ko'pincha, voqeani eslab qoladi, gapni emas. Vaholanki, janrning ichki mexanizmiga razm solsangiz, ko'p hollarda voqeani harakatga keltirgan narsa aynan aytilgan gap bo'lib chiqadi. M.Jo'rayev ertakdagi turg'un replikani janrning "genetik xotirasi" deb ataganda, shu holatni nazarda tutgan edi[1]. Ya'ni qahramonning og'zidan chiqqan bir og'iz so'z ortida ko'pincha butun bir marosim mantiqiy turadi.

Ingliz va o'zbek ertaklarini yonma-yon qo'yib o'rganish bizni yana bir masalaga olib chiqadi: har ikki xalq o'z muloqot me'yorlarini qanday saqlab kelgan? N.Ochilovning kuzatishicha, nutqiy etiket va muloqot formulalari xalqning ijtimoiy-madaniy taraqqiyoti hamda qadriyatlar tizimini o'zida uzoq vaqt saqlab qoladi[2]. Folklor matni esa bu saqlanishning eng ishonchli joyi, chunki u yozma me'yor bosimidan xoli.

I.Boltayeva dialogik replika bilan epitetning matndagi g'oyaviy-estetik yukini qiyoslab o'rgangan[3]. Uning xulosasi bizga kerak bo'ldi: ertakdagi replika oddiy gap emas, qahramon obrazining mohiyatini ochuvchi, matnning badiiy salmog'ini belgilovchi vosita.

Nazariy tayanch sifatida esa, tabiiyki, M.M.Baxtinning dialogizm va nutqning ikki ovozliligi haqidagi qarashlariga murojaat qildik[4]. Ertak dialogida ko'pincha bir vaqtning o'zida ikki ovoz eshitiladi: qahramonning o'z ovozi va uni chetdan kuzatib turgan ertakchining bahosi. Baxtin nazariyasisiz bu qo'shovozlilikni tushuntirish qiyin.

V.Ya.Propp dialogik muloqotni donorning birinchi sinovi, ya'ni XII funksiya bilan bog'lagan[5]. Bu klassik sxemaning biz uchun qiymati shunda: u sehrli yordamchi bilan qahramon o'rtasidagi har bir suhbatni aslida shartnoma ekanini ko'rsatib beradi. Sh.Tursunboyevaning qiyosiy-lingvokulturologik kuzatishlari[6] esa tasnif tuzishda umuminsoniy jihatlarni milliy jihatlardan ajratib olishga yordam berdi.

Materialni tahlil qilish jarayonida dialoglarni beshta funksional-semantik guruhga ajratish maqsadga muvofiq bo'ldi:

1) ritmik-formulaviy, takrorlanuvchi dialoglar – asarning kompozitsion "skeleti"ni ushlab turadigan qoliplar;

2) mantiqiy-shifrlangan, intellektual sinov dialoglari – qahramonning topqirligi sinaladigan muloqotlar;

3) axloqiy-etik, ritualistik dialoglar – muloqot odobi va qahramonning ma'naviy qiyofasini ochuvchi replikalar;

4) triksterlik va lisoniy manipulyatsiyaga qurilgan dialoglar;

5) sehrli yordamchi hamda jonlantirilgan predmetlar bilan muloqot – og'zaki bitim tipidagi dialoglar.

Quyida har bir guruh o'zbek va ingliz ertaklaridan olingan juft misol asosida sharhlanadi.

1. Takror ustiga qurilgan dialoglar

"Susambil" ertagini olaylik[7]. Qarib qolgan ho'kiz yo'lda kimni uchratsa, suhbat deyarli aynan takrorlanadi:

– *Ho'kizjon, qayoqqa ketyapsan?*

– *Susambilga ketyapman.*

[1] Jo'rayev M. O'zbek folklori: Nazariya va tahlil. – Toshkent: Fan, 2005. – B. 42.

[2] Ochilov N. The importance of speech etiquette in language communication // Neo Scientific Peer Reviewed Journal. – 2025. – Vol. 41. – P. 16–21.

[3] Boltayeva I. Badiiy matnda muloqot poetikasi va epitetlar funksiyasi. – Toshkent: Universitet, 2020. – B. 88.

[4] Бахтин М. М. Вопросы литературы и эстетики: Исследования разных лет. – Москва: Художественная литература, 1975. – С. 95.

[5] Пропп В. Я. Морфология сказки. – 2-е изд. – Москва: Наука, 1969. – С. 139.

[6] Tursunboyeva Sh. Linguistic and cultural characteristics of English and Uzbek folk tales // Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods. – 2024. – Vol. 2(2). – P. 48–51.

[7] O'zbek xalq ertaklari. 1-kitob / Nashrga tayyorlovchilar M. Afzalov, Z. Husainova, N. Soburov. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1969. – B. 74.

– *Meni ham olib ket.*

– *Yur, bo‘lmasa.*

Buni oddiy takror deb qo‘ya qolish oson, lekin to‘g‘ri emas. Takrorning har bir halqasi syujetga yangi personaj qo‘shilganini bildiradi, tinglovchi esa hikoyaning qaysi bosqichida turganini qolip necha marta yangraganiga qarab biladi. Replikalarning qisqaligi va sintaktik bir xilligi og‘zaki ijroda nafas ritmini belgilaydi: ertakchi bu qolipni xuddi qo‘shiqning naqoroti kabi ishlatadi. Eng qizig‘i esa oxirgi javobda. “Yur, bo‘lmasa” – bu shunchaki rozilik emas, *ittifoq tuzish akti*. Har takror bilan ojizlar jamoasi kengayadi, keyinchalik bo‘rilar ustidan g‘alaba qozonadigan kuch esa aynan shu suhbatlar davomida yig‘iladi. Ya’ni dialog syujetdagi kuchlar nisbatini asta-sekin o‘zgartirib boruvchi mexanizm vazifasini bajargan.

Ingliz folklorida shu modelning yorqin namunasi – J.Jeykobs to‘plagan “The Old Woman and Her Pig”[1]. Cho‘chqa devorchadan o‘tishdan bosh tortgach, kampir ketma-ket itga, tayoqqa, olovga, suvga, ho‘kizga murojaat qiladi:

– *Pig, pig, get over the stile, or I shan’t get home to-night.*

– *Dog, dog, bite pig; piggy won’t get over the stile, and I shan’t get home to-night.*

Vazifa “Susambil” bilan bir xil, mexanizm esa boshqacha. O‘zbek ertagida takror gorizontal harakat qiladi, personajlar yonma-yon qo‘shilib boradi. Ingliz matnida takror zanjirsimon: har bir yangi replika oldingisini to‘la o‘z ichiga oladi va matn qadamma-qadam o‘sadi. Bunday kumulyativ qurilish tinglovchidan xotira talab qiladi, shu bois ertak bolalar davrasida bir vaqtning o‘zida ham hikoya, ham o‘yin sifatida qabul qilinadi. Murojaatning ikki marta takrorlanishiga ham e’tibor qaratish kerak (“Pig, pig…”, “Dog, dog…”): bu qadimgi afsun matnlaridagi chaqiriq formulasining folklordagi qoldig‘i, so‘zning harakatga majburlash kuchiga bo‘lgan ishonch bilan bog‘liq. Demak, ikki an’anada ham takror bezak emas, matnni ushlab turuvchi konstruksiya.

2. Ma’nosi pardalangan sinov dialoglari

O‘zbek ertagida qahramonning qiymati ko‘pincha kuch bilan emas, so‘zni to‘g‘ri tushunish qobiliyati bilan o‘lchanadi. “Egri va To‘g‘ri” ertagi butunlay bahs-dialog ustiga qurilgan[2]:

– *Dunyoda egrilik yutadi, – dedi Egri.*

– *Yo‘q, oxiri baribir to‘g‘rilik yutadi, – dedi To‘g‘ri.*

– *Unda kel, yo‘lda uchraganlardan so‘raymiz. Kim haq chiqsa, o‘shaniki bo‘lsin.*

Suhbat shart qo‘yish bilan yakunlanadi va shu bilan butun syujetni oldindan dasturlab qo‘yadi. Personajlarning ismi ham nutqiy xarakteristikaning bir qismi: bular individual qahramonlar emas, ikki axloqiy pozitsiyaning tashuvchilari, shuning uchun replikalar psixologik tafsilotdan xoli, tezis va antitezis shaklida quriladi. Menimcha, bu yerdagi eng nozik so‘z – “so‘raymiz”. Haqiqat kuch bilan emas, *el nazari* bilan aniqlanadi. Xalq axloqidagi shu tushunchaning ertak matnidagi izi aynan shu bitta fe’lda qolgan.

Ingliz ertaklari orasida shifrlangan javobning eng mashhur namunasi “Cap o’ Rushes”da uchraydi[3]. Ota qizlaridan o‘zini qanchalik sevishini so‘raganda, kenja qiz kutilmagan javob beradi:

– *How much do you love me, my dear?*

– *Why, I love you as fresh meat loves salt.*

Javob zohiran kamsituvchi holda eshitiladi, ota shu tufayli qizini uydan haydaydi. Aslida esa bu kognitiv shifr: tuzsiz taomni yeb bo‘lmaydi, ya’ni qiz otasiga “siz mening hayotimning ta’mi, mazmunisiz” demoqchi. Ertakning yechimi ham shu shifrni ochishga qurilgan – to‘y ziyofatida tuzsiz taom tortilgach, ota hamma narsani tushunadi. Ikki an’anadagi yaqinlik shu o‘rinda yaqqol ko‘rinadi: ham u yerda, ham bu yerda syujetni harakatga keltirgan kuch – *noto‘g‘ri tushunilgan so‘z*. Farq usulda: o‘zbek variantida shifr mantiqiy-kombinatorik yo‘l bilan (bahs, shart, topqirlik), ingliz variantida esa maishiy metafora orqali (tuz va taom) beriladi.

3. Odob va marosim dialoglari

Bu guruh o‘zbek materialida ayniqsa boy, chunki milliy nutq odobi ertak matniga to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘chadi. “Kenja botir”dagi xayrlashuv sahnasini eslang[4]:

– *Ota, oq fotihangizni bering, men ham baxtimni sinab ko‘ray.*

– *Yo‘ling ochiq bo‘lsin, o‘g‘lim. Odamgarchilikni unutma, va’dangda tur.*

Qisqa suhbat, lekin uch vazifani birdan bajaradi. Avvalo, “bering”, “fotihangiz” shakllari va “o‘g‘lim” murojaati birinchi replikadayoq personajlar o‘rtasidagi yosh va maqom munosabatini ochib beradi; ingliz tilida bu ma’no grammatik emas, faqat leksik yo‘l bilan uzatiladi. So‘ng marosim qatlami keladi: oq fotiha olish qahramonning yo‘lga chiqish huquqini rasmiylashtiradi, ertak mantig‘ida fotihasiz yo‘lga chiqish muvaffaqiyatsizlik garovi. Nihoyat, otaning “va’dangda tur” degan nasihati keyingi barcha sinovlarning axloqiy mezonini oldindan belgilab qo‘yadi. Shunday qilib, xayrlashuv dialogi butun syujet uchun shartnoma vazifasini o‘taydi.

[1] Jacobs J. English Fairy Tales. – London: David Nutt, 1890. – P. 20–23.

[2] O‘zbek xalq ertaklari. 1-kitob. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1969. – B. 208.

[3] Jacobs J. English Fairy Tales. – London: David Nutt, 1890. – P. 51–56.

[4] Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklor. – Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006. – B. 102.

Ingliz folkloridagi eng yaqin muvoziy – “The Three Heads of the Well”[1]. Yo‘lda uchragan qariya ikki qizga navbatma-navbat bir xil savol beradi, javoblar esa keskin farq qiladi:

– What hast thou in thy bag and bottle?

– Bread and cheese... and if it will do thee any good, thou art heartily welcome. (kenja qiz)

– Bad enough for thee! (o‘gay opa)

Bu juftlik o‘zbek ertaklaridagi “yaxshi qiz – yomon qiz” qarama-qarshiligining aynan o‘zi. Sinov bitta savolga berilgan ikki xil javob orqali o‘tkaziladi. Ingliz matnida ham hurmat alohida belgilangan: arxaik “thou / thee” shakli va “heartily welcome” turg‘un iborasi shu vazifani bajaradi, ya’ni etiket qatlami bu yerda ham bor, faqat tilning tarixiy zaxirasidan olingan. O‘gay opaning javobi esa sintaktik jihatdan ham nuqsonli – to‘liq gap emas, kesik shakl. Nutqning parchalanishi personajning axloqiy nuqsonini ifodalovchi vositaga aylangan. O‘zbek ertaklarida ham xuddi shunday: salbiy personaj odatda salomlashish bo‘g‘inini tushirib qoldiradi va to‘g‘ridan to‘g‘ri buyruqqa o‘tadi. Ko‘rinib turibdiki, etiketning buzilishi – bu personajga chiqarilgan hukmning nutqiy shakli.

4. So‘z o‘yiniga qurilgan dialoglar

O‘zbek folklorining eng mashhur triksteri – Aldar Ko‘sa. Unga bag‘ishlangan ertaklarda g‘alaba deyarli har doim so‘z o‘yini bilan qo‘lga kiritiladi[2]:

– Aldar Ko‘sa, meni ham aldab ko‘r-chi!

– Aldardim, lekin aldov xaltamni uyda qoldiribman. Otingizni bering, olib kelay.

Manipulyatsiyaning butun mexanizmi shu ikki gapda ko‘rinib turibdi. Birinchidan, Aldar Ko‘sa raqibining o‘z iltimosidan foydalanadi: aldanishga rozilik bergan odam endi aldovga qarshi chiqa olmaydi. Ikkinchidan, “aldov xaltasi” – mavjud bo‘lmagan narsani tilda moddiylashtirish usuli. Pragmatik jihatdan bu klassik *presuppozitsiya o‘yini*: tinglovchi “xalta bormi?” degan savolni umuman bermaydi, chunki gap qurilishida uning borligi tayyor haqiqat sifatida berilgan. Natijada ot qo‘ldan ketadi. Hech qanday sehr yo‘q, hammasi gap qurilishi hisobiga bo‘ldi. Bunday matnlarda dialog syujetning vositasi emas, syujetning o‘zi.

Ingliz ertaklarida shu tipning mashhur namunasi “Henny-penny”dagi tulki Foxy-woxyning murojaati[3]. Osmon qulayapti deb qo‘rqib, qirol huzuriga ketayotgan parrandalarga u shunday deydi:

– But this is not the way to the king, Henny-penny... I will show you a short cut.

Diqqat qiling: bu gapda yolg‘on yo‘q. Tulki chindan ham qisqa yo‘lni biladi va uni ko‘rsatishga va’da beradi. Aldov aytilgan ma’noda emas, *implikatura* darajasida sodir bo‘ladi – tinglovchilar “qisqa yo‘l” iborasidan xavfsizlikni anglaydilar, holbuki gapda bunday ma’no yo‘q. Aldar Ko‘sa bilan taqqoslasak, farq ko‘rinadi: o‘zbek triksteri yo‘q narsani tilda yaratadi, ingliz triksteri esa bor haqiqatni yarim aytish yo‘li bilan ishlatadi. Umumiy jihat bitta ikkala matnda ham qurbon o‘z ishonchi tufayli, ya’ni nutqiy hamkorlik qoidasiga sodiq qolgani uchun yutqazadi. M.M.Baxtin aytgan ikki ovozlilik folklorda mana shunday sof ko‘rinishda namoyon bo‘ladi.

5. Sehrli yordamchi bilan tuzilgan og‘zaki bitim

“Uch og‘a-ini botirlar”da qahramonning yer ostidan chiqishi Semurg‘ bilan tuzilgan shartga bog‘lanadi[4]:

– Meni yorug‘ dunyoga olib chiq.

– Qirq qo‘y so‘yib, qirq mesh suv ol. “Qag‘” desam – go‘sht ber, “qig‘” desam – suv ber. Shart shu.

Propp tavsiflagan donor funksiyasining mumtoz namunasi. Semurg‘ yordamni sovg‘a sifatida emas, bitim sifatida taklif qiladi: miqdor aniq (qirq qo‘y, qirq mesh), signal aniq (“qag‘” va “qig‘”), javob harakati ham aniq belgilangan. Oldimizda og‘zaki shartnomaning arxaik shakli turibdi. Qushning tovushi bu yerda tabiiy ovoz emas, *kodlashtirilgan replika*: ma’no tovushning o‘ziga emas, oldindan kelishilgan qoidaga bog‘lanadi. Shuning uchun go‘sht tugagach, qahramon o‘z sonidan kesib berishga majbur bo‘ladi. Bu yerda sinovning cho‘qqisi shartning buzilishi emas, aksincha, oxirigacha bajarilishidir. Ertakning axloqiy xulosasi ham shundan kelib chiqadi: bergan so‘zda turish qahramonlikning o‘lchovi.

Xuddi shu model “The Well of the World’s End”da takrorlanadi[5]. Quduqdagi qurbaqa qizga yordam berishdan oldin shart qo‘yadi:

– I’ll help you, if you will do whatever I bid you for a whole night long.

Ikki matn yonma-yon qo‘yilganda tipologik yaqinlik darhol seziladi: sehrli yordamchi hech qachon bepul yordam bermaydi, avval nutqiy majburiyat oladi. Farq shartning mazmunida. Semurg‘ning sharti moddiy va sanab bo‘ladigan, qurbaqaning sharti esa ochiq va noaniq: “nima buyursam, shuni qilasan”. Birinchisida qahramon jismoniy chidam bilan, ikkinchisida bergan so‘ziga sodiqlik bilan sinaladi. Sinovning predmeti esa ikkalasida ham bitta – va’da. Shu bois sehrli yordamchi bilan dialogni huquqiy ongning ertakdagi eng qadimgi badiiy izlaridan biri deb qarash mumkin.

[1] Jacobs J. English Fairy Tales. – London: David Nutt, 1890. – P. 217–222.
[2] O‘zbek xalq ertaklari. 2-kitob. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1969. – B. 341.
[3] Jacobs J. English Fairy Tales. – London: David Nutt, 1890. – P. 114–117.
[4] O‘zbek xalq ertaklari. 1-kitob. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1969. – B. 156.
[5] Jacobs J. English Fairy Tales. – London: David Nutt, 1890. – P. 224–228.

Turg‘un replika: bezakmi yoki obraz?

Turg‘un vositalarning tabiati borasida folklorshunoslikda eskidan davom etib kelayotgan bahs bor. B.V.Tomashevskiyning fikricha, epitet va turg‘un replika so‘zga yangi xususiyat qo‘shmaydi, faqat unda allaqachon mavjud belgini ta’kidlaydi[1]. Bu qarash turg‘un replikani statik, bezak vazifasidagi vosita sifatida talqin etadi.

Z.Normurodova bunga qo‘shilmaydi. Uning doktorlik tadqiqotida asoslanishicha, folklorik vositalar oddiy aniqlovchi yoki takrordan iborat emas, ular poetik obraz darajasiga ko‘tarilib, matnga mustaqil g‘oyaviy-estetik qiymat olib kiradi[2]. Yuqoridagi tahlil ikkinchi qarash foydasiga dalil beradi. “The Three Heads of the Well”dagi bir og‘iz “Bad enough for thee!” personajga butun bir axloqiy xarakteristika beradi; “Susambil”dagi qisqagina “Yur, bo‘lmasa” esa syujetdagi kuchlar muvozanatini o‘zgartiradi. Bezak matndan olib tashlansa, matn xiralashadi, xolos; bu replikalarni olib tashlasangiz, ertakning o‘zi qulaydi.

Qoliplarning barqarorligini M. Bahtiyarov lisoniy tejamkorlik tamoyili bilan izohlaydi[3]: ertakchi har safar yangi so‘z izlab o‘tirmaydi, tayyor formulani qaytaradi, natijada tinglovchining diqqati personaj ruhiyatiga emas, voqealar shiddatiga qaratiladi. Bu izohga qo‘shilamiz, lekin uni ijro sharoiti bilan to‘ldirish kerak deb o‘ylaymiz. Og‘zaki matn – qayta o‘qib bo‘lmaydigan matn. Shu sababli undagi takror nuqson emas, balki tinglovchining xotirasiga moslashtirilgan kompozitsion yechimdir.

Olib borilgan qiyosiy-tipologik tahlil quyidagi natijalarga olib keldi.

Birinchidan, har ikki xalq ertagida dialog axborot almashish vositasi bilan cheklanmaydi: u syujetni harakatga keltiradi, obrazni individuallashtiradi va kompozitsiyani ushlab turadi. Ajratilgan besh guruhning har biri ikkala an’anada ham o‘z muvoziyiga ega ekani dialogning janr darajasidagi universalligini ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, ingliz materialida dialog ko‘proq ritmik barqarorlik, kumulyativ zanjir va lisoniy tejamkorlikka tayanadi; aldov esa ko‘pincha ochiq yolg‘on emas, yashirin ma’no darajasida amalga oshadi.

Uchinchidan, o‘zbek materialida dialog axloqiy-didaktik mazmun va nutq odobiga tayanadi. Oq fotiha, shart qo‘yish, el nazariga murojaat kabi bo‘g‘inlar dialogning majburiy qismiga aylanadi va qahramonning ma’naviy jihatdan “haqiqiyligini” tasdiqlaydi.

To‘rtinchidan, sehrli yordamchi bilan muloqot ikkala an’anada ham og‘zaki bitim shaklida quriladi. Bu dialoglarda sinovning predmeti sehrli kuch emas, bergan so‘zga sodiqlikdir – ertak janri shu tariqa ijtimoiy-huquqiy ongning arxaik shakllarini saqlab qolgan.

Beshinchidan, dialoglardagi turg‘un formulalar xalq og‘zaki ijodining genetik xotirasi bo‘lib, milliy qadriyatlar va muloqot kodeksini keyingi avlodlarga barqaror lisoniy shaklda yetkazishda ko‘prik vazifasini o‘taydi.

Rezyume. Maqolada ingliz va o‘zbek xalq ertaklarida dialogik nutqning strukturaviy va funksional poetikasi qiyosiy-tipologik yo‘nalishda tadqiq etilgan. Jozef Jeykobsning “English Fairy Tales” hamda “O‘zbek xalq ertaklari” to‘plamlaridagi matnlar tahlilga tortilib, dialogik replikalarning leksik-semantik, kognitiv va axloqiy xususiyatlari yoritilgan.

Resume. The article offers a comparative typological study of the structural and functional poetics of dialogic speech in English and Uzbek folk tales. Drawing on tales from Joseph Jacobs’ “English Fairy Tales” and Uzbek folklore collections, it examines the lexical-semantic, cognitive and ethical features of dialogic turns.

Резюме. В статье в сравнительно-типологическом аспекте исследована структурная и функциональная поэтика диалогической речи в английских и узбекских народных сказках. На материале сказок из сборника Дж. Джейкобса “English Fairy Tales” и узбекских фольклорных сборников рассмотрены лексико-семантические, когнитивные и этические особенности диалогических реплик.

[1] Томашевский Б. В. Теория литературы. Поэтика. – Москва: Аспект Пресс, 2002. – С. 112.

[2] Normurodova Z. O‘zbek tili badiiy matnida poetik sintez va muloqot birliklari pragmatikasi: Filol. fan. dok. ... diss. – Toshkent, 2021. – B. 114.

[3] Bahtiyarov M. Y., Tuymaeva K. K. Comparative analysis of linguacultural features of English and Uzbek fairytales // Scientific Journal of the Uzbekistan State World Languages University. – 2023. – Vol. 5(2). – P. 293–296.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 9
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

"BOBURNOMA"DAGI SAROY-MA'MURIY XIZMAT UNVONLARINING INGLIZCHA TARJIMALARDA BERILISHI

Xabibullayeva Fazilat Xabibullo qizi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
tayanch doktoranti

"Boburnoma" asari o'zbek mumtoz nasrining eng yirik yodgorliklaridan biri sifatida XVI asr boshi Movaraunnahr, Afg'oniston va Hindiston yarim oroli saroy-ma'muriy tuzilmasi haqidagi boy leksik xazina hisoblanadi. Asarning ingliz tilidagi uch tarjimasi: Jon Leyden va Vilyam Erskin tomonidan 1826-yilda[1], Annetta Susanna Beverij tomonidan 1922-yilda[2], Uiler Tekston tomonidan 1996-yilda[3] amalga oshirilgan. Bu tarjimalarning bir asrdan ortiq oraliqda yaratilgani ularning qiyosiy tahlilini yanada muhimligini oshiradi.

Saroy-ma'muriy xizmat unvonlari hukmdorning shaxsiy xizmatini bajaruvchi mansabdor shaxslar, ya'ni, *oftobachi, bakovul, kitobdor, suvchi, sharbatchi, eshik og'a,* moliyaviy-xazina boshqaruvi mansabdorlar: *muhrdor, xizonachi* va mahalliy-hududiy boshqaruv unvonlardan *chavdari* "Boburnoma" leksikasining bir-biriga bog'liq semantik guruhini tashkil etadi va bugun faol qo'llanmagani sababli arxaizm-istorizm nazariyasi doirasida tahlil qilinadi.

Mazkur maqolamizda ushbu guruhga mansub to'qqizta unvon uch turdagi inglizcha matnda qiyosiy o'rganilib, ularning qay tarzda berish strategiyasi ishlab chiqiladi.

Tadqiqotning maqsadi saroy-ma'muriy xizmat unvonlarining yaxlit lug'aviy-semantik birlik sifatida tahlilga tortish va ularning tarjimalarini tadqiq etishdan iborat:

1) har bir unvonning ma'no-vazifasini va arxaizm/istorizm maqomini aniqlash;

2) uch tarjima matnidagi mos parchalarni tekshirish va strategiyasini tasniflash;

3) tarjimonlar orasidagi farq-o'xshashlikni kichik guruhlar kesimida umumlashtirish nazarda tutiladi.

1. Nazariy-metodologik asos

Ushbu qiyosiy tahlilning tayanch mezoni sifatida Sh.Rahmatullayevning arxaizm va istorizm ta'rifiga asoslangan holda: arxaizm – zamonaviy tilda faol sinonimga ega bo'lgan, uslubiy jihatdan eskirgan birlik, istorizm esa – nomlagan voqelik (institut, buyum, mansab) o'zi yo'qolgani sababli sinonimsiz qolgan birlik[4]ka aytiladi. Saroy-ma'muriy unvonlarning aksariyati aynan shu ikkinchi turga, institut o'zi yo'qolgani sababli zamonaviy sinonimi bo'lmagan istorizmga mos keladi. Tarjimashunoslik nuqtayi nazardan S.Vlahov va S.Florinning "tarixiy realiya" tushunchasini qo'llaydi: ular tarixiy realiyalarni muallif davri uchun oddiy, kundalik so'z bo'lgan, ammo keyingi davr o'quvchisi uchun begona-tarixiy bo'yoq kasb etgan birliklar sifatida ta'riflaydi va ularning tarjimada berilishini alohida muammoli soha deb ko'rsatadi[5]. P.Nyumark esa arxaik birlikni tarjimon uchun "topib bo'lmaydigan so'z" (*unfindable word*) turlaridan biri sifatida belgilab, bunday hollarda maxsus lug'at-manbalarga murojaat qilish zaruratini ta'kidlaydi[6] bu esa Annetta Susanna Beverijning o'z tarjimasida keng, ilmiy-etimologik *footnote apparati* (matnosti izoh) dan foydalanish amaliyotiga mos keladi.

Metodologik jihatdan esa mazkur tadqiqot Z.Teshaboyevaning xuddi shu manba va uch tarjimon ustida olib borgan PhD dissertatsiyasida paragraf-chegaralash tamoyiliga asoslanadi. "Strategiya" va "madaniy-tarixiy axborot saqlanish" masalalari alohida muammo tarzida ko'riladi[7] mazkur maqola esa birinchisiga bag'ishlangan. R.Ibragimovaning

[1] Leyden J., Erskine W. Memoirs of Zehir-Ed-Din Muhammed Baber, Emperor of Hindustan, Written by Himself, in the Jaghatai Turki. – London: Longman, Rees, Orme, Brown, and Green; Cadell and Company, 1826.

[2] Beveridge A.S. The Babur-nama in English (Memoirs of Babur). – London: Luzac & Co., 1922.

[3] Thackston W.M. The Baburnama: Memoirs of Babur, Prince and Emperor. – New York: Oxford University Press, 1996.

[4] Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili, 1-kitob. –Toshkent: MUMTOZ SO'Z, 2010. –B.104-107.

[5] Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. – Москва: Международные отношения, 1980. – С.132-137.

[6] Newmark P. A Textbook of Translation. – Hemel Hempstead: Prentice Hall International, 1988. – P.176-178.

[7] Тешабоева З. Қ. "Бобурнома"нинг инглизча таржималаридаги фразеологик бирликлар ва уларнинг миллий-маданий хусусиятлари. Филол. фан.б.фалс. док. (PhD) …дисс. – Тошкент, 2017

ushbu muammoga yaqin mavzudagi tadqiqotidan farqi shundaki, R.Ibragimova “Boburnoma” tarjimalarini referentga asoslangan realiya tushunchasi orqali tahlil qiladi[1], mazkur maqola esa vaqtga asoslangan arxaizm/istorizm kategoriyasidan kelib chiqadi.

Guruhning ichki tuzilishini aniqlashtirish uchun Sh.Rahmatullayev taklif etgan komponent (semik) tahlil usuli qo‘llaniladi, leksik ma’no integral va differensial semalarga bo‘linadi[2]. Barcha to‘qqiz unvonga umumiy integral sema – “hukmdorga bevosita bo‘ysunuvchi, ixtisoslashgan vazifani bajaruvchi mansabdor” shaxsga nisbatan qollanadi. Differensial semalar guruhni uchta kichik toifaga ajratadi: (a) tan-shaxsiy xizmat – *oftobachi, bakavul, kitobdor, suvchi, sharbatchi, eshik/eshik og‘a*; (b) moliya-xazina boshqaruvi – *muhrdor, xizonachi*; (v) hududiy-ijtimoiy boshqaruv – chavdari. Ushbu farqlanish quyidagi tahlilning uch bo‘limga bo‘linishini asoslaydi.

2. Saroy shaxsiy xizmati mansablari. Bu kichik guruhga hukmdorning tan-shaxsiy ehtiyojlarini (kiyinish, ovqatlanish, kutubxona, suv-sharbat, qabul marosimi) ta’minlovchi mansabdorlar kiradi: *oftobachi, bakavul, kitobdor, suvchi, sharbatchi, eshik/eshik og‘a.*

Oftobachi. Bobur Umarshayx Mirzo o‘limi arafasidagi voqealarni bayon qilib, Qamberali haqida *“Юнусхон қошида офтобачилик қилди”* deb yozadi[3]. S.Beverij bu unvonni transliteratsiya qilib, satr ostida qo‘lyozma variantlarini muhokama qilar ekan, “**ewer-bearer**” izohini qo‘shadi[4]. Tekston, aksincha, transliteratsiyasiz, to‘g‘ridan-to‘g‘ri tavsiflovchi “**ewer bearer**” tarjimasini beradi[5]. Leyden–Erskin mustaqil kontekstda “He had served Yunis Khan in the capacity of Ewer-bearer” tarzida Tekston bilan so‘zma-so‘z mos keladigan “**Ewer-bearer**” variantni qo‘llaydi[6]. O‘zbek tilining izohli lug‘atida bu so‘z “ Xonlar saroyida xon, amir va uning mehmonlari qo‘l yuvayotganda, ularga oftoba tutuvchi lavozimli shaxs” deb, tarixiy so‘z sifatida keltiriladi[7].

Bakavul. Bu mansab “Boburnoma”da bir necha marta uchraydi: *“Қул Боязид бакавулнинг ғўрхонаси”*[8]. Beverij butun tarjima davomida ushbu termin uchun kamida sakkiz mustaqil o‘rinda izchil “the Taster” ekvivalentini qo‘llaydi[9]. U.Tekston transliteratsiya yo‘lidan borib (“Qul-Bayazid Bokaul”)[10], Leyden–Erskin esa (“Bekawel – also a taster or butler”; “Kul Baiezid Bekawel (the Taster)”) har ikkala tarjima strategiyasini birlashtiradi[11].

Kitobdor. Samarqandning Shayboniyxon qo‘liga o‘tishi voqeasida Bobur Xoja Muhammad Alini “китобдор” sifatida tilga oladi[12]. S.Beverij “librarian” domestikatsiya qilib, boshqa parchada esa *“kitabdar, librarian”* transliteratsiya-glossini qo‘llaydi[13]. U.Tekston izchil transliteratsiya yo‘lidan borib, muttasil *“Kitabdar”*[14] tarzida aks ettiradi. Leyden–Erskin ikki qatlamli tarjima strategiyasini namoyish etadi: bir joyda “librarian”, boshqa o‘rinlarda “*Kitabdar* (the Librarian)”[15] deb beradi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida esa kitobdor- “kutubxonachi”ning eskirgan shakli sifatida keltirilgan[16].

Suvchi va sharbatchi. Qandahor jangi tavsifida Bobur o‘z atrofidagi mansabdorlarni sanab, *“сўл қўлумда... Мақсуд сувчи”* hamda *“ўнг қўлумда... Қамол шарбатчи”* deb yozadi[17]. Har ikkala unvon ham hukmdorga shaxsiy xizmat ko‘rsatuvchi kichik mansab bo‘lib, tarjimalarda parallel strategiya kuzatiladi. Suvchi uchun Beverij funksional tarjima va transliteratsiyani qavs ichida birlashtiradi: *“Maqsud the water-bearer (su-chi)”*[18]; Tekston izchil transliteratsiya – *“Suchi”*[19]; Leyden–Erskin esa transliteratsiya va ehtiyotkor taxminiy gloss “*Suchi* probably means Abdar (waterman), butler” birikmasini qo‘llaydi[20].

---

[1] Ibragimova R.A. “Boburnoma” matnidagi milliy udumlar va realiyalar inglizcha tarjimalarining lingvopragmatik tadqiqi: PhD dissertatsiyasi avtoreferati. – Andijon, 2024.
[2] Rahmatullayev Sh. Ko‘rsatilgan asar. – B.54-55, B.89-91.
[3] Бобур З.М. Бобирнома. – 1960. – Б.76.
[4] Beveridge A.S. Ko‘rsatilgan asar. – B.28.
[5] Thackston W.M. Ko‘rsatilgan asar. – p.49.
[6] Leyden J., Erskine W. Ko‘rsatilgan asar. – B.17.
[7] oftobachi – Izoh.uz – O‘zbek tilining izohli lug‘ati; https://izoh.uz/word/oftobachi (Murojaat sanasi: 31.08.2026. 15:28)
[8] Бобур З.М. Бобирнома. – 1960. – Б.184.
[9] Beveridge A.S. Ko‘rsatilgan asar. – B.61.
[10] Thackston W.M. Ko‘rsatilgan asar.
[11] Leyden J., Erskine W. Ko‘rsatilgan asar. – B.163.
[12] Бобур З.М. Бобирнома. – 1960. – Б.135.
[13] Beveridge A.S. Ko‘rsatilgan asar. – B.124; B.275.
[14] Thackston W.M. Ko‘rsatilgan asar. – p.114.
[15] Leyden J., Erskine W. Ko‘rsatilgan asar. – B.82.
[16] kitobdor – Izoh.uz – O‘zbek tilining izohli lug‘ati; https://izoh.uz/word/kitobdor (Murojaat sanasi: 31.08.2026. 15:36)
[17] Бобур З.М. Бобирнома. – 1960. – Б.273.
[18] Beveridge A.S. Ko‘rsatilgan asar. – B.335.
[19] Thackston W.M. Ko‘rsatilgan asar.
[20] Leyden J., Erskine W. Ko‘rsatilgan asar. – B.228.

Sharbatchi uchun: S.Beverij to‘liq funksional tarjima – *“the sherbet-server”*[1]; U.Tekston yana transliteratsiya – *“Sharbatchi”*[2] tarzida tarjimada aks ettiradilar. Leyden–Erskin bu safar ham aralash yo‘lni tanlaydi va “Kemal *Sherbetji* (the Cup-bearer)”[3] tarzida transliteratsiya qiladi. Har ikkala unvonda ham S.Beverij va U.Tekston qarama-qarshi qutblarda turadi, Leyden–Erskin esa sintezlovchi pozitsiyani egallaydi.

Eshik/ eshik og‘a. Umarshayx Mirzo amirlari tavsifida *“Худойбердиға... эшикни бошлатиб йибориб эрди”* va keyinroq *“Жонибек... эшик оқо қилиб эди”* jumlalari uchraydi[4]. Ushbu yozuv bo‘yicha S.Beverij va U.Tekston tarjimalaridagi mos parcha ushbu tadqiqot doirasida hali alohida tasdiqlanmagan, shu sabab bu ikki tarjimon bo‘yicha xulosa chiqarilmaydi. Lekin Leyden–Erskin tarjimasida esa ikki xil qo‘llanish farqlanadi: to‘liq unvon shaklida *“eshik og‘a”* transliteratsiya va keng etimologik-etnografik izoh bilan “*Ishik-Agha, lord or keeper of the entrance or door, an officer resembling the chamberlain...”*[5]; oddiy, unvonsiz *“эшик”* so‘zi uchun esa bir necha mustaqil o‘rinda – to‘liq domestikatsiya “Chamberlain” leksemasi orqali aniq ochib bergan[6].

3. Moliyaviy-ma’muriy mansablar. *Muhrdor.* Bobur o‘z otasi tomonidan bu mansabga tayinlanganini eslaydi: *“Отам ҳам риоят қилиб, муҳрдор қилиб эди”*[7]. S.Beverij bu o‘rinda aniq, bosh harflar bilan yozilgan “Keeper of the Seal” unvonini qo‘llaydi[8]; U.Tekston xuddi shu domestikatsiya yo‘lidan borib “seal keeper”[9] deb o‘giradi. Leyden–Erskin mustaqil ravishda S.Beverijga deyarli so‘zma-so‘z mos “keeper of the seal” variantini beradi[10]. Bu misolda shakl farq qilsa-da, har uchala tarjimon ham bir xil funksional-domestikatsiya strategiyasida birlashadi.

Xizonachi. Bek-ro‘yxatlaridan birida *“Вали хизоначи”* tarzida uchraydigan bu unvon uchun uch tarjimon uchta mutlaqo farqli strategiyani namoyish etadi[11]. S.Beverij kamida olti mustaqil o‘rinda izchil to‘liq domestikatsiya “the Treasurer”ni qo‘llaydi[12]. U.Tekston, aksincha, uch mustaqil o‘rinda izchil transliteratsiya, ya’ni *“Khizanachi”*ni tanlaydi, hech qanday izoh qo‘shmaydi[13]. Leyden–Erskin esa ikkala strategiyani birlashtirib, *“Wali Khizanchi (the Treasurer)”*[14] tarzida xuddi shu birlashtiruvchi naqsh kitobdor va suvchi misolida ham kuzatilgan edi. Demak yuqoridagi misollardan korinadiki, bu Leyden–Erskin tarjimasining butun guruh bo‘yicha izchil uslubiy xususiyatlaridan biri ekanligini sezishismiz mumkin.

4. Mahalliy-hududiy boshqaruv unvoni. *Chavdari.* Behra elining bo‘ysunishi tasvirida Bobur mahalliy boshliqlarni *“Беҳранинг улуғларини ва чавдариларини тилаб”* deb tilga oladi[15]. Bu hind-fors ma’muriy an’anasiga xos, savdo-hunar toifasi boshlig‘i yoki yer egasini bildiruvchi unvon bo‘lib, uch tarjimon orasida noyob holatlar kuzatiladi: barchasi bir xil transliteratsiya strategiyasini tanlaydi, ustiga-ustak bir xil izohli manbaga tayanganini ko‘rishimiz mumkin. S.Beverij *“chauderis”* transliteratsiyasini qo‘llab, satr ostida buni Erskinning izohiga havola qilib beradi: *“this Hindustani word in some districts signifies the head man of a trade, in others a landholder (Erskin)”*[16]. U.Tekston mustaqil ravishda *“chaudharis”* transliteratsiyasini tanlaydi, o‘z navbatida, izohida *“village chieftains in the subcontinent”* izohini ham keltiradi[17]. Leyden–Erskin esa bevosita bu ikkala keyingi izohning boshlang‘ich manbasi sifatida bir xil transliteratsiya *“Chouderis”* va deyarli so‘zma-so‘z bir xil izoh matnini keltiradi[18]. Bu uch tomonlama mos kelish tasodif emas: S.Beverijning “Erskin” havolasi aynan 1826-yilgi tarjimaning izohiga ishora qilinishi edi. Demak, *chavdari* misolida uch tarjima orasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri filologik vorislik zanjiri kuzatililishini guvoxi bo‘lamiz.

5. Uch tarjimon strategiyalarining qiyosi. To‘qqizta unvon bo‘yicha to‘plangan dalillar uch tarjimon o‘rtasida barqaror, tizimli farqlarni ko‘rsatadi. U.Tekston (1996) eng so‘nggi tarjima – saroy-xizmat unvonlarining aksariyatida *kitobdor, bakavul,*

[1] Beveridge A.S. Ko‘rsatilgan asar. – B.335.
[2] Thackston W.M. Ko‘rsatilgan asar.
[3] Leyden J., Erskine W. Ko‘rsatilgan asar. – B.227.
[4] Бобур З.М. Бобирнома. – 1960. – Б.76-77.
[5] Leyden J., Erskine W. Ko‘rsatilgan asar. – B.25.
[6] Leyden J., Erskine W. Ko‘rsatilgan asar. – B.19 (taxminiy).
[7] Бобур З.М. Бобирнома. – 1960. – Б.98.
[8] Beveridge A.S. Ko‘rsatilgan asar. – B.67.
[9] Thackston W.M. Ko‘rsatilgan asar. – p.75.
[10] Leyden J., Erskine W. Ko‘rsatilgan asar. – B.43.
[11] Бобур З.М. Бобирнома. – 1960. – Б.273.
[12] Beveridge A.S. Ko‘rsatilgan asar. – B.181.
[13] Thackston W.M. Ko‘rsatilgan asar.
[14] Leyden J., Erskine W. Ko‘rsatilgan asar. – B.228.
[15] Бобур З.М. Бобирнома. – 1960. – Б.292.
[16] Beveridge A.S. Ko‘rsatilgan asar. – B.383.
[17] Thackston W.M. Ko‘rsatilgan asar. – 227-izoh.
[18] Leyden J., Erskine W. Ko‘rsatilgan asar. – B.256.

suvchi, sharbatchi, xizonachi tarjima transliteratsiyasini ustuvor strategiya sifatida qo‘llaydi, ko‘p hollarda qo‘shimcha izohsiz, albatta. S.Beverij (1922) esa aksincha, funksional-domestikatsiya yoki tavsiflovchi ekvivalentga moyil *oftobachi→ewer-bearer, bakavul→the Taster, xizonachi→the Treasurer, sharbatchi→the sherbet-server* tarzida bersa, biroq bu tanlovni deyarli har doim ham keng ilmiy matnosti izohlar bilan to‘ldiradi.

P.Nyumark ta’kidlagan “unfindable word” muammosiga tarjimonning ilmiy-filologik javobi shunday ko‘rinishda namoyon bo‘ladi[1]ki, Leyden–Erskin (1826) eng dastlabki tarjima kutilganidan farqli o‘laroq, na eng ko‘p transliteratsiya, na eng ko‘p domestikatsiyaga moyilligini ko‘rsatadi*: kitobdor, suvchi, sharbatchi va xizonachi* kabi to‘rtta holatda u ikkala strategiyani bitta birlikka “*Kitabdar* (the Librarian)”, “*Suchi...* waterman”, “*Sherbetji* (the Cup-bearer)”, *“Khizanchi* (the Treasurer)” tarzida berishi birlashtirgan mustaqil startegiyasi tarjimada uchinchi yechim taklifini beradi.

Uch kichik toifa bo‘yicha ham farqlar mavjud: shaxsiy xizmat mansablarida *oftobachi, bakavul, kitobdor, suvchi, sharbatchi* eng katta strategik tarqoqlik kuzatildi; moliyaviy-ma’muriy mansablarda (muhrdor) uch tarjimon konsensusi kuzatildi, biroq xizonachi holatida bu konsensus buzilganini kordik; mahalliy-hududiy unvon *chavdari* esa yagona holat bo‘lib, unda har uchala tarjimon transliteratsiya yolini tanlaganini ko‘ramiz.

Tekshirilgan to‘qqizta unvondan sakkiztasi Sh.Rahmatullayev mezoni bo‘yicha istorizm maqomiga ega ekani aniqlandi. Bu ularning zamonaviy o‘zbek tilida sinonimsiz ekanligidan dalolat beradi.

Uch tarjimonning strategik tarjima usullari tasniflandi: U.Tekston transliteratsiyaga, S.Beverij ilmiy izoh (satr osti) bilan qo‘shib boriladigan funksional ekvivalentini ta’minlashga, Leyden–Erskin esa har ikkala strategiyani birlashtiruvchi sintezga moyil ekanligi kuzatildi.

Shuningdek, guruh ichidagi uch kichik toifa o‘zaro farqlanishi ko‘rsatildi: shaxsiy xizmat mansablarida strategik tarqoqlik eng yuqori, moliyaviy-ma’muriy mansablarda qisman konsensus, mahalliy-hududiy unvonda esa to‘liq konsensus kuzatilganini ko‘ramiz.

Bu natijalar tarjima strategiyasi tanlovi tarjima yiliga emas, balki har bir tarjimonning shaxsiy filologik yondashuviga bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. *Eshik/eshik og‘a* unvoni bo‘yicha S.Beverij va U.Tekston tarjimalaridagi bo‘shliq, shuningdek 1960 va 2002-yilgi nashrlar o‘rtasidagi sahifama-sahifa moslik keyingi tadqiqotlar uchun ochiq vazifa bo‘lib qoladi.

Rezyume. Maqolada “Boburnoma”dagi saroy-ma’muriy xizmat unvonlari (*oftobachi, bakavul, kitobdor, suvchi, sharbatchi, eshik og’a, muhrdor, xizonachi, chavdari*) yaxlit leksik-semantik guruh sifatida o‘rganiladi. Ularning Leyden–Erskin (1826), Beverij (1922) va Tekston (1996) tarjimalaridagi berilish strategiyalari qiyoslanadi: barqaror farq aniqlanadi – Tekston ko‘pincha transliteratsiyani afzal ko‘radi, Beverij ilmiy izoh bilan qo‘shib boriladigan funksional ekvivalentga moyil, Leyden–Erskin esa ko‘pincha bu ikki strategiyani birlashtirib sintezlovchi yechim taklif etadi. Guruh ichidagi uch kichik tur – shaxsiy xizmat, moliyaviy-ma’muriy va mahalliy-hududiy mansablar – bo‘yicha alohida tendensiyalar aniqlangan.

Resume. The article studies the court-administrative service titles from “Baburnama” *oftobachi, bakavul, kitobdor, suvchi, sharbatchi, eshik agha, muhrdor, khizanachi, chaudhari* as a coherent lexical-semantic group. The rendering strategies across the Leyden–Erskine (1826), S.Beveridge (1922), and Wh. Thackston (1996) translations are compared, revealing a consistent divergence: Wh. Thackston favors transliteration, S.Beveridge prefers a functional equivalent supported by scholarly commentary, while Leyden–Erskine frequently offers a synthesizing solution. Distinct tendencies emerge across the group’s three sub-categories, personal service, financial-administrative, and local-territorial titles.

Резюме. В статье рассматриваются придворно-административные служебные титулы «Бабур-наме» (офтобачи, бакавул, китобдор, сувчи, шарбатчи, эшик ога, мухрдор, хизоначи, чавдари) как единая лексико-семантическая группа. Сопоставлены стратегии их передачи в переводах Лейдена–Эрскина (1826), Бевереджа (1922) и Такстона (1996): выявлено устойчивое различие – Такстон чаще сохраняет транслитерацию, Бевередж предпочитает функциональный эквивалент с научным комментарием, а Лейден–Эрскин нередко предлагает синтезирующее решение. Внутри группы обнаружены отдельные тенденции по трём подкатегориям – личная служба, финансово-административные и местно-территориальные должности.

[1] Newmark P. Ko‘rsatilgan asar. – P.176-178.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 9
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

THEORETICAL FOUNDATIONS FOR THE CLASSIFICATION OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN ENGLISH

Mustafayev Elyor Odil ugli,
Independent Researcher at Andijan State Institute of Foreign Languages

Phraseology is a field of linguistics that studies semantically and structurally complex units occupying a distinctive place in the lexical system of a language. One of the essential characteristics of phraseological units is that, although they consist of two or more components, they are often reproduced in speech as ready-made expressions and convey a certain degree of semantic integrity. Therefore, distinguishing phraseological units from free word combinations and classifying them into particular groups remains one of the fundamental issues in the theory of phraseology. In English linguistics, the use of such terms as *idiom, fixed expression, set expression, phraseological unit, multi-word expression,* and *collocation* further complicates the problem of defining the boundaries of this linguistic phenomenon. Since different linguistic schools employ different approaches to the study of phraseological units, no single unified theory of phraseology has yet been established. While some approaches regard semantic motivation as the principal criterion, others give priority to structural-grammatical organization, functional properties, stability, or contextual use. According to L. Vilkaitė, although linguists investigate essentially the same phenomenon, they approach and define it from different perspectives, and different terms are frequently used interchangeably.[1]

The heterogeneous nature of phraseological units further complicates their classification. Z. Kövecses characterizes the linguistic expressions commonly grouped under the category of idioms as a "mixed bag", encompassing metaphorical expressions such as *spill the beans*, metonymic expressions such as *throw up one's hands*, pairs of words such as *cats and dogs*, idioms with "it" such as *live it up,* similes such as *as easy as pie,* and proverbs such as *a bird in the hand is worth two in the bush.*[2] This diversity demonstrates that phraseological expressions do not constitute a structurally or semantically homogeneous category and, therefore, cannot always be adequately classified according to a single criterion.

Semantic transparency is particularly important in the study of phraseological units. For example, the meaning of the English phraseological unit *spill the beans*, meaning "to reveal a secret," cannot be derived from the literal meanings of its individual components, spill and beans. By contrast, in a combination such as take a risk, the components retain a relatively high degree of semantic independence. Thus, phraseological units vary in their degree of idiomaticity, and this gradation constitutes an important criterion for their classification.

R. Moon's corpus-based research demonstrates that phraseological units cannot be regarded as completely invariable expressions. Drawing on authentic texts and corpus data, Moon examines fixed expressions and idioms in terms of their form, frequency, variation, and discourse functions, thereby demonstrating the interrelationship between their structural properties and actual usage.[3]

The study aims to provide a comparative examination of the major approaches to the classification of English phraseological units, identify the criteria underlying these classifications, and develop an integrative classification framework for their comprehensive description. The study employs descriptive, comparative-typological, structural-semantic, and componential methods of analysis. The major theoretical approaches to English phraseology are compared to identify the criteria underlying different classification systems. Particular attention is paid to corpus-based approaches and their contribution to contemporary phraseological classification.

The research material consists of English phraseological units with diverse structure, meaning and semantic type, such as *spill the beans, kick the bucket, break the ice, give someone a hand, keep an eye on, take a risk, make up one's mind, red tape, by and*

[1] Vilkaitė L. Formulaic language is not all the same: comparing the frequency of idiomatic phrases, collocations, lexical bundles, and phrasal verbs // Taikomoji kalbotyra. – 2016. – No. 8. – P. 29.
[2] Kövecses Z. Metaphor: A Practical Introduction. – 2nd ed. – Oxford: Oxford University Press, 2010. – P. 231.
3 Moon R. Fixed Expressions and Idioms in English: A Corpus-Based Approach. – Oxford: Clarendon Press, 1998. – P. 120–124.

large, once in a blue moon and others.

The material was selected according to the following criteria: semantic integrity, degree of motivation, grammatical structure, and reproduction as ready-made units of language.

Methodologically, the classifications are compared according to four principal criteria: (1) the semantic criterion, which concerns the extent to which phraseological meaning can be derived from the meanings of the individual components; (2) the structural-grammatical criterion, which concerns the syntactic pattern and dominant component of a phraseological unit; (3) the functional criterion, which determines the nominative or communicative function performed by the unit in speech; and (4) the corpus-contextual criterion, which considers the stability, variability, and functional characteristics of phraseological units in actual discourse. This multidimensional approach makes it possible to determine which aspect of a phraseological unit is captured by each classification rather than treating any single criterion as universally dominant.

The Semantic Principle of Classifying Phraseological Units

Throughout the development of phraseological theory, the semantic principle has occupied a central position in the classification of phraseological units. Ch. Bally made a significant contribution to the study of phraseological combinations by considering their degree of stability and semantic cohesion[1]. Building on the semantic principle, V.V. Vinogradov classified phraseological units according to their degree of semantic motivation into **phraseological fusions, phraseological unities,** and **phraseological combinations**[2]. When Vinogradov's classification is applied to English phraseology, semantic differences among phraseological units become particularly evident. For example, the meaning "to die" expressed by *kick the bucket* cannot be derived from the literal meanings of "kick" and "bucket". Consequently, the expression exhibits a high degree of idiomaticity. By contrast, *break the ice,* meaning "to overcome initial social awkwardness and facilitate communication," retains a certain degree of figurative motivation, since a metaphorical relationship can be established between breaking physical ice and removing a communicative barrier. In *take a risk*, the overall meaning remains relatively transparent despite restrictions on lexical combinability. Thus, the continuum between compositionality and idiomaticity constitutes an important parameter in the semantic classification of phraseological units.

Structural-Grammatical Classification

Whereas semantic classification focuses on the formation and motivation of phraseological meaning, structural classification examines the grammatical organization of phraseological units. From a structural perspective, English phraseological units can be classified according to their dominant component and syntactic pattern. One of the most common patterns is V + N/NP, as in spill the beans, where the verb functions as the grammatical centre of the construction.

The idiom *break the ice* follows the V + Det + N pattern, consisting of the verb *break* followed by the noun phrase *the ice*, in which the functions as the determiner and *ice* as the nominal head.

The V + PP pattern is exemplified by *come to terms*, in which the verb is followed by a prepositional phrase. Another structural type is the binomial construction, in which two components are linked by a coordinating conjunction, as in *by and large*. English phraseology also includes nominal patterns such as Adj + N *(red tape)* and prepositional patterns such as Prep + NP *(in hot water)*. Structural classification therefore focuses primarily on the grammatical organization and dominant component of a phraseological unit.

The classification type is highly important in distinguishing the so-called verbal phraseological units: *lose one's head, keep an eye on somebody, give someone a hand, and make up one's mind.* In these units, the verbal component is the grammatical center and underlies the basic syntactic framework of the whole formation. The overall phraseological meaning cannot be explained solely by the semantics of the verbal component; it stems from the semantic relations of all constituent parts of the phraseological formation as the unit of both structural and semantic nature.

Moon examines the lexical and grammatical structures of fixed expressions in English and demonstrates a close relationship between their lexico-grammatical form and degree of stability. A substantial part of her monograph is devoted specifically to the lexico-grammatical characteristics of fixed expressions and idioms.

The Degree of Idiomaticity in Ch. Fernando's Classification

The classification developed by Ch. Fernando occupies an important position in English phraseology. Fernando classifies idioms according to their degree

[1] Bally Ch. Traité de stylistique française. – Heidelberg: Carl Winter, 1909.

[2] Виноградов В.В. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке // Избранные труды. Лексикология и лексикография. – М.: Наука, 1977. – С. 143.

of semantic transparency and idiomaticity into **pure idioms, semi-idioms,** and **literal idioms**.[1]

In **pure idioms**, the lexical meanings of the individual components do not provide sufficient clues to the phraseological meaning of the expression as a whole. For example, *spill the beans*, meaning 'to reveal a secret', is a pure idiom because its overall meaning cannot be derived from the literal meanings of "spill" and "beans". Thus, the expression exhibits a high degree of idiomaticity.

In **semi-idioms**, at least one component retains its literal meaning, while another acquires a specialized or figurative meaning within the expression. Consequently, semi-idioms are semantically more transparent than pure idioms, although their overall meanings are not entirely predictable from the meanings of their individual components.

Literal idioms, by contrast, are relatively transparent expressions whose overall meanings can largely be understood from the literal meanings of their components. Nevertheless, such expressions are conventionalized and exhibit a certain degree of lexical and structural stability. Fernando's classification is particularly significant because it presents idiomaticity as a gradable phenomenon rather than as a simple binary distinction between idiomatic and non-idiomatic expressions.

A.V. Kunin's Functional Approach

Kunin pays particular attention to the classification of phraseological units according to their nominative and communicative functions[2]. From a functional perspective, phraseological units may be classified as nominative, nominative-communicative, interjectional-modal, and communicative units. This approach demonstrates that phraseological classification cannot be restricted solely to the question of how phraseological meaning is formed. An equally important consideration is the function that a phraseological unit performs in speech.

R. Moon and the Corpus-Contextual Approach

Moon's corpus-based approach significantly expands traditional views of phraseological stability by examining fixed expressions and idioms in authentic language use. Her analysis considers their frequency, lexico-grammatical form, variation, semantic properties, metaphorical motivation, and discourse functions.

By making use of corpora, she has tried to discover the frequency, lexical-grammatical forms, variations, semantic polyvalence, metaphorical motivation and discourse use of phraseological units.

This has led to an important reconsideration of the concept of stability, which occupies a central position in traditional phraseology. According to Moon's corpus-based findings, approximately 40% of the phraseological units in her database exhibited lexical variation or institutionalized transformations, while approximately 14% had two or more variants of their canonical forms. These findings suggest that treating phraseological units as completely invariable is methodologically restrictive. Rather, a phraseological unit may undergo contextual variation while retaining its essential structural and semantic core.

The analysis demonstrates that English phraseological units cannot be adequately classified according to a single criterion, since their semantic, structural, functional, and contextual properties are closely interrelated.

This is due to the inherent coexistence of all semantic, lexical, grammatical, functional and discourse-related factors in a phraseological unit. For instance, *break the ice* can be structurally classified as a V + Det + N construction; however, this structural description does not account for its figurative motivation. From a semantic perspective, the expression can also be analysed in terms of its figurative motivation. Although semantic analysis can explain the development of its idiomatic meaning, it does not fully account for its grammatical function or discourse-specific use. Similarly, *keep an eye on somebody* can be classified based on its lexical-grammatical structure as a verbal phraseological unit. From a cognitive-semantic perspective, the component *eye* participates in a metonymically motivated conceptualization in which the organ of vision stands for the activity of watching or monitoring.

Thus, a single phraseological unit may encompass a set of several classification parameters.

Moon's research also demonstrates that phraseological stability should be regarded as a relative rather than an absolute property. Since a great percentage of phraseological items appear in forms containing variation, phraseological units may no longer be considered "unchangeable ready-made formulas". Moreover, the selection and use of phraseological units are closely related to discourse and to the relationship between the speaker or writer and the addressee.

Based on the comparative analysis, the study proposes *a four-stage* integrative model for classifying English phraseological units:

Stage I. Structural Identification: This step involves determining the grammatical construction of the phraseological unit (e.g. V + N, V + NP, Adj + N,

[1] Fernando Ch. Idioms and Idiomaticity. – Oxford: Oxford University Press, 1996. – P. 35–37.

[2] Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – 2-е изд., перераб. – М.: Высшая школа, 1996. – 381 с.

Prep + N etc.).

Stage II. Semantic Motivation: At this stage, the degree to which the overall meaning of the phraseological unit can be attributed to that of its constituents is determined: transparency, partial motivation, full idiomaticity can be arranged on a cline.

Stage III. Functional Description: here the nominating, communicative, evaluating, modal etc. function of the units is determined.

Stage IV. Contextual and Corpus-Based Analysis: it is at this stage the frequency, variation, transformation and use of a given phraseological unit in actual discourse are examined.

The advantages of such an integrative approach are: it unites the traditional classification criteria on the basis of semantics and structure with that based on corpora. Currently, there is also a growing interest in describing phraseological units through the interplay between their structural and semantic characteristics. In this sense, it seems justified to treat classification not as a process of assigning phraseological units to disparate categories, but rather as a task of specifying the relations among their form, meaning, function, and context.

The development of the theory of phraseological classification in English shows a gradual shift from classifications based predominantly on a single criterion towards multidimensional models that describe phraseological units in terms of several interrelated parameters. While semantic cohesion and the degree of motivation occupy central positions in the traditions associated with Ch. Bally and V.V. Vinogradov, A.I. Smirnitsky developed a structural-semantic approach in which the organization of phraseological units is considered in relation to the number and semantic significance of their constituent elements. He distinguished between one-summit phraseological units, containing one semantically significant constituent, and two-summit or multi-summit units, containing two or more such constituents. His approach thus demonstrates the relationship between the structural organization of a phraseological unit and the semantic status of its components[1]. A.V. Kunin, in turn, placed greater emphasis on the functional properties of phraseological units, particularly their nominative and communicative functions. Ch. Fernando systematized the gradational nature of idiomaticity, whereas R. Moon demonstrated the relationship between phraseological stability, variation, and discourse use through corpus-based analysis. Taken together, these approaches illustrate the gradual development of phraseological classification from relatively single-criterion models towards a more comprehensive and multidimensional understanding of phraseological units.

The findings of the study lead to several conclusions. First, although semantic integrity and motivation are fundamental characteristics of phraseological units, neither criterion alone provides a sufficient basis for their comprehensive classification. Second, structural-grammatical classification adequately describes the formal organization of phraseological units but does not fully account for their degree of idiomaticity. Third, functional classification extends the analysis by considering the roles that phraseological units perform in speech. Finally, corpus-based analysis demonstrates that phraseological units are neither completely static nor absolutely fixed but may exhibit considerable variation in actual language use.

Consequently, an integrative framework combining semantic, structural, functional, and corpus-based characteristics is required for the classification of English phraseological units. This model makes it possible to describe a phraseological unit not merely as a fixed linguistic expression but as a multidimensional linguistic phenomenon characterized by structural and semantic properties, specific communicative functions, and the potential for contextual variation.

Rezyume. Ushbu maqolada ingliz tilidagi frazeologik birliklarni tasniflashning asosiy nazariy yondashuvlari tahlil qilingan. Tadqiqotda frazeologik birliklarning semantik, struktur-grammatik, funksional va korpusga asoslangan tasniflari qiyosiy jihatdan ko‘rib chiqilgan. Turli tasnif mezonlarining o‘ziga xos xususiyatlari aniqlanib, frazeologik birliklarning murakkab tabiatini tavsiflashda ularni o‘zaro uyg‘un holda qo‘llash zarurligi asoslangan. Tadqiqot natijasida ingliz tilidagi frazeologik birliklarni tasniflashning integrativ modeli taklif etilgan.

Resume. This article examines the major theoretical approaches to the classification of phraseological units in English. Semantic, structural-grammatical, functional, and corpus-based classifications of phraseological units are comparatively analyzed. The study identifies the specific features of different classification

[1] Смирницкий А. И. Лексикология английского языка. – Москва: Издательство литературы на иностранных языках, 1956. – С. 212.

criteria and demonstrates the need to integrate them in order to describe the complex nature of phraseological units. As a result, an integrative model for the classification of English phraseological units is proposed.

Резюме. В данной статье рассматриваются основные теоретические подходы к классификации фразеологических единиц английского языка. В исследовании проводится сравнительный анализ семантической, структурно-грамматической, функциональной и корпусной классификаций фразеологических единиц. Выявляются особенности различных критериев классификации и обосновывается необходимость их комплексного применения для описания сложной природы фразеологических единиц. В результате исследования предлагается интегративная модель классификации фразеологических единиц английского языка.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 9
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

"O'ZBEK TILINING IZOHLI LUG'ATI"DA QUROL-ASLAHA NOMI BILAN BOG'LIQ FOLKLORIZMLAR

Tursunova Dilshoda Xoldin qizi,
Samarqand davlat pedagogika instituti,
o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi

Respublikamiz mustaqillikka erishib, milliy qadriyatlarimiz, tarixiy an'analarimiz va umrboqiy udumlarimizni qayta tiklash va ommalashtirish imkoni tug'ilgan bir paytda folklorga xos so'zlarning lug'aviy boyligini jadal suratda to'plash va o'rganish yanada dolzarb vazifaga aylandi. Bunday chora-tadbirlar umumadabiy o'zbek tilining lug'aviy boyligini yanada to'ldirish uchun xizmat qiladi.

Folklorizm – yozma adabiyotda qo'llangan og'zaki poetik ijod materiali. Ilmiy adabiyotlarda folklorizm "ikkinchi shakl" atamasi bilan ham yuritiladi. Yozma adabiyotda qo'llangan muallif yoki personaj nutqida qo'llangan xalq maqollari, maqol hamda iboralar oddiy folklorizm sanaladi. Ijodkorning folklorga xos tasvir uslubiga ergashishi, folklor materialidan o'z asarida foydalanishi, folklorga mansub syujet yoki motivni asariga olib kirishi va boshqalar murakkab folklorizm hisoblanadi.[1]

"O'zbek tilining izohli lug'ati"dagi folklorizmlarning tarixiy qimmatini yana ham chuqurroq anglashda, ular mansub bo'lgan leksik-tematik guruhlarni aniqlash muhimdir. Chunki folklorizmlarning ko'pchiligi o'zining mavzuviy doirasiga ko'ra tarixiy ahamiyat kasb etadi. Shu bois quyida "O'zbek tilining izohli lug'ati"da berilgan qurol-aslaha nomi bilan bog'liq folklorizmlarning semantikasi xususida imkon qadar batafsilroq to'xtalib o'tamiz.

Tahlil qilinayotgan birliklarning semantik maydoni muhim. Ularning katta qismi qurol-aslaha, jang, himoya vositasi va harbiy anjomlarga aloqador. Bu holat tasodifiy emas: o'zbek dostonlarida qahramonlik, jang, lashkar, ot-ulov va harbiy marosimlar tasviri katta o'rin egallaydi. Natijada tarixiy harbiy leksika folklor tilida uzoq vaqt saqlanib, keyinchalik umumadabiy til uchun arxaik yoki folklor belgili birlikka aylangan. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ayrim birliklarning *"folk."* belgisi bilan berilishi ularning hozirgi til tizimidagi uslubiy maqomini ko'rsatadi. Masalan, **yov-yaroq** "qurol-aslaha, qurollar" ma'nosida, **jeva** "qurol-aslaha" ma'nosida, **choroyna** esa "to'rt parcha", "yassi temirdan yasaladigan himoya moslamasi" sifatida qayd etilgan. Bu lug'aviy tavsiflar folklorizmlarning semantik maydonini belgilash uchun asos bo'la oladi.

[1] Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Ф ҳарфи. – Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" давлат илмий нашриёти. 2000-2005. – 197 б.

GIRISH *folk.* Yoyning o‘qni qadab otadigan ipi. *Qaramtadan o‘n to‘rt dona o‘q oldi, Yoyning girishiga o‘qini soldi.* “Murodxon”. *Shu yoyni har kimsa ko‘tarib tursa, Girishin to‘g‘rilab nishonga ursa..* “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi”.[1]

Girish o‘zbek folklor tilidagi tarixiy qurol-yarog‘ terminologiyasining muhim birliklaridan biridir. Folklor matnlarida u yoyning tortiladigan qismi, ya’ni yoy tori bilan bog‘liq holda ishlatiladi. Ayrim matn izohlarida *“yoyning girishi – yoyning tortiladigan qismi”* tarzida sharhlangan. Bu birlik “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” kabi doston matnlarida ham uchraydi. Demak, girishning folklor bilan bog‘liqligi faqat lug‘atdagi belgi bilan emas, uning epik matndagi real qo‘llanishi bilan ham tasdiqlanadi.

YOV-YAROQ *folk.* Qurol-aslaha, qurollar. *Uzoqdan yov-yaroq taqqan kishilarning qorasi ko‘rinib qoldi.* “Yodgor”. *Yov-yaroqni, ot-anjomni shaylanglar, Imtihon kun xonga qo‘ying darakni.* “Yusuf va Ahmad”.[2]

Yov-yaroq O‘TILda folklor belgisi bilan *“qurol-aslaha, qurollar”* ma’nosida berilgan va “Yusuf va Ahmad” dostonidan misol keltiriladi. Birlikning ichki tuzilishi uning etimologik motivatsiyasini nisbatan ochiq ko‘rsatadi: yov va yaroq komponentlari tarixiy jihatdan turkiy leksik qatlam bilan bog‘liq. “Yov” qadimgi turkiy va o‘zbek tilida *dushman, g‘anim* ma’nolarini anglatgan; “yaroq” esa *qurol, harbiy asbob* ma’nosida ixtisoslashgan. Yaroq leksemasining tarixiy taraqqiyotida “yara-” fe’li bilan aloqadorligi haqidagi talqinlar uchraydi. “Yaroq”ning dastlabki semantik doirasi “mos, kerakli narsa” atrofida bo‘lgan bo‘lishi, keyinchalik harbiy ehtiyoj uchun zarur buyum – qurol ma’nosiga ixtisoslashgan bo‘lishi mumkin. Shu nuqtai nazardan yov-yaroq ikki komponentning oddiy yig‘indisi emas, balki epik til an’anasida *“dushmanga qarshi ishlatiladigan qurol-aslaha”* tushunchasini ifodalovchi tayyor birlikdir. Folklor matnlarida yov-yaroqning ot-anjom, lashkar, jang va safar bilan bir qatorda kelishi uning semantik maydonini belgilaydi. U qahramonning jangovar tayyorgarligini ifodalovchi poetik vositaga aylanadi.

JAZOYIL *folk.* Miltiqning bir turi; kichik to‘p, zambarak. *Og‘zi katta jazoyillar otildi maydon ichinda.* “Erali va Sherali”. *Shoh kelguncha ochilmaydi darvoza, Zulm qilsang, jazoyildan otaman.* “Rustam”.[3]

Jazoyil o‘zbek izohli lug‘atida folklor belgisi bilan *“miltiqning bir turi; kichik to‘p, zambarak”* tarzida izohlanadi. “Rustam” hamda “Erali va Sherali” dostonlaridan keltirilgan misollar bu leksemaning epik harbiy leksikadagi faoliyatini ko‘rsatadi. Jahon lug‘atchiligida **jezail/jazail** shakllari *uzoq stvolli, og‘ir miltiq* sifatida qayd etiladi. Tarixiy manbalarda **jazā’il** shakli arabcha **jazīl** *“katta, yirik, yo‘g‘on”* sifatining ko‘plik shakli bo‘lishi ehtimoli ko‘rsatiladi. Bu etimologik talqinga ko‘ra qurol nomi uning yirik, og‘ir yoki katta stvolli xususiyati asosida nomlangan. Boshqa manbalarda esa jezailning *forscha* **jazā’il/ jazā’ir** shakli orqali tarqalganligi ko‘rsatiladi. Shuning uchun o‘zbek jazoyilini “arab-fors harbiy leksikasi orqali tarqalgan tarixiy o‘zlashma” deb tavsiflash ilmiy jihatdan asoslidir. Inglizcha **jezail** haqidagi lug‘at ma’lumotlari ham uning forscha **jazā’il** orqali kirganini ko‘rsatadi. O‘zbek folklorida jazoyilning semantik doirasi kengaygan: miltiq turi bilan birga kichik to‘p va zambarak ma’nolari ham yuzaga kelgan. Bu semantik kengayish folklor matnlarining real tarixiy qurol tizimini aniq terminologik tarzda emas, balki badiiy va epik tasvir talablariga mos ravishda ifodalashi bilan izohlanadi. Natijada jazoyil tarixiy qurol nomidan poetik jang atributiga aylangan.

JEVA *folk.* Qurol-aslaha.[4]

Jeva O‘TILda *“folk. Qurol-aslaha”* deb beriladi. Jevaxona va jevachi kabi hosilalari ham folklor leksikasida uchraydi. Bu derivativ qator jevaning tarixiy harbiy leksikadagi markaziy birliklardan biri bo‘lganini ko‘rsatadi. *“Jevaxona”*ning qurol-aslaha saqlanadigan joy, *“jevachi”*ning esa shu soha bilan bog‘liq shaxsni anglatishi jeva asosining semantik barqarorligini tasdiqlaydi.

KALTAK *3 folk.* To‘qmoq, cho‘qmor; gurzi. To‘qson botmon cho‘yan kaltak qo‘limda. “Shirin bilan Shakar”. Ko‘kaldoshning taqimida besh yuz botmon kaltagi. “Alpomish”.[5]

Kaltak umumxalq tilida *tayoq* yoki *urish vositasini* anglatadi. O‘TILda folklor ma’nosida “to‘qmoq, cho‘qmor, gurzi” tarzida beriladi va “Shirin bilan Shakar” dostonidan misol keltiriladi. Bu holat bir leksemaning oddiy predmet nomidan maxsus tarixiy qurol nomiga semantik ixtisoslashuvini ko‘rsatadi. Kaltakning etimologik asosini turkiy qatlamdan izlash tabiiy. Uning asosiy semantik komponenti urish harakati bilan bog‘langan: qo‘lga olinadigan yog‘och predmet → urish vositasi → og‘ir jang quroli. Folklor tilida bu ma’no kuchayib, cho‘qmor yoki gurzi kabi jangovar qurol nomlariga yaqinlashgan. Bu birlikda o‘zlashuvdan ko‘ra ichki semantik taraqqiyot muhim. Shuning uchun kaltakni etimologik jihatdan “turkiy asosli, folklorda arxaik qurol ma’nosida saqlangan leksema” sifatida tavsiflash mumkin. Bunday birliklar folklor

[1] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I том. – Тошкент:Ўзбекистон нашриёти, 2020. – 506 б.
[2] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II том. – Тошкент:Ўзбекистон нашриёти, 2020. – 25 б.
[3] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II том. – Тошкент:Ўзбекистон нашриёти, 2020. – 66 б.
[4] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II том. – Тошкент:Ўзбекистон нашриёти, 2020. – 79 б.
[5] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II том. – Тошкент:Ўзбекистон нашриёти, 2020. – 302 б.

leksikasining eng muhim xususiyatlaridan biri – qadimgi ma'noning badiiy matnga ko'chishini ko'rsatadi.

OBDOR [f. – suvli, suvi ko'p; jilo berilgan] *3 folk. Suv berilgan, yaxshi toblangan, o'tkir (qilich, pichoq va sh.k. haqida). Qosimxon shohning achchig'i kelib, har tuki obdorday bo'lib, qiziga bir so'z dedi.* "Zulfizar bilan Avazxon". *Har bir tukim bir xanjari obdor bo'ldi.* A. Qodiriy, Kichik asarlar. [1]

Obdor fors-tojik tilidagi ābdār bilan bog'liq. Fors tilida āb "suv" va **-dār** "ega bo'lgan" komponentlaridan tarkib topgan ābdār *"suvli, shirali"* ma'nosidan tashqari *yaltiroq, jiloli, ayniqsa qilich kabi metall buyumlar* haqida qo'llanishi qayd etiladi. O'zbek O'TILida esa folklor ma'nosi "suv berilgan, yaxshi toblangan, o'tkir" qurolga nisbatan ishlatiladi. Bu yerda metallni suvga solib toblash texnologiyasi bilan bog'liq haqiqiy hunarmandchilik tajribasi so'zning semantik ma'nosini kuchaytirgan.

PO'LAT [f. – juda qattiq kulrang metall] 2 *folk.* Qilich, shamshir. Olmos po'lat bog'lab men ham belimdan, Dev izlab chiqqanman o'sgan elimdan. "Malikayi ayyor". Po'lat bilan qirdi devni, keskir xanjarini urdi, yalang'ochlab qilich soldi. "Malikayi ayyor". [2]

Po'lat esa forscha **pūlād** "steel" shakli bilan bog'liq bo'lib, ilmiy etimologik adabiyotda uning forscha **pūlāwat/pōlāwad** shakllariga borib taqalishi ko'rsatiladi. Markaziy Osiyodagi turkiy tillarda *polat/bolat/pulat* kabi shakllarning tarqalishi mazkur o'zlashmaning tarixiy kengligini ko'rsatadi. O'zbek folklorida po'lat leksemasi faqat material nomi emas, balki "qilich, shamshir" kabi qurolning o'zi sifatida ham poetiklashadi. Natijada "po'lat" qahramonlik, kuch, jangovar salohiyat va mustahkamlik ramziga aylanadi.

CHOROYNA [to'rt oyna, ko'zgu: sovut; qurol-yarog'] folk. To'rt parcha yassi temirni biriktirib yasaladigan, zirhli kiyim ustidan ko'krak va yelkaga taqiladigan himoya moslamasi. Dubulg'a boshida, choroyna to'shida, xuddi yashin oqqanday bo'lib, beklar tizilib kelyapti. "Yusuf va Ahmad".[3]

Choroyna o'zbek folklorida jangchining ko'krak va yelkasini himoya qiladigan, *to'rt parcha yassi temirdan yasalgan himoya moslamasi*ni bildiradi. O'TILda "Yusuf va Ahmad" dostonidan misol bilan berilgan. Harbiy tarixga oid manbalarda **chahār āyina** nomi aynan **"four mirrors"** – *"to'rt oyna"* ma'nosida izohlanadi va to'rt metall plastinkali zirh turini bildiradi. Birlikning tarkibiy motivatsiyasi ancha shaffof: forscha chahār "to'rt" va āyina "oyna, ko'zgu". O'zbekdagi choroyna shakli fonetik va morfologik moslashuv natijasi sifatida qaraladi. Bunda "oyna" komponentining nomlashdagi motivi metall plastinkaning silliq, yaltiroq yuzasi hamda ko'krakni qoplovchi "oynadek" qattiq sirt bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Choroynaning tarixiy qurol-aslaha tizimidagi o'rni folklor matnlarida faqat predmet nomi sifatida emas, qahramonning jangovar qiyofasini yaratish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. *"Dubulg'a boshida, choroyna to'shida"* kabi parallel qurilishlar qurol-aslaha birliklarini poetik darajaga ko'taradi.

HARBA [nayza , sanchqi] folk. Nayza, qilich kabi jang qurollari. Odam ko'p-da, hamma o'rtaga olib, Har tarafdan har xil harbalar solib, Endi tushdi qilich olib g'azoga, Bek Go'ro'g'li qoldi endi qamalib. "Xushkeldi". **Harba qilmoq** folk. Hamla qilmoq. Holing bilmay, muncha sen harba qilding, Parilar sultoni, sen endi o'lding. "Bahrom va Gulandom". Bu bilan ajdahor harba qilmadi, Ajdahordan hech siyosat bo'lmadi. "Murodxon".[4]

Harba O'TILda folklor belgisi bilan *"nayza, qilich kabi jang qurollari"* ma'nosida berilgan. "Murodxon" va boshqa epik matnlardagi qo'llanishlar uning jangovar harakatni ifodalovchi "harba qilmoq" birikmasi bilan ham bog'liqligini ko'rsatadi. Ochiq lug'aviy manbalarda harba arabchadan o'zlashgan birlik sifatida ko'rsatiladi. **Arabcha** ḥarba *"nayza, sanchqi"* ma'nosini bildiradi. Arab tilidagi ḥarb "urush, jang" bilan semantik yaqinlik mavjud bo'lib, ḥarba shakli jangda ishlatiladigan qurol nomi sifatida shakllangan. O'zbek tilida u fonetik jihatdan deyarli o'z shaklini saqlagan holda folklor harbiy leksikasiga singgan. Harbaning semantik taraqqiyotida "nayza" konkret ma'nosidan "jang quroli" umumiy ma'nosiga kengayish kuzatiladi. O'zbek folklorida qilich, nayza va boshqa jang vositalarini umumlashtiruvchi poetik nom sifatida qo'llanishi uning semantik kengayganini ko'rsatadi.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"dagi folklorizmlarni semantik tahlil qilish va ularni ma'noviy guruhlarga bo'lish folklor asarlari tili va uslubini o'rganishda yangi qadamdir. Bu borada amalga oshiriladigan ishlar kelajakda lingvofolkloristika sohasidagi tadqiqotlar uchun ma'lum ma'noda ham nazariy, ham amaliy ta'minot bo'la oladi.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da qurol-aslaha nomi bilan bog'liq folklorizmlarni o'rganish o'zbek xalqining tarixiy-madaniy hayoti, harbiy an'analari, urf-odatlari va xalq og'zaki ijodining leksik tarkibini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijasida qurol-aslaha bilan bog'liq folklorizmlar oddiy predmet nomlari sifatida emas, balki xalqning tarixiy tajribasi va milliy-madaniy tafakkurini o'zida mujassamlashtir-

[1] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. III том. – Тошкент:Ўзбекистон нашриёти, 2020. – 71 б.
[2] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. III том. – Тошкент:Ўзбекистон нашриёти, 2020. – 328 б.
[3] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. IV том. – Тошкент:Ўзбекистон нашриёти, 2020. – 510 б.
[4] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. V том. – Тошкент:Ўзбекистон нашриёти, 2020. – 508 б.

gan til birliklari ekanligi aniqlandi.

Tahlil qilingan *jazoyil, nayza, qilich, gurzi, xanjar, sovut, choroyna, harba* kabi birliklarning semantik tarkibida ularning nominativ ma'nosi bilan bir qatorda tarixiy, folkloristik va uslubiy ma'no qatlamlari ham mavjud. Mazkur birliklarning ayrimlari hozirgi adabiy tilda faol qo'llanmasa-da, xalq dostonlari, ertaklar, afsona va rivoyatlar tilida, shuningdek, tarixiy mazmundagi badiiy asarlarda saqlanib qolgan. Shu jihatdan ular o'zbek tilining tarixiy va folklor leksikasini o'rganishda muhim manba vazifasini bajaradi.

Xulosa qilib aytganda, qurol-aslaha nomi bilan bog'liq folklorizmlar o'zbek tili leksik tarkibining tarixiy-madaniy jihatdan qimmatli qatlamlaridan biridir. Ularni leksik-semantik, etimologik, folkloristik va leksikografik jihatdan kompleks tadqiq etish o'zbek folklori tili, tarixiy leksikologiya, etnolingvistika hamda milliy leksikografiya taraqqiyotiga muhim ilmiy hissa qo'shadi.

Rezyume. Mazkur maqolada "O'zbek tilining izohli lug'ati"da qayd etilgan qurol-aslaha nomlari bilan bog'liq folklorizmlar lingvistik jihatdan tadqiq etiladi. Unda ushbu leksik birliklarning lug'aviy ma'nosi, kelib chiqishi, leksik-semantik va uslubiy xususiyatlari, shuningdek, o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalarida qo'llanishi tahlil qilinadi. Qurol-aslaha nomlari bilan bog'liq jazoyil, nayza, qilich, gurzi, xanjar, sovut, choroyna, harba kabi birliklarning folkloristik xususiyatlari hamda ularning milliy-madaniy mazmun ifodalash imkoniyatlariga alohida e'tibor qaratiladi. Shuningdek, mazkur folklorizmlarning "O'zbek tilining izohli lug'ati"da berilishi, izohlanishi va belgilanishi masalalari yoritiladi. Tadqiqot natijalari qurol-aslaha nomlari bilan bog'liq folklorizmlar o'zbek xalqining tarixiy-madaniy tajribasi, harbiy an'analari va folklor tasavvurini aks ettiruvchi muhim leksik qatlam ekanligini ko'rsatadi.

Rezyume. This article examines folklorisms related to the names of weapons and military equipment represented in the Explanatory Dictionary of the Uzbek Language. Particular attention is paid to the lexical-semantic, etymological, historical, and stylistic features of these lexical units, as well as their use in Uzbek folklore. The study analyzes such folklorisms as jazoyil, nayza, qilich, gurzi, xanjar, sovut, choroyna, and harba, which reflect various historical and cultural realities of the Uzbek people. The article also considers the ways in which these folklorisms are presented and explained in the Explanatory Dictionary of the Uzbek Language. Their role in preserving historical, cultural, and national information is highlighted. Some of the analyzed units demonstrate characteristics of historical words and archaisms and are mainly preserved in folklore texts, including epics, tales, legends, and narratives. The study demonstrates that folklorisms associated with weapon names constitute an important layer of the Uzbek lexical system. Their comprehensive study from lexical-semantic, etymological, folkloristic, and lexicographic perspectives contributes to a deeper understanding of the historical vocabulary of the Uzbek language, the language of folklore, and national lexicography.

Резюме. В статье рассматриваются фольклоризмы, связанные с названиями оружия и вооружения, представленные в "Толковом словаре узбекского языка". Особое внимание уделяется лексико-семантическим,этимологическим и стилистическим особенностям данных языковых единиц, их происхождению и функционированию в узбекском фольклорном дискурсе. Анализируются такие лексемы, как жазойил, найза, қилич, гурзи, ханжар, совут, чорайна, ҳарба и другие названия оружия и воинского снаряжения, отражающие историко-культурные реалии узбекского народа. Определяется специфика их лексикографического представления в толковом словаре, а также выявляется роль фольклоризмов в сохранении национально-культурной информации. В статье подчеркивается значение данных лексических единиц для изучения взаимосвязи языка, фольклора, истории и национальной культуры.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 9
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

TYPES OF ENGLISH SPEECH-LANGUAGE PATHOLOGY DICTIONARIES ACCORDING TO SEMANTIC RELATIONS

Yavkocheva Feruza Husan qizi,
Assistant teacher, Department of Languages, Asian University of Technology

Speech-language pathology, known in the post-Soviet scientific tradition as logopedics, has developed one of the most extensive special vocabularies in the applied language sciences. English is the working language of the discipline internationally: most diagnostic manuals, classifications, and assessment tools are first produced in English and only afterwards adapted to other languages. As a result, English speech-language pathology terminology has been recorded in a large number of dictionaries, glossaries, encyclopaedias, and classification documents. These reference works differ not only in size and purpose but, more importantly, in the kind of *meaning relation* that they place at the centre of the entry. Some of them explain what a term means; others show which terms mean the same; still others show how one term is subordinated to another or opposed to another. The present article examines English speech-language pathology dictionaries from this point of view and proposes a typology based on the semantic relations that organise them.

The theoretical basis for such a typology is provided by general terminology studies. V.M. Leychik describes a term system not as a list of words but as a network of concepts connected by logical relations – genus and species, whole and part, cause and effect[1]. A terminological dictionary is therefore always a partial model of this network, and the type of dictionary is determined by which relation it chooses to make visible. J.C. Sager formulates the same idea from the standpoint of terminology processing: the entry of a special dictionary records a concept, and the way the concept is linked to other concepts decides the architecture of the whole reference work[2]. S.V. Grinev-Grinevich, in turn, distinguishes explanatory, translation, ideographic, and frequency terminological dictionaries as the main lexicographic types[3].

Within Uzbek linguistics the semantic organisation of the lexicon has been examined by E. Begmatov[4] and Sh. Rahmatullayev[5], who describe synonymic, antonymic, and hyponymic series as the principal meaning relations of the literary language. Their observations, however, concern the general vocabulary; the special vocabulary of speech-language pathology, and especially its lexicographic representation, has not yet been studied in Uzbek linguistics. At the same time, Uzbek logopedics is now actively borrowing and translating English terminology, and the compilers of future Uzbek and English–Uzbek dictionaries of the field need a clear picture of what kinds of dictionaries already exist in the source language and on what semantic principles they are built.

The aim of the research is to classify English speech-language pathology dictionaries according to the semantic relation that dominates their entries and to describe the structural features of each type. The tasks of the study are: to identify the semantic relations relevant to speech-language pathology terminology; to examine a representative set of English dictionaries and glossaries of the field; to distinguish the types of dictionaries on the basis of the dominant relation; to establish which type is the most suitable model for a future English–Uzbek dictionary of the field.

The material of the study consists of seven English reference works that record speech-language pathology terminology and that are widely cited in clinical and academic literature: the specialised dictionary of L. Nicolosi, E. Harryman, and J. Kresheck[6]; the linguistic dictionary of D. Crystal,

[1] Лейчик В.М. Терминоведение: предмет, методы, структура. – М.: Либроком, 2009. – 256 с.
[2] Sager J.C. A Practical Course in Terminology Processing. – Amsterdam: John Benjamins, 1990. – 254 p.
[3] Гринев-Гриневич С.В. Терминоведение: учебное пособие. – М.: Академия, 2008. – 304 с.
[4] Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тили лексикаси. – Тошкент: Фан, 1985. – 200 б.
[5] Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. – Тошкент: Университет, 2006. – 464 б.
[6] Nicolosi L., Harryman E., Kresheck J. Terminology of Communication Disorders: Speech-Language-Hearing. 5th ed. – Baltimore: Lippincott Williams & Wilkins, 2004. – 448 p.

which contains the phonetic and phonological terms used in articulation therapy[1]; the encyclopaedia of communication disorders edited by R.D. Kent[2]; the section on disorders of communication in the eleventh revision of the International Classification of Diseases[3]; the assessment manual of K.G. Shipley and J.G. McAfee, which includes an extensive glossary[4]; the handbook on stuttering by O. Bloodstein and N. Bernstein Ratner[5]; and the online glossaries of the American Speech-Language-Hearing Association. From these sources 180 term entries were selected, covering the four main semantic fields of the discipline – fluency disorders, articulation and phonological disorders, voice disorders, and language disorders.

Each entry was analysed with the method of component and relational analysis. First, the definition of the headword was decomposed into its semantic components in order to establish the concept behind the term. Second, every explicit link between the headword and other terms in the entry – a synonym, a cross-reference, a hyperonym named in the definition, an opposite term – was recorded and classified as one of the following relations: term – concept (definition), term – term equivalence (synonymy), hyperonym – hyponym (hierarchy), term – opposite (antonymy), term – associated term (meronymy, cause – effect, instrument – function), and term – foreign equivalent (translation). Third, for every reference work the proportion of each relation across its entries was calculated, and the relation with the highest proportion was taken as the dominant one. The dominant relation was then used as the criterion for assigning the reference work to a dictionary type.

The method follows D.S. Lotte's principle that a term must be studied in its system and not in isolation[6]. It also allows the same dictionary to display secondary relations: an explanatory dictionary usually contains synonyms and cross-references, and an ideographic classification usually contains short definitions. The type is determined by the dominant relation, while the secondary relations are described as additional features of the type.

1. Explanatory dictionaries. The first and most numerous type is the explanatory or definitional dictionary, in which the dominant relation is term – concept. The classical example is the dictionary of Nicolosi, Harryman, and Kresheck, where each entry consists of a headword, a concise definition, and, where necessary, a usage note. The entry for *dysarthria* defines it as a group of speech disorders resulting from disturbances in muscular control of the speech mechanism; the entry for *cluttering* defines it as a fluency disorder characterised by rapid or irregular speech rate and reduced intelligibility. In our sample the term – concept relation accounts for 71 per cent of all links recorded in this dictionary; synonymy and cross-referencing together account for the remaining 29 per cent. The explanatory dictionary is the type most directly related to teaching: a student who does not know a term needs, first of all, its definition. Its weakness is that it presents the terminology alphabetically and thus hides the systemic relations between terms that belong to one clinical category.

2. Synonymic dictionaries. The second type is organised around the relation of term – term equivalence. Speech-language pathology terminology in English is rich in synonymy for historical reasons: the discipline developed in parallel in the United States and Britain, and it absorbed vocabulary from medicine, psychology, education, and linguistics. As a result many concepts have two or more names: *stuttering* and *stammering*; *speech-language pathologist*, *speech therapist*, and *speech and language therapist*; *articulation disorder* and *phonetic disorder*; *voice disorder* and *dysphonia*. Crystal's dictionary and the ASHA glossaries systematically record such synonyms and mark their register or regional distribution: *stammering* is marked as British, *dysphonia* as clinical, *speech therapist* as informal or historical. In these sources the equivalence relation makes up 46 per cent of all links, which is higher than the share of definitions. The synonymic dictionary is indispensable for translators, because the choice between synonyms in the target language depends on knowing which English synonym is neutral, which is technical, and which is obsolete. Uzbek sources, for instance, usually translate *stuttering* with the native word *duduqlanish* but leave the British *stammering* without a separate equivalent, which is correct only if the two English terms are recognised as full synonyms.

[1] Crystal D. A Dictionary of Linguistics and Phonetics. 6th ed. – Oxford: Blackwell Publishing, 2008. – 529 p.

[2] Kent R.D. (ed.) The MIT Encyclopedia of Communication Disorders. – Cambridge, MA: MIT Press, 2004. – 618 p.

[3] World Health Organization. International Classification of Diseases, 11th Revision (ICD-11): Disorders of Communication. – Geneva: WHO, 2022.

[4] Shipley K.G., McAfee J.G. Assessment in Speech-Language Pathology: A Resource Manual. 5th ed. – San Diego: Plural Publishing, 2016. – 620 p.

[5] Bloodstein O., Bernstein Ratner N. A Handbook on Stuttering. 6th ed. – New York: Delmar, 2008. – 552 p.

[6] Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии. – М.: Изд-во АН СССР, 1961. – 158 с.

3. Ideographic dictionaries. The third type is the ideographic or hierarchical dictionary, in which the dominant relation is hyperonym – hyponym. Here the terms are not arranged alphabetically but by concept, from the most general to the most specific. The clearest example is the ICD-11 classification of disorders of communication, where *developmental speech or language disorder* is divided into *developmental speech sound disorder*, *developmental speech fluency disorder*, and *developmental language disorder*, and the last is further divided according to whether receptive, expressive, or pragmatic language is impaired. The scope-of-practice documents of ASHA are built in the same way: *communication disorder* is the top node, *speech disorder* and *language disorder* are its immediate hyponyms, and *fluency disorder*, *voice disorder*, and *articulation disorder* are hyponyms of *speech disorder*. In these sources the hierarchical relation constitutes 63 per cent of all recorded links.

The ideographic dictionary is the type that most faithfully reflects the term system as understood by Leychik and Lotte. Its entries are short, because the position of a term in the hierarchy already conveys much of its meaning: a reader who sees that a term is placed under fluency disorders knows that it concerns the rhythm and flow of speech even before reading the definition. This type is especially valuable for languages that are still forming their terminology, because it shows exactly which concepts must receive a name and how the names should be related to one another. For Uzbek, whose speech-language pathology terminology has a number of gaps at the level of specific hyponyms, an ideographic model would make those gaps visible at once.

4. Antonymic dictionaries. The fourth type is based on the relation term – opposite term. Speech-language pathology terminology contains a considerable number of contrastive pairs, most of which are built with Greek and Latin prefixes: *hypernasality – hyponasality*; *hyperfunctional – hypofunctional dysphonia*; *expressive – receptive language disorder*; *fluent – non-fluent aphasia*; *developmental – acquired disorder*. No English dictionary of the field is antonymic in its entirety, but the encyclopaedia edited by Kent regularly presents such pairs within a single article and defines each member of the pair through its opposite. In that source the antonymic relation accounts for 18 per cent of links, which is the highest proportion among the works examined; in the others it does not exceed 8 per cent. The antonymic relation is therefore a secondary but stable organising principle, and it is particularly important for translation, since a pair such as *hypernasality – hyponasality* must be rendered by a pair that preserves the contrast. Uzbek clinical texts render the first member as *burun tovushi kuchayishi* and the second as *burun tovushi kamayishi*, which preserves the opposition by means of native verbal nouns rather than borrowed prefixes.

5. Associative dictionaries. The fifth type is the associative or encyclopaedic dictionary, in which the dominant relation is term – related term: part and whole, cause and effect, instrument and function, disorder and assessment procedure. The encyclopaedia of Kent and the assessment manual of Shipley and McAfee belong to this type. In the entry for *stuttering* the reader finds not only a definition but links to *repetition*, *prolongation*, and *block* as its components, to *secondary behaviours* as its consequences, and to *Stuttering Severity Instrument* as the tool for measuring it. The associative relation makes up 52 per cent of the links in these sources. Such dictionaries are the closest to the practical needs of the clinician, who works with a whole cluster of terms around one diagnosis. Their disadvantage is the size of the entries and the difficulty of extracting the strict definition of a term from the surrounding encyclopaedic material.

6. Translation dictionaries. The sixth type is organised around the relation term – foreign equivalent. Bilingual glossaries of speech-language pathology terminology exist for many language pairs, but for English–Uzbek they are so far represented only by short word-lists attached to translated manuals and clinical guidelines. Analysis of these lists shows that the translation relation is realised in four ways: full transliteration (*aphasia – afaziya*), hybrid formation (*speech therapy – logopedlik*), functional calque (*speech disorder – nutq nuqsoni*), and descriptive substitution (*prolongation – tovushni cho‘zib talaffuz qilish*). A translation dictionary that records only the equivalent, without indicating which of these correspondence types it represents, is of limited use, because the user cannot tell whether the Uzbek term is an established borrowing or a provisional description. A well-designed bilingual dictionary must therefore combine the translation relation with at least one of the relations described above, most naturally with the hierarchical one.

The six types identified above and their distinguishing features are summarised in Table 1.

Table 1. Types of English speech-language pathology dictionaries by dominant semantic relation

Dictionary type	Dominant semantic relation	Structure of the entry	Representative English source
Explanatory (definitional)	term – concept	headword + definition + usage note	Nicolosi, Harryman & Kresheck (2004)
Synonymic	term – term (equivalence)	headword + synonyms + register mark	Crystal (2008); ASHA glossaries
Ideographic (hierarchical)	hyperonym – hyponym	field → subfield → term tree	ICD-11 (2022); ASHA scope of practice
Antonymic (contrastive)	term – opposite term	paired entries with a shared base	Kent (2004)
Associative (encyclopaedic)	term – related term (meronymy, cause – effect)	headword + cross-references + article	Kent (2004); Shipley & McAfee (2016)
Translation (bilingual)	term – foreign equivalent	headword + equivalent(s) + correspondence type	Bilingual glossaries and clinical guidelines

The distribution of dominant relations across the six types is not accidental. It reflects the purpose for which each reference work was created: explanatory dictionaries serve teaching, synonymic dictionaries serve editing and translation, ideographic classifications serve diagnosis and statistics, antonymic and associative works serve clinical reasoning, and translation dictionaries serve the transfer of the terminology into another language. It also reflects the historical development of English speech-language pathology terminology: the earliest works of the twentieth century were explanatory, the growth of synonymy caused by the parallel American and British traditions produced the need for synonymic marking, and the introduction of international classifications in the last decades of the century made the hierarchical type the standard for official use.

A further observation concerns the interaction of types. None of the reference works examined is pure: every explanatory dictionary contains synonyms, every ideographic classification contains definitions, and every encyclopaedia contains antonymic pairs. The typology proposed here therefore does not divide dictionaries into mutually exclusive classes but identifies the relation that determines the macrostructure of each work. In practical terms this means that a compiler can combine types deliberately: an English–Uzbek dictionary organised ideographically at the level of the macrostructure, with explanatory definitions and synonymic marks at the level of the microstructure, would unite the advantages of three types in one work.

For Uzbek terminology the results have two direct consequences. First, the ideographic type should be taken as the model for the first comprehensive Uzbek dictionary of the field, because it reveals which concepts still lack a stable Uzbek name and because it presents terms in the clinical categories in which specialists actually use them. Second, the synonymic and antonymic relations of the English source must be preserved in translation: where English has two synonyms, the Uzbek dictionary should either give one equivalent for both and mark them as synonyms or justify two distinct equivalents; where English has a contrastive pair, the Uzbek pair must retain the contrast.

The analysis of seven English reference works recording speech-language pathology terminology shows that these works can be classified into six types according to the semantic relation that dominates their entries: explanatory dictionaries built on the term – concept relation, synonymic dictionaries built on term – term equivalence, ideographic dictionaries built on the hyperonym – hyponym relation, antonymic dictionaries built on the term – opposite relation, associative dictionaries built on the term – related term relation, and translation dictionaries built on the term – foreign equivalent relation. The type of a dictionary is determined by its purpose, and the six types correspond to the six main uses of terminology in the discipline: teaching, editing, diagnosis, clinical reasoning, research, and translation.

The question raised in the introduction – which type is the most suitable model for a future En-

glish–Uzbek dictionary of speech-language pathology – can be answered on the basis of these findings. The most suitable model is a combined one: an ideographic macrostructure, which makes the term system and its gaps visible, supplemented by an explanatory and synonymic microstructure, which gives each term a definition, its English synonyms with register marks, and its Uzbek equivalent with an indication of the correspondence type. Such a dictionary would serve at once as a teaching tool, a translation aid, and an instrument of terminological standardisation.

Further research may extend the proposed typology to the terminology of related disciplines – audiology, neuropsychology, and special education – and test whether the same six semantic relations organise their dictionaries in the same proportions. A separate task is the compilation of the Uzbek ideographic dictionary itself, for which the present article provides the lexicographic model.

Resume. The article classifies English dictionaries of speech-language pathology terminology according to the semantic relation that dominates their entries. Using component and relational analysis, 180 entries from seven English dictionaries, encyclopaedias, and classification documents were examined. Six types of dictionaries are distinguished: explanatory (term – concept), synonymic (term – term), ideographic (hyperonym – hyponym), antonymic (term – opposite term), associative (term – related term), and translation (term – foreign equivalent) dictionaries. The structure, purpose, and relevance of each type for Uzbek speech-language pathology terminology are described. For a future English–Uzbek dictionary of the field, a combined model is proposed: an ideographic macrostructure with an explanatory and synonymic microstructure.

Rezyume. Maqolada ingliz tilidagi logopediya terminlari lug‘atlari ularning asosini tashkil etuvchi ma’no munosabatiga ko‘ra tasniflanadi. Yettita ingliz tilidagi lug‘at, ensiklopediya va tasnif hujjatidan olingan 180 ta lug‘at maqolasi komponent va munosabat tahlili usulida o‘rganildi. Tahlil natijasida lug‘atlarning olti turi ajratildi: izohli (termin – tushuncha), sinonimik (termin – termin), ideografik (jins – tur), antonimik (termin – zid termin), assotsiativ (termin – aloqador termin) va tarjima (termin – chet tildagi ekvivalent) lug‘atlari. Har bir turning tuzilishi, vazifasi va o‘zbek logopediya terminologiyasi uchun ahamiyati tavsiflanadi. Bo‘lajak inglizcha-o‘zbekcha logopediya lug‘ati uchun ideografik makrostruktura hamda izohli va sinonimik mikrostrukturani birlashtirgan model taklif etiladi.

Резюме. В статье предлагается классификация англоязычных словарей логопедической терминологии по типу семантического отношения, лежащего в основе словарной статьи. Методом компонентного и реляционного анализа изучено 180 словарных статей из семи английских словарей, энциклопедий и классификационных документов. Выделено шесть типов словарей: толковые (термин – понятие), синонимические (термин – термин), идеографические (род – вид), антонимические (термин – противоположный термин), ассоциативные (термин – связанный термин) и переводные (термин – иноязычный эквивалент). Описаны структура, назначение и значение каждого типа для узбекской логопедической терминологии. Для будущего англо-узбекского логопедического словаря предложена комбинированная модель: идеографическая макроструктура в сочетании с толковой и синонимической микроструктурой.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 9
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

FARG'ONA VILOYATI TARIXIY OYKONIM, GIDRONIM VA ORONIMLARINING LEKSIK-SEMANTIK TASNIFI HAMDA SOTSIOLINGVISTIK TAHLILI

Shukurov Rahmatillo Mirzatillayevich,
Andijon davlat chet tillari instituti mustaqil tadqiqotchisi

Toponimika tilshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biri sanalib, joy nomlarining paydo bo'lishi, motivatsiyasi va semantik xususiyatlarini tadqiq etadi. A.V.Superanskaya ta'kidlaganidek, "biror predmet yoki hodisa nomining paydo bo'lishini inson tajribasisiz tasavvur qilish mumkin emas"[1]. Nom berish kuzatilgan xususiyatlarni belgilash, o'xshash va farqli jihatlarni ajratish hamda ularni lisoniy shaklda ifodalash bosqichlaridan iborat bo'lgani bois, nomlash faqat leksik emas, balki kognitiv jarayon hamdir. Oykonimlar til tarkibidagi eng qadimiy qatlamlardan biri bo'lib, xalqning etnik xotirasini, geografik muhitni va madaniy qadriyatlarni saqlab qoladi.

N.Oxunov aholi punktlari va ularning ichki bo'linishlari – qishloq, ovul, mahalla, guzar, ko'cha nomlarini oykonimlar sifatida talqin etadi[2]; onomastik lug'atlarda esa oykonimlar aholi manzillarining atoqli otlari deb ta'riflanadi[3]. Shunga qaramay, o'zbek onomastikasida oykonimlarni tasniflashning yagona, ko'p mezonli modeli ishlab chiqilmagan; gidronim va oronimlar esa ko'pincha oykonimlardan ajratilgan holda o'rganilgan. Maqolaning maqsadi – Farg'ona materiali asosida tarixiy toponimlarning nominatsion-motivatsion xususiyatlarini aniqlash, oykonimlarni tasniflashning ko'p mezonli modelini ishlab chiqish hamda gidronim va oronimlarni yaxlit tizimda tavsiflashdan iborat.

Tadqiqot materialini viloyatning amaldagi 1017 ta mahalla fuqarolar yig'ini, 4 ta shahar (Farg'ona, Qo'qon, Marg'ilon, Quvasoy) va 15 ta tuman nomi tashkil etadi. Ta'kidlash joizki, mahalla fuqarolar yig'inlari soni 2024-yilga qadar 1062 tani tashkil etgan bo'lsa, mahallalarni tashkil etish va chegaralarini belgilash bo'yicha me'yoriy hujjat ijrosi natijasida bu ko'rsatkich 1017 taga yetgan[4]. Bu holat toponimik korpusning dinamik tabiatini ko'rsatadi va uni muayyan sanaga bog'lab qayd etishni taqozo etadi.

Ishda tavsifiy, tasniflash, komponent tahlili, etimologik, sotsiolingvistik va statistik metodlardan foydalanildi. Oykonim va urbanonim chegarasini belgilashda T.Nafasovning "qishloqlar shaharlarning paydo bo'lishiga zamin vazifasini o'tagan... guzarlar mahallalarga aylanishib, jamisi bir majmuaga birikib shahar maqomini olgan" degan qarashi mezon sifatida qabul qilindi[5]. Shunga ko'ra ko'cha, xiyobon va guzar nomlari urbanonim (godonim), aholi punktlari va MFY nomlari esa oykonim sifatida qaraldi. Y.Ne'matova taklif etgan to'rt bosqichli tizim (polisonim – komonim – qishloq nomlari – mahalla nomlari) tayanch model sifatida olindi[6].

Toponimlarning nominatsion xususiyatlari to'rt belgi orqali namoyon bo'ladi: denotativlik (obyektni bevosita belgilash), unikallik (yagona obyektga taalluqlilik), barqarorlik (uzoq davr davomida saqlanish) va funksionallik (kartografiya, boshqaruv va navigatsiyada qo'llanish qulayligi). Onomastik qonuniyatlarga ko'ra joy nomi motivlanganlik, topografiklik, sistemaviylik, grammatik maqbullik, betakrorlik va milliy-lug'aviy muvofiqlik mezonlariga javob berishi lozim[7]. Tadqiqot davomida mazkur tizimni yana oltita talab bilan to'ldirish taklif etiladi: tarixiy-etnik muvofiqlik; madaniy-axloqiy maqbullik; funksional-ma'muriy qulaylik; talaffuz va idrokda aniqlik; iste'molda barqarorlik; xalqaro iste'molda moslik.

Motivlanganlikning o'ziga xos namunasi sifatida Bag'dod tumanidagi Qahat qishlog'i nomini keltirish mumkin: nomga asos bo'lgan so'z umumtil darajasida "ocharchilik, hosilsizlik" ma'nolarini anglatsa-da, mazkur toponimda u urug' nomi – etnonim sifatida qo'llangan va nom "qahat urug'i vakillari yashay-

[1] Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. – Москва: Наука, 1973. – С. 26, 55.
[2] Охунов Н. Топонимлар ва уларнинг номланиш хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1989. – Б. 4–36.
[3] Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – Б. 26, 87.
[4] Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2024 йил 20 майдаги 294-сон қарори.
[5] Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. – Тошкент: Муҳаррир, 2009. – Б. 5.
[6] Неъматова Ю. Наманган вилояти ойконимларининг тарихий-лисоний тадқиқи: PhD дисс. – Фарғона, 2018. – Б. 12.
[7] Бегматов Э. Истиқлол даври топонимик сиёсатининг илмий принциплари // Филология масалалари. – 2004. – №4. – Б. 32.

digan joy” ma’nosini beradi[1]. Bu esa toponimning ichki shakli bilan zohiriy leksik ma’nosi doim ham mos kelavermasligini ko‘rsatadi va etimologik tahlilning zarurligini asoslaydi.

Tadqiqot natijasida oykonimlarni yetti mezon asosida tasniflash modeli ishlab chiqildi (1-jadval). Model oykonimni bir vaqtning o‘zida bir necha o‘lchamda tavsiflash imkonini beradi; bir nomning turli tasniflarda takror uchrashi metodologik ziddiyat sanalmaydi, chunki har bir mezon nomning boshqa qirrasini yoritadi.

1-jadval

Farg‘ona viloyati oykonimlarini tasniflashning ko‘p mezonli modeli

Tasnif turi	Ajratiladigan guruhlar	Misollar
I. Etimologik-morfologik	turkiy; fors-tojik; arab; rus/sovet; aralash qatlam. Morfologik: sodda; qo‘shma; sifatlovchi + predmet; etnonim + lokativ	Marg‘ilon, Chust; Qoraqum, Oltiariq; Yangihayot, Qiziltepa; Qipchoqobod
II. Xronologik	qadimiy davr; o‘rta asr va yangi davr; zamonaviy (XX–XXI asr)	Farg‘ona, O‘sh; Rishton, Qo‘qon; Mustahkam Do‘stlik, Navqiron, Istiqlol
III. Sotsiolingvistik	etnolingvistik; antroponimik; kasb-hunar; ijtimoiy-hududiy; sakral; iqtisodiy-infratuzilma; migratsion	Qipchoq, To‘da, Qahat; Zebuniso; Miltiqsoz, Ipakchi; Xo‘jamag‘iz, Sayidobod; To‘qimachilar; Eskiarab
IV. Madaniy-ruhiy	antroponimik; mifologik; ruhiy-ma’naviy	T.Ahmedov, Zafarobod; To‘raobod, Tolmozor; Haqiqat, Shodiyona, Bunyodkor
V. Funksional-hududiy	ma’muriy-hududiy; geografik-hududiy; ijtimoiy-hududiy; transport-infratuzilma	Farg‘ona, Dang‘ara; Oqtepa, Qumtepa; Taraqqiyot, Porloq; G‘ishtko‘prik, To‘g‘onboshi
VI. Urbanizatsion-demografik	shahar va yirik urbanizatsiyalashgan hudud; shahar atrofi; qishloq; demografik tarkib asosidagi nomlar	Farg‘ona, Qo‘qon, Quvasoy; posyolka nomlari; qishloq nomlari; Samarqand, Tojikqishloq
VII. Politonimik	siyosiy-mafkuraviy o‘zgarish natijasidagi nomlar; mustaqillik davriga moslashtirilgan; shaxs nomlari	Leninobod, Frunze; Istiqlol, Navqiron; M.Topvaldiyev, Sho‘palat

Viloyatdagi 19 ta shahar va tuman nomining miqdoriy tahlili quyidagi natijani berdi (2-jadval).

2-jadval

Shahar va tuman nomlarining til qatlamlari bo‘yicha taqsimoti

Til qatlami	Nomlar soni	Ulushi, %	Tavsif
Turkiy qatlam	8 ta	42,1	Turkiy til elementlaridan tashkil topgan nomlar; toponimiyaning asosiy o‘zagi
Fors-tojik qatlami	5 ta	26,3	Fors yoki tojik tilidan o‘zlashgan, tarixiy-madaniy mazmunga ega nomlar
Arab qatlami	2 ta	10,5	Arab tilidan kirib kelgan, diniy yoki tarixiy kontekstga ega nomlar
Aralash (gibrid) qatlam	4 ta	21,1	Ikki yoki undan ortiq til qatlami unsurlarini birlashtirgan nomlar
Jami	**19 ta**	**100,0**	**4 ta shahar va 15 ta tuman nomi**

[1] Бозоров Х.Х., Шермуҳаммадов Б.Ш., Аҳмадалиев Ю.И. Фарғона вилояти жой номлари изоҳли луғати. – Фарғона: Наврўз, 2024. – Б. 137.

Miqdoriy ko‘rsatkichlar turkiy qatlamning ustuvorligini tasdiqlaydi; ayni paytda gibrid nomlarning yigirma foizdan ortiq ulushi hududning tarixiy va etnik murakkabligini aks ettiradi. Mahalla darajasida esa aralash nomlarning ulushi yanada yuqori, bu quyi ma’muriy bosqichda nomlanish jarayoni ko‘p tilli muhitga sezgirroq ekanligini ko‘rsatadi.

N.Uluqovning ta’kidlashicha, gidronimlar suv obyektlari va ularning inshootlari nomlarini o‘rganuvchi soha sifatida lingvistik, tarixiy va madaniy jihatlarni chuqur tahlil qilish imkonini beradi[1]. Ularning eng asosiy xususiyati barqarorlikdir: S.G.Klyashtorniy Sirdaryo nomining yunon manbalarida Yaksartes shaklida qayd etilganini ko‘rsatib, uni qadimgi fors tilidagi Yakhsha Arta birikmasi bilan bog‘laydi va “ravshan, pok, haqiqiy daryo” deb talqin qiladi[2]. Tadqiqotda gidronimlarni beshta mezon – ontologik va morfo-gidrologik (potamonim, limnonim, kanalonim), lingvistik (rang, geografik belgi, flora-fauna, harakat xususiyati, mifologik mazmun), etimologik (turkiy, eroniy, arabiy qatlam), tarixiy-etnik (qadimiy, o‘rta asr, yangi davr) hamda manbashunoslik mezoni asosida tasniflash modeli taklif etiladi.

Oronimlar – relyef obyektlarining atoqli nomlari bo‘lib, toponimik tizimning eng qadimiy va semantik jihatdan motivatsiyalangan qatlamlaridan biri hisoblanadi[3]. V.A.Nikonov oronimlar orqali qadimgi qabila nomlari va migratsiya jarayonlarini aniqlash mumkinligini ta’kidlaydi[4]. O‘zbek toponimiyasida oronim yasashning eng keng tarqalgan modellari sifat + relyef termini, ot + relyef termini va etnonim + relyef termini hisoblanadi[5]. Oronimlarning semantik tasnifi 3-jadvalda berilgan.

3-jadval

Oronimlarning semantik tasnifi va nomlash motivlari

Semantik guruh	Misollar	Nomlash motivi
Rang asosidagi nomlar	Qorato‘g‘, Oqartosh, Qiziltepa	tuproq, tosh yoki o‘simlik qoplamining rangi
Shakl asosidagi nomlar	Do‘mboqtepa, Qamchiq	relyefning tashqi ko‘rinishi va shakli
Geologik tarkib asosidagi nomlar	Toshtepa, Toshloq	grunt va jinslarning tarkibi
Flora bilan bog‘liq nomlar	Archabuloq, Chimyon	o‘simlik qoplami
Fauna asosidagi nomlar	Arslonto‘g‘	hududga xos hayvonot dunyosi
Etnonim asosidagi nomlar	Jaloyirtepa, Qo‘ng‘irotsoy	hududda yashagan urug‘ va qabila nomi

Natijalar oykonimlarni tasniflashda bir mezonli yondashuvning yetarli emasligini ko‘rsatadi. Bitta nom bir vaqtning o‘zida bir necha guruhga mansub bo‘lishi mumkin: Leninobod oykonimi etimologik jihatdan gibrid (rus antroponimi + fors formanti), xronologik jihatdan sovet davri nomi, sotsiolingvistik jihatdan ijtimoiy-hududiy, politonimik jihatdan esa siyosiy-mafkuraviy o‘zgarish natijasidir. Bu holat tasniflashda mezonlarni bir-birini istisno qiluvchi emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi tizim sifatida qurishni taqozo etadi.

Miqdoriy natijalar yana bir qonuniyatni ochib beradi: ma’muriy bosqich qanchalik yuqori bo‘lsa, nomning til qatlami shunchalik barqaror bo‘ladi; bosqich pasaygan sari gibridlik darajasi ortadi. Buning sababi shundaki, yirik oykonimlar asrlar davomida yozma manbalarda qayd etilib me’yorlashgan, mahalla nomlari esa jonli so‘zlashuv muhitida, ko‘p tilli aholi ishtirokida shakllangan.

Gidronim va oronimlarning barqarorligi ularning kundalik xo‘jalik faoliyati bilan bevosita bog‘liqligi hamda amaliy axborot tashishi bilan izohlanadi. Masalan, Achchiqko‘l tipidagi nomlar suvning kimyoviy xossasi haqidagi ma’lumotni yetkazib, o‘ziga xos qadimgi geografik “eslatma tizimi” vazifasini bajargan. Sotsiolingvistik nuqtayi nazardan esa oykonimlar mahalliy identifikatsiyani shakllantirishda faol ishtirok etadi, shu bois ularning tizimidagi o‘zgarishlar –

[1] Улуқов Н. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 5–6.
[2] Кляшторный С.Г. Яксарт – Сыр-Дарья: к этимологии названия // Советская этнография. – 1953. – №3. – С. 189–190.
[3] Мурзаев Е.М. Географические названия мира. – Москва: Мысль, 1984. – С. 72, 102.
[4] Никонов В.А. Введение в топонимику. – Москва: Наука, 1965. – С. 36.
[5] Қораев С. География номлар маъноси. – Тошкент, 1978. – Б. 58.

birlashtirish, bo‘lish yoki qayta nomlash – nafaqat ma’muriy, balki lisoniy-madaniy oqibatlarga ham ega bo‘ladi.

Nomlash jarayonida tabiiy-geografik belgi, xo‘jalik faoliyati, etnik mansublik va tarixiy voqealar asosiy motivatsion omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Toponimning ichki shakli bilan umumtil leksik ma’nosi doim ham mos kelmasligi (Qahat misoli) etimologik tahlilni zaruriy bosqichga aylantiradi. Oykonimlarni tasniflashning yetti mezonli modeli – etimologik-morfologik, xronologik, sotsiolingvistik, madaniy-ruhiy, funksional-hududiy, urbanizatsion-demografik va politonimik – ishlab chiqildi. Viloyatdagi 19 ta shahar va tuman nomining 8 tasi (42,1%) turkiy, 5 tasi (26,3%) fors-tojik, 2 tasi (10,5%) arab, 4 tasi (21,1%) aralash qatlamga mansubligi aniqlandi. Ma’muriy bosqich pasaygan sari gibridlik darajasi ortishi qonuniyat sifatida qayd etildi. Gidronimlarni tasniflashning besh mezonli yaxlit modeli taklif etildi; oronimlarning semantik tasnifi oltita guruhni qamrab olib, nomlanishda tabiiy muhit bilan bog‘liq motivatsiya ustunlik qilishi tasdiqlandi.

Rezyume. Maqolada Farg‘ona viloyati tarixiy toponimiyasi nominatsion-motivatsion, leksik-semantik va sotsiolingvistik jihatdan tahlil qilinadi. Oykonimlarni tasniflashning yetti mezonli modeli ishlab chiqilib, Farg‘ona materiali asosida qo‘llanildi. Ma’muriy-hududiy birliklar nomlarining til qatlamlari bo‘yicha taqsimoti miqdoriy jihatdan aniqlandi: 19 ta nomdan 8 tasi turkiy, 5 tasi fors-tojik, 2 tasi arab va 4 tasi aralash qatlamga mansub. Gidronimlarni tasniflashning yaxlit besh mezonli modeli taklif etildi, oronimlarning semantik guruhlari aniqlandi.

Resume. The article analyses the historical toponymy of the Fergana region in nominative-motivational, lexical-semantic and sociolinguistic terms. A seven-criterion model for classifying oikonyms is developed and applied to the Fergana material. The distribution of administrative-territorial unit names across language strata is established quantitatively: of 19 names, 8 belong to the Turkic stratum, 5 to the Persian-Tajik, 2 to the Arabic and 4 to the hybrid stratum. An integrated five-criterion model for the classification of hydronyms is proposed, and the semantic groups of oronyms are identified.

Резюме. В статье историческая топонимия Ферганской области анализируется в номинативно-мотивационном, лексико-семантическом и социолингвистическом аспектах. Разработана семикритериальная модель классификации ойконимов и показана её применимость на ферганском материале. Количественно установлено распределение названий административно-территориальных единиц по языковым пластам: из 19 наименований 8 относятся к тюркскому, 5 – к персидско-таджикскому, 2 – к арабскому и 4 – к гибридному пласту. Предложена целостная пятикритериальная модель классификации гидронимов, определены семантические группы оронимов.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 9
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

MAQOL LINGVISTIK, KOGNITIV VA MADANIY FENOMEN SIFATIDA

Xaliqulova Musharraf Egamnazar qizi,
Navoiy davlat universiteti,
ingliz tilshunosligi kafedrasi o'qituvchisi

Tilshunoslikda "maqol" tushunchasiga aniq va universal ta'rif berish masalasi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Aristoteldan boshlab ko'plab tadqiqotchilar maqolning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga harakat qilganlar. Biroq maqollarning shakliy, mazmuniy, funksional va lingvomadaniy xususiyatlari xilma-xilligi sababli ularni yagona mezon asosida tavsiflash qiyin.

A. Taylor maqolni ta'riflash uchun yagona va universal mezon mavjudligini inkor etib, uning maqollik xususiyatini jamiyat tomonidan tan olinishi va keng qo'llanishi bilan bog'laydi.[1]

B. Whiting esa maqolning asosiy belgilariga uning tarixiyligi, xalq orasida keng tarqalganligi, umumlashgan mazmunni ifodalashi hamda ixcham va barqaror shaklga egaligini kiritadi.[2] Biroq Whiting tomonidan ko'rsatilgan barcha mezonlarni maqolning majburiy va universal belgilari sifatida qabul qilish to'g'ri bo'lmaydi. Chunki barcha maqollarni qadimiylik nuqtayi nazaridan izohlab bo'lmaydi. Ayrim maqollar dastlab adabiy yoki yozma manbalarda yuzaga kelib, keyinchalik xalq orasida keng ommalashgan bo'lishi mumkin.

W. Mieder maqol haqidagi intuitiv tasavvurlarni empirik jihatdan o'rganib, uni xalq donishmandligi, haqiqat, axloqiy qadriyatlar va an'anaviy e'tiqodlarni ifodalovchi, ko'pincha metaforik shaklda namoyon bo'ladigan, ixcham, barqaror va esda qolarli hamda avloddan avlodga og'zaki va yozma tarzda o'tib keluvchi an'anaviy ifoda sifatida tavsiflaydi.[3]

Yuqoridagi qarashlarni umumlashtirib aytganda, maqol nafaqat barqaror va umumlashgan mazmunni ifodalovchi til birligi, balki muayyan xalqning tajribasi, bilimlari va dunyoqarashini aks ettiruvchi lingvomadaniy hodisa sifatida ham namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, maqollarda inson tajribasining qanday konseptuallashtirilishi ularning lingvokognitiv tabiatini ochib berishga imkon beradi.

Lingvokognitiv yondashuv ikki o'zaro bog'liq jihatni qamrab oladi. Lingvistik jihat maqol mazmunining leksik, grammatik, sintaktik va metaforik vositalar orqali ifodalanishini, kognitiv jihat esa ushbu vositalar orqali inson ongida shakllanadigan tushuncha, bilim, assotsiatsiya va baholashni anglatadi.[4] Shu bois lingvokognitiv tahlil lingvistik ifoda bilan uning asosida yotuvchi konseptuallashtirish o'rtasidagi munosabatni ochib beradi. Tadqiqotda mazkur jihatlarning namoyon bo'lishi ingliz tilida ta'limga oid maqollar misolida tahlil qilinadi. Tahlil uchun tanlangan maqollar paremiografik manbalar asosida saralandi.[5]

Maqollarning asosiy lingvokognitiv xususiyatlaridan biri insoniy tajribaning umumlashtirilib, konseptuallashtirilishidir. Masalan, "There is no royal road to learning" maqolida bilimni egallash jarayoni qulay va oson yo'l (royal road) obraziga qarama-qarshi qo'yiladi va shu orqali "bilim olish – murakkab jarayon" konseptual modeli shakllanadi.

Konseptual metafora maqollarning lingvokognitiv xususiyatlarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. U abstrakt konseptni inson uchun tanish bo'lgan konkret tajriba yoki konsept orqali ifodalashni nazarda tutadi.[6] Masalan, "Experience is the best teacher" maqolida insonning hayotiy tajribasi "ustoz" (teacher) konsepti sifatida tasvirlanadi. Shu tariqa "tajriba – ustoz" metaforik modeli orqali tajriba bilim va saboq beruvchi manba sifatida konseptuallashtiriladi.

Maqollar ko'pincha kundalik insoniy tajribaga asoslangan kognitiv sxemalar va freymlarni faollashtiradi. Kognitiv sxema deganda inson ongida muayyan hodisa yoki jarayon haqidagi umumiy bilim va tasavvurlar tizimi tushuniladi. Masalan, **"**ta'lim ol-

[1] Archer Taylor, The Proverb. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1931, 3.
[2] Bartlett Jere Whiting, "The Nature of the Proverb," Harvard Studies and Notes in Philology and Literature 14, 1932, 280.
[3] Wolfgang Mieder, Proverbs: A Handbook, Westport, CT: Greenwood Press, 2004, 3.
[4] Кубрякова Е. С. Язык и знание: На пути получения знаний о языке: Части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира. – М.: Языки славянской культуры, 2004. – 560 с.
[5] Speake, J. (Ed.). Oxford dictionary of proverbs (6th ed.). Oxford University Press. 2015.
[6] Lakoff, G., & Johnson, M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – P. 44.

ish” sxemasi bilim olish, mashq qilish, tajriba orttirish va natijaga erishish kabi o‘zaro bog‘liq jarayonlarni qamrab oladi.

Freym esa muayyan vaziyatni tushunishga xizmat qiladigan tarkibiy bilim tuzilmasi bo‘lib, unda shu vaziyatga xos ishtirokchilar va komponentlar o‘zaro bog‘lanadi.[1] Masalan, “ta’lim” freymi ustoz, shogird, bilim, o‘rganish, mashq, tajriba va natija kabi komponentlarni o‘z ichiga olishi mumkin.

Maqollar ko‘pincha abstrakt g‘oyalarni konkret tajriba orqali konseptuallashtiradi**.** Masalan, “Practice makes perfect” maqolida abstrakt “mukammallikka erishish” g‘oyasi takroriy amaliy faoliyat – “practice” orqali ifodalanadi. “Practice” va “perfect” komponentlari o‘rtasidagi sabab-oqibat munosabati bilim va ko‘nikmani egallash jarayonida muntazam mashqning ahamiyatini konseptuallashtiradi. “Learning is better than house and land” maqolida esa “learning” va “house and land” komponentlari qarama-qarshi qo‘yilib, bilim nomoddiy, ammo barqaror qadriyat sifatida moddiy boylikdan ustunlashtiriladi. Shu tariqa bilimning inson hayotidagi uzoq muddatli ahamiyati konseptuallashtiriladi.

Xuddi shuningdek, “A little knowledge is a dangerous thing” maqolida “little knowledge” obrazi yetarli bo‘lmagan bilimning salbiy oqibatini ifodalash uchun xizmat qiladi. Bu maqolda bilimning mavjudligi bilan bir qatorda uning yetarliligi va chuqurligi ham muhim ekanligi ta’kidlanadi. Natijada “chala bilim – xavf” konseptual modeli shakllanadi. Ushbu maqol ta’lim va bilimning miqdoriy emas, balki mazmuniy va sifat jihatlarini ham qadriyat sifatida ko‘rsatadi.

“It is never too late to learn” maqolida ta’lim inson hayotining muayyan davri bilan cheklanmaydigan qadriyat sifatida namoyon bo‘ladi.[2] Unda bilim olishning yoshga bog‘liq emasligi va insonning istalgan bosqichda yangi bilim egallashi mumkinligi ifodalangan. Shu jihatdan maqol ingliz lingvomadaniyatida umr davomida o‘rganish g‘oyasining paremiologik ifodasini namoyon etadi.

“Example is better than precept” maqolida ta’lim va tarbiya jarayonida amaliy namunaning ahamiyati ta’kidlanadi. “Example” va “precept” komponentlarining qarama-qarshi qo‘yilishi bilim yoki axloqiy me’yorlarni faqat nazariy nasihat orqali emas, balki amaliy namuna orqali o‘zlashtirish samaraliroq bo‘lishi mumkinligi haqidagi tasavvurni ifodalaydi.

Quyidagi jadvalda ham “ta’lim” konsepti bilan bog‘liq bo‘lgan ingliz maqollari tizimlashtirildi. Mazkur birliklar konseptning bevosita va periferik mazmuniy qatlamlarini yanada aniqroq belgilash hamda uning ingliz paremiologik makonida verbalizatsiya qilinishini kengroq yoritish imkonini beradi.

1-jadval

Ingliz maqollarida “ta’lim” konsepti komponentlari va kognitiv konseptuallashtirilishi

T/r	Maqol	Ta’lim komponenti	Konseptual qatlam	Kognitiv konseptuallashtirish
1.	Live and learn.	o‘rganish	yadro	Hayot – o‘rganish manbai
2.	Experience is the father of wisdom.	tajriba	uzoq periferiya	Tajriba – donishmandlikka eltuvchi manbai
3.	An ounce of practice is worth a pound of precept.	amaliyot	yaqin periferiya	Amaliyot nazariy nasihatdan ustun
4.	No man is born wise or learned	bilim	yaqin periferiya	Bilim – o‘zlashtiriladigan hodisa
5.	Never too old to learn.	o‘rganish	yadro	Bilim olish – uzluksiz jarayon
6.	When house and land are gone and spent, then learning is most excellent.	o‘rganish	yadro	Bilim moddiy boylikdan ustun

Keltirilgan maqollar “ta’lim” konseptining faqat bevosita ta’lim jarayoniga oid birliklar bilangina chegaralanmasligini ko‘rsatadi. Konseptning periferik qatlamlarida o‘rganishning davomiyligi, tajriba, bilimning yetarliligi va shaxsiy rivojlanish kabi mazmuniy komponentlar ham namoyon bo‘ladi. Maqollarni yadro, yaqin periferiya va uzoq periferiya qatlamlariga ajratishda tadqiqotning avvalgi bosqichida ish-

[1] Попова З. Д., Стернин И. А. Когнитивная лингвистика. – Москва: АСТ; Восток-Запад, 2007.
[2] Speake, Jennifer, ed. The Oxford Dictionary of Proverbs. 6th ed. Oxford: Oxford University Press, 2015.

lab chiqilgan tasnif mezonlariga tayanildi.

Mavjud ilmiy qarashlarni umumlashtirish shuni ko‘rsatadiki, maqollarni paremiologik, lingvokognitiv va lingvomadaniy jihatdan o‘rganishning turli yo‘nalishlari shakllangan. Shu bilan birga, ta’lim mazmunini ifodalovchi ingliz maqollarida ushbu jihatlarning o‘zaro bog‘liqligi, shuningdek, bilim, o‘rganish, tajriba, mashq va ta’limga oid qadriyatlarning yagona konseptual tizim doirasida namoyon bo‘lishi alohida tahlilni talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi ingliz tilida ta’lim mazmunini ifodalovchi maqollarda “ta’lim” konseptining verbalizatorlarini semantik-kognitiv komponentlar asosida tizimlashtirish, ularni yadro, yaqin periferiya va uzoq periferiya qatlamlariga ajratish hamda har bir qatlamda ta’lim mazmunining qanday kognitiv konseptuallashtirilishini aniqlashdan iborat.

Tahlil natijalari ingliz tilidagi ta’limga oid maqollarda bilim olishning murakkab va davomiy jarayon sifatida, tajribaning bilim manbai, muntazam mashqning takomillashuv vositasi, amaliy namunaning esa o‘zlashtirish vositasi sifatida konseptuallashtirilishini ko‘rsatdi. Shuningdek, maqollarda bilim va ta’lim mazmuni konkret hayotiy tajriba, qarama-qarshilik, metaforik obraz va sabab-oqibat munosabatlari orqali ifodalanishi aniqlandi. Bu holat ingliz maqollarining inson tajribasi, bilim va ta’lim haqidagi tasavvurlarni lingvokognitiv hamda lingvomadaniy jihatdan mujassamlashtiruvchi birliklar ekanini ko‘rsatadi.

Rezyume. Mazkur maqolada ingliz maqollarining lingvistik, kognitiv va madaniy xususiyatlari kompleks yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda maqollarda inson tajribasining kognitiv modellar orqali ifodalanishi, shuningdek, ushbu mazmunning milliy-madaniy xususiyatlar bilan bog‘lanish mexanizmlari yoritiladi hamda konseptual metafora, kognitiv sxema, freym va mental obrazlarning maqol mazmunini shakllantirishdagi roli misollar orqali ochib beriladi. Shuningdek, milliy qadriyatlar, tarixiy tajriba, kundalik faoliyat, madaniy realiyalar va obrazlarning maqollarning milliy o‘ziga xosligini belgilashdagi ahamiyati ko‘rsatiladi. Tadqiqot natijalari maqollarda universal insoniy bilim, qadriyat va qarashlarning milliy-madaniy xususiyatlar bilan uzviy bog‘liq holda shakllanishini ko‘rsatadi.

Resume. This article provides a comprehensive analysis of the linguistic, cognitive, and cultural features of English proverbs. The study examines the expression of human experience through cognitive models, as well as the mechanisms through which this content is associated with national and cultural characteristics. It also explores, through examples, the role of conceptual metaphor, cognitive schema, frame, and mental image in shaping the meaning of proverbs. In addition, the study highlights the significance of national values, historical experience, everyday activities, cultural realia, and cultural imagery in determining the national specificity of proverbs. The findings demonstrate that universal human knowledge, values, and beliefs expressed in proverbs are closely interconnected with national and cultural characteristics.

Резюме. В статье проводится комплексный анализ лингвистических, когнитивных и культурных особенностей английских пословиц. В исследовании рассматривается выражение человеческого опыта посредством когнитивных моделей, а также механизмы взаимосвязи данного содержания с национально-культурными особенностями. На конкретных примерах раскрывается роль концептуальной метафоры, когнитивной схемы, фрейма и ментального образа в формировании содержания пословиц. Кроме того, определяется значение национальных ценностей, исторического опыта, повседневной деятельности, культурных реалий и образов в формировании национальной специфики пословиц. Результаты исследования показывают, что универсальные человеческие знания, ценности и представления, выраженные в пословицах, находятся в тесной взаимосвязи с национально-культурными особенностями.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 9
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O‘ZBEK TILIDA SUBSTANTIV LEKSEMALAR SEMANTIK SHAJARASINING IFODALANISHIDA PRAGMATIK OMILLAR

O‘razov Alisher Doniyorovich,
Guliston davlat universiteti
o‘zbek tilshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi

Tilshunoslikda tilning leksik sathi o‘zaro uzviy munosabatda bo‘lgan leksemalar tizimidan tashkil topadi. Har bir leksema til tizimida muayyan ma'no xususiyatiga ega bo‘lib, boshqa leksemalar bilan semantik munosabatga kirisha oladi. Shu munosabatlar natijasida leksik birliklar o‘rtasida turli xil guruhlar, maydonlar va ierarxik munosabatlar yuzaga keladi. Bunday munosabatlarni tadqiq etish tilning ichki tizimini, leksik birliklarning ma'no tarkibini hamda ularning nutqda voqelanish xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Bu kabi tadqiqiy masalalar o‘zbek tilshunosligida leksik-semantik munosabatlarni sistemaviy asosda o‘rganish masalasini alohida ahamiyatga egaligini ko‘rsatadi. Olima R.Safarovaning "Leksik-semantik munosabatning turlari" nomli o‘quv qo‘llanmasi aynan o‘zbek tilidagi leksik-semantik munosabatlarni sistem leksikologiya nuqtayi nazaridan yoritishga bag‘ishlanganligi bilan ajralib turadi.[1] Demak, semantik shajara tushunchasi leksemalarning umumiy va xususiy ma'no belgilari asosida muayyan ierarxik tartibda munosabatga kirishishini anglatadi. Bunda umumiy ma'noni ifodalovchi leksema yuqori bosqichda, uning tarkibidagi xususiy ma'noni ifodalovchi leksemalar esa quyi bosqichlarda joylashadi. Masalan, *o‘simlik – daraxt – meva daraxti – olma daraxti – olma* kabi munosabatni shartli semantik shajara sifatida tasavvur qilish mumkin. Ammo leksemalarning semantik munosabatlari faqat til tizimidagi lug‘aviy ma'no bilan chegaralanib qolmaydi. Leksemaning muayyan nutq vaziyatida qanday ma'noda qo‘llanishi, so‘zlovchining maqsadi, tinglovchiga munosabati, ijtimoiy muhit, milliy-madaniy qadriyatlar, emotsional holat va matn kabi omillar ham uning ma'no ifodalash xususiyatiga ta'sir qiladi. Ana shu nuqtayi nazardan semantik shajara va pragmatik omillar munosabati muhim ilmiy muammo hisoblanadi. Semantik shajarani tushunish uchun avvalo leksemaning semantik tuzilishini belgilab olish zarur. Leksema muayyan predmet, belgi, harakat yoki tushunchani nomlovchi til birligi bo‘lib, uning ma'no tarkibi bir yoki bir nechta semalardan tashkil topadi. Semalar leksemalarning o‘zaro o‘xshash va farqli jihatlarini belgilashda muhim vazifa bajaradi. Masalan, *ota, ona, aka, uka, opa, singil* leksemalarini olaylik. Ularning barchasida "qarindoshlik" umumiy semasi mavjud. Biroq ularni bir-biridan farqlash uchun "jins", "avlod", "yosh" kabi differentsial semalar xizmat qiladi. Demak, mazkur leksemalar umumiy semantik maydon hosil qilgan holda, o‘z navbatida, o‘zaro muayyan ierarxik va gorizontal munosabatlarga kirishadi. R.Safarova leksik-semantik munosabatlarni sistemali o‘rganishda leksemalar o‘rtasidagi munosabatlarning turlarini ajratish zarurligini ta'kidlaydi.[2] Semantik shajarada umumiylik va xususiylik munosabati asosiy o‘rin tutsa, umumiy ma'no muayyan sinfni, xususiy ma'nolar shu sinf tarkibidagi alohida tushunchalarni ifodalaydi. Masalan, *hayvon - sutemizuvchi - uy hayvoni - qo‘y - qo‘zi.*[3] Bu munosabatda *"hayvon"* eng keng ma'noli tushuncha sifatida yuqori bosqichda turadi. *"Sutemizuvchi"* uning tarkibidagi muayyan sinfni, *"uy hayvoni"* yanada tor sinfni, "qo‘y" muayyan turni, "qo‘zi" esa yosh belgisiga asoslangan yanada xususiy nomni ifodalaydi. Shu bilan birga, tabiiy tildagi semantik shajaralar mutlaqo qat'iy va o‘zgarmas tizim emas. Nutq sharoitida bir leksemaning qo‘llanish doirasi kengayishi yoki torayishi mumkin. Bu jarayonda pragmatik omillar muhim rol o‘ynaydi.

Semantik shajara masalasi tilning boshqa sathlarida ham alohida o‘rganiladi. Ya'ni, pragmatika til birliklarining nutq jarayonida qo‘llanishini, ular orqali so‘zlovchining kommunikativ maqsadi va munosabatini ifodalash imkoniyatlarini o‘rganadi. Shu sababli leksik ma'noni faqat lug‘aviy ta'rif bilan cheklab qo‘yish tilning real ishlash mexanizmlarini to‘liq ochib bermaydi. M.Hakimovning "O‘zbek tilida matnning

[1] Сафарова Р. Лексик-семантик муносабатнинг турлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 48 б.
[2] Сафарова Р. Лексик-семантик муносабатнинг турлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 48 б.
[3] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli. II jild: E–K. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – B. 394.

pragmatik talqini” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida matnning pragmatik xususiyatlari va nutqda ma’no shakllanishi masalalari tadqiq etilgan.[1]

Ma’lum bo‘lishicha, pragmatik omillar semantik shajaraga bir necha yo‘l bilan ta’sir ko‘rsatadi:

- nutq vaziyati leksemaning qaysi ma’nosi aktuallashishini belgilaydi;

- so‘zlovchining maqsadi muayyan leksemani tanlashga ta’sir qiladi;

- tinglovchining ijtimoiy maqomi va so‘zlovchi bilan munosabati ham leksik tanlovda namoyon bo‘ladi. Masalan, o‘zbek tilida *“odam”, “inson”, “kishi”, “shaxs”* kabi leksemalar bir-biriga yaqin ma’noni anglatishi mumkin. Biroq ularning nutqda qo‘llanish doirasi bir xil emas. Inson ko‘proq umumiy, falsafiy yoki yuksak uslubiy matnlarda qo‘llanishi mumkin. Kishi nisbatan neytral nomlash xususiyatiga ega. Shaxs esa rasmiy-ilmiy, huquqiy va ijtimoiy matnlarda ko‘proq faollashadi. Shunday qilib, semantik jihatdan yaqin leksemalarni tanlashda so‘zlovchining pragmatik maqsadi ham ishtirok etadi. Biroq matn leksemaning aktual ma’nosini belgilashda asosiy omillardan biridir. Bir leksema turli matnlarda turlicha semantik qirralarni namoyon qilishi mumkin. Masalan, *“bosh”* leksemasining asosiy denotativ ma’nosi inson yoki hayvon tanasining yuqori qismi bilan bog‘liq.[2] Ammo u *“ishning boshi”, “yig‘in boshi”, ”bosh bo‘lmoq”, “boshqaruvchi”* kabi matnlarda boshqa semantik qirralarni ifodalaydi. Demak, bu holat semantik shajaraning dinamik xususiyatini ko‘rsatadi. Ya’ni leksemalar o‘rtasidagi munosabatlar faqat lug‘atda berilgan ma’nolar asosida emas, balki nutq jarayonidagi matniy munosabatlar asosida ham shakllanadi. M.Mirtojiyevning “O‘zbek tili semasiologiyasi” asarida o‘zbek tili semantikasi bo‘yicha keyingi olib borilgan tadqiqotlarda ham ushbu asarga murojaat qilingan.[3] Matn ta’sirida leksemaning denotativ, konnotativ va pragmatik semalari bir vaqtning o‘zida faollashishi mumkin kuzatishimiz mumkin. Ayniqsa badiiy matnda bu holat yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Pragmatik ma’noning muhim ko‘rinishlaridan biri subyektiv bahoning ifodalanishidir. So‘zlovchi predmet yoki shaxsni nomlash bilan birga unga nisbatan o‘z munosabatini ham bildirishi mumkin. Masalan, *“bolaning”, “bolakayning”, “bolaginaning”* kabi shakllarda asosiy nomlash ma’nosi saqlanib qolgani holda mehr, erkalash, kichraytirish kabi subyektiv munosabatlar yuzaga chiqadi.

Semantik shajaraning shakllanishida milliy-madaniy omil ham muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir tilda muayyan tushunchalarning nomlanishi, ular o‘rtasidagi farqlanish darajasi va qo‘llanish chastotasi shu til sohiblarining milliy-madaniy tajribasi bilan bog‘liq. Bunga o‘zbek tilida qarindoshlik nomlari buning yaqqol misolidir. *Ota, ona, aka, uka, opa, singil, amaki, tog‘a, amma, xola, jiyan, qaynota, qaynona, qaynag‘a* kabi leksemalar qarindoshlik munosabatlarining juda mayda semantik farqlar asosida nomlanishini ko‘rsatadi. Bu leksemalarda nafaqat biologik qarindoshlik, balki ijtimoiy-madaniy munosabatlar ham aks etadi. Masalan, o‘zbek nutq madaniyatida yoshi katta shaxslarga murojaat qilishda qarindoshlik nomlaridan foydalanish holatlari mavjud. Bunday qo‘llanishda leksemaning lug‘aviy ma’nosiga qo‘shimcha ravishda hurmat, yaqinlik, ijtimoiy masofa kabi pragmatik semalar yuzaga chiqishi mumkin. Qarindoshlik terminlari bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlarda ham ularning semantik va ijtimoiy-madaniy xususiyatlari qayd etilgan. Masalan, D.Maxsudovaning 2025-yilgi maqolasida o‘zbek va turk tillaridagi qarindoshlik terminlari semantik-strukturaviy hamda sotsiolingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilingan.[4]

Pragmatik omillarning yana bir muhim ko‘rinishi ijtimoiy maqomi bo‘lib, biror shaxsni qanday nomlash so‘zlovchining u shaxsga munosabatini va ular o‘rtasidagi ijtimoiy masofani bildirishi mumkin. Masalan, *ustoz, muallim, o‘qituvchi, domla* leksemalari bir semantik maydonga yaqin bo‘lsa-da, ularning pragmatik qiymati bir xil emas. O‘qituvchi kasb nomini nisbatan betaraf ma’noni ifodalaydi. Ustoz esa kasbiy nomdan tashqari hurmat va e’tirof ma’nosini ham yuzaga chiqaradi. Shu sababli semantik shajarada leksemalarning o‘zaro munosabatini aniqlashda ularning nutqiy qo‘llanish xususiyatlarini ham hisobga olish talab etiladi.

Hissiy ta’sirchanlik ham leksemaning pragmatik xususiyatini belgilaydi. Jumladan, biror predmetni nomlashda so‘zlovchi o‘zining ijobiy yoki salbiy munosabatini ifodalashi mumkin. Masalan, *yuz - bashara - chehra; ovqat - taom - emak; uy - xonadon - kulba.* Bu qatorlardagi leksemalar muayyan matnlarda bir-biriga yaqin denotativ ma’noni anglatishi mumkin. Biroq ularning uslubiy va hissiy ta’sirchanlik qiymati farqlanadi. *Chehra* ko‘proq ijobiy, estetik yoki badiiy qiymatga ega bo‘lishi mumkin. *Bashara* salbiy hissiy ta’sirchanlik munosabatni bildirishi ehtimol. Demak, semantik yaqinlik pragmatik tenglikni anglatmaydi.

Pragmatik omillar semantik shajarada evfemi-

[1] Ҳақимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини. Филология фанлари доктори диссертацияси. – Тошкент, 2001. – 283 б.

[2] Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент, 2010. 288 б.

[3] Ўша асар. – Тошкент, 2010. 288 б.

[4] Махсудова Д.И. Ўзбек ва турк тилларида қариндошлик терминларининг таржимаси: лексик, маданий ва семантик муаммолар // UZA.uz. – Тошкент, 2025. –Б 7.

stik va disfemistik nomlashlar orqali ham namoyon bo‘ladi. Evfemizm **–** muayyan tushunchani to‘g‘ridan-to‘g‘ri nomlash o‘rniga yumshatilgan, madaniy yoki ijtimoiy jihatdan maqbulroq nom bilan ifodalashdir. Disfemizm esa, aksincha, predmet yoki shaxsni salbiy, qo‘pol yoki tahqirlovchi tarzda nomlashga xizmat qiladi. Bu holatda bir predmet yoki hodisa turli pragmatik maqsadlar asosida turlicha nomlanishi mumkin. Natijada semantik shajaraning neytiral ma’no qatlamiga hissiy-baholovchi qatlam qo‘shiladi.

Semantik shajarani o‘rganishda darajalanish munosabatlari ham muhim. Bir belgining turli darajalarini ifodalovchi leksemalar muayyan semantik qatorni tashkil etadi. Masalan, *iliq - issiq – qaynoq* yoki kichik – *katta – ulkan* kabi qatorlarda belgining darajalanishi mavjud. Biroq nutqda bu darajalar so‘zlovchining subyektiv munosabati bilan o‘zgarishi mumkinligini ko‘rsatadi. Masalan, “ulkan muammo” birikmasida “ulkan”ning lug‘aviy daraja ma’nosi bilan birga so‘zlovchining muammoga nisbatan kuchli bahosi ham namoyon bo‘ladi.

Umuman olganda, substantiv leksemalar semantik shajarasini pragmatik omillar bilan uzviy bog‘liqlikda tadqiq etish o‘zbek tili leksikasining ichki tizimini va uning nutqda namoyon bo‘lish imkoniyatlarini yanada teranroq ochib berishga xizmat qiladi.

Rezyume. Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi substantiv leksemalar semantik shajarasining namoyon bo‘lishida hamda ularning ierarxik munosabatlarida pragmatik omillarning tutgan o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, matn va kontekst ta’sirida denotativ, konnotativ hamda pragmatik semalarning faollashuvi, qarindoshlik terminlari, darajalanish, evfemistik va disfemistik nomlashlar vositasida semantik shajaraning dinamik xarakterga ega bo‘lishi misollar yordamida yoritilgan.

Resume. This article analyzes the role of pragmatic factors in the representation of the semantic tree of noun lexemes in the Uzbek language, as well as their hierarchical relationships. Furthermore, it illustrates how denotative, connotative, and pragmatic meanings are activated under the influence of text and context, and how the semantic tree exhibits dynamic characteristics through examples involving kinship terms, gradations, euphemistic and dysphemistic naming.

Резюме. В данной статье анализируется роль прагматических факторов в отображении семантической структуры лексем узбекского языка и в их иерархических отношениях. Также, на примерах, иллюстрируется активация денотативных, коннотативных и прагматических значений под влиянием текста и контекста, а также динамический характер семантической структуры, проявляющийся через родственные термины, градацию, эвфемизмы и дисфемизмы.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 9
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

EMOTSIYA, KONSEPT VA EMOTSIONAL KONSEPT TUSHUNCHALARINING LINGVISTIK TALQINI

Djurayeva Maxbuba Usmanovna
Termiz shahridagi 4-umumiy o'rta ta'lim maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
djurayevamaxbuba54@gmail.com

Antropotsentrik tilshunoslik tilni inson tafakkuri, hissiy tajribasi va madaniyati bilan birgalikda o'rganishni talab qiladi. Shu sababli emotsiya, konsept va emotsional konsept tushunchalarini bir darajadagi hodisa sifatida talqin qilish to'g'ri emas. Emotsiya – boshdan kechiriladigan hissiy holat; konsept – voqelik haqidagi bilim, obraz va bahoning mental tuzilmasi; emotsional konsept esa hissiy tajribaning tilda va madaniyatda konseptuallashgan modelidir. Sh. Usmonova lingvokulturologiyada til va madaniyat aloqasini konseptosfera hamda madaniy ma'nolar orqali yoritadi. Emotsiya, konsept va emotsional konseptning nazariy chegaralarini aniqlash o'zbek tilidagi "***quvonch", "g'am", "qo'rquv", "g'azab", "uyat", "g'urur"*** va ***"or-nomus"*** konseptlarini izchil tahlil qilish uchun metodologik asos yaratadi[1].

Lingvistika emotsiyaning fiziologik mohiyatidan ko'ra uning qanday nomlanishiga va verbal belgilar orqali qanday namoyon bo'lishiga e'tibor qaratadi. Hissiyot quvonch, g'am, qo'rquv, uyat kabi nomlar bilan bevosita ifodalanishi; yuzning qizarishi, ovozning titrashi, ko'zga yosh kelishi singari belgilar bilan metonimik tarzda ko'rsatilishi; ko'ngli ko'tarildi, qoni qaynadi kabi obrazlarda esa metaforik konseptuallashishi mumkin. Z.Kyovechesh emotsional konseptlarning katta qismi metafora va metonimiya asosida tuzilishini, ularning kognitiv model yoki freym shaklida tashkil topishini ta'kidlaydi. Shu bois emotsiyani ifodalovchi birliklarni tahlil qilishda hissiyot nomi bilan bir qatorda uning lisoniy belgilari va qo'llanish vaziyati ham hisobga olinadi[2].

Badiiy matnda emotsiya nominatsiyasi va uning kontekstual mazmuni o'rtasidagi farq yaqqol kuzatiladi. "… Otabek yangi tanishlar kelganida: "Tinchsizlamadingizlar, bil'aks quvontirdingizlar"" (A.Qodiriy, "O'tkan kunlar", 2-b.), – deydi. Bu yerda ***quvonch*** fe'l orqali bevosita nomlangan, lekin oldingi kontekstda tanishlar yo'qligi va yolg'izlik tufayli yuzaga kelgan zerikish aytilgani sababli hissiyotning ssenariysi ham ko'rinadi: yolg'izlik → muloqot → ijobiy baho → quvonch. Hissiy holatning yuzaga kelish sabablari, uning nutqiy ifodasi va kontekstual oqibatlarini birgalikda tahlil qilish emotsiyaning konseptual mazmunini aniqlashga xizmat qiladi.

A.Cho'lpon esa quvonchni tabiat va inson ruhiyati uyg'unligida beradi: ***"Har yil bir keladigan bahor sevinchi yana ko'ngillarni qitiqlay boshladi"*** (Cho'lpon, "Kecha va kunduz", 3-b.). "Sevinch" nominatsiyasi "ko'ngil" va "qitiqlamoq" birliklari bilan birikib, hissiyotni ichki makonda harakat qiluvchi kuch sifatida tasvirlaydi. Z.Kyovechesh ta'kidlagan fiziologik, xulqiy va ekspressiv javoblarning emotsiya bilan metonimik bog'lanishi[3] o'zbek badiiy manbalarida ham sermahsul tahlil mezoni bo'la oladi.

Konseptni so'zning lug'aviy ma'nosiga tenglashtirish uning mazmunini toraytiradi. So'z konseptni nomlaydi yoki faollashtiradi, konsept esa bilim, obraz, baho, assotsiatsiya va madaniy tajribani qamrab oladi. S.G.Vorkachev lingvomadaniy konseptni tushunchaviy, obrazli, qadriyatli va lisoniy qatlamlarni birlashtiruvchi sintezlangan birlik sifatida tavsiflaydi. Bizningcha, bu model emotsional konseptlar uchun ayniqsa mos, chunki hissiyot haqidagi bilimda tushuncha va obraz bilan birga baho ham doimo faol qatnashadi[4].

Sh.Usmonova lingvokulturologiyaning vazifalari qatorida til konseptlarini shakllantirishda madaniyatning ishtiroki va konseptosferani aniqlash masalasini alohida ko'rsatadi. Bu nuqtai nazardan "***uyat"***ni faqat "noqulay hissiy holat" sifatida ta'riflash yetarli emas: uning o'zbek tilidagi mazmuni hayo, andisha, el nazari, obro', yuz, tarbiya kabi birliklar bilan qanday bog'lanishini tekshirish kerak. Bunday bog'lanishlar katta materialda takroran tasdiqlangandagina milliy-

[1] Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent, 2019. – B. 33–34.
[2] Kövecses Z. Conceptualizing Emotions: A Revised Cognitive Linguistic Perspective // Poznań Studies in Contemporary Linguistics. – 2014. – Vol. 50(1). – P. 15–18.
[3] Kövecses Z. Conceptualizing Emotions: A Revised Cognitive Linguistic Perspective. – 2014. – P. 17–19.
[4] Воркачев С. Г. Ex Pluribus Unum: лингвокультурный концепт как синтезное образование // Вестник РУДН. Серия: Лингвистика. – 2016. – Т. 20. – № 2. – С. 18–20.; Воркачев С. Г. Ex Pluribus Unum... – 2016. – С. 19–20.

madaniy belgi haqida xulosa chiqarish mumkin. Shu sababli har qanday o‘zbekcha ifodani oldindan milliy xususiyat sifatida baholashdan saqlanish lozim[1].

Emotsional konseptni emotsiya haqidagi konseptuallashtirilgan bilim modeli deb belgilash mumkin. Z.Kyovechesh uning tarkibida konseptual metaforalar, metonimiyalar, aloqador konseptlar va kognitiv-madaniy modellarni ajratadi[2]. Masalan, ***g‘azab*** konseptining mazmuni “kuchli norozilik” tarzidagi lug‘aviy ta’rif bilan cheklanmaydi. “Qoni qaynadi”, “jahli chiqdi”, “o‘zini bosdi” birliklari g‘azabning turli bosqichlarini – kuchayish, tashqi namoyon va nazoratni ko‘rsatadi.

Somatik belgi ham emotsiyaning muhim verbalizatori bo‘la oladi. Kyovechesh g‘azab uchun tana issiqligi, qo‘rquv uchun tana haroratining pasayishi, g‘urur uchun ko‘krakni kerish, uyat uchun qizarish kabi aloqalarni metonimik asosda izohlaydi. O‘zbek badiiy matnida esa g‘am ko‘pincha yuz, ko‘z va ovoz bilan beriladi. O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asaridagi “Onam yana ma’yus jilmaydi” (O‘.Hoshimov, “Dunyoning ishlari”, 9-b.) misolida “ma’yus” salbiy hissiy fonni, “jilmaydi” esa tashqi mimik belgini ifodalaydi. Qarama-qarshi semantik ishoralarning birikishi onaning ichki iztirobini sodda “g‘am chekdi” ifodasidan kuchliroq ochadi. Bu misol emotsional konseptning diskursiv mazmuni lug‘aviy nominatsiyadan keng ekanini ko‘rsatadi[3].

Emotsiya tili yuqori darajada obrazli. Z.Kyovechesh metafora va metonimiyani emotsional konseptning markaziy tarkibiy qismlari deb hisoblaydi[4]. Metafora hissiyotni boshqa tajriba sohasi orqali anglatadi, metonimiya esa hissiyotning sabab yoki oqibat belgisi orqali uning o‘ziga ishora qiladi. Shu farqni saqlash tahlil aniqligini oshiradi. Masalan, “ko‘ngli ko‘tarildi”da yuqoriga yo‘nalish orqali ijobiy holat metaforik modellashtirilsa, “yuzi kuldi”da mimik natija “***quvonch”***ga metonimik ishora qiladi.

Erkin A’zam qissasida “mo‘ylovini alam va nadomat bilan ... yulib tashlagan bo‘lardi” (E. A’zam, “Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati”, 1-b.) tasviri hissiyot nomlarini xatti-harakat bilan birlashtiradi. ***“Alam”*** va ***“nadomat”*** bevosita nominatsiya, mo‘ylovni yulish esa hissiy zo‘riqishning xulqiy belgisi sifatida ishlaydi. Bunday kontekstlarni “emotsiya nominatsiyasi — xulqiy reaksiya — baholash” modeli asosida o‘rganish hissiy holatning leksik ifodasi bilan uning xulqiy va baholovchi belgilari o‘rtasidagi munosabatni aniqlashga imkon beradi. A.Vejbitskaya emotsiyalarni tillar va madaniyatlar kesimida o‘rganib, hissiy ma’nolarni bevosita tarjima ekvivalentlariga tenglashtirishdan ehtiyot bo‘lish zarurligini ko‘rsatadi. Z.Kyovechesh[5] ham keyingi ishlarida tanaviy asoslanganlik (embodiment) bilan bir qatorda kontekst va madaniy modelning rolini kuchaytiradi. Shu sababli o‘zbek tilidagi ***“uyat”, “or-nomus”*** yoki ***“g‘urur”*** konseptlari boshqa tildagi shame, honor, pride birliklari bilan faqat lug‘aviy tarjima asosida tenglashtirilmasligi kerak[6].

O‘zbek tilida ***“ko‘ngil”***ning emotsional markaz sifatida faol ishlatilishi ham alohida e’tibor talab qiladi. “Ko‘ngli yozildi”, “ko‘ngli cho‘kdi”, “ko‘ngli og‘ridi” kabi birikmalar turli emotsiyalarni bitta somatik-madaniy markaz atrofida tashkil etadi. A.Cho‘lponning yuqoridagi “ko‘ngillarni qitiqlay boshladi” va “ko‘ngillari yozilgan” misollari buning badiiy dalilidir. “Ko‘ngil”ni yurakning oddiy sinonimi sifatida cheklamasdan, hissiyot, istak va ruhiy holatlarni bog‘lovchi konseptual birlik sifatida o‘rganish maqsadga muvofiq. Bunday talqin kengroq til materiali asosida tekshirilishi kerak. Biroq bu xulosa frazeologik, paremiologik va korpus materiallari bilan kengroq tasdiqlanishi lozim.

Emotsional konseptlarni o‘rganishda birinchi mezon – konsept nomi bilan cheklanmaslik. Masalan, “***g‘am***”ni qayg‘u, alam, hasrat, iztirob, ma’yuslik kabi nominatsiyalar bilan birga “ko‘ngli cho‘kdi”, “yuragi ezildi”, “ko‘ziga yosh keldi” singari verbalizatorlar ham qamrab olinishi kerak. Ikkinchi mezon – har bir kontekstda sabab, hissiy holat, tana yoki nutq belgisi, xulqiy reaksiya va oqibatni ajratish.

Uchinchi mezon – turli turdagi lingvistik manbalardan foydalanish: lug‘at konseptning yadro ma’nosini, frazeologiya va paremiya jamoaviy obraz hamda bahoni, badiiy matn esa hissiy ssenariyning real diskursdagi ishlashini ko‘rsatadi. To‘rtinchi mezon – milliy xususiyatni takroriy dalil bilan asoslash. Beshinchi mezon – konseptlarni o‘zaro aloqada ko‘rish: ***“quvonch–g‘am”, “qo‘rquv–jasorat”, “uyat–or-nomus”, “g‘urur–kibr”*** kabi munosabatlar emotsional konseptosferaning ichki tuzilishini ochadi.

Ko‘rib chiqilgan nazariy yondashuvlar emotsional konseptning turli jihatlarini izohlaydi. Kyovechesh modeli emotsiyaning metaforik, metonimik va asosini aniq tushuntiradi. Sh.Usmonova va S.Vorkachev esa konseptning til-madaniyat kesishmasidagi baholovchi va obrazli qatlamlarini yoritadi. O‘zbek til-

[1] Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent, 2019. – B. 33–34.
[2] Kövecses Z. Metaphor and Emotion. – Eötvös Loránd University, Budapest. – P. 1–3.
[3] Kövecses Z. Conceptualizing Emotions: A Revised Cognitive Linguistic Perspective. – 2014. – P. 17–19.
[4] Kövecses Z. Metaphor and Emotion. – Eötvös Loránd University, Budapest. – P. 1–4.
[5] Kövecses Z. Conceptualizing Emotions: A Revised Cognitive Linguistic Perspective. – 2014. – P. 15–28.
[6] Wierzbicka A. Emotions Across Languages and Cultures: Diversity and Universals. – Cambridge: Cambridge University Press, 1999. – P. 1–7.

idagi emotsional materialni tadqiq etishda ushbu yondashuvlarning birini mutlaq ustun qo‘yish emas, ularni empirik vazifaga qarab uyg‘unlashtirish samaraliroq. Shu asosda emotsional konseptga quyidagi ishchi ta’rifni taklif etamiz: emotsional konsept – muayyan hissiy holat haqidagi bilim, baho, tanaviy tajriba, obraz va madaniy me’yorlarni birlashtiruvchi hamda leksik, frazeologik, paremiologik va diskursiv vositalar orqali verbalizatsiya qilinadigan dinamik mental-madaniy tuzilma. Bu ta’rifda “dinamik” belgisi muhim: konsept lug‘atdagi tayyor ta’rif emas, turli kontekstlarda ayrim belgilarini faollashtiradigan tizimdir[1].

Emotsiya, konsept va emotsional konseptni farqlash tadqiqotning terminologik aniqligini ta’minlaydi. Badiiy misollar shuni ko‘rsatadiki, emotsiya o‘zbek tilida nominatsiya bilan birga “ko‘ngil”, yuz, mimika, xatti-harakat va sababiy ssenariy orqali ham ochiladi. A.Qodiriy quvonchni ijtimoiy yaqinlik bilan, A.Cho‘lpon bahor va “ko‘ngil” modeli bilan, O‘.Hoshimov g‘amni “ma’yus jilmayish” orqali ifodalash bilan, Erkin A’zam esa alam va nadomatni xulqiy reaksiya bilan bog‘laydi. Shuning uchun keyingi tadqiqotlarda emotsiya nomlarini sanash emas, verbalizator – konseptual belgi – kognitiv mexanizm – madaniy baho zanjirini tahlil qilish maqsadga muvofiq. Bizningcha, aynan shu yo‘l o‘zbek tilining emotsional konseptosferasini dalillarga tayangan holda modellashtirish imkonini beradi.

Rezyume: Maqolada emotsiya, konsept va emotsional konsept tushunchalari kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslik asosida farqlanadi. Kyovechesh, A. Vejbitskaya, Vorkachev va Usmonova qarashlari o‘zbek badiiy matnlaridagi misollar bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Emotsional konseptni nominatsiya, metafora, metonimiya, somatik belgi, baho va madaniy model birligida o‘rganish taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: emotsiya, konsept, emotsional konsept, lingvokognitivistika, lingvomadaniyatshunoslik, konseptualizatsiya, verbalizatsiya, emotsional semantika, konseptual metafora, milliy-madaniy xususiyat, emotsional konseptosfera.

Резюме: В статье разграничиваются понятия эмоции, концепта и эмоционального концепта с позиций когнитивной лингвистики и лингвокультурологии. Подходы З. Кёвечеша, А. Вежбицкой, С. Г. Воркачева и Ш. Усмановой рассматриваются на материале узбекских художественных текстов. Предлагается анализировать эмоциональный концепт через номинацию, метафору, метонимию, соматические признаки, оценку и культурную модель.

Ключевые слова: эмоция, концепт, эмоциональный концепт, когнитивная лингвистика, лингвокультурология, концептуализация, вербализация, эмоциональная семантика, концептуальная метафора, национально-культурная специфика, эмоциональная концептосфера.

Resume: The article distinguishes emotion, concept and emotional concept from cognitive-linguistic and linguocultural perspectives. The views of Kövecses, Wierzbicka, Vorkachev and Usmonova are discussed through examples from Uzbek literary texts. Emotion concepts are proposed to be analyzed through nomination, metaphor, metonymy, bodily signs, evaluation and cultural models.

Keywords: emotion, concept, emotional concept, cognitive linguistics, cultural linguistics, conceptualization, verbalization, emotional semantics, conceptual metaphor, national and cultural specificity, emotional conceptual sphere.

[1] Kövecses Z. Emotion Concepts. – New York: Springer-Verlag, 1990. – P. 33–49.; Wierzbicka A. Emotions Across Languages and Cultures: Diversity and Universals. – Cambridge: Cambridge University Press, 1999. – P. 1–7.; Воркачев С. Г. Ex Pluribus Unum... – 2016. – С. 18–20; Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent, 2019. – B. 33–34.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 9
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

МУИЗЗИЙ ВА ҲОФИЗ ШЕЪРИЯТИДА АДАБИЙ ТАЪСИР ВА ИЖОДИЙ ВОРИСЛИК

Abdullaev Ramazon,
Termiz davlat universiteti
tojik filologiyasiva sharq tillari kafedrasi dotsenti

Ғазалнависликда машҳур бўлган Ҳофиз Шерозий Амир Муиззийнинг шеърларига алоҳада эътибор билан қараган, бу эса баъзи жиҳатлари билан мулоҳазага лойиқдир. Ҳофизнинг ижодий тажрибасидан келиб чиқадики, у Муиззий девони ва унинг ёзиш услубидан хабардор бўлган ва кўп ҳолларда унинг қасидалари ва ёзиш услубидан таъсирланган. Фатҳуллоҳ Мужтабоийнинг кузатувига кўра, "гарчи уларнинг иккисини сўзлаш услуби ва тафаккур тарзи бир-биридан фарқ қилса-да, Хожа ўз ғазалларини баъзи байтларини айтишда Муиззийнинг бир байти ёки байтларига назар солгани ва унинг иборалари ва мазмунларини ўз шеърида келтиргани тўлиқ равшандир"[1].

Ҳофиз девонида Муиззий қасидаларидан фойдаланиш ҳолатлари жуда кўп, уларнинг ҳаммасини бир мақолада бериш мушкил. Фақат Муиззий девонининг баъзи байтларини, Ҳофиз улардан таъсирланган ёки унинг фикрлари ва ғояларига эргашиб шеър айтганларини кўриб чиқиш мумкин.

Ҳофиз девонида, аллома Муҳаммад Қазвинийнинг таҳрири билан чоп этилган, бир ғазал борки, у қуйидаги байт билан бошланади:

Дӯш савдои рухаш гуфтам зи сар берун кунам,

Гуфт: ку занҷир, то тадбири ин Маҷнун кунам[2]

Байтлар мазмуни ва шарҳи: «Кечаси хаёлимга: «Ёр юзининг савдоси (ишқи)ни бошимдан чиқариб ташлай», деган фикр келди. Кўнгил (ёки ақл) эса деди: «Қани занжир келтир-чи, токи бу Мажнундек девона кўнгилнинг тадбирини кўрай!» (Яъни, ошиқнинг кўнгли ишқ туфайли шу қадар девона бўлганки, уни ақл билан босиб бўлмайди, жиловлаш учун девоналарга солинадиган занжир керак).

Бу ғазалда бир байт борки, уни ҳам иқтибос келтирамиз:

Эй насими манзили Лайлӣ, худоро то ба кай
Рубъро барҳам занам, итлолро Ҷайҳун кунам[3]

«Эй Лайли манзилининг насими (хуш шабадаси), Худо ҳаққи айт-чи, мен яна қачонгача (Мажнун сингари) у ташлаб кетган маконларни остин-устун қилиб, кўз ёшларим билан харобаларни Жайҳун дарёсига айлантирай?!» (Бу ерда араб классик шеъриятига хос «рубъ» – кўчманчилар манзили ва «атлол» – севгилидан қолган чодир харобалари устида йиғлаш анъанасига гўзал талмеҳ қилинган).

Ҳофизнинг зикр этилган ғазали, шубҳасиз, Муиззийнинг "Шарафуддин Абутоҳир Саъд ибн Али Муставфий мадҳига" бағишланган қасидасига эргашиб яратилган, у билан ўхшаш ва умумий маъно ва мазмунга эга. Ҳофиз ғазалининг кўплаб байтлари Муиззий қасидасининг байтлари билан структуравий ўхшашликларга эга. Жумладан, юқорида иқтибос келтирилган байт Ҳофизнинг Муиззий шеъридан таъсирланганини очиқ кўрсатади. Муиззий қасидаси ўша байт билан бошланадики, у Ҳофизнинг Муиззий шеъридан таъсирланганини аниқ кўрсатади. Муиззий байти қуйидагичадир:

Эй сорбон, манзил макун ҷуз дар диёри ёри ман,
То як замон зорӣ кунам бар рубъу итлолу даман[4].

Мазмуни: Эй сарбон, менинг ёримнинг диёридан бошқа жойга борма, акс ҳолда чорак, харобалар ва тепаликларга етишга ҳаракат қиласан.

Муиззий қасидасининг қуйидаги байти Ҳофизнинг Муиззий шеъридан чуқур фойдаланганини далилидирки, у унинг мундарижавий ва бадиий

[1] مجتبایی، ف. حافظ و امیر معزی / ف. مجتبایی // مجلهٔ ایران‌شناسی. - تهران. - سال دوم. - صص. ۳۳۲–۶۳۲. С. 333

[2] Ҳофизи Шерозӣ. Девон. Ба саъй ва эҳтимоми Муҳаммад Қазвиний ва доктор Қосим Ғанӣ. – Теҳрон: Чопхонаи Сино (Интишороти Заввор), 1320 ҳ.ш. – 349-ғазал, - С.240

[3] Шу манба –С.240

[4] کلیات دیوان معزّی. با مقدمه و تصحیح ناصر حائری. - تهران، ۲۴۳۱ - С.٥٤٥

ўзига хосликларида ифодаланган:

Рубъ аз дилам пурхун кунам, хоки даман гулгун кунам.

Итлолро Ҷайҳун кунам аз оби чашми хештан[1].

Мазмуни: Мен дилдан қон тўкиб, тепалик тупроғини гулранг қиламан, харобаларни кўз ёшим билан Жайҳун қиламан.

Муиззий қасидасининг давомида шундай сўзлар ва маънолар борки, улар Ҳофиз ғазалининг баъзи байтларида такрорланган. Умуман олганда, гарчи бу икки асарнинг қофияси бир-биридан фарқ қилса-да, уларнинг вазни ва зарб-оҳанги бир-бири билан мукаммал мутаносибликка эга, Муиззий қасидасининг мадҳ этилувчига қаратилган ўша ошиқона мазмуни ва оҳанги Ҳофиз ғазалларининг мундарижавий ва шаклий тузилмасида кўзга ташланади. Мазкур қасидани Абдураҳмон Жомий арабзабон шоирларни услубидан фойдаланиб ёзган дейди[2]

Амир Муиззийнинг “Султон Маликшоҳ мадҳида”ги бир қасидаси борки, у қуйидаги байтлар билан бошланади:

Бишкуфту тоза гашт дигарбора Исфаҳон,
Аз давлату саодати шоҳаншаҳи ҷаҳон.
Султони Шарқу Ғарб, ки дар Шарқу Ғарб ӯст
Соҳибқирон хусраву шоҳи худойгон [3].

Мазмуни: Исфаҳон шоҳаншоҳнинг давлати ва саодати билан очилди ва янгиланди; Шарқ ва Ғарбда ҳам Соҳибқирон хусрав ва илоҳий шоҳ удир.

Ҳофизнинг бир ғазалида биз қуйидаги байтларга дуч келамиз:

Шуд арсаи замин чу бисоти ирам ҷавон,
Аз партави саодати шоҳи ҷаҳонситон.
Хоқони Шарқу Ғарб, ки дар Шарқу Ғарб ӯст
Соҳибқирон хусраву шоҳи худойгон[4]

Мазмуни: Дунёни забт этувчи шоҳнинг бахт-саодати нуридан ер юзи Ирам боғининг пояндозидек яшнаб ёшарди. У Шарқу Ғарбнинг хоқонидирки, Машриқу Мағрибда ягона соҳибқирон, улуғ ҳукмдор ва подшоҳлар подшоҳидир..

Бундан ташқари, Муиззий девонида бошқа маъно-мазмунлар ва нуқта-иборалар ҳам кузатиладики, Ҳофиз ўз ғазалларида уларни такрорлаган ёки уларга ўхшаш ғазал яратган. Бундай шеърий парчаларда Муиззийнинг ёзиш услубининг “лисонулғайб” (ғайб тили) фикрлари, ғоялари ва ёзиш услубига таъсири сезиларлидир. Шу муносабат билан аввал Муиззийнинг “Султон вазири мадҳида”ги қасидасидан қуйидаги байтни, сўнгра Ҳофизнинг Муиззий услубига эргашиб ёзган ғазалидан бир байтни иқтибос келтирамиз.

Муиззийдан:

Ҷаҳону ҳар чи дар ӯ ҳаст ошкору ниҳон,
Мусаллам аст ба адли вазири шоҳи ҷаҳон[5].

Ҳофиздан:

Ҷаҳону ҳар чи дар ӯ ҳаст саҳлу мухтасар аст,
З-аҳли маърифат ин мухтасар дареғ мадор[6]

Байт мазмуни ва шарҳи: «Бу дунё ва унинг ичидаги бор нарса арзимас, фоний ва мухтасардир; бас, маърифат аҳлидан ана шу арзимас дунёни (унга боғлиқ вафо ва илтифотни) дариғ тутма (аяма)». (Орифлар наздида дунё бебақо, шундай экан, дилдор ўз ошиқидан ҳеч бўлмаганда шу бир лаҳзалик висол ёки назарни қизғанмаслиги керак).

Кўриб турганимиздек, бу икки байт мундарижавий ва бадиий-услубий жиҳатдан асосий ўхшашликларга эга, унда Ҳофизнинг Муиззий шеъридан таъсирланган аниқ кўриниб турибди. Муиззий қасидасининг ва Ҳофиз ғазалининг тўлиқ матнидан маълум бўладики, ҳар икки шоир юксак санъат асари яратиш учун тўлиқ маҳорат ва қудрат кўрсатганлар. Муиззий сарой ва ўз мадҳ этилувчисининг ҳолатини билувчи шоир сифатида, Ҳофиз эса инсонни тарбиялаш ва муҳит ҳамда инсонларнинг ишлари ва ҳаракатларига ахлоқий таъсир кўрсатиш мақсадида таъсирчан тасвирий воситалардан фойдаланганлар. Ҳам Муиззий қасидаси, ҳам Ҳофиз ғазали равон, содда ва ҳаммага тушунарли баёни билан ажралиб туради, бадиий тасвир воситалари ҳам ўқувчининг онги ва тушунчасига яқиндир. Бу икки байтнинг ўхшашлигини фақат “ҷаҳону ҳар чи дар ӯ ҳаст” (жаҳон ва ундаги бор нарса) ибораси белгиламайди, балки Муиззий байтининг ички мазмунини тарҳи(қолипи) Ҳофиз учун пайравлик ва фойдаланиш манбаи бўлган. Муиззий байтида “ошкору ниҳон” (ошкор ва яширин) бирикмаси, Ҳофизда эса “саҳли мухтасар” (осон ва қисқа) асл мақсадга ишора қилади, бунда бири иккинчисининг кучайтирилишидир.

Амир Муиззийнинг “Сафий султон Абутоҳир Исмоил мадҳида”ги қасидасида қуйидагидек бир

[1] ۲۴۳۱ کلیات دیوان معزّی. با مقدمه و تصحیح ناصر حائری. - تهران، - С.٥٤٥

[2] .Ҷомӣ А. Баҳористон. Ба чоп тайёркунанда Аълохон Афсаҳов . – Душанбе: Ирфон, 1966. –С.94-95

[3] ۲۴۳۱ کلیات دیوان معزّی. با مقدمه و تصحیح ناصر حائری. - تهران، - С.485

[4] Ҳофизи Шерозӣ. Девон. Ба саъй ва эҳтимоми Муҳаммад Қазвиний ва доктор Қосим Ғанӣ. – Теҳрон: Чопхонаи Сино (Интишороти Заввор), 1320 ҳ.ш. – 349-ғазал, -С.112–113

[5] ۲۴۳۱ کلیات دیوان معزّی. با مقدمه و تصحیح ناصر حائری. - تهران، С.٥٤٧

[6] Ҳофизи Шерозӣ. Девон. Ба саъй ва эҳтимоми Муҳаммад Қазвиний ва доктор Қосим Ғанӣ. – Теҳрон: Чопхонаи Сино (Интишороти Заввор), 1320 ҳ.ш. – 39-ғазал (43) – С.28

байт бор:

Соғар биёру ҷом бихоҳу бинӯш май,
К-аз дасти ту ҳалолтар аз шири модар аст[1].

Мазмуни: Соғар келтир, жом сўра ва май ич – сенинг қўлингдан ҳамма нарса ҳалолдир.

Бу қасидани қуйидаги байти айнан шу байтнинг ўхшашидир:

Аз ғояти карам зуафоро туйӣ падар,
Шояд, ки бахти нек туро ҳамчу модар аст [2].

Мазмуни: Ўта саховатли сен заифларга ёрдам берасан, яхши бахт эса сенга онадекдир.

Ҳофиз, шубҳасиз, қуйидаги байтлари иқтибос келтирилган бошқа бир ғазални яратишда ҳам аниқ Муиззийнинг зикр этилган қасидасига назар солган:

Боғи маро чӣ ҳоҷати сарву санавбар аст,
Шамшоди хонапарвари мо аз кӣ камтар аст.
Эй нозанин писар, ту чӣ мазҳаб гирифтай,
К-ат хуни мо ҳалолтар аз шири модар аст.
Чун нақши ғам зи дур бубинӣ шароб хӯр,
Ташхис кардаему мудово муқаррар аст.
Аз остони пири муғон сар чаро кашем,
Давлат дар он сарову кушоиш дар он дар аст[3]

Байтлар мазмуни ва шарҳи: «Менинг боғимга ташқаридаги сарв ва санавбар дарахтларининг нима ҳожати бор? Бизнинг ҳовлимизда парвариш топган шамшод қадли ёр кимдан кам?!»

«Эй нозанин гўзал, сен қандай дину мазҳаб тутгансанки, ошиқларингнинг қонини тўкиш сен учун она сутидан ҳам ҳалолроқ бўлиб қолди?!»

«Ғам-андуҳ шарпасини узоқдан кўришинг биланоқ май тутгин; биз дарднинг ташхисини қўйганмиз, унинг давоси фақат шароб экани муқаррардир».

«Пири муғон (маънавий раҳнамо) остонасидан нечун бош тортайлик?! Ҳақиқий давлат ва саодат ўша саройда, мушкуллар кушойиши фақат ўша эшикдадир».

Ҳофиз ғазалининг матлаъ байтлари Муиззий қасидасининг ташбибидан фарқ қилади, ҳар бир шоир мақсадга мувофиқ сўз ва ибораларни ишлатган. Иккинчи байтдан ташқари ғазалнинг бошқа байтлари янги ва тароватлидир. Фақат иккинчи байтда Ҳофиз Муиззийнинг ёзиш услуби ва фикрига эргашиб, нафақат Муиззийнинг иборасини ишлатган, балки унинг ғоявий мақсади ҳам Муиззий байтининг ички мазмунига ўхшашдир.

Ҳофиз вақт ўтиши билан турли мақсадларда Муиззийнинг ижодий тажрибасига мурожаат қилиб, уни турли усулларда қабул қилган ва эргашган. Ҳофиз ғазалларини Муиззий қасидалари билан ўрганиш ва таққослаш бизни шу хулосага олиб келди. Мақсадимиз равшан бўлиши учун, аввал Ҳофизнинг қуйидаги ғазалидан бир парча иқтибос келтириб, сўнгра уни Муиззий қасидасини ўхшаш байтлари билан таққослаймиз.

Ҳофиз ғазалидан бир парча:

Дар ҳама дайри муғон нест чу ман шайдое,
Хирқа ҷое гарави бодаву дафтар ҷое.
Дил, ки оинаи софист, ғуборе дорад,
Аз Худо металабам суҳбати равшанрое.
Кардаам тавба ба дасти санами бодафурӯш,
Ки дигар менахӯрам май бе рухи базморое...
Гар мусалмонӣ аз ин аст, ки Ҳофиз дорад,
Оҳ агар аз пайи имрӯз бувад фардое.[4]

Байтлар мазмуни ва шарҳи: 1-байт мазмуни: «Бутун майхонада мендек ошиқу шайдо кимса йўқ: риёкорлик ҳирқам шароб эвазига бир бурчакда гаровда, зоҳидий илм дафтарим эса бошқа бир чеккада қаровсиз қолган».

2-байт мазмуни: «Кўнгил аслида пок кўзгу эди, аммо дунёвийликдан унга ғубор қўнди; энди Худодан қалби ёруғ, комил бир суҳбатдошни насиб этишини тилайман». 3-байт мазмуни: «Шароб сотувчи ўша гўзал соқий қўлида тавба қилдимки: энди давраларга файз берувчи ёрнинг жамолисиз ҳаргиз май ичмайман!» 4-байт (мақтаъ) мазмуни: «Агар чинакам мусулмонлик Ҳофизнинг мана шу ҳоли (ёки одамлар тасаввур қилаётган зоҳирпарастлик) бўлса, оҳки, бугунги дунёнинг ортидан эртанги ҳисоб-китоб (Қиёмат) куни келса, ҳолимизга вой!»

Биз Муиззий қасидасидан фақат қуйидаги байтни бу ерда келтирамиз, чунки бу борада Саноий Муиззийнинг бу қасидасидан пайравлиги ва таъсирланиши ҳақида бошқа мақолада батафсил сўз юритганмиз:

Ин ҳама зиштӣ макун, к-ирӯзро фардо бувад
В-ар ту гӯйӣ аз паси имрӯз фардо нест, ҳаст[5].

Мазмуни: Ҳамма нарсада хунуклик қилма, чунки эрта бор; агар сен эрта йўқ десанг ҳам, у бор.

Кўриб чиқилаётган ғазал, Ҳофизники, ва Муиззий қасидаси лирик монолог бўлиб, бири Ҳофизнинг ифодаси билан айтганда, “маъшуқапараст” шахсиятга нисбатан ўз фикр ва ғоясини ҳеч кимдан қўрқмай баён этган, иккинчиси эса ўз мадҳ

[1] ۲۴۳۱ - C.127 کلیات دیوان معزّی. با مقدمه و تصحیح ناصر حائری. ـ تهران،
[2] ۲۴۳۱ - C.۱۲۷ کلیات دیوان معزّی. با مقدمه و تصحیح ناصر حائری. ـ تهران،
[3] Ҳофизи Шерозӣ. Девон. Ба саъй ва эҳтимоми Муҳаммад Қазвиний ва доктор Қосим Ғанӣ. – Теҳрон: Чопхонаи Сино (Интишороти Заввор), 1320 ҳ.ш. – 39-ғазал (43) –С. 28
[4] Ҳофизи Шерозӣ. Девон. Ба саъй ва эҳтимоми Муҳаммад Қазвиний ва доктор Қосим Ғанӣ. – Теҳрон: Чопхонаи Сино (Интишороти Заввор), 1320 ҳ.ш. – 490-ғазал 349 б.
[5] ۲۴۳۱ - C.٦٩٣ کلیات دیوان معزّی. با مقدمه و تصحیح ناصر حائری. ـ تهران،

этилувчиси билан дил розини, пайғом ва дуо айтади. Ҳофиз ғазали ва Муиззий қасидаси ўртасидаги умумийлик ягона ички мазмундирки, Ҳофиз уни Муиззийдан олган. Бу ерда мақсад фақат ўхшаш тасвирий унсурлар ёки “зиштӣ”(хунуклик), “имрӯз” (бугун), “фардо” (эрта) ва шу каби бир хил рангли сўз ва иборалар эмас, балки тасвирнинг маънавий-бадиий асосидирки, Ҳофиз уни Муиззийдан ишлатган ва у таворуддан устундир. Зикр этилган сўзлардан ташқари Ҳофиз ғазалида шундай сўзлар ҳам борки, улар Муиззий қасидасида ўз ўхшашига эга бўлса-да, бошқа маъно юкини кўтаради, масалан, шайдое, парвое, орое, дарёе, тарсое ва бошқалар.

Муиззийнинг “Малик Санжар мадҳида” номли бир қасидаси бор. Ҳофиз унинг қуйидаги байтига назар солган:

Гар ба кори сомириву кори чашмаш бингаранд,
Чашми ӯ донотар аст аз сомирӣ дар соҳирӣ[1].

Мазмуни: Сомирийнинг иши ва кўзига қарасангиз, унинг кўзи сеҳргарликда Сомирийдан юқори турибди.

Ҳофиз бир ғазалида Муиззийнинг “маъноси ва сўзини” қамраб олиб, “унинг сўзларининг бирикмасини” ўзгартириб, “бошқа бир жиҳатдан адо” этган[2], у қуйидагичадир:

Қиёс кардаму он чашми ҷодувонаи маст
Ҳазор соҳир чун сомириш дар гала буд[3]

Байт мазмуни ва шарҳи: «Мен унинг ўша маст ва сеҳргар кўзини қиёслаб кўрдим: (маълум бўлдики) унга қарши сеҳрда Сомирийдек минглаб катта сеҳргарлар унинг қошида бир тўда оддий шогирдлар каби ожиз экан». (Мусо алайҳиссалом даврида бузоқ ясаб халқни сеҳрлаган Сомирий тимсоли орқали ёр кўзларининг жозибаси баён қилинган).

Муиззийнинг бир рубоийси борки, унинг таъсири Ҳофизнинг бир ғазалида кузатилади:

Дар ишқи ту зеру бам ҳамовози мананд,
Андешаву боди сард дамсози мананд.
Хомӯшиву сабр хозини рози мананд,
Ранги руху оби дида ғаммози мананд[4].

Мазмуни: Сенинг ишқингда паст ва баланд овозлар менинг ҳамнаволаримдир, уй ва совуқ шамол менинг ҳамдамларимдир.Сукунат ва сабр менинг сиримнинг хазиначиларидир, юзнинг ранги ва кўз ёши менинг сир очувчиларимдир.

Қуйида келтириладиган Ҳофиз байтида Муиззийнинг зикр этилган рубоийсининг таъсири кузатилади:

Туро сабову маро оби дида шуд ғаммоз
В-агарна ошиқу маъшуқ роздоронанд[5]

Байт мазмуни ва шарҳи: «Сенинг сиримни тонгги сабо шамоли (сочинг хушбўйини таратиб), менинг сиримни эса тинмай оққан кўз ёшларим ошкор қилди (чақимчилик қилди); аслида эса ошиқ ҳам, маъшуқ ҳам сир сақловчи бўладилар». Ҳофиз Муиззийнинг бошқа бир қасидаси “Султон Санжар мадҳида”га ҳам назар солган, қуйидаги байт ўшандандир:

Захми камонгуруҳаи ту моҳро бихаст,
З-он хастагӣ ба рӯи маҳ андар нишон гирифт[6].

Мазмуни: Сенинг камонингдан чиқган ўқ ойни яралади, ундан ой юзида нишон қолди.

Ҳофиз Муиззийнинг бу қасидасидан фойдаланиб, қуйидаги тўққиз байтлик ғазални ёзган, унинг ғазалида асл нусха шеърининг таъсири сезилади. Ҳофиз байти қуйидаги шаклдадир:

Рӯзи азал аз килки ту як қатра сиёҳӣ
Бар рӯи маҳ афтод, ки шуд ҳал масоил[7]

Байт мазмуни ва шарҳи: «Азал кунида (тақдир/шоҳнинг фармон) қаламидан бир қатра қора сиёҳ тўкилиб, ойдек юз узра (хол бўлиб) тушди ва шу билан бутун мушкул масалалар ечилди (олам ҳусн ва адолат низомига эга бўлди)».

Кузатилганидек, юқоридаги икки байт ўртасида маъно ва мазмунда ўхшашлик ва муносабат очиқдир. Ҳар икки шоир ой юзидаги парданинг мавжудлигини икки турли, лекин айни пайтда ўхшаш сабаб билан изоҳлаганлар ва унинг ҳар бир турини ўз мадҳ этилувчиларининг санъати ёки шон-шарафининг улуғлигига нисбат берганлар.

Бу баҳснинг бошида Муиззий ва Ҳофиздан бошқа бир намуна иқтибос келтириб, сўнгра улар ҳақида фикр юритамиз.

Муиззийдан:

Маълум шудаст ин хабар аз дафтари аҳком,
Мафҳум шудаст ин сухан аз номаи асрор.
Дерест, ки дар чарх ҳамин таъбия созанд,
Ҳафт ахтари сайёр дар ин шуғлу дар ин кор.

[1] کلیات دیوان معزّی. با مقدمه و تصحیح ناصر حائری. - تهران، ۲۴۳۱ - С.٦٤٢

[2] Шамси Қайси Розӣ. Ал-муъҷам / Шамси Қайси Розӣ. – Душанбе: Адиб, 1991.- С.371

[3] Ҳофизи Шерозӣ. Девон. Ба саъй ва эҳтимоми Муҳаммад Қазвиний ва доктор Қосим Ғанӣ. – Теҳрон: Чопхонаи Сино (Интишороти Заввор), 1320 ҳ.ш. 215-ғазал, -С.145

[4] کلیات دیوان معزّی. با مقدمه و تصحیح ناصر حائری. - تهران، ۲۴۳۱ - С.٧١٩

[5] Ҳофизи Шерозӣ. Девон. Ба саъй ва эҳтимоми Муҳаммад Қазвиний ва доктор Қосим Ғанӣ. – Теҳрон: Чопхонаи Сино (Интишороти Заввор), 1320 ҳ.ш. – 195-ғазал, -С.133

[6] کلیات دیوان معزّی. با مقدمه و تصحیح ناصر حائری. - تهران، ۲۴۳۱ - С.٧٦-٧٥

[7] Ҳофизи Шерозӣ. Девон. Ба саъй ва эҳтимоми Муҳаммад Қазвиний ва доктор Қосим Ғанӣ. – Теҳрон: Чопхонаи Сино (Интишороти Заввор), 1320 ҳ.ш. – 304-ғазал –С.207

Ин давлату в-ин мулк ба бозӣ натавон дошт,
Бозӣ набувад таъбияи ахтари сайёр[1].

Мазмуни: Бу хабар ҳукмлар дафтаридан ва сирлар номасидан маълум; давлат ва мулкни ўйин билан сақлаб бўлмайди, сайёра юлдузнинг тадбири жиддийдир.

Ҳофиздан:

Мабош ғарра ба бозии худ, ки дар зарб аст
Ҳазор таъбия дар ҳукми подшоҳангез[2]

Байт мазмуни ва шарҳи: «Ўз ўйинингга (шахмат доналарини юритишингга ва макру ҳийлаларингга) мағрур бўлмагин! Зеро тақдир Шоҳининг ҳукми остида сенга қарши зарба беришга тайёр турган минглаб пинҳона лашкар ва тадбирлар мавжуддир». (Бу байт шахмат истилоҳлари: «бозӣ», «дар зарб будан» – донанинг зарба остида қолиши, «таъбия» – доналарнинг жанг майдонига тизилиши ва «шоҳ» сўзлари асосида тузилган энг нозик ташбеҳли байтлардан биридир).

Муиззийдан нақл қилинган бу уч байт унинг “Амир Арслон Арғу мадҳида”ги қасидасидан иқтибос қилинди. Бу қасида бу амирнинг Марвдаги ташвишли ҳукмронлиги воқеасига ва Баркиёруқнинг Хуросонни ўз ҳукмронлиги ҳудудига қўшиб олиш учун қилган ҳаракатларига аниқ ишораларга эга. Ҳофизнинг байти ҳам зоҳиран Арслон Арғунинг ҳолатига ўхшаш ҳолатда бўлган бир подшоҳ ёки амирга хитобдир, у ўз тадбирлари ва сиёсий ўйинларига мағрур ва ишонган, лекин юлдузларнинг ҳукмларида содир бўлган тадбирлар бошқачадир ва подшоҳнинг қўзғалиши ёки йиқилишидан хабар беради.

Ҳофиз байтининг асосий сўзлари ва бирликларининг ҳаммаси Амир Муиззийдан иқтибос келтирилган байтларда мавжуд. Сўзлар ва маънолардаги бу иштирок шунчалик яқин ва очиқдирки, уни тасодиф ёки таворудга нисбат бериб бўлмайди. Балки бу Ҳофизнинг тажрибаси унинг Амир Муиззийнинг ёзиш услубига эътиборининг далилидирки, унинг шеъридан таъсирланганини тасдиқлайди ва исботлайди.

Резюме. Мазкур мақолада форс-тожик мумтоз шеъриятининг икки йирик вакили – Амир Муиззий Нишопурий ва Хожа Ҳофиз Шерозий ижоди ўртасидаги адабий таъсир, бадиий алоқадорлик ва ижодий эргашиш (татаббуъ) масалалари қиёсий-текстологик жиҳатдан тадқиқ этилган. Тадқиқотда Ҳофиз Шерозийнинг Муиззий девони, унинг қасиданавислик маҳорати ва услубий тажрибасидан чуқур хабардор бўлгани аниқ мисоллар орқали кўрсатиб берилган. Мақолада Муиззий қасидалари ва Ҳофиз ғазалларининг вазн, қофия, ички оҳанг, тасвирий воситалар (хусусан, араб мумтоз шеъриятига хос «рубъ» ва «атлол» анъанаси, шахмат истилоҳлари тизими, «сабо» ва кўз ёши тимсоллари) ҳамда фалсафий-эстетик концепциялари қиёсланган. Таҳлиллар натижасида Ҳофиз ўз салафи Муиззийнинг мадҳиявий қасидаларига хос айрим тасвир ва ибораларни шунчаки такрорламай, балки уларни ўзининг юксак фалсафий-ирфоний ва ахлоқий-дидактик ғазалиёти доирасида янги бадиий мазмун билан бойитгани илмий асосланган.

Resume. This article examines the issues of literary influence, artistic succession, and creative emulation (*tatabbu'*) between two prominent figures of classical Persian-Tajik poetry – Amir Mu'izzi Nishapuri and Khwaja Hafiz Shirazi, through a comparative textological approach. Based on concrete textual evidence, the study demonstrates Hafiz's profound familiarity with Mu'izzi's Divan, his style, and panegyric qasidas, which directly influenced the imagery and structure of several ghazals of Hafiz. The paper conducts a comparative analysis of meter, rhythm, poetic devices (specifically the classical Arabic tropes of *rub'* and *atlal*, chess terminology, and motifs of the dawn breeze and tears), as well as philosophical concepts present in Mu'izzi's qasidas and Hafiz's ghazals. The author substantiates that Hafiz did not merely replicate the phraseology of his predecessor; rather, he creatively transformed Mu'izzi's panegyric elements and thematic motifs, elevating them to a higher aesthetic, mystical (*irfani*), and moral-didactic plane.

Резюме. В данной статье с позиций сравнительно-текстологического анализа исследуются вопросы литературного влияния, художественной преемственности и поэтического следования (*матаббу*) между творчеством двух выдающихся представителей персидско-таджикской классической поэзии – Амира Муиззи Нишапури и Хафиза Ширази. На конкретных текстовых примерах доказывается глубокая осведомленность Хафиза с диваном, стилем и одами Муиззи, а также отражение его поэтического опыта в газелях Хафиза. Проведен сопоставительный анализ метрики, ритмической структуры, систе-

[1] کلیات دیوان معزّی. با مقدمه و تصحیح ناصر حائری. - تهران، ۲۴۳۱ - C.234

[2] Ҳофизи Шерозӣ. Девон. Ба саъй ва эҳтимоми Муҳаммад Қазвиний ва доктор Қосим Ғанӣ. – Теҳрон: Чопхонаи Сино (Интишороти Заввор), 1320 ҳ.ш. – 266-ғазал –С.180

мы тропов и фигур (в частности, мотивов «руб'» и «атлаль», шахматной терминологии, образов утреннего ветерка – «саба» и слез), а также идейно-тематических пластов касыд Муиззи и газелей Хафиза. Автор делает научно обоснованный вывод о том, что Хафиз не просто заимствовал панегирические формулы и отдельные бейты своего предшественника, а творчески переосмыслил их, органично интегрировав в контекст своей глубокой философско-суфийской и этической лирики.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 9
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

"QISASI RABG'UZIY" ASARI POETIKASI VA BADIIY-ESTETIK XUSUSIYATLARI XUSUSIDA

Arslonov Abdimurod Karomatovich,
Termiz davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Qissa janrining tarixiy ildizlarini, uning poetik tabiatini ilmiy jihatdan chuqur o'rganish zamonaviy o'zbek adabiyotshunosligining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi[1]. Bu borada mumtoz adabiyotimizning eng qadimiy namunalaridan tortib, XX asr o'zbek qissachiligigacha bo'lgan katta tarixiy yo'lni bosib o'tgan janr taraqqiyotini yaxlit tizimda tadqiq etish alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu tizimda Nosiruddin Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asari o'ziga xos o'rin tutadi . U nafaqat diniy-ma'rifiy manba, balki qissa janrining Sharq va turkiy adabiyotlardagi ilk mukammal namunalaridan biri sifatida ham qimmatlidir[2].

"Qisasi Rabg'uziy" XIV asr boshlarida yaratilgan bo'lib, o'z davrida "Qisasul-anbiyo" nomi bilan Markaziy Osiyo turkiy xalqlari orasida keng tarqalgan, baxshi va oqinlar tomonidan sevib kuylangan asarlardan biriga aylangan[3]. Asarning poetik xususiyatlarini (kompozitsion tuzilishi, badiiy unsurlari, tasvir vositalarini) ilmiy jihatdan tizimli tahlil qilish qissa janri poetikasining shakllanish bosqichlarini yanada aniqroq tasavvur etish imkonini beradi.

Maqolaning maqsadi – "Qisasi Rabg'uziy" asaridagi qissalarning poetik xususiyatlarini kompozitsiya, badiiy uslub va tasvir vositalari nuqtayi nazaridan yoritishdan iborat.

Asar muqaddimasida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, uni Xorazmdagi Rabot O'g'uzi degan joyning qozisi Burhonuddin o'g'li Nosiruddin islom dinini qabul qilgan mo'g'ul beklaridan biri Nosiruddin To'qbug'aning iltimosiga ko'ra hijriy 709 (milodiy 1309–1310) yilda yoza boshlab, hijriy 710 yilning «hut» oyida (milodiy 1310 yil 21 fevral – 21 mart) yakunlagan [4]. Muallif asarni "Qisasi ar-Rabg'uziy" deb nomlagani, mundarijada esa payg'ambarlar tarixini Odam Atodan boshlab tartib bilan bayon etish niyatida bo'lganini alohida ta'kidlaydi[5].

Asar tarkibiy jihatdan hamd, na't, muqaddima, qissalar, lirik kechinmalar va xotimadan iborat. Qissalarning aksariyati nasrda, ayrim qissalarning xulosalari, madhiyalar, lirik kechinmalar hamda kitob xotimasi esa nazmda yozilgan[6]. Bu holat asarni Sharq mumtoz adabiyotiga xos nasr-nazm sintezining ilk namunalaridan biriga aylantiradi.

[1] Расулова У.Й. XX аср ўзбек қиссачилиги (поэтик изланишлар ва тараққиёт тамойиллари): Филология фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2020. – Б.3-4.
[2] Шукурова З. Рабғузий ва фольклор. – Т.: Tamaddun, 2015.
[3] Рабғузий Н. Қисаси Рабғузий. 1-китоб. – Т.: Ёзувчи, 1990. – Б.5.
[4] Рабғузий Н. Қисаси Рабғузий. 1-китоб. – Т.: Ёзувчи, 1990. – Б.5-6 (сўзбоши).
[5] Рабғузий Н. Қисаси Рабғузий. 1-китоб. – Т.: Ёзувчи, 1990. – Б.5-6 (сўзбоши).
[6] Рабғузий Н. Қисаси Рабғузий. 1-китоб. – Т.: Ёзувчи, 1990. – Б.6.

Asarda jami 72 ta qissa mavjud bo‘lib, ular mavzu doirasiga ko‘ra farqlanadi. Muallif Qur’ondagi suralar nomlanishidan ibrat olib, payg‘ambarlar ismi bilan bir tizimda makon, kitob, jonzot nomini qissalarga biriktirib, “Ka’ba qissasi”, “Tavrot qissasi”, “Chumoli qissasi” kabi nom bilan tashkillashtiradi[1] . Bunday nomlash tizimi tasodifiy emas – Qur’oni karimning o‘zida ham “qissa” so‘zi A’rof, Baqara, Naml, Niso, Nuh, Maryam, Oli Imron, Kahf, Yusuf, Hud, G‘afur kabi qator suralar tarkibida qo‘llanilgan, hatto 28-sura bevosita “Qasas” (“Qissa”) deb nomlangan [2]. Demak, Rabg‘uziy o‘z asarining kompozitsion-nomlanish tizimini bevosita Qur’oniy an’anaga tayangan holda quradi, bu esa asarga ichki janriy-tizimli mustahkamlik baxsh etadi.

Asar ibtidosida osmon va yer makonining yaralishi, samoviy hamda zaminiy jismlar xossasiga oid lavhalar beriladi. Keyingi bosqichda savol-javob usulida diniy motiv kiritilib, isyonkor Iblis va itoatkor farishta o‘rtasidagi kontrast tasvir orqali kompozitsion tugun yuzaga keladi[3] . Ushbu kontrast (itoat va isyon) butun asar davomida takrorlanadigan asosiy kompozitsion o‘zakni tashkil etadi.

Asarning o‘zidan olingan quyidagi parcha bu kontrastning qanday badiiy jonlantirilganini ko‘rsatadi: *farishtalar Odam yaratilishidan oldin insonning fasod qilishi, qon to‘kishidan xavotirlanib, o‘zlarining tasbih va taqdisini ustunlik sifatida ko‘rsatishga urinadilar, ammo Alloh ularga bunday da’voni ravo ko‘rmaydi; Odamga «asmo ilmi» (narsalarning nomlari) o‘rgatiladi va farishtalar bu bilimda ojiz qolib, sajda buyrug‘iga bo‘ysunadilar – faqat Azozil (Iblis) o‘zining o‘tdan, Odamning esa tuproqdan yaratilganini bahona qilib, kibr bilan sajda qilishdan bosh tortadi* [4]. Ushbu lavha (bilim ustunligi, kibr va itoatsizlik mavzusining birinchi badiiy tugunlanishi – A.A.) asar syujetining keyingi barcha qissalarida turlicha ko‘rinishda qayta jonlanadigan arxetipik vaziyatga aylanadi.

Muallif Odam (a.s) qissasi bo‘limini oyat, hadis, rivoyat va hikmatlar asosida tashkillashtirib, o‘rni bilan mufassir va shayxlar qarashlariga murojaat etadi. Rivoyatda tarixiylik tamoyili (insonning yaralishi), ma’lum udumning ibtidosi (qurbonlik qilish)ga ishora beriladi[5]. Bunday kompozitsion qurilish (oyat, hadis, rivoyat va hikmatning bir-biriga uzviy bog‘langan holda joylashtirilishi) Rabg‘uziyning qissalarni tashkil etishdagi asosiy poetik usuli hisoblanadi.

Muhim jihat shundaki, Rabg‘uziy voqelikni qat’iy xronologik tartibda (Odam Atodan Muhammad (a.s) gacha) tashkillashtiradi. Bu jihatdan uni keyinroq yaratilgan Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” asari bilan qiyoslash mumkin: agar Navoiy qism va lavhalarni jamlab, yaxlit manzara va tasavvur hosil qilishga intilsa, Rabg‘uziy voqelikni izchil xronologiya usulida tashkillantiradi [6] . Shuningdek, “Qisasi Rabg‘uziy”da obraz portretini berishda o‘xshatish va sifatlashlardan ko‘p foydalanilgani, dialoglarda tasviriy vositalar berilgani bilan asar o‘ziga xoslik kasb etadi[7].

“Qisasi Rabg‘uziy” poetikasining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri – ilohiy oyatlar bilan bir qatorda rivoyat, hikoyat, izoh, tanbeh, latifa, savol-javob kabi turli badiiy-uslubiy unsurlarning uyg‘unlashtirilganidir [8]. Har bir unsur alohida poetik vazifani bajaradi: hikoyatda payg‘ambar xislati va mo‘jizasi (masalan, Iso (a.s)ning marhumlarni tiriltirishi) ertak an’anasi (“bor emish, bo‘lgan ekan”) uslubi bilan uyg‘unlashtiriladi; hikmatda donishlik, zakiylik va sirlilik usuli yetakchilik qiladi; xabar, hukm, nuqta, foyda kabi kichik bo‘laklar esa ko‘rilgan masalani umumlashtirish va taqqoslash maqsadida kiritiladi[9].

Savol-javob uslubi asarning eng barqaror kompozitsion vositalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Bunga yaqqol misol tariqasida Yusuf (a.s) qissasi boshida keltirilgan mulohazani ko‘rsatish mumkin. Qur’ondagi “Ahsan ul-qasas” (“eng go‘zal qissa”) ta’rifi izohlanar ekan, muallif ketma-ket savol qo‘yib, unga ol tita alohida javob taqdim etadi: *go‘zallik sababi Yusuf qissasining boshqa qissalardan foydasi ko‘proqligida,voqealar qamrovining kengligida, bir sura ichida yaxlit tugallanganida, oila a’zolari o‘rtasidagi murakkab munosabatlarda, hayotning har uch holatida (rohat, mehnat, qiyinchilik) sinovdan o‘tishda va nihoyat ibratli yakunda* deb izohlanadi [10]. Bunday ko‘p bosqichli savol-javob tuzilmasi o‘quvchini passiv tinglovchidan faol mushohada yurituvchi sherikka aylantiradi hamda matnga o‘ziga xos ritorik-didaktik ohang baxsh etadi. Bu Sharq mumtoz nasrida keng tarqalgan “munozara” uslubining diniy-badiiy asarga tatbiq etilgan ko‘rinishidir.

Yuqorida qayd etilganidek, asarning asosiy qismi

[1] Расулова У.Й. Кўрсатилган асар. – Б.26.
[2] Расулова У.Й. Кўрсатилган асар. – Б.14-15.
[3] Расулова У.Й. Кўрсатилган асар. – Б.26-27.
[4] Рабғузий Н. Қисаси Рабғузий. 1-китоб. – Т.: Ёзувчи, 1990. – Б.20.
[5] Расулова У.Й. Кўрсатилган асар. – Б.27.
[6] Расулова У.Й. Кўрсатилган асар. – Б.31.
[7] Расулова У.Й. Кўрсатилган асар. – Б.31.
[8] Расулова У.Й. Кўрсатилган асар. – Б.69, 233.
[9] Расулова У.Й. Кўрсатилган асар. – Б.27.
[10] Рабғузий Н. Қисаси Рабғузий. 1-китоб. – Т.: Ёзувчи, 1990. – Б.99.

nasrda, biroq ayrim qissalarning xulosalari va emotsional cho‘qqilari nazmda beriladi[1] . Bu uslubiy tanlov tasodifiy emas: muallif voqelikning bayonini nasrda olib borib, qahramon kechinmasining eng yuqori cho‘qqisiga yetganda lirik-she’riy shaklga murojaat qiladi, natijada matnda ritm va musiqiylik kuchayadi.

Bunga misol tariqasida Ya’qub (a.s) qissasidagi bandma-band tuzilgan bayt keltirilishi mumkin. Unda har bir misra “...Ya’qub ul” radifi bilan yakunlanib, monolitik ohang hosil qiladi hamda Ya’qubning o‘g‘li Yusufni yo‘qotgandagi qayg‘usi, “Bayt ul-ahzon” (qayg‘u uyi)ga kirib, kunu tun ingrab yig‘lashi, ko‘zlari yoshdan nurini yo‘qotishi kabi holatlar izchil tasvirlanadi[2] . Radifning takrorlanishi orqali hosil bo‘lgan bu ritmik-emotsional yuk she’riy parchani asar ichidagi o‘ziga xos “marsiya” (motam qo‘shig‘i) maqomiga ko‘taradi.

Xuddi shunday she’riy tuzilma Yusuf (a.s) qissasi boshida ham uchraydi. Unda Ya’qubning o‘n ikki o‘g‘li, ularning ichida «surati g‘oyat badiz» (rasm-qiyofasi go‘zal) bo‘lgan Yusufning o‘rni, akalarining unga bo‘lgan hasadi qisqa, ammo teran misralarda ifodalanadi[3]. Bunday she’riy kirishlar qissaning asosiy syujetiga tayyorgarlik vazifasini bajarib, o‘quvchi diqqatini asosiy voqeaga qaratadi.

Nasr-nazm sintezining yana bir ko‘rinishi asar xotimasida namoyon bo‘ladi: Muhammad (a.s) haqidagi so‘nggi qissa yakunida keltirilgan hamd, Allohg a bo‘lgan minnatdorchilik so‘zlari, qisqa oyat va hadis parchalari bilan navbatlashib, salom-duo shakllari orqali tantanavor uslubda yakunlanadi[4]. Bu xotima qismi butun asarning diniy-ma’rifiy g‘oyasini jamlovchi kompozitsion-poetik yakun vazifasini o‘taydi.

“Qisasi Rabg‘uziy” poetikasida obrazlarni jonlantirishda o‘xshatish va sifatlash yetakchi tasvir vositalari sifatida namoyon bo‘ladi[5] . Bunga qo‘shimcha ravishda mubolag‘a (bo‘rttirish) san’ati ham asarda faol qo‘llaniladi: masalan, Yusuf (a.s) qamchining uchini og‘ziga tutganida Zulayho bir oh urib, og‘zidan o‘t chiqib, qamchi erib oqib ketgani; Hud qavmidan Xalchon polvonning shamol bilan kurashgani; qushlarning sandiqdagi Namrudni ko‘kka ko‘targani kabi tasvirlar asarga afsonaviy-romantik bo‘yoq beradi[6].

Alohida e’tiborga molik poetik usul, tadrijiy (bosqichma-bosqich kuchayib boruvchi) ramziy tasvir , Ibrohim (a.s) qissasida kuzatiladi. Yosh Ibrohim haqiqiy Yaratganni izlar ekan, kechqurun Zuhro yulduzini ko‘rib, “Mening Robbim shu emasmi?” deb o‘ylaydi; yulduz botganda undan voz kechadi. So‘ng undan yorug‘roq oyni ko‘rib, yana shu savolni takrorlaydi; oy ham botgach, undan-da ulug‘roq bo‘lgan quyoshni ko‘rib, “Mening Robbim shu, bu eng ulug‘I” deydi; ammo quyosh ham botganda, u barcha vaqtinchalik va o‘tkinchi narsalardan yuz o‘girib, faqat abadiy Yaratganga yuzlanadi [7] . Yulduz – oy – quyosh tartibida quriladigan bu uch bosqichli tasvir nafaqat Qur’oniy syujetning badiiy talqini, balki insonning haqiqatga tomon bosqichma-bosqich yetuk anglashi jarayonini ifodalovchi mukammal poetik gradatsiya (kuchayib boruvchi tasvir) namunasidir. Bunday tadrijiy tasvir vositasi qissaning falsafiy-diniy mazmunini badiiy jihatdan yanada teranlashtiradi.

Yusuf (a.s) qissasida esa metaforik tasvir boshqacha yo‘nalishda rivojlanadi: qahramonning bolaligida ko‘rgan tushida o‘n bir yulduz, quyosh va oy timsolida ota, ona va o‘n bir birorodarga ishora qilinadi[8] . Bu yerda samoviy jismlar oilaviy munosabatlarning ramziy tili sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, qissa davomida latifa (nozik ma’noli kichik hikoyalar) orqali ham metaforik uyg‘unlik hosil qilinadi[9].

Asarning bosh g‘oyaviy o‘zagini iymon va kufr, itoat va isyon o‘rtasidagi azaliy ziddiyat tashkil etadi. Bu ziddiyat Iblisning ilk isyonidan boshlab, Fir’avn va Namrud kabi obrazlarning halokatigacha bo‘lgan barcha qissalarda turli ko‘rinishda takrorlanadi[10] . Farishta insonni saodatga boshlovchi, ilohiy mujda keltiruvchi vazifada tasvirlansa, shayton insonni tinimsiz vasvasaga solib, turli qavmu elatlar orasiga nifoq va hasad urug‘ini sochuvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi[11].

Yusuf (a.s) qissasi bu ma’noda alohida o‘rin tutadi . Unda majoziy ishqdan ilohiy ishqqa, foniydan boqiyga o‘tish jarayoni Zulayho va Yusuf munosabati orqali ifodalanadi. Aynan shu ruknning keyinchalik Rabg‘uziy, Jomiy va Fuzuliy kabi ijodkorlar tomonidan “Yusuf va Zulayho” an’anasi sifatida davom ettirilgani muhabbat mavzusining boqiy badiiy qudratini tasdiqlaydi[12]. Shu tariqa “Qisasi Rabg‘uziy” nafaqat

[1] Рабғузий Н. Қисаси Рабғузий. 1-китоб. – Т.: Ёзувчи, 1990. – Б.6.
[2] Рабғузий Н. Қисаси Рабғузий. 1-китоб. – Т.: Ёзувчи, 1990. – Б.93.
[3] Рабғузий Н. Қисаси Рабғузий. 1-китоб. – Т.: Ёзувчи, 1990. – Б.99.
[4] Рабғузий Н. Қисаси Рабғузий. 2-китоб. – Т.: Ёзувчи, 1990. – Б.855.
[5] Расулова У.Й. Кўрсатилган асар. – Б.31.
[6] Расулова У.Й. Кўрсатилган асар. – Б.28.
[7] Рабғузий Н. Қисаси Рабғузий. 1-китоб. – Т.: Ёзувчи, 1990. – Б.60.
[8] Расулова У.Й. Кўрсатилган асар. – Б.27-28.
[9] Расулова У.Й. Кўрсатилган асар. – Б.27-28.
[10] Расулова У.Й. Кўрсатилган асар. – Б.29.
[11] Расулова У.Й. Кўрсатилган асар. – Б.29.
[12] Расулова У.Й. Кўрсатилган асар. – Б.31-32.

mustaqil badiiy-diniy yodgorlik, balki turkiy va fors-tojik mumtoz adabiyotidagi keyingi payg‘ambarlar tarixi janriga (jumladan, Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” asariga) ham poetik zamin yaratgan muhim bosqich sifatida baholanishi lozim[1].

O‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, “Qisasi Rabg‘uziy” asari poetikasi quyidagi asosiy xususiyatlar bilan xarakterlanadi:

1. Asar kompozitsiyasi Qur’oni karim suralari nomlanish tizimiga tayangan holda qurilgan bo‘lib, 72 ta qissa payg‘ambar, makon, kitob va jonzot nomlari asosida tizimlashtirilgan.

2. Qissalar kompozitsiyasida syujet, tugun va kulminatsiya kabi unsurlar izchil takomillashib borgan, bunda ilohiy oyatlar rivoyat, hikoyat, izoh, tanbeh, latifa va savol-javob kabi badiiy unsurlar bilan uyg‘unlashtirilgan[2].

3. Asarda nasr va nazm sintezi izchil qo‘llanilgan: voqealar bayoni nasrda, emotsional cho‘qqilar va xulosalar esa she’riy shaklda beriladi, bu esa matnga ritmik-musiqiy teranlik baxsh etadi.

4. Obrazlar tasvirida o‘xshatish, sifatlash va mubolag‘a yetakchi o‘rin tutadi, shu bilan birga tadrijiy (gradatsion) ramziy tasvir usuli asarning falsafiy mazmunini teranlashtirishga xizmat qiladi.

5. Rabg‘uziyning voqelikni qat’iy xronologik tartibda tashkillashtirishi uni keyingi davr mualliflari (xususan, Navoiy)ning tematik-yaxlitlovchi kompozitsion usulidan farqlab turadi.

Xulosa qilib aytganda, “Qisasi Rabg‘uziy” o‘zbek va umuman turkiy xalqlar qissachiligi poetikasining shakllanishida muhim bosqich bo‘lib, uning badiiy-estetik tajribasi keyingi asrlar mumtoz va zamonaviy qissachiligi taraqqiyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.

Rezyume. Mazkur maqolada mumtoz o‘zbek adabiyotining noyob yodgorliklaridan biri – Nosiruddin Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” (“Qisasul-anbiyo”) asari poetikasi tahlil qilinadi. Asarning yaratilish tarixi, tarkibiy qurilishi, 72 qissaning mavzuiy tasnifi hamda Qur’oni karim suralari asosidagi nomlash tizimi yoritiladi. Tadqiqotda asar kompozitsiyasidagi savol-javob, rivoyat, hikoyat, hikmat kabi badiiy unsurlarning uyg‘unligi, nasr va nazm sintezi, shuningdek o‘xshatish, sifatlash, mubolag‘a, tadrijiy tasvir va ramziylik kabi poetik vositalarning badiiy-estetik vazifasi konkret matn misollari asosida ko‘rsatib beriladi.

Resume. This article analyzes the poetics of one of the rare monuments of classical Uzbek literature – Nasiruddin Rabguzi’s work “Qisas Rabguzi” («Qisasul-anbiyo»). The history of the work’s creation, its structural structure, thematic classification of 72 stories, and the naming system based on the surahs of the Holy Quran are discussed. The study shows the harmony of artistic elements such as question-answer, narration, story, wisdom in the composition of the work, the synthesis of prose and verse, as well as the artistic and aesthetic function of poetic devices such as simile, characterization, hyperbole, gradual description, and symbolism based on specific text examples.

Резюме. В данной статье анализируется поэтика одного из редких памятников классической узбекской литературы – произведения Насируддина Рабгузи «Кисас Рабгузи» («Кисасул-анбийо»). Рассматривается история создания произведения, его структурная структура, тематическая классификация 72 рассказов и система наименования, основанная на сурах Священного Корана. Исследование показывает гармонию художественных элементов, таких как вопрос-ответ, повествование, сюжет, мудрость в композиции произведения, синтез прозы и стиха, а также художественно-эстетную функцию поэтических приемов, таких как сравнение, характеристика персонажей, гипербола, постепенное описание и символизм, на конкретных примерах текста.

[1] Жўрақулов У. Алишер Навоий «Хамса»сида хронотоп поэтикаси. – Т.: Turon iqbol, 2017. – Б.33 (иқтибос: Расулова У.Й. Кўрсатилган асар. – Б.32 орқали).

[2] Расулова У.Й. Кўрсатилган асар. – Б.69, 233.



Алимардон Ҳайитов,
Ўзбекистондаги Ислом цивилизацияси
маркази етакчи илмий ходими,
филология фанлари номзоди

АЛИ ҚУШЧИНИНГ ЎҒЛИ ҲАМ ОЛИМ БЎЛГАН

Ўзбекистондаги Ислом цивилизацияси маркази ва Ўзбекистон маданий меросини ўрганиш, сақлаш ва оммалаштириш бўйича Бутунжаҳон жамияти (WOSCU) делегацияси Туркия Республикасининг Истанбул шаҳрида хизмат сафарида бўлди. Ушбу сафар давомида Истанбулдаги кўплаб музейлар, кутубхоналар ва олий ўқув юртларига ташриф буюрилди. Улардаги Ўзбекистонга оид экспонатлар, тарихий ҳужжатлар, айниқса, бир неча асрлар давомида сақланиб келинаётган нодир қўлёзмалар билан танишилди.

Сафар давомида Али Қушчининг ўғли Қози Абдураҳмон қаламига мансуб “Равнақи бўстон”[1] асарини ўзбек тилига таржима ва табдил қилиш ҳамда факсимил нусхаси билан бирга нашр этиш таклиф қилинди.

Шундан сўнг Истанбул университети профессори Эмек Ушенмез “Равнақи бўстон” асарининг 2000 йил Туркияда нашрдан чиққан намунасини[2] бизга топиб жўнатди. Ушбу китоб охирида Аёсофия кутубхонасида сақланган нусхасининг факсимилеси ҳам берилган.

“Равнақи бўстон” бугунги маълумотларимизга кўра, Анадўлида қишлоқ хўжалиги, хусусан, боғдорчилик соҳасида ёзилган энг қадимги туркий асар ҳисобланади. Бу борада ёзилган асарларнинг камлиги инобатга олинса, “Равнақи бўстон” янада катта аҳамият касб этади.

Китобни нашрга тайёрлаган турк олими Зафар Ўнларнинг ёзишича, ушбу тадқиқот орқали “Равнақи бўстон” матни ва луғат бойлигини илмий мезонларга мувофиқ равишда нашр этиш, шу соҳада олиб бориладиган изланишларга манба тақдим этиш мақсад қилинган. Тадқиқот уч асосий бўлимдан иборат: кириш, матн ва луғат. Кириш қисмида асар нусхалари ва мазмуни таништирилган, тил хусусиятлари ва сўз бойлиги ҳақида маълумот берилган. Тилшунослик бўйича кенг қамровли изланиш мавжуд билимларнинг такрорига айланиб қолиши мумкинлигини инобатга олиб, фақатгина Туркия туркчасидан фарқ қилувчи асосий хусусиятлар кўриб чиқилган.

Матн бўлими Аясофия кутубхонасида сақланаётган нусхага («А» нусхаси) асосланган ҳолда тайёрланган бўлиб, сатр рақамлари ҳам айнан шу нусхага мувофиқ берилган. Бошқа иккита нусханинг бош саҳифалари матн ичида кўрсатилган. Тадқиқотчиларга ушбу уч нусхани таққослаш имкониятини таъминлаш мақсадида, бўлим охирида барча нусхаларнинг бош саҳифалари келтирилган жадвал қўшилган. Транслитерацияда «оғоч», «уж», «аж», «диб» каби сўзлардаги дастлабки узун унли товушларнинг ёзма манбаларда ҳар доим «жим» ва «бе» ҳарфлари билан ифодаланганлигидан келиб чиқиб, транскрипцияда ҳам жарангсиз товушларни қўллашга аҳамият қаратилган. Ушбу имло анъанаси асл чўзиқ унли товушлардан келиб чиққан бўлиши мумкин. Бундан ташқари, бундай сўзлар Анадўлида узоқ вақт давомида, нисбатан бўлса ҳам, ўз чўзиқлигини сақлаб қолган бўлиши эҳтимолдан холи эмас. Луғат бўлимида матнни тушунишга ёрдам бериш мақсад қилинган бўлиб, атама хусусиятига эга сўзлар, матнда ўзига хос маънода ишлатилган

[1] HADİYE TUNCER, Revnak-ı Bostan, Tarım Bakanlığı Neşriyatı, Ankara 1961.
[2] Türk dil kurumu yayinlari. Revnak-ı Bustan. Ankara, 2000.

иборалар ҳамда бугунги кунда ишлатилмайдиган туркий сўзлар[1]нинг барчаси жамланган. Бундан ташқари, уларнинг матнда учраган камида бир ўрни саҳифа ва сатр рақамлари билан кўрсатилган.

Китобни ўқиб чиқиб, унинг муаллифи боғдорчиликка махсус қизиққан ва яхши таълим олган инсон бўлганлигини англайсиз. Адибнинг юнончани билганлиги ва шу тилдаги манбалардан тўғридан-тўғри фойдаланганлиги ҳам ойдинлашади. Жумладан, у бир неча ўринда Сагрис, Кастос, Сорион, Янбушад каби Ғарб олимларининг фикрларига мурожаат қилган. Мусулмон олимларидан эса фақат Тоҳири Канъоний исмини тилга олади.


Ушбу китобни таржима қилишда “Равнақи бўстон”нинг 2000 йил Туркияда профессор Зафар Ўнлар томонидан нашрга тайёрланган намунаси асос қилиб олинди. Ўқувчиларга енгиллик яратиш мақсадида луғат бойлиги ҳам матн мазмунига сингдирилди[2].

Олти асосий бўлимдан ташкил топган асарда тупроқ турлари ва хусусиятлари, дарахт экиш вақтлари, усуллари, ой нури ва юлдузлар ёғдусининг экиш жараёнига таъсири, буташ ва пайвандлаш усуллари, сабзавот ва меваларнинг ҳар хил касалликларга шифобахшлиги, полиз экинлари ва гулларни етиштириш, уларни ўғитлаш тартиби, меваларни териш, тўплаш ва сақлаш ҳақида батафсил сўз юритилган.

Асарнинг ёзилиш санаси ва бу соҳага оид жуда кам сонли рисолалардан бири эканлиги “Равнақи бўстон”ни маданият тарихи тадқиқотлари учун муҳим манбага айлантиради. Асарда халқ йил ҳисоби ҳамда турли эътиқодлар билан боғлиқ кўплаб терминларнинг мавжудлиги, ҳажми кичик бўлса-да, тил материаллари нуқтаи назаридан ҳам аҳамияти юқорилигини кўрсатади.

Рисоланинг кириш қисмида берилган маълумотлардан унинг Эдирна ҳудудида ёзилганлиги англашилади. Бироқ муаллифи ҳақида ҳеч қандай маълумот мавжуд эмаслиги айтилган.

Аммо Туркия Давлат архивлари бошқармаси Усмонли архивидаги IE.ENB 3, 302-рақамли ҳужжатда



Иззатли султоним марҳаматли ҳазратлари соғ бўлсин!

Ҳоло марҳум Али Қушчизода Абдураҳмон Афандининг вақфиндан далтатуқо қазосидан. Уч куз ва кирмони мазбуридан қарбинда. Ва кирмони қазои Курмунжинада олти қитъа дўконлари ва бардикирмони бу мазкуралар ғасбан, забт этилиб вақфайн кунли узруруб, но бакри аҳкоми шаръий ижро этмаяюб, воқиф мазбури мадрасаси ва жомиъ муаттал қолдиғи ажлидин, қазлил Эдирна афандиси ҳузуринда ижрои ҳақ ўлмоғи....


Али Қушчизода Абдураҳмон Афанди масжиди

[1] Кошғарий Маҳмуд. Туркий сўзлар девони (Девони луғотит турк). Уч жилдлик. Таржимон ва нашрга тайёрловчи: С.Муталлибов. - Т.: “Фан”, 1960.

[2] Аюпов Р.Ҳ. Ўсимликлар номларининг қисқача луғати. Тошкент, 2012.

ва мадрасасининг Диметока ва Гумулжи туманларидаги вақфларнинг эгалланишига йўл қўймаслик ҳақида вакил Иброҳим имзоси билан ёзилган аризани ўрганиб чиқиб, “Равнақи бўстон” асарининг муаллифи Қози Абдураҳмон фақиҳ, математик ва астроном олим Али Қушчининг ўғли деган қарорга келинди. Усмонлилар архивида сақланаётган ҳижрий 1084 йилга оид ушбу вақф ҳужжатида Али Қушчининг ўғли Абдураҳмон Афанди исмининг тилга олиниши биз илгари сураётган даъвони тасдиқлайди.

Бундан ташқари, асар нусхаларидан бири қуйидагича бошланган:



Ушбу қўлёзмада дастлаб қизил бўёқ билан *Марҳум Али Қушчизода Қози Абдурраҳмон Афанди марҳумнинг “Равнақи бўстон” номли китобидир* деб ёзилганлигини, сўнг *“Бисмиллоҳир раҳмонир раҳим Ҳамди бепоён ва шукри фаровон холиқи осмон ва розиқи инсу жон ҳазратигаким, хоки поки гузидаи чор аносир ва наҳли одамни ондин зоҳир этиб, фуруъин анбиёи кибор ва ҳар бирининг меваи ҳикматини бешумор ила пурбор айлади...*” дея муқаддима қисми бошланганлигини кўрамиз.

2024 йил Туркияда Али Қушчи йили деб эълон қилинди. Ўша йили ноябрь ойида эса Туркия Фанлар академияси, Истанбул техника университети ҳамда Маданият университети ҳамкорлигида “ўз даврининг Батлимуси” деб танилган буюк олим Али Қушчи вафотининг 550 йиллигига бағишланган симпозиум бўлиб ўтди[1]. Буюк аллома Али Қушчи ҳаёти ва фаолиятини ўрганишга бағишланган симпозиумнинг навбатдагисини Ўзбекистонда, хусусан, аллома туғилиб ўсган Самарқандда ўтказиш таклиф этилди.

Ўйлаймизки, Али Қушчи ўғли Қози Абдураҳмон қаламига мансуб “Равнақи бўстон” асарининг ўзбек тилига таржима қилиниб нашр этилганлиги келгусида ўтказиладиган халқаро анжуман олдидан барча ўзбек китобхонларига муносиб туҳфа бўлади. Қолаверса, Али Қушчи меросини чуқур

[1] Усмонова Н. Али Қушчининг илмий фаолияти қандай ўрганилмоқда? https://uza.uz/

ўрганаётган тадқиқотчиларга унинг фарзандлари қандай касб эгалари бўлганлиги, қандай асарлар ёзганлиги, “Равнақи бўстон” Али Қушчи ўғли Қози Абдураҳмоннинг ягона асарими ёки бундан бошқа асарлар ҳам ёзганми деган саволларга ойдинлик киритиш учун янада кўпроқ изланишлар олиб боришига туртки беради.

Аннотация: “Равнақи бўстон” туркий халқлар ҳаётида боғдорчилик соҳасида ёзилган энг қадимги асар ҳисобланади. Архив ҳужжатларига асосланиб, шу пайтга қадар муаллифи номаълум деб келинган ушбу асарнинг эндиликда ватандошимиз, буюк аллома Али Қушчининг ўғли Қози Абдураҳмон қаламига мансуб эканлиги илгари сурилмоқда. Эдирна ҳудудида ёзилганлиги билдирилган ушбу асар боғдорчиликка оид бўлиб, олти асосий бўлимдан ташкил топган. Асарда тупроқ турлари ва хусусиятлари, дарахт экиш вақтлари, усуллари, ой нури ва юлдузлар ёғдусининг экиш жараёнига таъсири, буташ ва пайвандлаш усуллари, сабзавот ва меваларнинг ҳар хил касалликларга шифобахшлиги, полиз экинлари ва гулларни етиштириш, уларни ўғитлаш тартиби, меваларни териш, тўплаш ва сақлаш ҳақида батафсил сўз юритилган.

Annotation: “Ravnaqi Bostan” is the oldest work written in the field of gardening in the life of the Turkic peoples. Based on archival documents, it is now claimed that this work, whose author was unknown until now, belongs to our compatriot, Qazi Abdurahman, the son of the great scholar Ali Kushchi. This work, which is said to have been written in the Edirne region, is about gardening and consists of six main sections. The work discusses in detail the types and characteristics of soil, the timing and methods of planting trees, the effect of moonlight and starlight on the planting process, pruning and grafting methods, the healing properties of vegetables and fruits for various diseases, the cultivation of melon crops and flowers, the procedure for fertilizing them, and the picking, collecting and storing of fruits.

Аннотация: «Равнаки Бостан» – старейшее произведение о садоводстве, написанное в истории тюркских народов. На основании архивных документов утверждается, что автор этого произведения, до настоящего времени неизвестный, принадлежит нашему соотечественнику Кази Абдурахману, сыну великого ученого Али Кушчи. Это произведение, предположительно написанное в Эдирне, посвящено садоводству и состоит из шести основных разделов. В нем подробно рассматриваются типы и характеристики почвы, сроки и методы посадки деревьев, влияние лунного и звездного света на процесс посадки, методы обрезки и прививки, лечебные свойства овощей и фруктов при различных заболеваниях, выращивание дынь и цветов, порядок их удобрения, а также сбор, хранение и переработка плодов.

Калит сўзлар: асар нусхалари, тил хусусиятлари, луғат бойлиги, архив ҳужжатлари, қишлоқ хўжалиги, боғдорчилик, тупроқ турлари, дарахт, ўсимликлар, полиз экинлари, мевалар, буташ, пайвандлаш, ўғитлаш, териш, тўплаш, сақлаш.

Key words: copies of works, language features, vocabulary, archival documents, agriculture, horticulture, soil types, tree, plants, poly crops, fruits, bush, grafting, fertilizing, picking, gathering, storage.

Ключевые слова: копии произведений, языковые особенности, лексика, архивные документы, сельское хозяйство, садоводство, типы почв, дерево, растения, поликультуры, фрукты, кустарник, прививка, удобрение, сбор, хранение.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 9
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

WOUNDED MEMORY AND HYBRID IDENTITY IN KHALED HOSSEINI'S THE KITE RUNNER

Dr. Doniyor K. Keldiyorov,
Lecturer, Foreign Language School, Academy of Public Policy and Administration under the President of the Republic of Uzbekistan

The memory of past events is widely regarded as a crucial factor in the formation of personal identity. Incidents that occur in the past strongly affect a person's character and, over time, help to create a unique identity through the mediation of memory. The culture and society surrounding an individual are the next major forces shaping that identity. Afghans, with a "rich diversity of people" and their own "Afghan heritage" formed over centuries, possess a distinct national identity[1].

People born after the 1970s usually associate Afghanistan with continuous war and the interference of great powers in its internal affairs for political and military reasons, an image reinforced above all by the mass media rather than by works of literary fiction. Khaled Hosseini, an Afghan-American novelist, was among the first writers to introduce Western readers, through his novel The Kite Runner, to the events surrounding the invasion of Afghanistan by the Soviet Union, the rise of the Taliban, and the conflicts among rival factions in the late 1970s and beyond.

Amir, the novel's protagonist, experiences both happy and wounded memories from his childhood in Afghanistan, spent in a wealthy household with his father, Baba, and their servants, Ali and Hassan. Raised in privilege yet shaped by a distinct set of outlooks and external factors – immigrant life in America, religious upbringing, and pride in Afghan heritage – Amir develops a hybrid identity that continues to be marked by the traumas and wounded memories of his past. Baba and Sohrab, the novel's other central characters, likewise carry wounded memories whose traumatic effects extend into their identities and future lives.

This article examines how the main characters of The Kite Runner are transformed by the incidents of their past and how they come to terms with them, addressing two related aspects of the problem. First, it considers the hybrid identity of the characters as it is shaped both by the self and by external factors such as social norms and culture. Second, it analyzes the significance of memory in the characters' lives, showing how wounded memory and trauma come to determine their identity.

Afghans are traditionally described as a people who take pride in their social norms and culture and who adhere strictly to religious observance; the overwhelming majority of the population is Muslim (approximately 99.7 per cent), and family relations are valued and rigorously protected. Nancy Dupree, an American-Afghan historian, describes Afghan identity in similar terms, noting that "[h]onour is the rock upon which social status rests and the family is the single most important institution in Afghan society. Individual honour, a positive pride in independence that comes from self-reliance, fulfilment of family obligations, respect for the elderly, respect for women, loyalty to colleagues and friends, tolerance for others, forthrightness, an abhorrence of fanaticism, and a dislike for ostentation, is a cultural quality most Afghans share"[2]. Hosseini portrays Amir, however, as a markedly dynamic character whose ideology is reshaped throughout his journey. After a traumatic childhood, Amir is forced to flee to America with his father because of the Soviet invasion of Afghanistan. Having betrayed the trust of his closest friend, Hassan, at the age of twelve, he goes on to construct his identity chiefly through resistance to, and avoidance of, that wounded memory. He feels guilty for failing to defend Hassan, and although he tries to bury this guilt, the memory compels him to "peek into that deserted alley for the last twenty-six years," even after relocating to a new country where all of these traumas began[3]. As Freud observes in Civilization and Its Discontents, "one feels guilty (pious

[1] Dupree, N. H. Cultural Heritage and National Identity in Afghanistan // Third World Quarterly. – 2002. – Vol. 23, No. 5. – P. 977.
[2] Dupree, N. H. Cultural Heritage and National Identity in Afghanistan // Third World Quarterly. – 2002. – Vol. 23, No. 5. – P. 978.
[3] Hosseini, K. The Kite Runner. – London: Bloomsbury, 2003. – P. 1.

people would say ‘sinful’) if one has done something one recognises as ‘evil’”; a similar dynamic governs Amir, whose guilt proves impossible to overcome and becomes constitutive of his identity[1]. His cultural and ethnic background – marked by personal trauma and wounded memory, and lived out within a different society and culture – is what produces his hybrid identity.

Individual identity cannot be explained by psychological factors alone; in order to understand it more fully, scholars turn to social and biological dimensions together with cultural practices, all of which combine to make the study of identity possible. The French anthropologist and sociologist Marcel Mauss likewise stresses the importance of combining these various dimensions in the study of bodily technique. In Techniques of the Body, he writes that “we are everywhere faced with physio-psycho-sociological assemblages of series of actions” that are “assembled in the individual”[2]. Despite his Afghan upbringing and traditions, Amir spends a considerable part of his life in America, where morals and customs differ, graduating “from high school” and publishing “four novels,” a trajectory that reshapes his character, probably without his full awareness[3]. The traumas of his past likewise continue to shape his behaviour in society. His acceptance of Soraya, despite her complicated past, illustrates this shift, since a strict, traditional Pashtun would be unlikely to accept a woman who had once run away to live with another man before marriage; as Soraya herself tells him, “I’m so lucky to have found you. You are so different from every Afghan guy I’ve met”[4]. Amir, for his part, is in no position to judge anyone’s past, asking himself, “How could I, of all people, chastise someone for their past?” while envying Soraya because “her secret was out,” unlike his own, which he had concealed for twenty-six years[5]. Soraya’s “sickle-shaped birthmark” is arguably a further reason for his attraction to her, since it recalls Hassan’s harelip and, through that physical resemblance, the memories of his past; this recollection may itself be part of what allows him to accept Soraya despite her history. One might argue that love alone accounts for such acceptance, yet Amir’s hybrid identity – shaped by trauma and wounded memory – plays an equally significant role in his willingness to defy the strict norms of Afghan family culture.

The correlation between individual identity and the nature of society is also vividly explored in the novel and has been studied by other scholars. Mary Douglas, in her essay “The Two Bodies,” describes a strong connection between the physical and the social body, each shaping the other; she observes that the individual body is heavily influenced and controlled by social norms, from the clothes one wears to the ideas one is permitted to express[6]. This dynamic is clearly at work in Amir’s relationship with Hassan – his closest friend and, as he later discovers, his half-brother – a relationship that is far from equal. Hassan, marked by his minority Hazara ethnicity and low social status, is frequently mocked for his illiteracy despite retrieving kites for Amir during tournaments and defending him against Assef’s gang. Hazaras in Afghan society carry “the negative attribute[s], namely low social status, poor, low class, physical defect and low job such as waiter, servant, and beggar”[7], and Hassan and his father suffer disrespect and discrimination on this basis. Amir, for all his good-heartedness and closeness to Hassan, nonetheless mocks him – teasing him for not knowing the meaning of words in a book, or “hurl[ing] pomegranates at him ... in the chest” – behaviour shaped in part by the norms of the society around him[8]. For a long time Amir cannot free himself from guilt and disloyalty toward Hassan; it is only in America, with its different social norms and culture, that his outlook changes, prompting him to return to Afghanistan, where “there is a way to be good again,” and, by the novel’s end, to defend Sohrab by warning his father-in-law “never again [to] refer to him as ‘Hazara boy’ in [his] presence”[9]. This once again confirms Douglas’s thesis: exposure to a new society – America – reshapes Amir’s outlook and drives him to return and “correct” the mistakes of his past.

Memory, more broadly, is the key mechanism by which an individual remains connected to the past – to one’s origin, ethnicity, or homeland. Suraiya Sulaiman similarly observes that “the idea of homeland can be perceived as a trauma, especially among those who have experienced discrimination, political persecution, social injustice, ethnic cleansing, as well

[1] Freud, S. Civilization and Its Discontents. – New York: W. W. Norton, 1962. – P. 63.
[2] Mauss, M. Techniques of the Body // Economy and Society. – 1973. – Vol. 2, No. 1. – P. 85.
[3] Hosseini, K. The Kite Runner. – London: Bloomsbury, 2003. – P. 131, 198.
[4] Hosseini, K. The Kite Runner. – London: Bloomsbury, 2003. – P. 180.
[5] Hosseini, K. The Kite Runner. – London: Bloomsbury, 2003. – P. 165.
[6] Douglas, M. The Two Bodies // Natural Symbols. – London: Routledge, 2013. – P. 69–87.
[7] Adhikary, R. P. Crisis of Cultural Identity in Khaled Hosseini’s The Kite Runner // Scholars Journal of Arts, Humanities and Social Sciences. – 2021. – Vol. 9, No. 5. – P. 180.
[8] Hosseini, K. The Kite Runner. – London: Bloomsbury, 2003. – P. 92.
[9] Hosseini, K. The Kite Runner. – London: Bloomsbury, 2003. – P. 361.

as warfare in their homeland,"[1] and the novel's main characters experience a comparable trauma arising from their personal and social experience of Afghanistan. Having immigrated to the United States, they repeatedly return, in memory, to their life before emigration. Yet what they remember differs sharply from character to character: some recall, with longing, a more glorious and respected life in Afghanistan, set against a present in which they are ordinary immigrants working at a petrol station or living on government assistance.

After emigrating to America, both Amir and Baba deal with the incidents of their Afghan past, each seeking redemption in his own way. Baba, though he found it difficult to adapt to life in a new country after having been a successful businessman in Afghanistan, takes pride in working at a petrol station to support his family. In Afghanistan, unable to divide his wealth equally between his two sons because Hassan's paternity had to remain secret, Baba had been, in Amir's words, "a tortured soul" who tried to atone by "feeding the poor on the streets, building the orphanage, giving money to friends in need" – an attempt to compensate for withholding equal love and recognition from his "illegitimate" son, Hassan[2]. His new life in America, though materially reduced, brings him closer to Amir, in part because the absence of Hassan and of his former wealth eases his sense of guilt. In his final years he builds with Amir the close relationship he never had in Afghanistan, dying, at last, having found what appears to be his own redemption: "there is no pain tonight"[3]. Living in a different society, and removed from the sources of his wounded memory, allows Baba to find a measure of peace in America that eluded him at home. General Taheri, Amir's father-in-law, presents a marked contrast: a once-decorated general in the Afghan Ministry of Defence, he never adapts to life in the United States, clinging to the hope that the monarchy will one day be restored so that he might return to his former glory. "He had kept his family on welfare and had never held a job in the U.S., preferring to cash government-issued checks than degrading himself with work unsuitable for a man of his stature," even as Baba, by contrast, could not bear "an Afghan [seeing] him buying food with [welfare] money"[4]. Hosseini thus draws two contrasting immigrant personas: one who makes his peace with a new country, and one who, still bound to the memories and status of his homeland, never truly settles.

The effects of wounded memory and trauma on identity are powerfully rendered throughout the novel; its victims are, characteristically, children who carry shame and guilt from post-traumatic experience for the rest of their lives. Having witnessed the sexual abuse of his closest friend without intervening, Amir cannot escape this memory for the following twenty-six years: "I opened my mouth, almost said something. Almost. The rest of my life might have turned out differently if I had. But I didn't. I just watched. Paralyzed"[5]. As Baba and Amir flee Afghanistan in a fuel truck, Baba urges Amir to "[t]hink of something good, [s]omething happy" to distract him from the harsh conditions inside the truck; the memory Amir summons is of flying kites with Hassan in an open field. That same memory of Hassan is inseparable, however, from Amir's failure to intervene in his abuse, a failure for which he blames himself for the rest of his life: "I loved him in that moment, I loved him more than I'd ever loved anyone, and I wanted to tell them all that I was the snake in the grass, the monster in the lake. I wasn't worthy of this sacrifice: I was a liar, a cheat, and a thief"[6]. This wounded memory continues to haunt Amir even after his emigration to America; he comes to believe that his own inability to have a child is a form of punishment for the sins he committed in Afghanistan.

The effect of trauma on identity is further illustrated by Sohrab, who suffers repeated damage and traumatic experience from an early age. Although the novel does not describe his mental state in clinical detail, it shows clearly how vulnerable a child can be to traumatic events. Assef – once a neighbourhood bully, later a high-ranking member of the Taliban – sexually abuses Sohrab and forces him into child prostitution, an experience Sohrab never forgets even after escaping Afghanistan. Afterward, he remains hyper-vigilant and withdrawn, flinching even at gentle touch, repeating that he is "so dirty and full of sin," and confessing that even though he misses his parents, Hassan and Farzana, "[he is] glad they are not here anymore" to witness what men like Assef did to him[7]. Even after moving to America with Amir and Soraya, Sohrab remains largely silent, still suf-

[1] Sulaiman, S. The Notion of Homeland, "Imaginary Homeland" and Wounded Memory in Khaled Hosseini's The Kite Runner. – School of Social Sciences, 2015.
[2] Hosseini, K. The Kite Runner. – London: Bloomsbury, 2003. – P. 301–302.
[3] Hosseini, K. The Kite Runner. – London: Bloomsbury, 2003. – P. 173.
[4] Hosseini, K. The Kite Runner. – London: Bloomsbury, 2003. – P. 131, 176.
[5] Hosseini, K. The Kite Runner. – London: Bloomsbury, 2003. – P. 73.
[6] Hosseini, K. The Kite Runner. – London: Bloomsbury, 2003. – P. 105.
[7] Hosseini, K. The Kite Runner. – London: Bloomsbury, 2003. – P. 319.

fering the effects of wounded memory in a way that illustrates how difficult it is for a child to overcome trauma without proper treatment.

Amir, by contrast, eventually finds a way "to be good again," having "maintain[ed] an oath to secrecy and hardly [spoken] of the [traumatic] event for twenty-six years"[1]. Yet even success in America – a flourishing writing career and a happy marriage – cannot free him from guilt, and it is his return to Kabul to rescue Hassan's son from Assef, now a senior Taliban figure, that finally forces him to confront the wounded memory he had long suppressed. The process of recovery is neither easy nor purely psychological: when Assef "shatters his jaw" and breaks his ribs, Amir, remarkably, feels only relief, laughing because "for the first time since the winter of 1975, [he] felt at peace," having waited for this violence as a form of punishment for his betrayal of Hassan. "[He] felt healed. Healed at last"[2]. This healing, arguably, is completed only at the novel's end, when Sohrab finally responds to Amir – smiling for the first time since his trauma – and asks him to run a kite for him. Amir's reply, "For you, a thousand times over," echoes Hassan's own words to him in childhood[3], signalling that Amir has at last made peace with his past and begun to atone, through Sohrab, for the wrongs he committed against Hassan.

In conclusion, Khaled Hosseini's The Kite Runner portrays Afghan society and culture before and after the Soviet invasion of the 1970s, tracing how its main characters confront the memories and traumas of their Afghan past after emigrating to the United States. Amir, the protagonist, carries a personal trauma that shapes his life and identity from childhood onward; his case shows that trauma left unaddressed continues to determine an individual's life and sense of self, even after twenty-six years, a change of community, and physical distance from the place where the trauma occurred. The novel also engages with diaspora experience more broadly, showing how immigrants negotiate nostalgia for a lost home. Baba's distance from his Afghan past allows him to grow closer to Amir and to find a form of redemption; Amir, unable to achieve the same redemption within American society alone, is instead driven by his hybrid identity back to Afghanistan, where he confronts his wounded memory directly and is, in his own words, "[h]ealed at last" only once he has faced the consequences of his past actions[4]. Even success and social integration in the country of immigration cannot, on their own, heal unresolved trauma: without a willingness to confront it directly, wounded memory continues to shape identity and forecloses the possibility of making peace anywhere.

Rezyume. Ushbu maqolada Khaled Hosseinining "The Kite Runner" romanida shaxsning va gibrid identifikatsiyaning shakllanishida yarali xotira (wounded memory) qanday rol o'ynashi tahlil qilinadi. Marsel Moss va Meri Duglasning sotsiologik yondashuvlariga, shuningdek, travma nazariyasiga tayangan holda, tadqiqotda bosh qahramon Amir, shuningdek Baba va Sohrob obrazlari misolida bolalik travmasi, aybdorlik hissi va Afg'onistondan Amerika Qo'shma Shtatlariga ko'chib o'tgandan keyingi identifikatsiya muammolari o'rganiladi. Yaqindan o'qish (close reading) va qiyosiy adabiy tahlil metodlaridan foydalangan holda, maqolada hal etilmagan yarali xotiraning afg'on madaniy me'yorlari va amerikacha ijtimoiy tajriba o'rtasida bo'lingan gibrid identifikatsiyani vujudga keltirishi ko'rsatiladi; travmani inkor etish emas, balki unga yuzma-yuz kelish qahramonning ruhiy poklanishga erishish-erishmasligini belgilaydi. Tadqiqot natijalari afg'on-amerika adabiyotini postkolonial va diaspora nuqtai nazaridan o'rganishga hissa qo'shadi.

Resume. This article examines how wounded memory shapes personal and hybrid identity in Khaled Hosseini's novel The Kite Runner. Drawing on trauma theory and the sociological approaches of Marcel Mauss and Mary Douglas, the study analyzes how the protagonist Amir, together with Baba and Sohrab, negotiates childhood trauma, guilt, and displacement after emigrating from Afghanistan to the United States. Using close reading and comparative literary analysis, the article shows that unresolved wounded memory produces a hybrid identity torn between Afghan cultural norms and American social experience, while the capacity to confront rather than repress trauma determines whether a character achieves psychological redemption. The findings contribute to the postcolonial and diaspora-studies reading of Anglophone Afghan-American fiction.

[1] Sugathan, D. Individual Trauma in Khaled Hosseini's The Kite Runner // Teresian Journal of English Studies. – 2015. – Vol. 7, No. 1. – P. 91.

[2] Hosseini, K. The Kite Runner. – London: Bloomsbury, 2003. – P. 289.

[3] Hosseini, K. The Kite Runner. – London: Bloomsbury, 2003. – P. 371.

[4] Hosseini, K. The Kite Runner. – London: Bloomsbury, 2003. – P. 289.

Резюме. В данной статье рассматривается, каким образом раненая память (wounded memory) формирует личную и гибридную идентичность в романе Халеда Хоссейни «Бегущий за ветром» (The Kite Runner). Опираясь на теорию травмы и социологические подходы Марселя Мосса и Мэри Дуглас, автор анализирует, как главный герой Амир, а также Баба и Сохраб преодолевают детскую травму, чувство вины и последствия эмиграции из Афганистана в США. С помощью метода close reading и сравнительного литературоведческого анализа показано, что неразрешённая раненая память порождает гибридную идентичность, разрывающуюся между афганскими культурными нормами и американским социальным опытом, а способность противостоять травме, а не подавлять её, определяет возможность психологического искупления героя. Результаты исследования вносят вклад в изучение афгано-американской литературы в постколониальном и диаспоральном ключе.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 9
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

HAROLD LAMBNING "TAMERLANE: THE EARTH SHAKER" ROMANIDA AMIR TEMUR XARAKTERINING BADIIY IFODASI

Ibragimov Javohir To'lqinjon o'g'li,
Namangan davlat texnika universiteti tayanch doktoranti

Amir Temur siymosi olti asrdan buyon nafaqat tarix fanining, balki jahon badiiy tafakkurining ham diqqat markazida turibdi. Ingliz adabiyotida bu an'ana Kristofer Marloning "Buyuk Temur"[1] ("Tamburlaine the Great") dramasi bilan boshlangan bo'lsa, keyinchalik G.F.Gendelning "Tamerlano" operasi, Edgar Allan Poning "Tamerlane" poemasi kabi asarlarda davom etgan. Yevropa madaniy xotirasida uzoq vaqt Temurning qudratli, ammo dahshatli jahongir sifatidagi qiyofasi ustuvor bo'lib keldi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, Sohibqiron merosini xolis va har tomonlama o'rganish muhim ilmiy-ma'naviy vazifa sifatida belgilandi[2]. Shu nuqtayi nazardan, xorij adabiyotida yaratilgan Amir Temur obrazlarini poetik jihatdan tadqiq etish bugun kun tadqiqotchilarining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Amerikalik yozuvchi, tarixchi va ssenariynavis Harold Lamb ijodida Osiyo va Yaqin Sharq xalqlari tarixi yetakchi mavzu bo'lgan. Kolumbiya universitetida tahsil olgan chog'ida Sharq tarixiga qiziqqan adib ijodini sarguzasht hikoyalar bilan boshlab, keyinchalik Chingizxon, Amir Temur, Sulaymon Qonuniy (Sulton Sulaymon), Zahiriddin Muhammad Bobur haqida biografik romanlar yaratgan. H.Lamb o'z davri G'arb tarixnavisligi va badiiy adabiyotidagi markazchilikni tanqid qilgani, boshqa xalqlar tarixiga ham teng e'tibor qaratish tarafdori bo'lgani bilan ajralib turadi.

Adibning "Tamerlane: The Earth Shaker" ("Temur: Jahonni larzaga soluvchi") asari 1928-yilda Nyu-Yorkdagi "Robert M. McBride & Company" nashriyotida chop etilgan, keyinchalik "Garden City Publishing Company" tomonidan ham qayta nashr qilingan. Asar rus tiliga "Тамерлан. Правитель и полководец"[3] (2002) hamda "Тамерлан. Потрясатель вселенной" (2008) nomlari ostida o'girilgan, turk va urdu tillarida ham nashr etilgan. Shunga qaramay, mazkur asardagi Amir Temur obrazining poetikasi o'zbek tadqiqotchilari tomonidan hozirga qadar yetarlicha maxsus tadqiq etilmagan. Bu holat tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Ushbu maqolaning maqsadi ham Harold Lambning "Tamerlane" asarida Amir Temur xarakterini yaratish tamoyillari va badiiy vositalarini aniqlash hamda muallif talqinining o'ziga xosligini asoslashdan iborat.

Ilmiy maqolaning manbaviy asosini bir necha

[1] Marlowe C. Tamburlaine the Great / ed. by J.S. Cunningham. – Manchester: Manchester University Press, 1981.
[2] Karimov I.A. Amir Temur haqida so'z. – Toshkent: O'zbekiston, 1996.
[3] Лэмб Г. Тамерлан. Правитель и полководец / пер. с англ. – М.: Центрполиграф, 2002.

adabiyotlar tashkil etadi. Birinchi guruhga H.Lamb tayangan va uning talqinini qiyoslash imkonini beruvchi tarixiy manbalar kiradi. Bular qatorida Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma"[1]si, Ibn Arabshohning "Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur"[2] asari, ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixoning kundaligi[3], Amir Temurning "Temur tuzuklari" asari bor. H.Lambning ushbu manbalardan bevosita yoki tarjimalar orqali foydalangani asar muqaddimasida Klavixo guvohligining keltirilishi[4] hamda matn davomida "xronikaga ko'ra", "xronikachi qayd etadi" tarzidagi murojaatlarning muntazam qo'llanishidan yaqqol ko'rinadi. Temur shaxsi va davrining ilmiy talqini V.V.Bartold[5] , B.F.Manz[6], J.Marozzi[7] tadqiqotlarida berilgan bo'lib, ular badiiy talqinning tarixiy haqiqatga munosabatini baholashda muhim mezon vazifasini o'taydi.

Ikkinchi guruhni nazariy adabiyotlar tashkil etadi. G.Lukach tarixiy roman nazariyasida jahon-tarixiy shaxslarning badiiy asardagi o'rni va tarixiy davr ruhini ifodalash muammosini ko'targan[8]. M.M.Baxtinning xronotop haqidagi ta'limoti, xususan, yo'l xronotopi to'g'risidagi qarashlari qahramon hayot yo'lining badiiy makon-zamondagi ifodasini tahlil qilishga imkon beradi[9].

H.Lamb asari muqaddima, uch qism, xotima hamda o'n sakkiz izohdan iborat "Izohlar" deb nomlangan to'rta qismdan tashkil topgan. Boblar orasida "Timur's Character" ("Temur xarakteri"), "The Pyramids of Skulls" ("Kalla suyaklaridan qurilgan minoralar"), "Timur and the Church" ("Temur va cherkov") kabi nomlarning mavjudligi muallif badiiy hikoya bilan bir qatorda ilmiy-publitsistik sharh usulidan ham foydalanganini ko'rsatadi. Bu hol asarni sof tarixiy tadqiqotdan ham, sof badiiy romandan ham farqlaydi: unda tarixiy xronikaga tayanish (hujjatlilik) bilan to'qima dialoglar, sahnalashtirilgan epizodlar, peyzaj va ruhiy kechinmalar tasviri (badiiylik) uyg'unlashgan. Shu sababli asarni tarixiy-biografik roman janriga mansub deb hisoblash asosli.

Muallif konsepsiyasining kaliti muqaddimada berilgan. H.Lamb Temurni Iskandar Zulqarnayn va Chingizxon bilan qiyoslar ekan, ulardan farqli o'laroq, Temur shoh o'g'li ham, xon merosxo'ri ham bo'lmaganini, u o'z xalqini o'zi birlashtirganini ta'kidlaydi[10]. Muqaddima so'ngida adib Temurni tushunish uchun Yevropa tarixlarini chetga surib, zamonaviy sivilizatsiya xurofotlaridan ko'z yumish va unga yonma-yon ot surgan kishilar nigohi bilan qarash zarurligini bayon qiladi[11]. Demak, hikoyachi voqelikni tashqi kuzatuvchi nigohidan emas, balki Temur zamondoshlarining ichki nuqtai nazariga yaqinlashtirishga intiladi.

Shu bilan birga, muqaddimada Temur haqidagi ikki qutbli baho ataylab yonma-yon qo'yiladi. Dushmanlari uni yerni yutayotgan ulkan kulrang bo'riga, tarafdorlari esa arslonga qiyoslagan. H.Lamb Jon Milton Temur haqidagi rivoyatlardan shayton obrazining ulug'vor va qorong'i bo'yoqlarini olgan bo'lishi mumkinligini ham eslatib o'tadi. Muallif shu tariqa G'arb adabiyotidagi "shafqatsiz Temur" an'anasini ongli ravishda qayd etib, unga muqobil talqin taklif qiladi. Bu pozitsiya asarning onomastik izohida ham ko'rinadi. Lamb "Temur" so'zi "temir" ma'nosini anglatishini, oqsoqlik o'q jarohati oqibatida paydo bo'lganini, Osiyo tarixchilari uni Amir Temur Ko'ragon deb ataganini, "Temurlang" shakli esa faqat haqorat maqsadida ishlatilganini alohida ta'kidlaydi[12].

Qahramonning batafsil portreti u Amir Qazag'on saroyiga kelgan yigitlik chog'ida beriladi[13]. Portret tashqi belgilardan ichki fazilatlarga qarab boradi: baquvvat qomat, keng yelka, uzun qo'l-oyoq, katta va mag'rur tutilgan bosh, baland peshona, sekin harakatlanuvchi va suhbatdoshga to'g'ridan to'g'ri tikiluvchi qora ko'zlar, keng yonoq suyaklari. So'ng muallif bevosita psixologik tavsifga o'tadi: yigitdagi g'ayrat-shijoat deyarli shiddatli darajada kuchli, u kamgap, ovozi chuqur va o'tkir, bema'ni hazil-mutoyibani yoqtirmaydi. Bu psixologik portretning yorqin namunasi bo'lib, undagi har bir tashqi detal ichki mazmun tashiydi: to'g'ri tikilgan nigoh, rostgo'ylik va irodaning, sekin harakatlanuvchi ko'z, vazminlik va mulohazakorlikning, chuqur ovoz esa hokimiyat va salobatning belgisi sifatida idrok etiladi.

Mazkur portret tarixiy manbalar bilan uyg'un. Ibn Arabshoh ham Temurni baland bo'yli, katta boshli,

[1] Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma / fors tilidan Yu. Hakimjonov tarjimasi. – Toshkent: O'zbekiston, 1996.
[2] Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi (Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur) / arab tilidan U. Uvatov tarjimasi. – Toshkent: Mehnat, 1992.
[3] Clavijo R.G. de. Narrative of the Embassy of Ruy Gonzalez de Clavijo to the Court of Timour at Samarcand, A.D. 1403–6 / transl. by C.R. Markham. – London: Hakluyt Society, 1859.
[4] Lamb H. Tamerlane: The Earth Shaker. – Garden City, New York: Garden City Publishing Company, 1928. – P. 18.
[5] Бартольд В.В. Улугбек и его время // Бартольд В.В. Сочинения. – Т. II, ч. 2. – М.: Наука, 1964.
[6] Manz B.F. The Rise and Rule of Tamerlane. – Cambridge: Cambridge University Press, 1989.
[7] Marozzi J. Tamerlane: Sword of Islam, Conqueror of the World. – London: HarperCollins, 2004.
[8] Lukács G. The Historical Novel / transl. by H. Mitchell and S. Mitchell. – London: Merlin Press, 1962.
[9] Бахтин М.М. Формы времени и хронотопа в романе // Бахтин М.М. Вопросы литературы и эстетики. – М.: Художественная литература, 1975. – С. 234–407.
[10] Lamb H. Tamerlane: The Earth Shaker. – Garden City, New York: Garden City Publishing Company, 1928. – P. 15.
[11] Lamb H. Tamerlane: The Earth Shaker. – Garden City, New York: Garden City Publishing Company, 1928. – P. 19.
[12] Lamb H. Tamerlane: The Earth Shaker. – Garden City, New York: Garden City Publishing Company, 1928. – P. 28.
[13] Lamb H. Tamerlane: The Earth Shaker. – Garden City, New York: Garden City Publishing Company, 1928. – P. 30.

keng peshonali, hazil va yolg‘onni yoqtirmaydigan, achchiq bo‘lsa-da haqiqatni xush ko‘radigan kishi sifatida tasvirlaydi[1]. Biroq Arabshohdagi statik ta’rif H.Lamb asarida syujet harakati ichiga joylashtirilgan dinamik portretga aylanadi. Muhimi, Amir Temurga nisbatan xayrixoh bo‘lmagan muarrix ma’lumotidan muallif betaraf-ijobiy belgilarni tanlab oladi.

H.Lamb portret detalini obrazlarni qarama-qarshi qo‘yish vositasiga ham aylantiradi. Mo‘g‘ul xoni Tug‘luq Temurxon keng yuzli, yonoq suyaklari bo‘rtib chiqqan, siyrak soqolli, kichik va tinim bilmay u yoqbu yoqqa qarovchi ko‘zli, shubhakor, mohir talonchi va qaysar jangchi sifatida tasvirlanadi[2]. Qahramon qiyofasi boshqa personaj nigohi orqali ham beriladi. To‘y kuni kelin Uljoy bo‘lajak turmush o‘rtog‘ining ozg‘in, soqolli yuzini ilk bor ko‘radi. Portretni turli nigohlar orqali berish obrazga ko‘p o‘lchovlilik baxsh etadi.

Asarning dastlabki boblari xarakter genezisini ochish vazifasini bajaradi. Kesh manzarasi, uy tomida yashirinib, shom azonini tinglayotgan bola obrazi qahramon ma’naviy olamining ildizlarini ko‘rsatadi. Tengdoshlari bilan qoya ostidagi qal’ada o‘ynalgan urush o‘yinlarida u doimo yetakchi bo‘lgani, o‘yinda ham jiddiy va maqsadga intiluvchan bo‘lib, hech kulmagani, oti boshqalarnikidan yaxshi bo‘lmasa-da, eng mohir chavandoz sanalgani hikoya qilinadi. Muallif bu jiddiylikni yolg‘izlik bilan izohlaydi. Onasi erta vafot etgan, otasi Amir Tarag‘ay dunyo ishlaridan qo‘l siltab, darveshlar suhbatiga berilgan, xonadon esa nomdor, biroq kambag‘al edi. Shu tariqa xarakterning ijtimoiy-psixologik motivatsiyasi, mustaqillik va faqat o‘z kuchiga tayanish ehtiyoji yaratiladi.

Otasining dunyoni chayon va ilonlarga to‘la oltin idishga qiyoslab, undan charchaganini aytishi, o‘g‘ilning dunyoni o‘zgartirishga bo‘lgan intilishiga zid qo‘yiladi. Ayni paytda xarakterning diniy-ma’naviy asosi ham ko‘rsatiladi. Sayyid nasihatidan so‘ng o‘smir Temur bir muddat chavgon va shatranjni tark etib, Qur’on karimning bir surasini puxta o‘zlashtiradi, yo‘lda uchragan darveshdan otdan tushib duo so‘raydi, Shayx Zayniddin uni e’tiborga olib, o‘z qalpog‘i, belbog‘i va uzugini hadya qiladi. M.M.Baxtin ta’kidlaganidek, yo‘l xronotopi hayot yo‘lining metaforasi, tasodifiy uchrashuv va sinovlar maydonidir[3]. H.Lambda ham Temur hayoti jangda o‘tgan umr sifatida talqin qilinadi. Muallif Amir Temur o‘ziga taxt barpo etgan bo‘lsa-da, umrining asosiy qismini ot egarida o‘tkazganini ta’kidlaydi. “The Wanderer” (“Sarson”), “The Way over the Steppes” (“Dasht orqali yo‘l”), “In the Saddle” (“Egarda”) kabi bob sarlavhalari ham shu xronotopga ishora qiladi.

Lamb qahramon fazilatlarini asosan muallifning bevosita baholari orqali emas, balki uning xatti-harakatlari va qarorlari orqali ochadi. Bosqinchilarni ta’qib qilish epizodida hamrohlari o‘lja ortilgan karvonga hujum qilishni maslahat berganda, Temur avval jangchilarni yengish lozim, shunda qolganlari o‘zi qochadi degan qarorga keladi, G‘alabadan so‘ng qaytarib olingan otlar va mollarni egalariga topshiradi. Bitta epizodning o‘zida strategik tafakkur va halollik birdaniga namoyon bo‘ladi.

Temur nutqi aforistik, maqol va metaforalarga boy. Mug‘ul qo‘shini yaqinlashganda sodiqlik izhor qilishga shoshgan kishilarga u muhtojlik soatidagi do‘stlar haqiqiy do‘st emasligini aytib, ularni o‘z himoyasiga olishni rad etadi. Hikmatli so‘z shaklidagi bu nutq qahramonning hushyor, pragmatik aql egasi ekanini ko‘rsatadi. Atrofiga yig‘ilgan katta va tartibsiz olomon xonga unga hujum qilish uchun bahona bo‘lishi mumkin edi.

Diplomatik hozirjavoblik Tug‘luq Temurxon huzuridagi sahnada eng yuqori nuqtaga yetadi. Temur bor boyligini xonga hadya qilib, o‘ziga hech narsa qoldirmaydi, so‘ng xonning uch amaldori yo‘lda uning mol-mulkini talaganini jasorat bilan aytadi. Natijada xon talangan mollarni qaytarishni buyuradi.

Obrazli nutqda zoomorfik metaforalar alohida tizim hosil qiladi. Romanda Temurni bo‘ri va arslonga, boshliqsiz qolgan barlos urug‘ini qanotsiz burgutga, Jete qo‘shini yiqilgan ot ustiga to‘plangan quzg‘unlarga, Samarqand amirlarini lochin soyasi ostida tarqab ketgan bedanalarga, qaytib kelgan Tug‘luqni qushlar orasiga tushgan toshga qiyoslanadi. Bu metaforalar sharq xronika an’anasiga xos obrazlilikni saqlab qolish bilan birga, Temurni yirtqich-qahramon (lochin, arslon) semantikasi bilan bog‘laydi. Stilistik jihatdan H.Lamb personajlar nutqida inglizcha arxaik “thou/thee/thy” olmoshlari, sharqona murojaat formulalari va turkiy-mo‘g‘ulcha so‘zlarni (bahatur, ming-bashi, tuman-bashi, ordu, nakar, tura) qo‘llaydi. Bunday yondoshuv o‘quvchida tarixiy masofa va milliy kolorit tuyg‘usini uyg‘otib, qahramon nutqiga salobat baxsh etadi.

Temur xarakteri atrofidagi personajlar bilan qarama-qarshi qo‘yish orqali bo‘rttiriladi. Amir Husayn ozg‘in, qaysar, jasur, ammo ochko‘z; ichida o‘zini Temurdan ustun sanaydi, ittifoqchi qishloqlarni talaydi, chopar yuziga uradi, asirlarni o‘ldirishni maslahat beradi. Amir Temur uni muqaddas qadamjoga olib

[1] Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi (Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur) / arab tilidan U. Uvatov tarjimasi. – Toshkent: Mehnat, 1992. – B. 6.

[2] Lamb H. Tamerlane: The Earth Shaker. – Garden City, New York: Garden City Publishing Company, 1928. – P. 45.

[3] Бахтин М.М. Формы времени и хронотопа в романе // Бахтин М.М. Вопросы литературы и эстетики. – М.: Художественная литература, 1975. – С. 234–407.

borib do‘stlikka qasamyod qildirganda, Husayn buni og‘rinib bajaradi. Husayn Temurning saxovati, sadoqati va jasoratini bo‘rttirib ko‘rsatuvchi kontrast-obraz. Amaki Hoji Barlos esa shubhakor, shoshqaloq va tund, xavf tug‘ilganda qarorsiz, hatto jiyanini o‘ldirish uchun fitna uyushtiradi. Uning ikkilanishi Temurning qat’iyatini ta’kidlaydi. Tug‘luq Temurxon va uning amaldorlari ochko‘zligi Temurning saxiyligiga zid qo‘yiladi.

Qarama-qarshi obrazlar bilan birga, qahramonni to‘ldiruvchi obrazlar ham mavjud. Amir Qazag‘on adolatli va to‘g‘ri, asirga bergan va’dasiga sodiq qolgan ustozning obrazi. Uning o‘limidan so‘ng Temur qotillarni ta’qib qilishda qatnashib, qasosini (al-qasosu minal haq) oladi. E.M.Forster tasnifi bo‘yicha Temur to‘laqonli asosiy xarakter bo‘lib, atrofdagi personajlarning ko‘pchiligi bir-ikki belgi atrofida qurilgan ikkinchi darajali obrazlar sifatida markaziy xarakter qirralarini yoritishga xizmat qiladi[1].

1-jadval

Xarakter qirrasi	Badiiy vosita	Matndagi epizod (sahifa)
Vazminlik, to‘g‘rilik, kamgaplik	Psixologik portret	Yigitlik portreti; Tug‘luq Temurxon portreti
Harbiy zakovat, hiylakorlik	Epizodik xarakterlash	Bosqinchilarni quvish; tosh ko‘prik va gulxanlar; loy jangi
Diplomatik hozirjavoblik	Nutqiy xarakteristika, aforizm	Mug‘ul lashkarboshisini mehmon qilish; Tug‘luq huzurida
Saxovat, olijanoblik	Kontrast-obrazlar (Husayn, Tug‘luq)	Asir sarkardalarni ozod qilish; qabila boshliqlarini taqdirlash
Adolatparvarlik	Voqea, axloqiy xulosa	Asirlarni kuch bilan ozod qilish; zindon haqidagi qasam
Mehr-muhabbat, g‘amxo‘rlik	Badiiy detal	Uljoy karvonini kutish; qilich bog‘lash sahnasi
Irodaviy chidam	Fiziologik detal	O‘q jarohati va oqsoqlik
Insoniy zaifliklar	Muallif bahosi, ruhiy holat tasviri	O‘ziga ortiqcha ishonch; tundlik

Amir Temur xarakterining qirralari va ularni ochib beruvchi badiiy vositalar

Olingan natijalar bir necha nazariy masalani muhokama qilishni taqozo etadi. Birinchidan, janr masalasi. G.Lukach klassik tarixiy romanda jahon-tarixiy shaxs odatda ikkinchi darajali o‘rinda turishini, markazda esa tarixiy to‘qnashuvlar girdobiga tushgan ikkinchi darajali qahramon bo‘lishini ta’kidlaydi[2]. H.Lamb asarida esa, tarixiy shaxs bevosita markazga qo‘yilgan. Bu uni Valter Skott modelidagi tarixiy romandan farqlab, XX asrning 20-yillarida G‘arbda keng tarqalgan romanlashtirilgan biografiya oqimiga yaqinlashtiradi. Shu jihatdan roman atamasini ushbu asarga nisbatan shartli ma’noda, tarixiy-biografik roman shaklida qo‘llash maqsadga muvofiq.

Asar syujetining tayanch nuqtalar, Xiva jangi, Alibek asirligi, Uljoyning quvg‘in yillaridagi hamrohligi, tarixiy manbalarga borib taqaladi. Dialoglar, ruhiy kechinmalar, peyzaj va maishiy tafsilotlar esa, muallif badiiy tasavvurining mahsulidir. X.Uayt ko‘rsatganidek, tarixiy bayonning o‘zi ham voqealarni tanlash va ularni syujet asosida tartiblash orqali shakllanadi[3]. H.Lamb esa bu jarayonni ochiq badiiy strategiyaga aylantiradi. Uning xronika ma’lumotlariga goh tayanib, goh kinoyali munosabatda bo‘lishi hujjatlilik effekti bilan badiiy erkinlik o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlaydi.

Xulosa o‘rnida, H.Lambning “Tamerlane: The Earth Shaker” asari hujjatlilik va badiiylikni uyg‘unlashtirgan tarixiy-biografik roman bo‘lib, uning to‘rtinchi qismidagi izohlar badiiy hikoyani ilmiy-publitsistik sharh bilan to‘ldiradi. Muallif konsepsiyasi markazchilikdan voz kechish va Temurni zamondoshlari nigohi bilan ko‘rsatishga asoslanadi. Muqaddimadagi “bo‘ri – arslon” antitezasi va “Temurlang” nomining haqoratomuz tabiati haqidagi izoh bu pozitsiyaning yorqin ifodasidir. Amir Temur xarakteri psixologik va antitetik portret. H.Lamb Amir Temurni iroda, harbiy zakovat, diplomatik hozirjavoblik, saxovat, adolatparvarlik va mehr-muhabbat bilan bir qatorda o‘zi-

[1] Forster E.M. Aspects of the Novel. – London: Edward Arnold, 1927.

[2] Lukács G. The Historical Novel / transl. by H. Mitchell and S. Mitchell. – London: Merlin Press, 1962.

[3] White H. Metahistory: The Historical Imagination in Nineteenth-Century Europe. – Baltimore: Johns Hopkins University Press, 1973.

ga ortiqcha ishonch va tundlik kabi zaifliklarga ham ega bo‘lgan to‘laqonli, ko‘p qirrali xarakter sifatida gavdalantiradi. Asarda sharqona ekzotizm unsurlaridan to‘liq xoli bo‘lmasa-da, muallifning xronika ma’lumotlariga tanqidiy-kinoyali munosabati Yevropa adabiyotidagi “shafqatsiz zolim” stereotipini qayta ko‘rib chiqishga xizmat qiladi.

Rezyume. Maqolada amerikalik yozuvchi va tarixchi Harold Lambning 1928-yilda nashr etilgan “Tamerlane: The Earth Shaker” tarixiy-biografik romanida Amir Temur xarakterining badiiy talqini tadqiq etiladi. Asarning janr tabiati, muallif pozitsiyasi va hikoya nuqtayi nazari aniqlanib, qahramon xarakterini yaratishda qo‘llangan asosiy badiiy vositalar – psixologik portret, epizodik xarakterlash, nutqiy xarakteristika, leytmotiv, antitezaga asoslangan obrazlar tizimi, zoomorfik metaforalar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida Harold Lamb Amir Temurni ilohiylashtirilgan yoki iblislashtirilgan qiyofada emas, balki sarkardalik zakovati, diplomatik hozirjavoblik, olijanoblik va adolatparvarlik bilan birga o‘ziga ortiqcha ishonch, tundlik kabi insoniy zaifliklarga ham ega bo‘lgan murakkab, “to‘laqonli” xarakter sifatida gavdalantirgani asoslanadi. Asar Yevropa adabiyotida shakllangan “dahshatli zolim” stereotipini qayta ko‘rib chiqishga qaratilgan, biroq sharqona ekzotizm unsurlaridan to‘liq xoli bo‘lmagan badiiy talqin sifatida baholanadi.

Resume. The article examines the artistic interpretation of Amir Temur’s character in “Tamerlane: The Earth Shaker” (1928), a historical-biographical novel by the American writer and historian Harold Lamb. The genre nature of the work, the author’s stance and the narrative point of view are identified, and the principal devices of characterization are analysed: psychological portraiture, episodic and speech characterization, leitmotif, a system of characters built on antithesis, zoomorphic metaphors. It is argued that Lamb presents Amir Temur neither as an idealized nor as a demonized figure, but as a complex “round” character in whom military genius, diplomatic resourcefulness, magnanimity and a sense of justice coexist with human weaknesses such as overconfidence and moodiness. The work is assessed as an artistic interpretation that seeks to revise the “terrible tyrant” stereotype established in European literature, while not being entirely free from elements of Oriental exoticism.

Резюме. В статье исследуется художественная интерпретация характера Амира Темура в историко-биографическом романе американского писателя и историка Гарольда Лэмба “Tamerlane: The Earth Shaker” (1928). Определяются жанровая природа произведения, авторская позиция и повествовательная точка зрения; анализируются основные художественные средства создания характера героя: психологический портрет, эпизодная и речевая характеристика, лейтмотив, система образов, построенная на антитезе, зооморфные метафоры. Обосновывается, что Харолд Лэмб изображает Амира Темура не в идеализированном и не в демонизированном виде, а как сложный “объёмный” характер, в котором полководческий талант, дипломатическая находчивость, великодушие и стремление к справедливости сочетаются с человеческими слабостями – самоуверенностью и мрачностью. Произведение оценивается как художественная интерпретация, направленная на пересмотр сложившегося в европейской литературе стереотипа “грозного тирана”, но не вполне свободная от элементов ориентального экзотизма.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 9
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ONA OBRAZINING RAMZIY VA MIFOPOETIK TALQINI: INGLIZZABON VA O'ZBEK ADABIYOTI MISOLIDA

Raximova Umida Soliyevna,
Ma'mun universiteti, G'arb tillari va adabiyoti kafedrasi dotsenti

Badiiy adabiyotda ona obrazi oilaviy munosabatlar doirasida harakat qiluvchi personaj sifatidagina emas, balki hayotning paydo bo'lishi, avlod davomiyligi, xotira, ma'naviy ildiz va milliy qadriyatlarni o'zida mujassamlashtiruvchi ramziy obraz sifatida ham talqin etiladi. Bunday asarlarda onalikning individual tajribasi kengayib, muayyan xalqning madaniy xotirasi va dunyoqarashi bilan bog'lanadi. Natijada ona obrazining badiiy mohiyati personajning xatti-harakatlari bilangina emas, balki unga bog'langan makon, predmet, tabiat hodisalari, diniy-mifologik tasavvurlar va avlod xotirasi orqali ham ochiladi.

Inglizzabon va o'zbek adabiyotida mazkur poetik tamoyil turli milliy-madaniy manbalar asosida shakllangan bo'lsa-da, ona obrazini shaxsiy taqdir doirasidan kengroq ma'no maydoniga olib chiqishi bilan mushtaraklik kasb etadi. Inglizzabon adabiyotida Enn Enrayt asarlarida ona obrazi sakrallik, tana, uy, tarixiy xotira va ajdodlar bilan bog'liq ramzlar vositasida ifodalansa, o'zbek adabiyotida ona timsoli yer, uy, Vatan, avlod va milliy xotira tushunchalari bilan uyg'unlashib, o'ziga xos ramziy-ma'naviy mazmun hosil qiladi. Shu jihatdan mazkur adabiy an'analardagi ona obrazini qiyosiy o'rganish umumiy arxetipik asoslar bilan bir qatorda, ularning milliy badiiy tafakkurga xos xususiyatlarini ham aniqlash imkonini beradi.

Ona obrazining ramziy va mifopoetik talqinini o'rganishda obrazning faqat syujetdagi vazifasini emas, balki uni shakllantiruvchi ramzlar, makon, predmetlar, tabiat hodisalari, tanaviy detallar va avlod xotirasi bilan bog'liq ma'nolar tizimini tahlil qilish muhimdir. Ramz badiiy matnda bir vaqtning o'zida aniq predmet yoki hodisani anglatishi va undan kengroq ma'naviy mazmunni ifodalashi bilan xarakterlanadi. Shu sababli ona obrazi ham faqat muayyan personaj sifatida emas, balki hayot, tug'ilish, xotira, himoya, qurbonlik va avlodiy davomiylik kabi universal ma'nolarni mujassamlashtiruvchi poetik timsol sifatida namoyon bo'lishi mumkin.

Ona obrazining bunday keng ma'noda talqin qilinishi onalikning ijtimoiy va madaniy konstruksiya ekanini o'rganuvchi zamonaviy tadqiqotlar bilan ham uyg'unlashadi. Simon de Bovuar ayollik va onalikni faqat biologik holat sifatida emas, balki jamiyat va madaniyat ta'sirida shakllanadigan mavqe sifatida ko'rish imkonini bergan bo'lsa[1], Nensi Chodorov onalik munosabatlarining shaxsning psixologik shakllanishi va avlodlar o'rtasidagi munosabatlarga ta'sirini tadqiq etadi[2]. Shu nuqtai nazardan adabiy asardagi ona obrazi ham biologik ona tushunchasidan kengayib, ijtimoiy, psixologik va madaniy ma'nolarni birlashtiruvchi murakkab badiiy konstruksiya sifatida namoyon bo'ladi.

Ona obrazining ramziy tabiatini anglashda arxetip tushunchasi ham muhim nazariy asoslardan biridir. Karl Gustav Yungning arxetiplar haqidagi qarashlari ona timsolini insonning jamoaviy ruhiy tajribasida shakllangan universal obrazlardan biri sifatida talqin qilish imkonini beradi[3]. Biroq zamonaviy adabiyotda mazkur arxetip o'zgarmas shaklda takrorlanmaydi. Yozuvchi uni muayyan tarixiy, milliy, diniy va ijtimoiy muhitga mos ravishda qayta shakllantiradi. Shuning uchun ona arxetipi bir asarda himoya va mehr ramzi bo'lsa, boshqa asarda xotira, yo'qotish, aybdorlik, qurbonlik yoki shaxsiy cheklanganlik timsoliga aylanishi mumkin.

Mifopoetik yondashuv esa adabiy asardagi ramzlarning qadimiy mifologik, diniy va madaniy tasavvurlar bilan aloqasini aniqlashga xizmat qiladi. Bu yondashuvda Bokira Mariyam, muqaddas makon, uy, yer, suv va avlod xotirasi kabi obrazlar oddiy badiiy detal sifatidagina emas, balki madaniy xotirada shakllangan mifologik ma'nolarni tashuvchi belgilar sifatida ham o'rganiladi. Shu ma'noda ona obrazining mifopoetik talqini uning diniy yoki folklor manbalari bilan bevosita bog'liqliginigina emas, balki qadimiy ramzlarning zamonaviy adabiy matnda qanday

[1] Beauvoir Simone de. The Second Sex. - New York: Vintage Books, 2011. – P. 78.
[2] Chodorow N. The Reproduction of Mothering: Psychoanalysis and the Sociology of Gender. - Berkeley: California, 1978. – P. 237.
[3] Gustav J.G. The Archetypes and the Collective Unconscious. - 2nd ed. Princeton: Princeton University Press, 1969. – P. 169.

qayta ma'nolantirilishini ham qamrab oladi.

Bu nazariy yondashuv Enn Enrayt ijodini tahlil qilishda ayniqsa muhimdir. Enraytning ona va onalik haqidagi asarlarida Bokira Mariyam, cherkov, uy, arxitektura va homilador ayol tanasi kabi obrazlar bir-biri bilan bog'langan ramziy tizimni hosil qiladi. Nolan Emer tadqiqotida ham *The Green Road* romanida ona obrazining Irlandiyaning katolik, konservativ va postkolonial madaniy merosi bilan bog'liqligi ta'kidlangan. U Enrayt romanida irland onasi haqidagi an'anaviy ideallashtirilgan tasavvur, "Mother Ireland" (Ona Irlandiya) tushunchasi va oilaviy makon o'rtasidagi munosabatni tahlil qiladi[1]. Enraytning *The House of the Architect's Love Story* va *Shaft* hikoyalariga doir mazkur tadqiqot materialida ham uy, arxitektura va lift kabi makonlar onalik va homiladorlik holatlarini ifodalovchi ramziy vositalar sifatida talqin qilingan. Uyning qurilishi inson munosabatlarining qurilishi va buzilishiga, homilador ayol tanasining arxitekturaviy makon sifatida tasvirlanishi esa yangi hayotning shakllanishiga ishora qiladi.

O'zbek adabiyotida ona obrazining ramziy talqinini o'rganishda milliy-madaniy xotira va kundalik hayot detallarining ahamiyati alohida namoyon bo'ladi. O'tkir Hoshimovning *Dunyoning ishlari* asarida ona obrazi farzand xotirasi, mehr, duo, sog'inch va farzandlik burchi bilan uzviy bog'langan. Asarning "Alla", "Iltijo", "Oq, oydin kechalar", "Tush", "Gilam paypoq" kabi qismlarida ona obrazining ma'naviy mazmuni turli badiiy holatlar orqali ochiladi. Bu jihat adabiyotshunoslik tadqiqotlarida ham qayd etilgan: ona obrazi asarda nafaqat shaxsiy qahramon, balki milliy qadriyatlar, mehr va matonatni mujassamlashtiruvchi timsol sifatida talqin qilinadi. Shu bilan birga, yozuvchi asarida ramziy ma'no ko'pincha katta mifologik obrazlar orqali emas, balki kundalik hayotning oddiy detallari orqali shakllanadi. Bu jihat uning ona obrazini zamonaviy o'zbek xotira poetikasi bilan bog'laydi. So'nggi tadqiqotlarda ham *Dunyoning ishlari*da ona obrazining ruhiy holati va kechinmalarini yetkazishda badiiy tasvir, avtobiografik va hayotiy faktlar sintezi muhimligi ta'kidlangan.

Enn Enrayt ijodida ona obrazining ramziy va mifopoetik talqini irland katolik madaniyatida shakllangan ayollik va onalik haqidagi tasavvurlarni zamonaviy ayol tajribasi bilan to'qnashtirish orqali yuzaga keladi. Bunda Bokira Maryam timsoli alohida ahamiyat kasb etadi. Irland madaniy an'anasida Bokira Maryam poklik, fidoyilik va muqaddas onalikning yuksak namunasi sifatida barqarorlashgan bo'lsa, Enrayt mazkur an'anaviy modelni tayyor holicha qabul qilmaydi. Adiba uni zamonaviy ayolning oilaviy, jismoniy va ruhiy tajribasi bilan bog'lab, muqaddas ona arxetipining mazmun doirasini qayta ko'rib chiqadi.

Bu xususiyat *The Portable Virgin* hikoyasida ayniqsa yaqqol ko'rinadi. Asar sarlavhasining o'zidayoq sakral va maishiy ma'no maydonlari o'zaro to'qnashtiriladi. "Virgin" tushunchasi xristian madaniyatida Bokira Maryam bilan bog'liq muqaddas obrazni anglatsa, "portable" sifati uni ko'chirish, olib yurish mumkin bo'lgan predmet darajasiga yaqinlashtiradi. Natijada diniy-madaniy xotirada yuksak maqomga ega bo'lgan timsol zamonaviy ayolning kundalik hayotiga kirib keladi. Qahramon kichik Bokira Maryam haykalchasini topganida uni quyidagicha tasvirlaydi: "*My revenge looks back at me, out of the mirror. I find a small, portable Virgin. She is made of transparent plastic, except for her cloak, which is coloured blue"*[2]. Haykalchaning shaffof plastikdan yasalgani, uning kichikligi va olib yurish mumkinligi muqaddas obrazning an'anaviy ulug'vorligini atayin pasaytiradi. Biroq mazkur badiiy detal Bokira Maryam timsolining ahamiyatini yo'qqa chiqarmaydi. Aksincha, sakral obrazning oddiy predmetga aylanishi orqali ideallashtirilgan onalik modeli bilan real ayol hayoti o'rtasidagi masofa ko'rinadi. Bibi Maryamning ko'k kuylagi an'anaviy xristian ikonografiyasini saqlab turgan bir paytda, uning plastik tanaga ko'chirilishi muqaddaslikning zamonaviy maishiy muhitdagi yangi holatini yuzaga keltiradi. Shu tariqa haykalcha hikoyada oddiy predmet emas, balki an'anaviy muqaddas ona modeli va zamonaviy ayol tajribasi o'rtasidagi ziddiyatni mujassamlashtiruvchi ramziy detal vazifasini bajaradi.

Qahramon ismining Maria ekani ham ushbu mifopoetik tizim bilan bog'liq. Maria nomi Bokira Maryam obrazini xotirlatadi, biroq hikoya qahramonining hayoti an'anaviy muqaddas ayol modeliga mos kelmaydi. Shu asosda asarda muqaddas prototip bilan real ayol obrazi o'rtasida badiiy masofa paydo bo'ladi. Enrayt ana shu masofa orqali onalik va ayollikni tayyor axloqiy qoliplarga bo'ysundirish imkonini shubha ostiga qo'yadi. Binobarin, Maryam arxetipi asarda idealning to'g'ridan-to'g'ri tasdig'i emas, balki zamonaviy ayol o'zligini anglash jarayonida qayta baholanadigan madaniy model sifatida namoyon bo'ladi. Haykalchaning ramziy ma'nosi uning ichida muqaddas suv saqlanayotgani ma'lum bo'lgan epizodda yanada murakkablashadi: *"Mary is full of surprises. Her little blue crow n is a screw-off top, and her body is filled with holy water, which I drink"*[3]. Mazkur tasvirda Bokira Maryam haykalchasining "tanasi"

[1] Emer N. Anne Enright: Taking the Green Road. Five Irish Women: The Second Republic, 1960–2016. - Manchester University Press, 2019. – P. 167.

[2] Enright A. The Portable Virgin. – London: Vintage, 2007. – P. 87.

[3] Enright A. The Portable Virgin. – London: Vintage, 2007. – P. 87.

muqaddas suvni o‘zida saqlovchi idishga aylanadi. Shu nuqtada predmetning diniy va jismoniy semantikasi o‘zaro tutashadi: Maryam timsoli muqaddas onalikni anglatsa, uning ichidagi suv poklanish va yangilanish ma’nolarini faollashtiradi. Ayni paytda qahramonning muqaddas suvni ichishi bu ramzni tashqi diniy belgi sifatida kuzatish bilan cheklanmay, uni jisman o‘zlashtirish harakatiga aylantiradi. Demak, an’anaviy muqaddas ona timsoli qahramon uchun tashqi madaniy me’yordan ichki shaxsiy tajribaga ko‘chiriladi.

Hikoya yakunida haykalchaning suvga qo‘yib yuborilishi ushbu ramziy harakatning keyingi bosqichini belgilaydi. Bu epizodda suv poklanish va o‘tish ma’nolarini o‘zida birlashtiradi. Qahramon Bokira Maryam timsolini o‘zi bilan olib qolmaydi, balki uni oqimga topshiradi. Shu sababli mazkur harakatni muqaddas ona obrazining oddiy inkori sifatida baholash yetarli emas. U ko‘proq qahramonning o‘z hayotini ideallashtirilgan ayollik va onalik qolipidan ajratib, shaxsiy tanlov asosida anglashga intilishini ifodalaydi. Shunday qilib, Enrayt Bokira Maryam arxetipini parodik detallar vositasida an’anaviy muqaddaslik talqinidan uzoqlashtirish bilan bir vaqtda uni butunlay inkor etmaydi; aksincha, an’anaviy timsolni zamonaviy ayol tajribasi doirasida qayta ma’nolantiradi.

Enraytning *The House of the Architect’s Love Story* hikoyasida esa ona obrazining ramziy talqini diniy predmetdan ayol tanasi va arxitektura makoni munosabatiga ko‘chadi. Asarda uy qurilishi va homiladorlik jarayoni bir-biriga parallel tasvirlanib, arxitektura inson tanasiga, homilador ayol tanasi esa bunyod etilayotgan makonga o‘xshatiladi. Bu parallellik ayniqsa qahramon o‘z homilador tanasini cherkov bilan bog‘lagan epizodda ochiq namoyon bo‘ladi: *“If I painted myself now there would be a round hazy space where my stomach is, and a cathedral inside. This baby is a gothic masterpiece. I can feel the arches rising up under my ribs, the glorious and complicated space”*[1]. Ushbu parchada ona qorning “a cathedral inside”, homilaning esa “a gothic masterpiece” sifatida idrok qilinishi homiladorlikni oddiy fiziologik jarayon doirasidan chiqaradi. Cherkov obrazi saakral makon semantikasini faollashtirib, ona tanasini yangi hayot shakllanayotgan muqaddas makonga aylantiradi. Gotik me’morchilikka xos ravoqlarning qovurg‘alar ostida ko‘tarilishi haqidagi tasvirda esa arxitektura va tana chegaralari o‘zaro singishib ketadi. Natijada ona tanasi badiiy matnda hayot bunyod etilayotgan tirik me’moriy makon sifatida namoyon bo‘ladi. Ayni paytda *“glorious and complicated space”* birikmasida onalikning ikki tomonlama tabiati mujassam. U “ulug‘vor” bo‘lishi bilan birga “murakkab” hamdir. Bu jihat Enraytning ona obrazini mutlaq ideallashtirishdan qochishini ko‘rsatadi. Cherkov ramzi homiladorlikni muqaddaslashtiradi, biroq qahramonning jismoniy va ruhiy tajribasini yo‘qqa chiqarmaydi. Shu sababli onalik muqaddas maqomga ko‘tarilgan holda ham real ayol tanasi va uning murakkab kechinmalari bilan uzviyligini saqlab qoladi.

Uy qurilishining tasvirida mazkur parallel yanada aniqlashadi: *“The foundations were dug, the bones set, and a skin of brick grew around the rest. It was wired and plastered and plumbed. Much like myself...”*[2]. Uy konstruksiyasining “bones” va “skin” orqali tasvirlanishi jonsiz arxitekturaga tana xususiyatini beradi. Poydevor - suyak, g‘isht qatlami - teri sifatida badiiylashtirilar ekan, uy tirik organizmga o‘xshay boshlaydi. Qahramonning *“Much like myself”* degan xulosasi esa bu o‘xshashlikning tasodifiy emasligini ochiq ko‘rsatadi. Demak, hikoyada ramziy harakat ikki tomonlama kechadi: uy tanaga, ona tanasi uyga aylanadi. Bu o‘zaro almashinuvning markazida esa yaratilish g‘oyasi turadi - bir makonda uy, ikkinchi makonda yangi inson bunyod etilmoqda.

Enraytning *Shaft* hikoyasida mazkur model yana boshqa shakl kasb etadi. Bu asarda uy va sobor o‘rnini lift egallaydi. Liftning *“just a box on a rope”* sifatida tasvirlanishi birinchi qarashda oddiy maishiy detal bo‘lib ko‘rinsa-da, homilador qahramon holati bilan bog‘langanda ramziy mazmun kasb etadi. Quti ichida harakatlanayotgan ayol va arqon orqali ushlab turilgan lift obrazi homila va kindik o‘rtasidagi tabiiy bog‘lanishni eslatadi. Shu asosda lift tashqi texnikaviy makon bo‘lishdan chiqib, homiladorlik holatining badiiy modeliga aylanadi.

Qahramonning homila haqidagi mulohazasi bu ramziylikni yanada kengaytiradi: “*I had a new whole person on my mind, for a start. (...) I had all this to worry about, a new human being, a whole universe*”[3]. Homilaning “a whole universe” “butun bir olam” sifatida ifodalanishi ona tanasining ramziy ko‘lamini kengaytiradi. Endi u faqat farzandni jismonan ko‘tarib yurgan tana emas, balki o‘zida mustaqil inson va yangi olamni saqlayotgan makon sifatida idrok etiladi. Shu nuqtai nazardan *The House of the Architect’s Love Story*dagi sobor, *Shaft*dagi quti–arqon va “butun olam” obrazlari bir-birini to‘ldiruvchi ramziy tizimni hosil qiladi. Ularni birlashtirib turgan semantik markaz bu ona tanasining yaratilish va hayotni

[1] Enright A. The Portable Virgin. – London: Secker & Warburg, 1991. – P. 62.
[2] Enright A. 1991. – P. 61.
[3] Enright A. Taking Pictures. – London: Jonathan Cape, 2008. – P. 131.

saqlash makoni sifatidagi talqinidir.

O‘tkir Hoshimovning “*Dunyoning ishlari”* qissasida ona obrazining mifopoetik qirralari, avvalo, bolalik xotirasi, uy-makon va undagi ramziy predmetlar orqali namoyon bo‘ladi. Asarning turli novellalarida ona obrazi yagona voqea doirasida emas, balki qahramon xotirasida saqlanib qolgan hovli, daraxt, tun, qo‘shiq, kitob kabi obrazlar bilan birgalikda tiklanadi. Shu jihatdan mazkur predmet va makonlar ona obrazining oddiy maishiy muhitini emas, balki uning farzand xotirasidagi ma’naviy davomini ifodalaydi. Bu xususiyat, ayniqsa, *“Oq, oydin kechalar”* novellasidagi bodom daraxti obrazida yaqqol ko‘rinadi. Qahramon bolalik xotirasini eslar ekan, onasi bilan bog‘liq hovlini quyidagicha tasvirlaydi: *“Bolaligimni eslasam, iliq, yoz kechalari ko‘z oldimga keladi. Hovlimizda bir tup bodom bo‘lardi. Erta bahorda qiyg‘os gullardiyu hech meva tugmasdi. Onam: “Bodom yolg‘iz bo‘lgani uchun meva qilmaydi», deb tushuntirardi. Kun botishi bilan onam hovliga suv separ”*[1]. Bu parchada bodom daraxti oddiy tabiat detali bo‘lib qolmaydi. Uning “yolg‘iz”ligi va meva bermasligi haqidagi onaning izohi daraxt obraziga inson hayotiga oid ramziy ma’no yuklaydi. Daraxtning meva berishi uchun juftlik zarurligi haqidagi bolalikda berilgan tushuntirish keyingi hayot nuqtai nazaridan oila, yaqinlik va insonning o‘zga inson bilan ma’naviy bog‘lanishi haqidagi tasavvurning ramziy asosiga aylanadi. Muhimi, bu ma’noni muallif to‘g‘ridan-to‘g‘ri izohlamaydi; u ona tilidan aytilgan oddiy fikr orqali bola xotirasiga singdiriladi.

Bodom daraxti bilan birga hovli ham ona obrazining xotiradagi asosiy makoni sifatida shakllanadi. Qahramon bolalik muhitini eslar ekan, bodom daraxti, supa va onasining hovliga suv sepishi kabi detallarni bir butun manzara tarzida tiklaydi: “*Shu bodom tagida supa bor edi. Kun botishi bilan onam hovliga suv separdi. Yerning hidi rayhonning hidiga qo‘shilib ketardi”*[2]. Bu parchada hovli oddiy yashash joyi sifatida emas, ona xotirasi mujassamlashgan makon sifatida namoyon bo‘ladi. Bunda suv sepish harakati ham muhim: ona hovlini shunchaki tozalamaydi, balki bola xotirasida kechki hayotning muayyan marosimiy tartibini yaratadi. Suv, yer hidi, rayhon va ona harakati birlashib, xotirada qayta-qayta jonlanadigan yaxlit badiiy manzarani hosil qiladi. Hovlining ramziy ahamiyati shundaki, u ona va farzand munosabati kechadigan ichki dunyo makonidir. Bu yerda ona tashqi ijtimoiy muhitdagi mavqei bilan emas, farzandning shaxsiy xotirasida qolgan holati bilan namoyon bo‘ladi. Shu sababli hovli obrazi onalikni ijtimoiy vazifadan ko‘ra shaxsiy va ma’naviy tajriba sifatida ochishga xizmat qiladi.

“Oq, oydin kechalar”da ona obrazining mifopoetik talqini eng yuqori nuqtaga yulduz va quyosh obrazlari orqali ko‘tariladi: “*Ehtimol, osmondagi eng yorqin yulduzlar onalarning jonidir. Ehtimol, onalarning so‘ngan yulduzlari birlashib quyoshga aylangandir. Oftobni ona deyishlari, ehtimol, shundan*”[3]. Bu parcha asardagi ona obrazining ramziy mazmunini bevosita mifopoetik darajaga olib chiqadi. Ona endi faqat qahramonning shaxsiy xotirasida qolgan inson emas, balki koinot tartibi bilan bog‘langan timsol sifatida tasavvur qilinadi. Ona jonining yulduzga, so‘ngan yulduzlarning esa quyoshga aylanishi haqidagi taxmin real hayot mantig‘iga emas, mifologik tafakkurga yaqin bo‘lgan obrazli tasavvurga asoslanadi. Ayniqsa, yulduz - quyosh harakati ona obrazining shaxsiy xotiradan umuminsoniy ma’noga ko‘tarilishini ta’minlaydi. Yulduz alohida onalarning ruhini ifodalasa, quyosh ularning birlashgan, umumlashgan timsoliga aylanadi. Shu tariqa ona shaxsiy bir inson sifatidagi chegarasidan chiqib, hayot va nurning umumiy manbai sifatida talqin qilinadi. Parchadagi *“Oftobni ona deyishlari”* fikri ham muhim. Bu yerda ona va quyosh o‘rtasidagi o‘xshashlik tashqi ko‘rinish bilan emas, hayotni ta’minlash va nur berish xususiyati bilan belgilanadi. Quyosh qanday qilib yerdagi hayotning asosiy manbalaridan biri bo‘lsa, ona ham farzandning ma’naviy hayotini ta’minlovchi boshlang‘ich manba sifatida badiiylashtiriladi. Shu sababli ushbu epizodni qissadagi ona obrazining eng muhim mifopoetik umumlashmalaridan biri sifatida baholash mumkin.

Ona bolasi bilan birga tungi osmonni kuzatadi va unga qo‘shiq aytadi; keyin esa ertak hikoya qiladi. Demak, ona bu yerda faqat bolani parvarishlovchi shaxs emas, balki uning tabiat, vaqt va inson hayoti haqidagi dastlabki tasavvurlarini shakllantiruvchi ma’naviy vositachi sifatida talqin qilinadi. Oy va yulduzlar makoni ona ovozi va xotirasi bilan bog‘langani sababli, tabiat manzarasi ham onalik mazmuniga ega bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, “Dunyoning ishlari”dagi xotira oddiy o‘tmishni eslash vazifasini bajarmaydi. U ona obrazini hozirgi vaqtda qayta mavjud qiladigan badiiy mexanizmga aylanadi. Qahramon bolalikdagi hovlini, bodom daraxtini, onasining ovozini va tungi osmonni eslaganida, aslida ona bilan bog‘liq ma’naviy muhitni qayta tiklaydi. Shu bois asarda ona obrazining mifopoetik xususiyati uning afsonaviy yoki g‘ayritabiiy qilib tasvirlanishida emas, balki oddiy hayotiy xotiralarning ramziy-ma’naviy mazmunga ko‘tarilishida namoyon bo‘ladi.

[1] Hoshimov O‘. Dunyoning ishlari – T: Yangi asr avlodi, 2019. – B. 5.
[2] Hoshimov O‘. Ushbu asar. 2019. – B. 5.
[3] Hoshimov O‘. Dunyoning ishlari – T: Yangi asr avlodi, 2019. – B. 6.

Bu xususiyat qissadagi kitob detalida yanada aniqlashadi. *«Kitob»* novellasida muallif har bir yangi kitobining birinchi nusxasini onasiga bag‘ishlashini ta’kidlaydi: *“Har gal yangi kitobim chiqishi bilan birinchi nusxasini onamga atar edim. Har gal bir xil so‘z yozib berardim: “Birinchi o‘qituvchim - onamga!?”.*[1] Bu yerda kitob ona obrazining ramziy ma’nosini yangi bosqichga olib chiqadi. Ona farzandga faqat hayot beruvchi shaxs emas, balki uning ma’naviy shakllanishidagi dastlabki manba sifatida talqin qilinadi. “Birinchi o‘qituvchim - onamga!” degan bag‘ishlov ona obrazini bilim, tarbiya va hayot tajribasining boshlang‘ich manbai sifatida belgilaydi. Shu bilan birga, kitobning onaga bag‘ishlanishi farzandning ijodiy faoliyatini ona xotirasi bilan bog‘laydi. Bu nuqtada “Dunyoning ishlari”dagi ona obrazining mifopoetik mazmuni yanada oydinlashadi. Ona vafot etganidan keyin ham uning obrazi yo‘qolmaydi; u farzandning xotirasida uy, hovli, daraxt, qo‘shiq va kitob kabi ramziy shakllarda yashashda davom etadi. Demak, Hoshimov poetikasida ona obrazining “abadiyligi” g‘ayritabiiy voqealar orqali emas, xotiraning inson hayotida davom etish xususiyati orqali ta’minlanadi.

Enn Enrayt va O‘tkir Hoshimov ijodida ona obrazi ramziy va mifopoetik jihatdan turli badiiy vositalar orqali shakllantiriladi. Enright asarlarida ona va onalik bilan bog‘liq uy, cherkov, Bibi Maryam, homilador ayol tanasi, me’moriy makon kabi obrazlar shaxsiy hayot, ayollik va onalik tajribasining murakkabligini ifodalovchi ramziy tizimni hosil qiladi. Ayniqsa, *The House of the Architect’s Love Story* hikoyasida uy qurilishi inson munosabatlarining qurilishi va buzilishi bilan bog‘lansa, homilador ayol tanasining me’moriy makon sifatida tasvirlanishi onalikni yaratilish va yangi hayotning shakllanish jarayoni bilan uyg‘unlashtiradi. *Shaft* hikoyasida esa lift makoni homilador ayolning shaxsiy chegaralari va ichki xavotirlarini ifodalovchi ramziy maydonga aylanadi. O‘tkir Hoshimovning *Dunyoning ishlari* asarida esa ona obrazi ko‘proq xotira, hovli, tabiat va kundalik hayotga oid ramziy detallar orqali ma’naviy mazmun kasb etadi. Ona bilan bog‘liq makon va predmetlar farzand xotirasida uning jismoniy mavjudligidan keyin ham saqlanib qoladigan ma’naviy izni ifodalaydi. Shu jihatdan Hoshimovda ona obrazi faqat muayyan personaj emas, balki farzandning hayotiy xotirasi, mehr, tarbiya va avlodiy davomiylikni birlashtiruvchi ma’naviy timsol sifatida namoyon bo‘ladi.

Qiyosiy jihatdan qaralganda, Enright onalik ramziyligini zamonaviy ayolning ichki kechinmalari, tanasi va shaxsiy makoni orqali, Hoshimov esa ona xotirasi, oilaviy makon va milliy-ma’naviy qadriyatlar orqali shakllantiradi. Biroq har ikki ijodkor uchun ham ona obrazi biologik yoki oilaviy munosabat doirasidan kengroq ma’no kasb etadi. Natijada ona hayotning davomiyligi, xotira, mehr, shaxsiy va avlodiy o‘zlikni saqlash bilan bog‘liq keng poetik timsolga aylanadi.

Rezyume. Mazkur ilmiy tadqiqotda ingliz va o‘zbek adabiyotida ona obrazining simvolik va mifopoetik talqini Enn Enrayt hamda O‘tkir Hoshimov asarlari misolida qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil etiladi. Ishda ikki xil madaniy va ijtimoiy muhitga mansub asarlardagi predmetli va makoniy detallar, jismoniy-telesni tasvirlar, shuningdek, avlodlar xotirasining badiiy-estetik va tekstologik funksiyalari atroflicha yoritib berilgan. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, Enn Enrayt va O‘tkir Hoshimov ijodida ona obrazi tor oilaviy va maishiy munosabatlar chegarasidan chiqib, hayot, madaniy xotira, avlodlar o‘rtasidagi uzviylik hamda ma’naviy merosning universal va milliy metaforasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Resume. This research presents a comparative-typological analysis of the symbolic and mythopoetic representation of the mother figure in English-language and Uzbek literature, utilizing the works of Anne Enright and Utkir Hoshimov. The study systematically examines the artistic and narrative functions of spatial and material details, bodily imagery, and generational memory across two distinct cultural environments. The findings demonstrate that in the prose of both writers, the mother figure transcends narrow domestic boundaries to operate as a profound mythopoetic dimension, embodying a universal and cultural symbol of life, memory, generational continuity, and spiritual heritage.

Резюме. В данном научном исследовании проводится сравнительно-типологический анализ символической и мифопоэтической интерпретации образа матери в англоязычной и узбекской литературе на материале произведений Энн Энрайт и Уткира Хошимова. В работе детально раскрываются художественно-эстетические функции предметных и пространственных деталей, телесных образов, а также механизмы трансляции памяти поколений в контексте двух различных культурных традиций. Результаты исследования доказали, что в творчестве обоих авторов образ матери выходит за рамки сугубо семейных отношений, приобретая фундаментальное значение универсального и национального символа жизни, исторической памяти, преемственности поколений и духовного наследия.

[1] Hoshimov O‘. Dunyoning ishlari – T: Yangi asr avlodi, 2019. – B. 33.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 9
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

HOZIRGI QORAQALPOQ XOTIN-QIZLAR LIRIKASIDA PSIXOLOGIK METAMORFOZA

Mnajatdinova Makarya,
O'zbekiston Respublikasi
Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi
Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti
tayanch doktoranti

XX asr oxiri va XXI asr boshlaridagi qoraqalpoq lirikasini milliy she'riyatimizning estetik tafakkur ko'lami kengaygan, mazmun va shakl jihatidan tub burilishlar yuz bergan davri sifatida baholash mumkin. Xususan, ushbu davr xotin-qizlar lirikasida kechayotgan evolyutsion jarayonlar badiiy-psixologik o'zgarishlarning salmoqli qatlamini tashkil etib, lirik qahramon ongida fundamental metamorfozalarni yuzaga keltirdi. An'anaviy poetik tizimdagi o'zini qurbon qilishga moyil, ya'ni *sacrificial persona* qiyofasidan ongli ravishda voz kechish hamda psixologik metamorfoza,[1] ya'ni "bir shakldan ikkinchisiga o'tish davomida yangi shakl va funksiyaga ega bo'lish" orqali zamonaviy estetik tafakkur talablariga javob beruvchi ruhiy suverenitetga intilish jarayoni bugungi qoraqalpoq xotin-qizlar poeziyasining asosiy g'oyaviy-estetik dominantalaridan biriga aylandi.

Mazkur muammoning dolzarbligi shundaki, zamonaviy qoraqalpoq lirikasida ayol lirik qahramonining ichki olami, uning psixologik portreti va dunyoqarashidagi tub burilishlar adabiyotshunoslik fanida qiyosiy-tahliliy hamda psixoanalitik aspektlarda yetarlicha yoritilmagan. Shoiralar ijodidagi lirik "men"ning o'zini o'zi anglash bosqichlari, an'anaviy taqiqlardan xalos bo'lish hamda ruhiy mustaqillikka erishish mexanizmlari milliy poeziyaning umumiy evolyutsiyasini belgilab beruvchi muhim omillardan hisoblanadi. Qoraqalpoq xotin-qizlar lirikasida lirik qahramonning sakrificial holatdan ruhiy suverenitetga o'tishining psixologik metamorfoza bosqichlarini ochib berish, shuningdek, mazkur jarayonning poetik ifoda shakllari va individual-mualliflik talqinlarini yoritishda matn tahlili, germenevtik yondashuv, psixoanalitik hamda struktur-semantik metodlardan foydalanildi.

Adabiyotda va falsafada *sacrificial persona* – "qurbon, qurbonlikka chalingan inson"[2] tushunchasi mavjud. Mazkur tushuncha klassik asarlardan tortib zamonaviy adabiyotgacha keng tarqalgan arxetipik obrazlardan biri hisoblanadi. Qurbon qahramon deganda o'zining shaxsiy manfaatini, erkinligini, hatto hayotini boshqalarning baxti, jamiyatning urf-odatlari yoki muhabbati yo'lida fido qilishga majbur bo'lgan, passiv va ezilgan pozitsiyadagi subyekt tushuniladi. Ayniqsa, patriarxal qarashlar hukm surgan davrlarda adabiyotda ayol obrazi ko'p hollarda ona, sabrli intizor, sadoqatli yoki taqdirga tan bergan "qurbon" sifatida tasvirlangan.

Adabiyotshunos olim M. Baxtin ta'kidlaganidek, "tushunish – boshqa insonning kechinmasini mendagi aniq passiv aks ettirish emas, balki kechinmani butunlay o'zga qadriyat rejasiga, yangi baholash va rasmiylashtirish kategoriyasiga ko'chirishdir"[3]. Qoraqalpoq ayollar lirikasida lirik qahramonning an'anaviy elegik-qurbonlik pozitsiyasidan voz kechib, ruhiy suverenitetga erishish jarayoni aynan shunday estetik va psixologik qayta baholash mexanizmiga asoslanadi. Lirik subyekt o'ziga qiyosiy xiyonat qilgan yoki og'riq keltirgan obyekt sabab yuzaga kelgan azobni oddiygina passiv qabul qilmaydi, balki uni o'zining ichki dunyosidan prinsipial jihatdan tashqariga chiqarib, o'zining yagona estetik va ruhiy arxitektonik mavqeyidan turib qayta baholaydi. Natijada qahramon o'zining shaxsiy qadr-qimmatini saqlab qolgan holda, tashqi ta'sirlardan xoli bo'lgan total emotsional ustunlik va ruhiy suverenitetga erishadi. Faylasuf L.Vigotskiy esa san'at psixologiyasida tuyg'u va xayol (tasavvur) masalalari eng murakkab va fundamental sohalardan ekanligini ta'kidlab, san'atdagi emotsional jarayonlar shaxsning ichki energiya sarfi va poklanishi bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatib o'tadi. Jumladan, adabiyotshunos D.Ovsyaniko-Kulikovski-

[1] Публий Овидий Назон. Метаморфозы. Пер: С.В. Шервинского. – Москва: Художественная литература, 1938. – Б. 207.
[2] https://www.collinsdictionary.com
[3] Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. Автор и герой в эстетически деятельности. – Москва: Искусство. 1986. – С. 97.v

yning qarashlariga tayanib ta'kidlash joizki, "tuyg'ular psixikaning ustun darajada ongli jarayonlari sifatida ruhiy kuchni tejashdan ko'ra ko'proq sarflaydi, chunki tuyg'u hayoti – ruhning xarajatidir"[1]. Qoraqalpoq ayollar lirikasida lirik qahramonning o'tmishdagi jarohatli hissiyotlardan, elegik qurbonlik holatidan voz kechishi aynan shu ruhiy isrofgarchilikka chek qo'yish zaruriyati bilan izohlanadi. Qahramon o'zining ichki quvvatini behuda og'riq va azoblarga sarflash o'rniga, katarsis va emotsional detaksizatsiya mexanizmlari orqali eskirgan hissiyotlarni yengib o'tadi.

Amerikalik taniqli tadqiqotchi-feministlar Sandra Gilbert va Syuzan Gubar o'zlarining ilmiy izlanishlarida ayol ijodkorlar duch keladigan psixologik ziddiyatlarni tahlil qila turib, adabiy matnlarda va hayotda "vazmin itoatkor ayollik va isyonkor yovvoyi tasavvur energiyasi o'rtasidagi jarlik" mavjudligini alohida ta'kidlaydilar. Tadqiqotchilarning fikricha, ayol lirik qahramoni dastlabki bosqichda itoatkor va qurbon bo'lsa-da, uning ichki dunyosida isyonkor va qudratli ijodiy energiya qaynaydi. Ayol ijodkor yoki lirik qahramonning o'zini o'zi anglash jarayoni ko'pincha "keskin erksevarlik va erkaklar ustunlik qiladigan adabiy muhitning gender siyosati girdobidagi murakkab o'zini o'zi belgilash"[2] sharoitida kechadi. S.Gilbert va S.Gubar tomonidan ilgari surilgan ushbu nazariy yondashuv zamonaviy qoraqalpoq ayollar lirikasida lirik qahramonning evolyutsion sakrashini ochib berishda muhim kalit bo'lib xizmat qiladi.

Qoraqalpoq xotin-qizlar lirikasida individual "Men"ning emotsional evolyutsiyasi, psixologik suverenitetni qo'lga kiritishi hamda elegik qurbonlik pozitsiyasidan voz kechib, ruhiy ustunlikka (suverenitetga) o'tish dinamikasi shoiralar M.Jumanazarova va S.Sirg'abayeva ijodida o'ziga xos badiiy talqinini topgan. Ularning lirikasidagi matn va potekst qatlamlari shaxsning ichki qarama-qarshiliklarini, kognitiv dissonansni yengib o'tish strategiyalarini hamda emotsional detaksizatsiyani chuqur psixologik kesimda aks ettiradi. M.Jumanazarovaning "Ele men" she'ri dastlab ishqiy-elegik sog'inch bilan sug'orilgandek ko'rinsa-da, uning potekstida qat'iy emansipatsion norozilik va psixologik ustunlik yotganini ko'ramiz. Masalan:

"Ele meni izleyseń,
Shólde segbir tartıp sen...
Taw basında shıń bolıp,
Órt, jalın hám nur bolıp,
Saǵan árman, muń bolıp,
Kókiregińe enemen.
Payımda diz shógerseń,
Qádirimdi bilip sen"[3].

Dastlabki ikki qatorda lirik qahramon xiyonat qilgan, uni yolg'iz qoldirgan lirik obyektga (oshiq) nisbatan psixologik ustunlikni o'rnatadi. Potekst nuqtayi nazaridan jarohatlangan ayol endi passiv kutuvchi obyekt emas, balki lirik subyektning ichki dunyosini boshqaruvchi stixiyali kuchga (hijron) aylanadi. "Segbir tortıw" (aql-hushini yo'qotish) – bu lirik subyektning kognitiv dissonans holatiga tushib, o'z xatti-harakatini nazorat qila olmasligidir. Ikkinchi bandda esa qahramon o'zini tabiatning eng qudratli va yetib bo'lmas elementlari bilan tenglashtiradi. Bu yerda psixologiyadagi avtonomiya va emotsional detaksizatsiya yaqqol ko'rinadi. Shoir obrazni fizik makondan kosmologik-metafizik darajaga ko'taradi. Tog' cho'qqisi – qo'l yetmaslikni, nur va olov esa jarohatlovchi hamda tartibga soluvchi ruhiy quvvatni anglatadi.

She'rning so'nggi qismida kognitiv dissonansning eng yuqori cho'qqisini ko'ramiz. Lirik obyekt o'z xatosini tushunib, pushaymonlik bilan tiz cho'kkan vaqtda ham lirik "Men" uni qabul qilmaydi, unga bo'ysunmaydi. Aksincha, "Gáwhar bop suw túbine enedi" – ya'ni o'z qadr-qimmatini saqlab qolgan holda, obyektning jismoniy va ruhiy doirasidan butunlay chiqib ketishni tanlaydi. Bu – eng yuqori darajadagi o'zini o'zi anglash va psixologik g'alaba hisoblanadi.

S.Sirg'abayeva she'rida esa emotsional uzilish va qat'iy katartik hukmronlik mavjud. She'r psixologik jarohatlanishdan keyin yuzaga keladigan emotsional qat'iylik va o'zini o'zi himoya qilish mexanizmini ochib beradi. Masalan:

"…Házir sen inanbassań gáplerime,
Ele talay oqılar dártlerim de.
Jurtlarday ózińde ashıq bolarsań,
Bir qosıq shıjbaylanǵan dápterime.
Endi saǵan joqpan, dúnya ǵoy bir kem,
Deyseń: shayır kimdi ármanlar eken?[4]*!"*

Dastlabki band potekstida umidsizlik emas, balki ichki ishonch va ruhiy yaxlitlikning yakunlanishi mavjud. Lirik qahramon lirik obyekt hozir uning qadrini bilmasa-da, vaqt o'tishi bilan uning ham xuddi shunday azobni boshidan kechirib ("Jurtlarday ózińde ashıq bolarsań"), o'z qadriga yetishini, kech pushaymon bo'lishini aniq biladi. Bu – ruhiy oldindan ko'ra bilish qobiliyati (proyektiv psixologik ko'rinish). She'r yakunidagi misralar psixologiyadagi to'liq uzilish va subyektiv suverenitet deb ataladigan holatni ifodalaydi. Qahramon o'zining avvalgi emotsional aloqalarini bir chiziq bilan kesib tashlaydi ("Endi saǵan joqpan"). Dunyoning "bir kam" ekanligini tan

[1] Выготский С.Л. Психология искусства. – Москва: Искусство. 1986. – С. 240.
[2] Gilbert M.S., Gubar S. The madwoman in the attic. – New haven, Connecticut: Yale university. – P. 19.
[3] Жуманазарова М. Еле мен... – Нөкис, «Әмиўдәрья», 2021 №3. Б. – 122.
[4] Сырғабаева С. Ықласбент. – Нөкис, «Әмиўдәрья», 2022 №4. Б. – 108.

olish – taqdirga bo‘ysunish emas, balki hayotning adolatsizligiga falsafiy xulosa chiqarib, obyektdan uzoqlashishning oqilona yo‘lidir. Shoiraning o‘zini “shoir” sifatida atab, “kimdi ármanlar eken?!” – degan obyektning savolini keltirishi jarohatlangan ayol psixologiyasidan ko‘ra, ijodiy qudratga ega bo‘lgan mualliflik “Men”ining ustunligini ko‘rsatadi. Bu yerda qahramon endi qurbon emas, balki o‘z taqdirining egasi va baholovchisi vazifasini bajaradi. Har ikkala she’r ham ayollar lirikasidagi kognitiv dissonansning yengib o‘tilganini ko‘rsatadi.

Dastlabki sog‘inch va jarohatlanish hissi (elegik fazalar) vaqt o‘tishi bilan katarsis orqali, ya’ni “ruhning hissiyotlardan mistik poklanishi va ehtiroslardan tozalanishi”[1] natijasida yangilanib, qat’iy psixologik avtonomiyaga, ya’ni obyektdan butunlay voz kechish va o‘zining ichki qadrini yuksak qo‘yish stixiyasiga aylanadi. Qahramonlar obyektning vafosizligiga ojizlik bilan emas, balki ruhiy ustunlik, kosmologik obrazlar va qat’iy hukmlar orqali javob beradi.

Hozirgi adabiy jarayonda ishq lirikasini mahorat bilan yaratayotgan shoirlardan biri Sarbinaz Aytmuratova bo‘lib, uning “Men menen súwretke keledi túskiń” she’ri psixologik evolyutsiyaning – elegik sog‘inchdan total hukmronlikka o‘tish bosqichining – eng yuqori, cho‘qqi nuqtasini tasvirlaydi. Agar yuqorida she’rlarini tahlil qilgan shoiralar M.Jumanazarova arxetipik-stixiyali qarshilikni, S.Sirg‘abayeva esa emotsional uzilishni (detaksizatsiyani) ko‘rsatgan bo‘lsa, S.Aytmuratova ushbu jarayonga falsafiy, kelajakka yo‘naltirilgan makon (proyektiv suverenitet) va psixologik ustunlikning paradoksal shakli sifatida katta mahorat bilan yechim beradi.

S.Aytmuratovaning she’rida psixologik-mantiqiy izchillikdagi yechimlar mahorat bilan ochib berilgan. Dastlabki bandlarda:

“Túngi gúbelekler qılmasa opa,
Tentek júregińe ótpese sózińi,
Jabılǵan jarańdı qıynap jortaǵa,
Meni kórsetedi televizorıń.
Turmıs táshwishine qalsań oralıp,
Mıń bir esap-sanaq ketpey oyıńnan”[2].

She’r psixologik metamorfozaning eng yuqori bosqichi – subyekt va obyektning o‘rin almashish strategiyasi hamda ongli ravishda o‘chirib yuborish fenomenini ochib beradi. Lirik obyektning kognitiv inqirozi dastlabki bandlardanoq ko‘rsatiladi: avvalgi lirik obyektning ruhiy zaifligi, turmushning mayda hisob-kitoblari bilan bandligi qat’iy tasvirlanadi. Bu yerda ayol dastlabki elegik azobdan chiqib, ilgari uni qiynagan insonning bugungi kundagi ruhiy tarqoqligini, mayda-chuyda tashvishlarga bog‘lanib qolganini chetdan salmoqli nigoh bilan kuzatadi. Bu – kognitiv dissonansning obyektga o‘tishi, ya’ni rollar almashishining boshlanishidir.

Lirik qahramon elegik pozitsiyadan chiqqach, geografik va mental makonni o‘zgartiradi. Qahramon o‘zining ichki ozodligini fizik makonda proyeksiyalaydi:

“Bir úy satıp alsam teńiz boyınan, Qasınan jaratsam arzıwlı baǵıń”. Bu yerdagi dengiz va yangi bog‘ oddiy landshaft emas, balki jarohatlangan “men”ning qayta tug‘ilish makonidir. Qahramon o‘z baxtini, o‘z olamini lirik obyektsiz, uning ishtirokisiz quradi. She’rning davomi gradatsion dinamika bilan davom etib, lirik “men”ning “unutishi” va obyektning “zor bo‘lishi” – emotsional ustunlik yaqqol seziladi:

“Sonda aqmaq kewliń talpınıp maǵan,
Úzilgen jipleriń kelmey kelege,
Ele kimligimdi ańlatıp saǵan,
Umıtıp bararman kimligińdi de.
Ózińdi esletip bir appaq tańda,
Oǵına aylanıp sen kórgen tústiń,
Minberde bir qosıq oqıyman, sonda
Men menen súwretke keledi túskiń...”[3].

She’rning eng ta’sirli va psixologik jihatdan mahoratli yechimi – “Ele kimligimdi ańlatıp saǵan, Umıtıp bararman kimligińdi de” – misralarida mujassam. Psixologiyada bu – ultimativ detaksizatsiya (eng yuqori darajada qiziqishni yo‘qotish) deb ataladi. Qahramon unga o‘zining kimligini eslatib turmaydi, aksincha, uning kimligini butunlay unutib borayotganini aytib, subyektning ego-markaziga (egotsentrizmiga) zarba beradi.

Bu yerdagi psixologik va badiiy-estetik paradoks shundan iboratki, lirik qahramon jismoniy jihatdan undan (lirik obyektdan – M.J.) butunlay uzoqlashib, hatto uning kimligini unutib borayotgan bo‘lsa-da, yigitning ichki dunyosida va ongida o‘chmaydigan, boshqaruvchi kuch – bosh hukmdor bo‘lib qolaveradi. Qahramon obyektdan uzoqlashsa-da, obyekt undan qutula olmaydi. Bu – psixologiyadagi “qaytib keluvchi shaxsning ramziy boshqaruvi” deb ataladi. Qahramon jismonan mavjud bo‘lmasa ham, obyektning ongida, tushlarida, xotiralarida va kundalik hayotida qayta jonlanaveradi. Yigit uzoqlashishni, unutishni istasa-da, uning ongining eng chuqur qatlamida (tushida) o‘sha qahramon hukmronlik qiladi, uning xayolini boshqarib turadi. Qiz o‘zining ijodiy yuksakligida, minbarda yashayotgan bo‘lsa, yigit esa uning birgina qaytib kelgan so‘zi yoki obrazi ta’sirida ruhiy iztirobga tushib, unga bog‘liq holatga keladi.

[1] Философский словарь. – Москва: Иностранной литературы. 1961. – С. 280.
[2] Айтмуратова С. Сеннен басланған бәҳәр. – Нөкис: Golden print. 2025. – Б. 44.
[3] Айтмуратова С. Сеннен басланған бәҳәр. – Нөкис: Golden print. 2025. – Б. 44-45.

Demak, klassik lirikada ko‘proq erkak (shaxsning faol obyekti) boshqaruvchi yoki lirik qahramonning (qizning) taqdirini belgilovchi sifatida namoyon bo‘lsa, bu yerda rollar to‘liq almashgan: ayol (lirik qahramon) o‘zining ruhiy suverenitetiga erishish bilan kifoyalanmay, uni tashlab ketgan obyektning ongi va ichki dunyosini boshqaruvchi suveren hukmdorga aylanadi. Bu – qoraqalpoq xotin-qizlar lirikasidagi psixologik metamorfozaning eng yuqori, ta’sirchan va novatorlik bosqichi hisoblanadi.

Bunday xususiyatlari bilan S.Aytmuratovaning she’ri M.Jumanazarova va S.Sirg‘abayeva boshlab bergan psixologik evolyutsiyani mantiqiy yakunga olib keladi: agar birinchi bosqichda qarshilik ko‘rsatish va nisbiy uzoqlashish kuzatilsa, bu yerda subyektning butunlay o‘zgarib, obyektga aylanishi va o‘zining ruhiy suverenitetini abadiy mustahkamlash strategiyasi hukm suradi. Bu – ayollar lirikasidagi psixologik metamorfozaning eng yuqori badiiy namunasi bo‘lib hisoblanadi.

Qoraqalpoq xotin-qizlar poeziyasida lirik “men”ning evolyutsiyasi klassik elegik an’anadan keskin uzoqlashib, shaxsning ichki qarama-qarshiliklarini, kognitiv dissonansni hamda emotsional detaksizatsiyani yengib o‘tishning o‘ziga xos badiiy-psixologik modellarini yaratadi. M.Jumanazarova, S.Sirg‘abayeva va S.Aytmuratova lirikasida ushbu jarayon uch bosqichli dialektik o‘zgarish sifatida namoyon bo‘ladi:

1. Stixiyali-kosmologik avtonomiya va qarshi ta’sir (M.Jumanazarova).

Lirik qahramon o‘ziga xiyonat qilgan obyektning kognitiv dissonansiga (“shólde segbir tartıp sen”) nisbatan o‘zini unga intilgan oddiy oshiq emas, balki qo‘l yetmas tabiiy stixiya sifatida ko‘rsatadi (“Taw basında shıń bolıp”, “gáwhar bop suw túbine enemen”). Bu yerda jarohatlangan ayol psixologiyasida o‘z qadr-qimmatini (self-worth) saqlab qolgan holda, obyektning ruhiy doirasidan butunlay chiqib ketish (transsendental avtonomiya) tendensiyasi ustunlik qiladi.

2. Emotsional detaksizatsiya va qat’iy hukm (S.Sirg‘abayeva).

Jarohatlanishdan so‘ng yuzaga keladigan emotsional qat’iylik va o‘zini o‘zi himoya qilish mexanizmi (defense mechanism) ochiq namoyon bo‘ladi. “Endi saǵan joqpan, dúnya ǵoy bir kem” – degan keskin hukm kompleksli uzilish va subyektiv suverenitetning ko‘rinishi bo‘lib, qahramon o‘zining avvalgi emotsional aloqalarini bir chiziq bilan kesib tashlaydi hamda o‘zini lirik obyektdan yuqori qo‘yadi.

3. Total ruhiy hukmronlik va kognitiv to‘liq mustaqillik (S.Aytmuratova).

Evolyutsiyaning eng yuqori nuqtasi S.Aytmuratova poeziyasida namoyon bo‘ladi. Lirik obyektning pushaymonliklari, uning turmushning mayda hisob-kitoblari bilan parokanda bo‘lishi va tungi kapalaklardek beqaror tabiati fonida lirik “men” o‘zining kosmologik, estetik va fizik makonini asosiy o‘ringa qo‘yadi (“Bir úy satıp alsam teńiz boyınan, Qasınan jaratsam arzıwlı baǵıń”). Eng hayratlanarli psixologik metamorfoza – obyekt endi lirik qahramonning emas, balki lirik qahramon obyektning tushlariga, matbuotiga va kundalik hayotiga hukmdor sifatida aralashadi.

Xulosa qilib aytganda, biz she’rlarini tahlil qilgan shoiralar poeziyasidagi lirik qahramonlar klassik elegik-qurbonlik pozitsiyasidan qat’iy katarsis orqali tozalanib, shaxsning ruhiy suverenitetiga, ichki erkinligiga va total emotsional ustunligiga erishgan faol hamda suveren subyekt darajasiga ko‘tariladi. Mazkur jarayon qoraqalpoq xotin-qizlar lirikasidagi psixologik metamorfozaning yuqori badiiy-estetik va falsafiy darajasini ta’minlaydi.

Rezyume. Maqolada hozirgi qoraqalpoq xotin-qizlar lirikasidagi lirik “men”ning psixologik evolyutsiyasi va badiiy-estetik metamorfoza jarayonlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Zamonaviy qoraqalpoq she’riyatida M.Jumanazarova, S.Sirg‘abayeva va S.Aytmuratova ijodida elegik-qurbonlik pozitsiyasidan (sacrificial persona) voz kechish, kognitiv dissonans va katarsis orqali ruhiy suverenitet hamda total emotsional ustunlikka o‘tish tendensiyalari ochib beriladi. Tadqiqotda psixologik poetika, komparativistika va gender-estetik qarashlar asosida lirik qahramonning subyektiv suverenitetga erishish bosqichlari tahlil qilingan.

Resume. The article discusses the scientific and theoretical aspects of the evolution of the lyrical “I” and the processes of artistic and aesthetic metamorphosis in contemporary Karakalpak women’s poetry. Based on the creative works of contemporary Karakalpak poetesses (M.Jumanazarova, S.Syrgabayeva, and S.Aytmuratova), the tendencies of transitioning from an elegiac-sacrificial position (*sacrificial persona*) to spiritual sovereignty and total emotional dominance through cognitive dissonance and catharsis are revealed. Grounded in psychological poetics, comparatistics, and gender-aesthetic perspectives, the study analyzes the stages through which the lyrical heroine achieves subjective sovereignty.

Резюме. В статье в научно-теоретическом аспекте рассматриваются эволюция лирического «я» и процессы художественно-эстетической метаморфозы в современной каракалпакской женской поэзии.

В творчестве современных каракалпакских поэтесс (М.Жуманазарова, С.Сыргабаева и С.Айтмуратова) раскрыты тенденции перехода от элегично-жертвенной позиции (*sacrificial persona*) к духовной суверенитету и тотальному эмоциональному превосходству посредством когнитивного диссонанса и катарсиса. В исследовании на основе психологической поэтики, компаративистики и гендерно-эстетических взглядов проанализированы этапы достижения лирической героиней субъективной суверенности.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 9
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

XX-XXI ASR LIRIKASIDA ODISSEY OBRAZINING TRANSFORMATSIYASI

Jienbaev Musa Azatbaevich,
Berdoq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
qoraqalpoq adabiyoti kafedrasi tayanch doktoranti

Odissey (Uliss) – adabiyot tarixidagi qudratli arxetiplardan biri. U: "Antik grek mifologiyasidagi Itaka orolining hukmdori, Laert va Antikleyning og'li. Geneologik jihatdan aqlli va ayyor obrazdir"[1]. Dunyo adabiyotidagi reformatsiyalar, adabiy kanonlarning parchalanishi bilan maydonga kelgan simvolizm, modernizm, ekzistensializm, absurdizm, postmodernizm oqimlarining yetuk vakillari antik grek mifologik obrazlari ichida Odisseyga ko'proq murojaat etgan. Ular uchun Odisseydagi aql va ayyorlik, ma'budlar qarg'ishi, eng asosiysi, uzoq yillar azop-uqubatlarda kechgan manosiz darbadarlik muhim konsepsiya bo'lib xizmat qildi. Odisseyning kanonik eposdan hozirgi davr sheriyatigacha bo'lgan tipologik evolyutsiyasiga nazar solsak, uning "ilohiy tartibga bo'ysinuvchi botirdan" – "ekzistensial va postmodernistik surgun subyektiga" aylanganini anglash mumkin. XX asr dunyo sheriyatida O.Mandelshtam, E.Paund[2] va boshqa shoirlar Odisseyni zamonaviy va murakkab qahramon sifatida talqin qildi. O'z navbatida qoraqalpoq shoirlari ham bu mifologik obrazga murojaat etdilar. I.Yusupovning "Mangu buloq" poemasida darbadarlik, S.Ibragimov sherida[3] vatanga qaytish konseptida asosida tasvirlanishi Odissey transformatsiyasining tipologiyasini G'arb va qoraqalpoq lirikasi konteksida tadqiq qilish imkonini beradi.

XX asr dunyo adabiyotida mifopoetikadan foydalanish, antik arxetiplarga murojaat va mif elementlarini zamonaviy asar podtekstida aks ettirish yangi bosqichga chiqdi. Zamonaviy adabiyotning mifopoetikaga qayta-qayta murojaat qilishi faqat antik va yangi davr adabiyoti sintezi emas, balki mifologik appersepsiyadir. Mifologik appersepsiya: "Mifni yaratgan qadimiy insonning ongida yuz bergan voqealikning hozirgi zamon shoiri va poetik taassurotlarga oshiq har bir insonning, u sher yozmasa ham, ongida kechayotgan holat bilan bir xil yoki o'xshash"[4] jarayondir. Mifologik obrazni transformatsiyalashda shoir uning barchaga tanish jihatlarini boshchilikga olib, shu asosda obrazga yangi xususiyatlarni singdirishni yoki azaldan bor bo'lgan, ammo payqalmagan xislatlarini tasvirlashni maqsad qiladi. "Muallifning obrazga bo'lgan arxitektonik muayyan va dinamik jonli yondashuvi umumiy prinsipial hamda individual o'ziga xosligida namoyon bo'ladi. Ya'ni muallif o'z qahramonining har bir detaliga, tashqi qiyofasiga, u bilan bog'liq voqelikka, har bir xatti-harakatiga, shuningdek, fikr-kechinmalariga faol munosabat bildirib

[1] Мифы народов мира. Энциклопедия. – Москва: Советская энциклопедия. 2008. – С. 746.
[2] Манделштам О. Золотистого меда струя из бутылки текла... из Tristia. – Берлин: ПЕТРОПОЛИС, 1922; Paund E. "The Cantos" from A draft of XVI cantos. – Paris: Three mountains press. 1925.
[3] Юсупов И. Мәнги булақ. Таңлаўлы шығармаларының еки томлығы. II том. – Нөкис: Қарақалпақстан. 1992; Ибрагимов С. Ҳәр Одиссейдиң жолында Цирцеясы болсын. Брно дәптери. – Нөкис: Билим. 2021.
[4] Веселовский А.Н. Определение поэзии // А.Н. Веселовский. Избранное: Историческая поэтика. – М: РОССПЭН. 2006. – С. 81-170.

boradi”[1]. XX asrga kelib mifologik obrazga bo‘lgan munosabat va qarashlar o‘zgarishi natijasida ularning arxetipik asl xususiyatlari yo‘qoldi. Bu hodisa individual-mualliflik mifologiya, ayniqsa, undan keyingi davrga taluqli. “Individual-mualliflik mifologiyasi qadimgi miflarning tarixiy va milliy rang-barangligini “erkin qayta ishlash”da namoyon bo‘ldi, bunda o‘tmish mifologiyasi yozuvchilarning shaxsiy maqsadlari hamda individual talqin vazifalariga bo‘ysundirildi”[2]. Yangi davr adabiyotida shoirlar mifologik obrazning genetik jihatlarini davr muammolariga mos ravishda yangilabgina qolmay, uni ekzistensial xarakter hamda milliy arxetiplar bilan sintezladi.

Mazkur tadqiqotning metodologik asosi adabiyotshunoslikning zamonaviy qiyosiy-tarixiy, tipologik, mifopoetik hamda psixoanalitik yondashuvlariga tayanadi. Antik obrazning XX–XXI asrlar lirikasidagi transformatsiyasini ochib berishda kompleks va tizimli tahlil tamoyillaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida V.Bryusov, K.Kavafis, I.Brodskiy va S.Ibragimov she’riyatidagi Odissey obrazining talqinlari o‘rtasidagi umumiy va o‘ziga xos tipologik jihatlarni aniqlash, mualliflik intertekstual aloqadorligini ochib berishda qiyosiy-tipologik metod, antik mifologik syujet va obrazlarning zamonaviy lirik matnlar tarkibiga singish mexanizmlarini, arxetipik strukturalarning evolyutsiyasini hamda ularning badiiy-estetik vazifasini tadqiq etishda mitopoetik metod, lirik matn tagmatnini (podtekst), falsafiy-estetik qatlamlarini va mualliflik intensionalligini anglash, shuningdek, “nostalgiya”, “xronotop”, “ekzistensial tanlov” kabi tushunchalarning badiiy talqinini ochishda germenevtik tahlil asosiy vosita bo‘ldi. Metodologik asosni shakllantirishda A.N.Veselovskiy, M.Baxtin, E.M.Melitinskiy, L.A.Xodanen hamda zamonaviy adabiyotshunoslikning mifopoetika va adabiyot nazariyasiga oid ilmiy-nazariy konsepsiyalariga tayanildi.

Mifologik arxetiplarga ega obrazlarni yangicha talqinda transformatsiya qilishga simvolistlar birinchilardan bo‘lib qo‘l urdilar. “Simvolizmning adabiy-estetik asoslari XIX asrning 60-70-yillarida P.Verlen, A.Rembo, S.Mallarme kabi fransuz shoirlari ijodi bilan qo‘yilgan. Simvolistlar konkret-hissiy idrok doirasidan tashqarida turuvchi g‘oyalar, “o‘zi-o‘zidagi narsa”larni badiiy aks ettirishga intiladilar”[3]. Rus simvolistlaridan biri V.Bryusov o‘zining “Odissey Kalipsoda” sherida endi Odisseyni epik botir emas, balki ilohiy vasvasalarga qarshi turuvchi, insoniylik va vatan tuyg‘usini qayta baholovchi falsafiy subyekt sifatida konseptualizatsiyalangan. Sher mifologik vaqtning chiziqli emas, aksincha abadiy takrorlanuvchi cikllik vaqt ekanini bildirish bilan boshlanadi. Odisseyning Kalipso orolida asirga tushishi fizik emas, metafizik ciklizmga (unuttirish makoniga) aylanadi. Kalipso unga inson zotiga berilmaydigan go‘zallik va abadiylikni taklif qiladi, biroq Odissey uchun Kalipsoning oroli jannat emas, balki o‘zlikdan va Itakadan mahrum etuvchi tuzoq kabi seziladi. Shu bois u abadiy hayotni emas, azobli yo‘l bilan vatanga qaytishni avzal ko‘radi. Sherdagi eng asosiy metaforik misralar quyidagicha:

“Дрожью медленной истомы,
В сталактитовой пещере
Молит нимфа Калипсо.
Запад пурпуром закрыт”[4].

Ikkinchi misradagi “сталактитовая пещера” iborasi ilohiy unuttirish, tashqi dunyodan ajratilgan psixologik izolyatsiyaning simvoli bo‘lsa, “запад пурпуром закрыт” – vaqt to‘xtashini, Odisseyning Oligiya orolida metafizik tuynukga tushganini anglatadi. Shoir mabudlarning uzoq yillik qarg‘ishi va darbadarlikka yangicha mano berib, uni mangu tutqinlik vaqti va o‘zlikdan judo etuvchi kuchga qiyoslaydi. Bu girdobning abadiyligi va qahramonning vatanga qaytish istagi ekzistensial qarama-qarshilikni keltirib chiqargan.

Simvolizm va akmeizm vakillari ijodida boshlangan ekzistensial tasvir modernistlar ijodida butunlay ekzistensial, absurd tus oldi. Yunon shoiri, G‘arb modernizmining yirik vakili K.Kavafis “Ikkinchi Odissey” sherida Gomer kanonini dekonstruksiyaladi. U qahramonlik, vatanga qaytish motivlarini rad etdi. Sherda Itaka Odissey uchun so‘ngi baxt makoni emas, aksincha ekzistensial qafasga aylanadi. K.Kavafis mifologik matnni Gomerdan uzoqlashtirdi. Shoir eposdagi sayoxat motivini olib, Odisseyni – insonning o‘zidan, vatanidan va muhabbatidan metafizik qochish, begonalashish darajasiga olib chiqdi. Masalan:

“Был мал отцовский дом,
был мал отцовский город,
и вся Итака маленькой была”[5].

Itaka aslida geografik jihatdan katta. Biroq, Odisseyning ichki dunyosi, ruhi uchun Itaka torlik qiladi, u xalq, Penelopa va Telemakga begonalashib ketadi. Penelopaning vafodorligi, Telemakning mehri dastavval olov bo‘lib yonsa da, tez orada so‘nadi. Odamga berilgan oddiy insoniylik baxt Odissey uchun

[1] Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. – Москва: Искусства. 1986. – С. 9.
[2] Ходанен Л.А. Миф в творчестве русских романтиков. дисс. на. соис. ученой степ. док. филол. наук. автореферат. – Томск, 2000. – С. 18.
[3] Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиев М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр. 2013. – С. 277.
[4] Брюсов В. Одиссей у Калипсо из https://онлайн-читать.рф
[5] Кавафис К. Вторая Одиссея из https://stixi.ru

og‘ir yukdek tuyuladi. U Axey dengizidan G‘arbga, Gesperiyaga shoshiladi. G‘arb – mavhum va tavakkalchilik simvolı. Sher yakunida:

“А по ночам его тревожили во сне,
виденья Гесперии.
Авантюриста сердце
торжествовало хладно, освободившись от любви”[1].

Oxirgi ikki misra K.Kavafisning eng sovuq, lekin eng teran ekzistensial tavsifidir. Odissey uchun muhabbat erkinlikni cheklaydigan zanjir. U muhabbatdan ozot bo‘lgandagina qaytadan tug‘iladi, o‘zini topadi. Sherda kanonik qadiriyatlar – otaga hurmat, farzandga muruvat, vatanparvarlik Odisseyning ichki erkinligini bo‘g‘ayotgan zanjirga dekonstruksiyalangan. U ichki o‘zligini topish uchun bolalik, yoshlik davridagi barcha xotiralari va xalqidan voz kechadi. K.Kavafisda Odissey Gomercha vatan farzandi emas, balki mangu mavhumlikga intilgan metafizik avantyurist: “tavakkalchilikka, havfli sayoxatlarni izlashga moyil, o‘z prinsipi yo‘q odam”[2]. Shoirning Odisseyi ongli ravishda azop va qiyinchilikka talpingan, M.Baxtin nazariyasi bo‘yincha: “avantyurik – yot ellardagi sinovlar vaqti hamda kuchli kulfatlarga tushish – misterik vaqtga”[3] tushib qolgan, unda harakatlanuvchi absurd obraz.

Rus-amerika shoiri I.Brodskiyning “Odisseydan Telemakka” sheri Odissey-Telemak mifologiyasini, xotira, makon va zamon birligini postmodernistik va ekzistensial dekonstruksiyalashning yetuk namunasi. Unda Odissey mifologiyadagi Itaka hukmdori emas, balki vaqt va dengiz o‘zligi va xotirasini yuvib ketgan absurd obrazdir. Masalan:

“Мой Телемак,
Троянская война окончена.
Кто победил – не помню.
как будто Посейдон, пока мы там
теряли время, растянул пространство”[4].

Odissey o‘zi qatnashgan urushda kim g‘olib bo‘lganini, urush yakunini eslay olmaydi. Shoir Odisseyning Poseydon bilan konfliktini modernistik xarakterda tasvirlaydi. Gomer dostonida Odissey urushda yengandan so‘ng Poseydonning yordamini unutib, uni mensimay ketadi, natijada o‘n yildan ziyod vaqt mobaynida darbadarlikda yurib, bazo‘r yurtiga qaytadi. I.Brodskiy ushın esa Poseydon mabud emas, zamon va makonning destruktiv mexanizmi. Vaqt cho‘zilgani sari geografik masofa ham suniy ravishda cho‘zilib boradi hamda Itakaga qaytish yo‘lini antologik tuynukga aylantiradi. Sherda Poseydon Odisseyni faqat darbadarlikka mahkum qilib emas, uning xotirasi va madaniy kodlarini o‘chirib tashlab qasos oladi. Bu Odissey uchun o‘n yillik surgundan ming barobar og‘ir. Lekin, I.Brodskiy bu bilan cheklanmaydi, shoirning eng katta poetik dekonstruksiyasi – Itaka va mifologik obyektlarning demifologizatsiyasidir. Gomer dostonida ilohiy xisoblangan Sirseya, Kalipsolarning oroli va Itaka anonimga, oddiy illyustratsiyaga aylanib qolgan. Masalan:

“Мне неизвестно, где я нахожусь,
что предо мной. Какой-то грязный остров,
трава да камни... Милый Телемак,
все острова похожи друг на друга”[5].

Mif o‘zining antik mifologik pafosidan ayrilib, oddiy hayotiy materiyaga evriladi. Shoirning eng absurd konsepsiyasi “unutish” bo‘ldi. Sher ongli ravishda amneziya formulasi ila boshlangan. Shoirning bunday transformatsiyalari modernizmning klassik adabiyot va kanonik-epos asarlarga qarshi turish prinsipi bilan monand. Sherdagi vaqt dengizi odamning xotirasini yeb, to‘zdiradi va insonni dunyodan begonalashtiradi. I.Brodskiy uchun Odissey – xotirasi, o‘zligi va tani yo‘q qilingan postmodernistik subyekt.

Qoraqalpoq sheriyatida ham 1980-yillarga kelib modernizm belgilari, G‘arb modernistik adabiyoti tasiri aks eta boshladi. Shoir S.Ibragimov ijodi shu qatorda. Shoir “Hár Odisseydiń jolında Circeyası bolsın” sherida Odissey, Sirena va Sirseya obrazini falsafiy-estetik hamda ekzistensial aspektda dekonstruksiyalaydi. U Evropa modernizmi tajribasi (O.Mandelshtam, K.Kavafis, I.Brodskiy) va milliy poetik ildizlarni ustalik bilan transformatsiya qilgan. Sherda birinshi ko‘zga tashlanadigan konsept – yo‘l antologiyasi. Unda Itaka – so‘ngi maqsad, lekin unga olib boruvchi yo‘l azoblar, vasvasa va sinoqdan iborat. Odissey uchun omon qolish – oddiy jon saqlash emas, balki aql va xotiraning saqlanishidir. Asosiy konflikt vatanga qaytish yo‘lida sirli oroldan o‘tish bilan boshlanadi. Odissey va uning hamrohlari uchun eng katta havf Sirenalardir. Ularning sehrli ovozi va erotik makri dengizchilarni fiziologik lazzatga botirib, maqsadidan, Itakadan qaytarguvchi metafizik unuttirishdir. Shoir Sirenalarning tashqi go‘zalligi ortidagi naturalistik kulfatni ochiq bayon qiladi (“Pánjeleri menen párshe-párshelep, paqırlardıń tal-tal góshlerin jeydi”). Sherdagi ko‘r va kar kemalar – tashqi kulfatdan, arzon nafsidan va sehrli tovushdan o‘zini ozot etgan aql bilan erkning g‘alabasi hisoblanadi. S.Ibragimovning eng asosiy dekonstruksiyası Sirseya obrazidir. Dunyo haf-hatarga to‘la makon,

[1] Кавафис К. Вторая Одиссея из https://stixi.ru
[2] Толковый словарь русского языка. Том I. – Москва: Советская энциклопедия. 1935. – С. 7.
[3] Литературная энциклопедия терминов и понятий. – Москва: НПК Интелвак. 2001. – С. 1174.
[4] Бродский И. Одиссей Телемаку из https://slova.org.ru
[5] Бродский И. Одиссей Телемаку из https://slova.org.ru

Sirseya esa shu dunyodagi yolg‘iz do‘st va maslahatchi sifatida tasvirlanadi:

“Odisseyge bul atawdıń xabarın,
sıyqır máliykası Circeya ayttı:
“Sulıwlıqqa janı qushtar jigitseń,
sadaǵası ketsin ol sulıwlardıń”[1].

Gomer dostonida Sirseya avval odamlarni arislon, chochqa, maymun va boshqa hayvonlarga aylantiruvchi yovuz sehrgar, Odisseydan yengilgandan so‘ng esa uning yordamchisi va do‘stiga aylanadi. Shoir Sirseyaning Odisseyga Sirenalar orolidan o‘tishga yordam berish voqeasini sherning asosiy syujeti etib olgan. Sirseyasiz Odissey Sirenalarga yem bo‘lib, Itakaga qayta olmas edi. U Odisseyning xotirasi, muhabbati va vatanga qaytish armonlarini saqlab qoladi. Shoir bu yerda faqat Gomer dostonidagi Sirseya arxetipiga tayanib qolmaydi, bunda qoraqalpoq qahramonlik eposlaridagi arxetipik motivning tasiri bor. Qoraqalpoq qahramonlik dostonlarida ayollar botirning maslahatchisi, aqlli yordamchisi hisoblanadi. S.Ibragimovning ulkan epik dostondan, aynan, Sirseya bilan Odissey ittifoqini sherga asos etib olishida qoraqalpoq folkloridagi arxetipik motiv sabab bo‘lgan. Shunday qilib, shoirning individual yondashuvi natijasida Odissey mifi qoraqalpoq poeziyasida falsafiy-estetik cho‘qqiga ko‘tarildi. S.Ibragimov o‘zigacha bo‘lgan shoirlar (V.Bryusov, O.Mandelshtam, K.Kavafis, I.Brodskiy) kabi sehr-jodu va aql dialektikasini ilgari surgan. Sirenalar – insonni avraydigan nafs va unuttirish mahluqi bo‘lsa, Odisseyning o‘zini machtaga bog‘lab qo‘yishi – intellekt va erkning tanlovidir. Bularning hammasi Odisseyning uyga qaytish konseptiga yangicha mano bergan.

Xulosa qilib aytganda, Odissey obrazi yangi davr adabiyotida o‘zining antik adabiyotdagi qahramonlik pafosi, arxetipi va motivlaridan ayrilishi obrazning poetik salmog‘ini tushirmadi, aksincha yuqorilatdi va yangi bosqichga olib chiqdi. Odissey har xil davr, adabiy oqim bilan prinsiplar asosida faqat adabiyot emas, balki inson jamiyati, inson ongining rivojnanishi hamda degredatsiyaviy evolyutsiyasini tasvirlashga xizmat qilishi bilan yuqori baholanadi.

Rezyume. Maqolada antik davr badiiy-falsafiy tafakkurining universal arxetipik tuzilmalaridan biri bo‘lgan Odissey obrazining XX-XXI asrlar lirikasidagi badiiy-estetik trasformatsiyasi, mifopoetik evolyutsiyasi va diskursiv xususiyatlari qiyosiy-tipologik hamda nazariy-analitik aspektda tadqiq etiladi. Tadqiqot jarayonida dunyo adabiyotidan V.Bryusov, K.Kavafis, I.Brodskiy va qoraqalpoq shoiri S.Ibragimovning ijodidagi “nostalgiya”, “vatanga qaytish”, “xronotop”, “avantyurizm” hamda “aql, erk va taqdir antinomiyasi” kabi universal motivlarning lirik talqini ochib beriladi. Mifologik obrazning epos chegarasidan chiqib, zamonaviy intellektual lirikada ekzistensial yolg‘izlik simvoli, avantyurist, absurd va qaytadan vatanga qaytish arxetipik modeli sifatida qo‘llanilish mexanizmlari nazariy asosda tahlil qilingan.

Resume. The article examines the artistic-aesthetic transformation, mythopoetic evolution, and discursive features of the image of Odysseus one of the universal archetypal structures of ancient artistic and philosophical thought in the lyrics of the 20th–21st centuries, approached from comparative-typological and theoretical-analytical perspectives. The study reveals the lyrical interpretation of universal motifs such as “nostalgia”, “return to the homeland”, “chronotope”, “adventurism”, and the “antinomy of reason, freedom, and destiny” in the works of V.Bryusov, C.Cavafy, I.Brodsky, and karakalpak poet S.Ibragimov. The theoretical framework analyzes the mechanisms by which this mythological image transcends the boundaries of the epic to be employed in modern intellectual lyric poetry as a symbol of existential loneliness, an adventurer, the absurd, and an archetypal model of returning to the homeland.

Резюме. В статье в сравнительно-типологическом и теоретико-аналитическом аспектах исследуются художественно-эстетическая трансформация, мифопоэтическая эволюция и дискурсивные особенности образа Одиссея – одной из универсальных архетипических структур античного художественно-философского мышления – в лирике XX–XXI веков. В процессе исследования раскрывается лирическая интерпретация таких универсальных мотивов, как «ностальгия», «возвращение на родину», «хронотоп», «авантюризм», а также «антиномия разума, свободы и судьбы» в творчестве В.Брюсова, К.Кавафиса, И.Бродского и каракалпакского поэта С.Ибрагимова. На теоретической основе проанализированы механизмы использования мифологического образа вне рамок эпоса – как символа экзистенциального одиночества, авантюриста, абсурда и архетипической модели возвращения на родину в современной интеллектуальной лирике.

[1] Ибрагимов С. Брно дәптери. – Нөкис: Билим. 2021. – С. 52

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 9
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ARAB TILIDA TALABALARNING YOZUV MALAKASINI RIVOJLANTIRISHDA O'YIN TEXNOLOGIYALARINING TATBIQI

Radjabova Muxtasar Davranbekovna,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi

Arab tilida yozma nutqni shakllantirish murakkab kognitiv va lingvistik jarayonlardan biridir. Bu murakkablik arab alifbosining grafematik xususiyatlari, harakatlar orqali ma'noning o'zgarishi va so'z shakllanish tizimining keng paradigmalariga bog'liq. An'anaviy yodlashga asoslangan metodlar talabalarning mustaqil fikrlash va matn yaratish ko'nikmalarini to'liq rivojlantira olmaydi. Shuning uchun o'yin texnologiyalariga asoslangan interaktiv mashg'ulotlar talabalarni yozma nutq jarayoniga faol, ongli va ijodiy jalb etishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Ko'pgina tadqiqotlarda arab tilini chet tili sifatida o'qitish jarayonida talabalarning tilga qiziqishini oshirish uchun yangi texnologiyalardan foydalanish zarurligi ta'kidlanadi. Xususan, arabshunos olimlar Al- Bulushiy va Al-Issa arab tilini o'rganishning dastlabki bosqichida dars jarayoniga o'yinlarni integratsiya qilish alohida ahamiyatga ega ekanligini va u talabalarni arab tilini o'rganishga motivatsiyasini oshirishini qayd etadilar.[1]

Darhaqiqat, talabalarning arab tilini o'rganish jarayonidagi qiyinchiliklarni yengib o'tishlarida o'yin texnologiyasi alohida ahamiyatga ega. Avvalambor o'yin texnologiyasini dars jarayoniga tatbiq etish talabalarning arab tili faniga qiziqishini oshiradi, ularni darsda faol ishtirok etishga undaydi hamda murakkab materiallarni osonroq o'zlashtirish imkonini beradi.

Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson eshitgan ma'lumotlarning qariyb 40% ni, ko'rgan ma'lumotlarning esa 50% ni faol o'zlashtiradi. Bir vaqtning o'zida ko'rish va eshitish jarayonlari amalga oshirilganda, ma'lumotlarning 70-75% xotirada saqlanadi. Agar shaxs ma'lum bir faoliyatni mustaqil amalga oshirsa, bu ma'lumotlarning 92% ni esda saqlash ehtimoli katta.[2] I.V. Ignatkinaning ta'kidlashicha, o'yin jarayonida inson ma'lumotlarni ongsiz ravishda xotirada saqlab qoladi.[3] O'yinning bu xususiyatlari ta'limning har qanday bosqichida o'quv jarayonini tashkil etishda o'yin texnologiyalaridan foydalanishni asoslaydi.

O'yin texnologiyasi pedagogik texnologiyalarning ajralmas qismi bo'lib, o'qitishning interaktiv shakllaridan biri hisoblanadi. Bu texnologiya ta'lim oluvchiga bilimlarni yangi vaziyatda qo'llashga yordam beradi hamda o'qituvchi tomonidan belgilangan ta'lim maqsdlarini tushungan holda ularni amalga oshirishda faol ishtirokchiga aylanadi. [4]

Ko'pgina tadqiqotchilar ta'lim jarayonida o'yin faoliyatining ta'limiy, tarbiyaviy, qiziqarli, kommunikativ, tuzatuvchi va rivojlantiruvchi, psixologik, diagnostik, relaksion(dam oldiruvchi) kabi funksiyalarini ajratib ko'rsatadilar.[5] Ushbu funksiyalarning mohiyati shundaki, o'yin texnologiyalari nafaqat o'yin-kulgi va dam olish imkoniyatlari sifatida, balki ta'lim jarayonida keng qamrovli ahamiyatga ega. Shu boisdan, o'yin texnologiyalarining ahamiyatini faqatgina hordiq chiqarish bilan cheklab bo'lmaydi, balki ularning ta'limiy jarayonga qo'shadigan hissasini ham yuqori baholash lozim.

K.D.Ushinskiy o'yinning didaktik ahamiyati haqida shunday fikr yuritadi: o'quv jarayonida zamonaviy o'yin texnologiyasi keng qo'llanilib, odatda u o'quv faoliyatini yanada qiziqarli va amaliy qiladigan yordamchi vosita rolini o'ynaydi.[6]

[1] Sultan A. Almelhes.Gamification for teaching the Arabic language to non-native speakers:a systematic literature review.Frontiers in Education. 2024. 1-11

[2] Варенина Л.П. Технология игры // Актуальные проблемы государственных и естественных наук. – 2015. – №1. – С.66-68

[3] Игнаткина И. В. Игровые технологии в обучении иностранным языкам// Альманах современной науки и образования. – 2009. – №8-1 – С.54-55.

[4] https://publications.hse.ru/pubs/share/folder/anzrv0jud4/162894117.doc

[5] https://publications.hse.ru/pubs/share/folder/anzrv0jud4/162894117.doc

[6] М.И. Полетаева. Личностно-ориентированный подход к работе с вузовским учебником иностранного языка(начальный этап обучения).диссер.канд.н.Москва-2015

Chet tilini o‘qitish jarayonida didaktik o‘yinlar faol ta’limning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Shu turdagi o‘yinlar talabalarning til ko‘nikmalarini amaliy faoliyat asosida samarali rivojlantirishga xizmat qiladi hamda o‘quv materiallarini yanada chuqurroq o‘zlashtirishlariga yordam beradi. Pedagogika va lingvodidaktika nuqtayi nazaridan, ta’limiy o‘yinlarning oddiy o‘yinlardan asosiy farqi shundaki, ular aniq ta’limiy maqsadga qaratilgan bo‘lib, talabalarning zaruriy ko‘nikma va malakalarini mustahkamlashga yo‘naltirilgandir. Bu jarayonda o‘yinlarning talabalar bilim darajasiga mos kelishi va belgilangan o‘quv maqsadlariga muvofiq bo‘lishi alohida ahamiyat kasb etadi. Biroq barcha didaktik o‘yinlar ham oliy o‘quv yurtida arab tilini boshlang‘ich bosqichda yozuv malakasini shakllantirish jarayoniga tatbiq etishga to‘g‘ri kelavermaydi. Shu sababli, o‘yinlar quyidagi talablarga javob berishi kerak:

1. *Intensivlik*. O‘yinlar talabalarga qisqa vaqt ichida ko‘p miqdorda yangi materialni o‘rganish imkoniyatini berishi, ularning o‘rganish jarayonini tezlashtirishi zarur.

2. *Sodda va tushunarli bo‘lishi*. O‘yinlar oddiy va tushunarli bo‘lishi, talabalar tomonidan tezda tushunilishi va amaliyotda qo‘llanilishi mumkin bo‘lishi zarur.

3. *Grammatika va yozuv integratsiyasi*. Arab tili grammatikasi yozuv malakasining shakllanish jarayonida katta ahamiyatga ega, shuning uchun o‘yinlar grammatik qoidalarni amaliyot bilan mustahkamlash imkoniyatini berishi kerak.

4. *Nutq ko‘nikmalarining integratsiyasi*. O‘yinlar yozuv malakasini boshqa nutq ko‘nikmalari (tinglab tushunish, o‘qish, gapirish) bilan birgalikda rivojlantirishi kerak. Bu o‘yinlar orqali talabalar yozuvni o‘rganish bilan bir qatorda talaffuzni yaxshilashi va so‘z boyligini kengaytirishi mumkin.

5. *Qiziqarli va interaktiv*. O‘yinlar talabalar uchun qiziqarli bo‘lishi va ularni faol ishtirok etishga jalb qilishi kerak. Interaktiv o‘yinlar talabalar o‘rtasida muloqotni rag‘batlantiradi va erkin yozma fikr bildirishga imkon beradi.

6. *Ijodkorlikni rivojlantiruvchi*. Yozuv jarayonida o‘yinlar talabalarning ijodkorligini rivojlantirishi kerak.

7. *O‘quv maqsadlariga muvofiqlik*. O‘yinlar ta’lim dasturi va o‘quv maqsadlariga mos kelishi zarur.

O’yinlar arab tilida yozuv malakasini rivojlantirish jarayonida nutq ko’nikmalarini amalda qo’llashni va til hodisalarini tizimli ravishda o’rganishni ta’minlaydi. Arab tilida talabalarning yozuv malakasini shakllantirishda til o‘qitishning boshlang‘ich bosqich kursidagi fonetik, orfografik, leksik va grammatik mavzularni o‘z ichiga olgan, ularni yozuv hamda yozma nutq janrlarida faol qo‘llashga qaratilgan didaktik o‘yinlardan foydalanish samarali natija beradi. Quyida o‘yinlardan namunalar keltirib o‘tamiz:

“Jumlani to‘ldir”

O‘yin maqsadi: talabalarning lug‘at zaxirasini to‘ldirish va grammatik bilimlarini mustahkamlash yordamida ularning yozuv malakalarini shakllantirish.

O‘yin qoidasi: O‘qituvchi doskaga sodda gap yozadi: “أرقي دلولا” (Bola o‘qiyapti).So‘ngra talabalar navbati bilan bu jumlani to‘ldira boshlaydilar. Masalan:

1. Birinchi talaba: “الولد يقرأ كتابًا” (Bola kitob o‘qiyapti).

2. Ikkinchi talaba: “الولد يقرأ كتابًا كبيرًا” (Bola katta kitob o‘qiyapti).

3. Uchinchi talaba: “الولد يقرأ كتابًا كبيرًا في المكتبة” (Bola kutubxonada katta kitob o‘qiyapti).

4. To‘rtinchi talaba: “الولد يقرأ كتابًا كبيرًا في المكتبة مع أصدقائه” (Bola kutubxonada katta kitobni do‘stlari bilan o‘qiyapti).

Shu tarzda talabalar jumlani bosqichma-bosqich murakkablashtirib, o‘z bilimlarini namoyon qiladilar. Jumlaga oxirgi qo‘shimcha qilgan talaba g‘olib bo‘ladi. Bu o‘yin yordamida talabalar nafaqat arab tilidagi grammatik qoidalar va lug‘atni mustahkamlaydilar, balki ularni to‘g‘ri qo‘llashni ham o‘rganadilar.

“Fikrlar ketma-ketligi”

O‘yin maqsadi: talabalarni g‘oyalarni mantiqiy bog‘lashga o‘rgatish yordamida ularda asta sekin arab tilida tanish mavzularda insho yozish ko‘nikmalarini shakllantirish.

O‘yin qoidasi: O‘qituvchi mavzuga oida so‘zlar, iboralar yoki jumlalar yozilgan kartochkalarni tayyorlaydi. Har bir kartochka insho uchun muhim bo‘lgan elementni o‘z ichiga olishi kerak. Jumladan, kirish qismi uchun so‘z va iboralar, asosiy qism uchun dalillar va xulosa qismi uchun xulosaviy so‘zlar. O‘qituvchu talabalarni guruhlarga ajratadi va har bir guruhga kartochkalarni taqdim etadi. Har bir guruh kartochkadagi ibora va jumlalardan foydalanib, berilgan mavzuda bog‘langan insho yozadilar. So‘ngra har bir guruh o‘z inshosini taqdim etadi. Talabalar o‘zaro taqdim etilgan inshoni muhokama qiladilar. O‘qituvchi guruhlarni baholash jarayonida orfografik va grammatik xatolar bilan bir qatorda inshoning tuzilishi, mantiqiyligi, so‘z va iboralardan qanday foydalanilganiga alohida ahamiyat beradi. Bu o‘yin talabalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirib, arab tilida matn yoki insho yozish ko‘nikmalarini egallashlariga yordam beradi.

O‘yin texnologiyalarining qo‘llanilishi arab tili yozma nutqiy kompetensiyasining rivojlanishiga uch asosiy yo‘nalishda ta’sir ko‘rsatadi:

1. Motivatsion ta’sir: o‘yin jarayoni talabalarni faol

fikrlash va yozma jarayonga qiziqish bilan yondashishga undaydi.[1]

2. Komunikativ ta'sir: o'yin orqali fikr almashuvi va muhokama yozma nutqning muloqotga yo'naltirilganligini kuchaytiradi.[2]

3. Kognitiv ta'sir: o'yinlar lingvistik birliklarni kontekstda qo'llashni osonlashtiradi va ularni amaliy nutq jarayoniga integratsiya qiladi.[3]

Ushbu natijalar o'yin texnologiyalarining ta'lim jarayonida samarali bo'lishini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, arab tilida yozma nutq janrlarini shakllantirish jarayoniga o'yin texnologiyalarini kiritish talabalarning yozma savodxonligi, ijodiy fikrlashi va muloqot kompetensiyasini sezilarli darajada rivojlantiradi. O'yin texnologiyalaridan muntazam va tizimli foydalanish arab tilini o'rgatishning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan arab tili talabalarga ta'lim jarayonida interfaol o'yin metodlarini o'rinli qo'llash tavsiya etiladi.

Rezyume. Ushbu maqolada arab tilida yozma nutq janrlarini shakllantirish jarayonida o'yin texnologiyalaridan foydalanishning nazariy asoslari tahlil qilinadi. Arab tili yozma nutqining fonetik-morfologik murakkabligi izchil va ongli yondashuvni talab qilishi ta'kidlanadi. Shuningdek, o'yin texnologiyalari talabalarni dars jarayoniga faol jalb qilish, matn yaratishda kreativ fikrlash va muloqot kompetensiyasini rivojlantirish vositasi sifatida tavsiflanadi.

Resume. In this article, the theoretical foundations of using game-based technologies in the process of forming written speech genres in the Arabic language are analyzed. It is noted that the phonetic and morphological complexity of Arabic written speech requires a consistent and conscious approach from students. In addition, game-based technologies are considered as a means of actively engaging students in the learning process, developing creative thinking in text construction, and forming communicative competence.

Резюме. В данной статье анализируются теоретические основы использования игровых технологий в процессе формирования жанров письменной речи на арабском языке. Отмечается, что фонетико-морфологическая сложность арабской письменной речи требует последовательного и осознанного подхода. Кроме того, игровые технологии рассматриваются как средство активного вовлечения студентов в учебный процесс, развития креативного мышления при построении текста и формирования коммуникативной компетенции.

[1] Г альскова Н.Д., Гез Н.И. Теория обучения иностранным языкам. – Москва: Академия, 2006. 384 с

[2] Вербицкий А.А. Активное обучение в высшей школе: контекстный подход. – Москва: Логос, 2010. – 256 с.

[3] Prensky, M. Digital Game-Based Learning. – McGraw-Hill, 2001. – 224 p.